

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**M. Mirsaidov**

**XALQARO IQTISODIY  
MUNOSABATLAR**

**O'quv qo'llanma**

**Toshkent,  
«IQTISOD-MOLIYA»  
2006**

**M.S. Mirsaidov. “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar”. O’quv qo’llanma-T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2006, 304 bet.**

Ushbu o’quv qo’llanmasida xalqaro iqtisodiy munosabatlarning hozirgi zamondagi roli va mohiyati, tashkiliy-huquqiy asoslari, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish usullari, xalqaro savdo va jahon narxlari, xalqaro valyuta tizimi, kapitalning xalqaro aylanishi va ssuda bozorlari, O’zbekistonda chet el investitsiyalari, O’zbekiston xalqaro migratsiya jarayoni tizimida, hozirgi zamon xalqaro iqtisodiy munosabatlarda transmilliy korporatsiyalar, O’zbekistonda TMKlar faoliyati, xalqaro hududiy–iqtisodiy in-tegratsiya va boshqa iqtisodiy masalalar keng yoritilgan.

Shuningdek, kitobda xalqaro iqtisodiy munosabatlarga taal-luqli statistik ma’lumotlar, jadvallar, grafiklardan keng foydalanilgan. «Xalqaro iqtisodiy munosabatlar» kitobi oliy o’quv yurtlarining iqtisodiyot va huquqshunoslik mutaxassisliklari bo’yicha tahsil olayotgan talabalar uchun o’quv qo’llanma bo’lib xizmat qiladi.

Mazkur qo’llanma Toshkent Moliya instituti qoshidagi Oliy o’quv yurtlararo ilmiy-uslubiy kengashning 2004 yil 15 dekabrda 3-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir dots. B. Mahmudov

Taqrizchilar: i.f.d., prof. Yo. Abdullaev,  
i.f.d., prof. G. Nazarova,  
i.f.d., prof. M. Hakimova

ISBN – 978 – 9943 – 13 – 007 – 4

© “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti, 2006

## SO'ZBOSHI

Hozirgi sharoitda jahon xo'jalik aloqalari tizimida globalla-shuv va integratsiyalashuv jarayonlarining jadallashuvi, mamlakatlar milliy iqtisodiyotlari o'zaro aloqalarining va o'zaro bog'liqliklarining kuchayishi zamonamizning eng muhim xususiyatlaridan biriga aylanmoqda. Globallashuv, ma'lumki, ishlab chiqarish, axborotlar almashinuvi, savdo, transport va boshqa xizmat ko'rsatish sohalaridagi mamlakatlararo aloqalarda namoyon bo'ladi. Bu jarayonlarda mustaqil O'zbekiston ham faol ishtirok etmoqda. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va isloh etish, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jalb etish va xorijiy sarmoyalarga qulay investitsion muhit yaratish, mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari bilan chet el firmalari o'rtasidagi uzoq muddatli barqaror sheriklik munosabatlarini shakllantirish O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tashqi iqtisodiy siyosatning mohiyatini tashkil etadi.

Bu sohada yagona davlat siyosati yuritilishi O'zbekistonning xo-rijiy davlatlar, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va moliyaviy institutlar, boshqa xalqaro huquq sub'ektlari bilan o'zaro manfaatli asosda iqtisodiy va moliyaviy hamkorligini yanada rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bois, mamlakatimizda o'tkazayotgan iqtisodiy islohotlar O'zbekistonni qisqa muddatlarda jahon xo'jaligi tizimida o'z o'rniga ega bo'lishini va dunyoning barcha mamlakatlari bilan teng huquqli hamkorligini ta'minlashga qaratilgan. Bu-gungi kunda O'zbekiston xalqaro iqtisodiy munosabatlarning sub'ekti sifatida jahon xo'jaligi aloqalariga tobora keng jalb qilinmoqda, dunyoning o'nlab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari bilan mustahkam xalqaro iqtisodiy munosabatlarga kirishgan, uning tashqi savdo aylanmasi hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Iqtisodiyotimizning real sektoriga kirib kelayotgan to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalar salmog'i oshmoqda, o'nlab xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorligi kuchaymoqda. Ayniqsa, tashqi iqtisodiy faoliyatning turli sohalari bo'yicha mala-kali kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda.

Ushbu o'quv qo'llanmada xalqaro iqtisodiy munosabatlarning hozirgi zamondagi roli va mohiyati, tashkiliy-huquqiy asoslari, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish usullari, xalqaro valyuta tizimi, kapitalning xalqaro harakati va ssuda bozorlari, O'zbekistonda chet el investitsiyalarining samaradorligi, ishchi kuchlarining xalqaro migratsiyasi hozirgi zamon xalqaro iqtisodiy munosabatlarda transmilliy korporatsiyalarning ahamiyati va O'zbekistonda ularning

faoliyati, xalqaro iqtisodiy integra-tsiya va xalqaro iqtisodiyotning boshqa masalalari yoritilgan.

Shuningdek, qo'llanmada xalqaro iqtisodiy munosabatlarga taalluqli statistika ma'lumotlaridan, xorij va o'zbek tilidagi adabiyotlardan, iqtisodiy jurnallardan foydalanilgan.

«Xalqaro iqtisodiy munosabatlar» nomli o'quv qo'llanma oliy ta'limning «Biznes va boshqaruv» sohasi bakalavr ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, undan iqtisodiyot yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari o'quvchilari va boshqa qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

## **I bob. XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLARNING HOZIRGI ZAMONDAGI ROLI VA AHAMIYATI**

1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mohiyati, rivojlanish bosqichlari
2. O'zbekiston jahon xo'jaligi tizimida
3. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish tizimi
4. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati va uning amalga oshirilishi

## **1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mohiyati, rivojlanish bosqichlari**

Ma'lumki, har bir davlat boshqa davlatlar bilan mahsulot ayirboshlashni yo'lga qo'ymasdan turib, iqtisodiy faoliyat yurita olmaydi. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanishi xalqaro savdo munosabatlarini keltirib chiqardi. Ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etishi, bir tomondan, ishlab chiqarish hajmini kengayishga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mamlakatlararo xo'jalik aloqalarining yanada chuqurlashuviga imkon tug'dirdi. Bu, o'z navbatida, yoqilg'i, turli xildagi xom ashyolarga, mashina, asbob-uskunalarga bo'lgan talabni keskin oshirib, tashqi savdo-sotiqni rivojlantirish, mahsulotlar ayirboshlashni muhim ekanligini taqozo qiladi hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qatnashishni zaruriyatga aylantiradi.

Hozirgi sharoitda tashqi iqtisodiy munosabatlar yanada muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Fan-texnika taraqqiyoti iqtisodiyotdagi strukturaviy o'zgarishlar rivojlangan mamlakatlarda yangi tarmoqlar, ishlab chiqarishlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu esa ba'zi xom ashyo turlari, yoqilg'i-energetika mahsulotlari importini ko'payishiga, mahsulotlar sotish bozorlarini milliy chegaralardan ko'ra kengaytirishga olib keldi.

Umuman olganda, jahon ishlab chiqarishining va jahon savdosining asosiy o'sishi XX asrning II yarmiga to'g'ri keladi. Agarda 1900-1950 yillar ichida jahon yalpi ichki mahsuloti va savdo 3 martaga ko'paygan bo'lsa, keyingi o'n yilliklarda (1950-2000 yy.) jahon ishlab chiqarish va eksporti mos ravishda 6 va 11 martadan ko'proqqa oshdi (1-jadval).

**Jahon iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari**

(2000 yil narxlari va milliy valyutalarning xarid qobiliyati pariteti bo'yicha)

	1900 y.	1929 y.	1950 y.	1980 y.	2000 y.
Aholi soni, mln. kishi	1509,5	1975,0	2507,0	4400,0	6000,0
YaIM <sup>1</sup> , mlrd. dollar	2590,0	4995,0	7555,0	27105,0	46580,0
YaIM o'sishi, marta (1900y.=1)	1,0	1,9	2,9	10,5	18,0
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM o'sishi, marta (1900 y.=1)	1,7	2,5	3,0	6,2	7,8
Ekspart, mlrd. dollar	255,0	535,0	775,0	3995,0	9040,0
YaIMda eksport ulushi, %	9,7	10,5	10,0	14,5	19,0

Manba: Jurnal «Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya». 9, 2004.

Tashqi iqtisodiy omil rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodi-yotida muhim rol o'ynamoqda. Bu mamlakatlar jahon xo'jaligiga o'zlarining tabiiy resurslarini, arzon ishchi kuchlarini etkazib be-rish bilangina cheklanib qolmay, yangi texnologiyalarni o'zlashtirib, o'z xo'jaliklarini intensiv rivojlantirib boradilar.

**Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning** predmeti ikki muhim tarkibiy qismdan: xalqaro iqtisodiy munosabatlar va ularni amal-ga oshirish mexanizmidan iborat.

**Xalqaro iqtisodiy munosabatlar** jahon xo'jaligi tizimida tez-tez takrorlanib turuvchi har xil darajadagi kompleks, alohida olingan bir mamlakat va ularning hududiy birlashmalari va sub'-ektlari, alohida tashkilotlar (transmilliy, ko'p millatli korpo-ratsiyalar) o'rtasidagi aloqalarni o'z ichiga oladi.

**Xalqaro iqtisodiy munosabatlar mexanizmiga huquqiy nor-malar** va ularni amalga oshirish vositalari (shartnomalar, kelishuvlar, bitimlar, rezolyutsiya va konventsiya) xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan yo'l-yo'riqlarni amalga oshirishni muvo-fiqlashtiruvchi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar kiradi.

<sup>1</sup> YaIM – yalpi ichki mahsulot.

**XIM strukturasi** quyidagilarni o'rganishni taqozo qiladi:

1. Tovar va xizmatlarning xalqaro savdosi;
2. Kapital va chet el investitsiyalarining xalqaro harakati;
3. Ishchi kuchlarning xalqaro migratsiyasi;
4. Xalqaro valyuta-moliya munosabatlari;
5. Xalqaro iqtisodiy integratsiya.

**XIM ob'ektlariga** quyidagilar oid hisoblanadi:

- moddiy shakldagi tovarlar: xom ashyo va ishlab chiqarish tovarlari, tayyor buyumlar, sanoatda qayta ishlanadigan mahsulotlar, ma-shina, asbob-uskunalar, mahsulot;
- xizmatlar: xalqaro injiniring, konsalting, audit, lizing, turizm, tashish, hisob-kitoblar va boshqalar;
- texnologiyalar: patentli va patentsiz litsenziyalar, tovar bel-gilari;
- kapital: to'g'ridan-to'g'ri va portfelli chet el investitsiyalari, xalqaro kredit;
- ishchi kuchlari.

**XIM sub'ektlari** (kontragentlari) sifatida quyidagilar ishtirok etadi:

- xalqaro iqtisodiy va tashkilotlar;
- hukumat nomidan milliy davlatlar;
- investitsiya qurilishini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar;
- tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi davlat organlari va tashkilotlari;
- tadbirkorlar birlashmalari;
- xalqaro korporatsiyalar;
- firmalar.

XIMning ob'ektiv asosini xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo'jaligi tashkil qiladi. Lekin XIM jahon xo'jaligi vujudga kel-masidan avval ham mavjud bo'lgan. Hozirgi zamon jahon xo'jaligi milliy iqtisodiyotlar yig'indisidan iborat bo'lgan global iqtisodiy organizm bo'lib, bozor iqtisodiyotining ob'ektiv qonunlariga, xalqaro mehnat taqsimotiga, ishlab chiqarish va kapitalning xalqaro ahamiyatga ega bo'lish jarayoniga bo'ysunadi.

**Hozirgi zamon jahon xo'jaligining xususiyatlari:**

- globallasuv;
- rivojlanishning birligi va qarama-qarshiligi;
- raqobatning keskinlashuvi va ayni paytda global hamkorlik-ning rivojlanishi;



- ishlab chiqarish tarmoqlari dunyoning turli mamlakatlarida joylashtirilgan xalqaro ishlab chiqarish tizimi rivojlanishi va bu jarayon natijasida transmilliy korporatsiyalar roli(TMK) ning o'sib borishi;

- davlatlar tashqi iqtisodiy faoliyatlarini liberallasuvi;

- jahon xo'jaligida tashqi iqtisodiy hamkorlikning xalqaro huquqiy-me'yoriy bazasini barpo etilishi;

- mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning millatlararo tizimini tashkil qilinishi;

- aksariyat mamlakatlar milliy iqtisodiyotining yopiq tizimdan ochiq tizimga o'tish evolyutsiyasi (bunda YaIM ulushi 35% dan oshishi kerak).

Hozirgi zamon jahon iqtisodiyotini barqaror rivojlanishiga xos xususiyatlar:

- iqtisodiy o'sishning barqarorligi XX asrning 90-yillarida o'sish sur'ati 1-3% bo'ldi;

- iqtisodiy o'sishda tashqi iqtisodiy omilning ahamiyatini oshishi;

- moliya bozorlarini globallasuvi va milliy iqtisodiyotlar-ning o'zaro uzviy bog'liqligini kuchayishi;

- hududiy integratsiya jarayonlarining rivojlanishi.

Hozirgi paytda XIM shakllari bir muncha kengaygan. Ularning kengayishi, asosan, XX asrning 60-yillar boshidan 80-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan vaqt oralig'iga to'g'ri keladi. Shu bilan bir paytda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida tarkib topgan XIMning ayrim shakllari amal qilib kelayapti. Bu faoliyat tashqi savdo, chetga kapital chiqarish, valyuta munosabatlariga tegishlidir. Hozirgi sharoitda XIMning quyidagi asosiy shakllari vujudga keldi:

1. Xalqaro savdo
2. Xalqaro kredit munosabatlari
3. Xalqaro munosabatlar
4. Xalqaro kapital harakati
5. Xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasi
6. Xalqaro integratsiya
7. Transmilliy korporatsiyalar
8. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar
9. Xalqaro axborotlar almashinuvi

**XIMning intensivlik darajasini** bir necha miqdoriy indi-katorlar bilan tavsiflash mumkin:

1. Eksport kvotasining miqdori, bunda eksport hajmi YaMMga nisbatan foizda hisoblanadi.

2. Import kvotasining miqdori, bunda import hajmi YaMMga

nisbatan foizda hisoblanadi.

3. Tashqi savdo kvotasining miqdori, bunda tashqi savdo hajmi aylanma mablag'i YaMMga nisbatan foizda hisoblanadi.

XIM rivojlanish jarayonida bir necha bosqichni bosib o'tgan va ularni shartli ravishda quyidagicha ajratish mumkin:

- qadimgi dunyodan V asrgacha bo'lgan muddat.
- V asrdan XV-XVI asrlargacha – buyuk geografik kashfiyot davrigacha bo'lgan davr.
- XV asrdan – XVI asrgacha - sanoat to'ntarishi davrigacha.
- Sanoat to'ntarishi paytidan Birinchi Jahon urushining boshlanishigacha bo'lgan davr;
- XX asrning birinchi yarmi;
- XX asrning 60-yillaridan 90-yillarigacha;
- XX asrning 90-yillaridan XIM va jahon xo'jaligining hozirgi rivojlanish davri.

**Jahon iqtisodining 2003 yildagi asosiy ko'rsatkichlari (milliy valyutalarning xarid quvvati pariteti narxlariga bo'yicha)**

Mamlakatlar va mamlakatlar guruhlari	A holi mln. kishi	YaIM			Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM			Aholi daromadlarini YaIMdan umumiy %	Aholi daromadlari	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar	
		mlrd. doll.	Dunyodagi o'rni	YaIM ulushi %	doll	Dunyodagi o'rni	% o'rtacha dunyo bo'yicha			Doll.	Dunyoning o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan
Dunyo bo'yicha	6270	51655		100	8238		10	60	31070	4955	100
Rivojlangan mamlakatlar, shu jumladan:	873.6	26760		51.8	30633		372	63	16853.1	19292	389
AQSh	291.0	10870	1	21.0	37348		453	70	7609.0	26144	528
Yaponiya	12.2	3582.5	3	6.9	28162		13	342	2006.2	15771	318
Kanada	31.6	963.6	11	1.9	30463		7	370	539.6	17059	344
Avstraliya	19.9	579.7	16	1.1	29143		11	354	347.8	17486	353
Yangi Zelandiya	4.0	84.9	60	0.2	21177		24	257	50.9	12706	256
Isroil	6.7	128.2	52	0.2	19176		30	233	75.7	11314	228
Germaniya	82.6	2279.1	5	4.4	27609		15	335	1344.7	16289	329
Frantsiya	59.7	1632.1	6	3.1	27327		16	332	897.7	15030	303
Angliya	59.3	1606.9	7	3.1	27106		18	329	1060.5	17890	361
Italiya	57.6	1559.3	8	3.0	27050		19	328	935.6	16230	328
Ispaniya	41.1	915.1	13	1.8	22264		23	270	530.7	12913	261
Niderlandiya	16.2	476.9	18	0.9	29412		10	357	238.5	14706	397
Belgiya	10.3	293.8	27	0.6	28396		12	345	161.6	15618	315
Avstriya	8.1	241.5	33	0.5	29972		9	364	140.1	17384	351
Shveysariya	7.3	221.7	36	0.4	30189		8	366	168.5	22941	463
Shvetsiya	9.0	238.7	35	0.5	26656		20	324	117.0	13061	264
Daniya	5.4	170.4	42	0.3	31630		5	384	81.8	15183	306
Norvegiya	4.6	169.0	43	0.3	37063		3	450	113.2	24832	501
Finlyandiya	5.2	142.0	50	0.3	27252		17	331	72.4	13899	280
Islandiya	0.3	8.8	126	0.02	30657		6	372	5.3	18394	371
Irlandiya	3.9	145.2	48	0.3	36775		4	446	68.2	17284	349
Gretsiya	10.7	213.3	37	0.4	19973		27	242	142.9	13382	270
Portugaliya	10.2	188.0	41	0.4	18444		31	224	114.7	11251	227
Rivojlanayotgan mamlakatlar	4993.0	21648.4		41.9	4336		53	57	12300.6	2464	50
Braziliya	176.6	1371.7	9	2.7	7767		61	94	795.6	4505	91
Meksika	102.3	934.6	12	1.8	9136		57	111	654.2	6395	129
Argentina	38.4	444.6	22	0.9	11586		46	141	271.2	7067	143
Kolumbiya	44.4	301.2	26	0.6	6784		66	82	198.8	4477	90
Chili	15.8	161.0	45	0.3	10206		51	124	98.2	6226	126

Venesuela	25.5	125.4	53	0.2	4909	81	60	65	81.5	3191	64
Peru	27.1	143.0	49	0.3	5267	77	64	72	102.9	3792	77
Kuba	11.3	46.0	77	0.1	4071	89	49	70	32.2	2850	58
Jazoir	31.8	198.9	39	0.4	6248	72	76	44	87.5	2749	55
Marokash	30.1	120.8	54	0.2	4012	90	49	62	74.9	2487	50
Tunis	9.9	70.1	66	0.1	7083	65	86	63	44.2	4462	90
Liviya	5.6	65.0	68	0.1	11693	44	142	58	37.7	6782	137
Misr	67.6	266.8	30	0.5	3950	91	48	79	210.8	3120	63
Turkiya	70.7	477.3	17	0.9	6749	68	82	71	338.9	47.92	97
Iroq	24.7	90.0	59	0.2	3644	94	44	53	47.7	1931	39
Suriya	17.4	62.1	69	0.1	3575	97	43	59	36.7	2109	43
Eron	66.4	474.4	20	0.9	7145	64	87	50	237.2	3573	72
Saudiya Arabistoni	22.5	281.1	29	0.5	12479	43	151	37	104.0	4617	93
Birlashgan Arab Amirliklari	4.0	84.0	61	0.2	20787	25	252	40	33.6	8315	168
Xitoy Gonkong va Makao bilan birga	1288.4	6635.4	2	12.8	5150	78	63	43	2853.2	2215	45
Hindiston	1064.4	3096.2	4	6.0	2909	100	35	65	2012.6	1891	38
Janubiy Koreya	47.9	858.0	14	1.7	17908	33	217	62	532.0	11103	224
Koreya Xalq Demokratik Respublikasi	22.6	100.0	56	0.2	4422	84	54	45	45.0	1990	40
Indoneziya	214.5	721.6	15	1.4	336	98	41	71	512.3	2389	48
Tailand	62.0	470.1	21	0.9	7580	62	92	58	272.6	4397	89
Tayvan	22.0	440.0	24	0.9	20000	26	243	60	264.0	12000	242
Filippin	81.5	352.2	25	0.7	4321	85	52	69	243.0	2982	60
Pokiston	148.4	292.6	28	0.6	1971	113	24	74	216.6	1459	29
Bangladesh	138.1	246.5	32	0.5	1786	117	22	77	189.8	1375	28
Polsha	38.2	443.9	23	0.9	11623	45	141	65	288.6	7555	152
Chexiya	10.2	167.8	44	0.3	16448	36	200	53	88.9	8718	176
Slovakiya	5.4	72.5	64	0.1	13469	40	163	55	39.9	7408	149
Vengriya	10.1	147.5	47	0.3	14572	39	177	67	98.8	9763	197
Serbiya va Chernogoriya	8.1	83.0	62	0.2	10242	50	124	89	73.9	9115	184
Xorvatiya	4.5	49.6	74	0.1	11140	48	135	60	29.8	6684	135
Hamdo'stlik mamlakatlari	278.4	1889.6		3.7	6787		82	53	1010.6	3630	73
Rossiya	143.4	1318.8	10	2.6	9195	56	112	51	672.6	4960	95
Ukraina	48.4	264.6	31	0.5	5472	76	66	56	148.2	3064	62
Belorussiya	9.9	59.4	71	0.1	6012	74	73	61	36.2	3667	74
Qozog'iston	14.9	97.7	57	0.2	6556	70	80	60	58.6	3934	79
O'zbekiston	25.6	44.5	79	0.1	1737	118	21	58	25.8	1008	20
Qirg'iziston	5.1	8.7	127	0.02	1714	119	21	67	5.8	1149	23
Turkmaniston	4.9	28.6	95	0.1	5884	75	71	49	14.0	2883	58
Tojikiston	6.3	7.1	130	0.01	1119	128	14	82	5.8	917	19

Manba: Jurnal "Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya", 7, 2005.

XIMning shakllanishi va rivojlanishiga quyidagi omillar sezilarli ta'sir qiladi:

- ilmiy-texnika taraqqiyoti;
- hududiy–iqtisodiy integratsiya taraqqiyoti;
- XIMning ko'p tomonlama tartibga solish tizimini takomillashtirilishi;
- global muammolarning keskinlashuvi;
- tashqi iqtisodiy siyosatni liberallashtirish;
- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi.

Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi jiddiy o'zgarishlar, XX asr oxirlarida dunyo fanidagi kashfiyotlar XIMning rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Dunyoda ro'y bergan o'zgarishlar XXI asr bo'sag'asida XIMning o'ziga xos rivojlanish tendentsiyasini belgilab berdi:

- xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida ikki tomonlama munosabatlardan ko'p tomonlama munosabatlarga o'tish, jahon xo'jaligidagi xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi yo'li belgilandi;

- xalqaro savdoning an'anaviy tovarlar savdosidan milliy ish-lab chiqarish jarayonlarida bevosita xizmat ko'rsatish vositasiga aylanib borishi;

- kapital migratsiyasining globallashuvi va intensivlashuvi;
- fan-texnika sohasida bilimlar bilan ayirboshlashning jadal-lashuvi, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi;
- ishchi kuchlari migratsiya ko'lamlarini sezilarli o'sish sur'ati;
- hudud va mamlakatlar iqtisodiyoti integratsiya jarayonlarining kengayishi va jadallashuvi.

Kapitalning xalqaro migratsiyasi, ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyasi shaklida u yoki bu mamlakatga kirib borishi, xalqaro savdoning tovarlar, turli xil xizmatlar ko'rsatish, texnologiya, ish-chi kuchlarining, ayniqsa, malakali ishchilarning xalqaro migratsiyasi geografik yo'nalishlarda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarda hal qiluvchi omil bo'lmoqda.

### **Jahon iqtisodiyotining globallashuvi**

«Globallashuv» termini 1980 yillarda yuzaga keldi va 1990 yil-lardan rasman ishlatila boshlandi. Qabul qilingan kelishuv bo'yicha qaraladigan bo'lsa, hozirgi zamon kommunikatsiya va texnologiyalari ma'lumotlari asosiga qurilgan barcha mamlakatlar, korxonalar, odamlarning moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqalari ko'rinishidir.

Iqtisodiy globallashuvni ishlab chiqaruvchi kuchlar, ishlab chiqa-

rishga joriy etilgan yangi texnologiyalar va inson faoliyatining boshqa sohalarida erishgan yutuqlaridan qonuniy ravishda kelib chiqadigan bir jarayon deb qarash kerak. Dunyo iqtisodiyoti globali-zatsiya jarayoni ishlab chiqarish va kapitalni internatsionalizatsiya-lashning qonuniy natijasidir. Shu bilan birga, hozirgi zamon iqtisodiyotiga konsolidatsiya, integratsiya va konvergentsiya jarayon-larini tezlashtirish bilan yangi sifat ko'rsatkichlarini berdi.

Jahon xo'jaligining asosiy bosh g'oyasi kapital, tovarlar va xizmatlarning bir butun yaxlit bozorini tashkil etish, mamlakatlar iqtisodiyotini bir-biriga yaqinlashtirish va birlashtirish bilan butun dunyo xo'jalik kompleksi majmuasiga asos solishdir. XIM o'zining yuqori rivojlanish bosqichiga ko'tarilmoqda.

Globalashuv hodisasini ikki tomondan ta'riflasi bo'ladi:

**Makroiqtisodiy daraja** globalashuv-mamlakatlar va alohida hududlar chegarasidan tashqarida iqtisodiy faollikka intilishni bildiradi. Bu liberallashtirish savdo va investitsiya to'siq g'ov-larining olib tashlanishi erkin tadbirkorlik makonini tashkil etish va boshqalarda ko'zga tashlanadi.

**Mikroiqtisodiy daraja** globalashuv deganda korxonada o'z faoliyatini ichki bozordan tashqariga qarab kengaytirib borishi va jahon bozoriga asta-sekin chiqishi tushuniladi.

Globalashuv milliy iqtisodiyotlarning o'zaro aloqa va o'zaro bog'liqligining o'sib borishi xususiyatini bildiradi. XX asrda ayirboshlashning xalqaro miqyosda kengayishi asta-sekin kapital hamda 50-yillarning o'rtalaridagi NTP ta'siri ostida bo'lgan ishlab chiqarishning internatsionallashuviga olib keldi. Natijada ishlab chiqarishda xalqaro ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv sur'-ati keskin o'sdi. Ayniqsa, moliya bozorining integratsiyasi va glo-ballashuv jarayoni keng quloq yoydi. Xalqaro moliyaviy oqimlarining hajmi xalqaro savdo hajmiga nisbatan 60:1 ni tashkil etdi. Umumjahon savdosi hajmining o'sishi umumjahon YaMM hajmining o'sishidan 5% ga ko'proqni tashkil etadi.

XX asrning 90-yillarda globalashuvning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat edi:

- tashqi iqtisodiy aloqalar va sobiq sotsialistik mamlakatlar xalqaro hisobining liberallasuvi;
- Unifikatsiyalashtirish (bir xil shaklga keltirish) va standartlashtirishga faol yo'naltirilganlik;
- Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan makroiqtisodiy siyosat, soliq siyosati bandlik sohasidagi siyosatga nisbatan yagona o'lchamlar joriy qilindi.

**Iqtisodiyotning globallasuv jarayonini** milliy iqtisodiyot-lar va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga ta'siri xususida turli fikrlar mavjud. Globallasuv, birinchi navbatda, sanoati rivojlangan davlatlarning mavqeini mustahkamlab, ularga qo'shimcha ustunliklar beradi hamda rivojlanishdan orqada qolib ketgan davlatlarga tsivilizatsiya yutuqlaridan bahramand bo'lishlari uchun dastlabki shart-sharoitni yaratadi. Lekin globallasuv jarayonining demografiya, ekologiya va hududiy jihatdan o'zining salbiy oqibatlariga olib kelishi ham mumkin. Shunday qilib globallasuv ijobiy va salbiy jihatlarga ega bo'lgan jarayon deb tushunish mumkin.

Globallasuvning asosiy nuqtasi quyidagi jihat hisoblanadi: bir davlatning boshqasiga tobe'ligiga barham berilib, uning o'rniga davlatlarning bir-biriga o'zaro bog'liq munosabatlari vujudga keladi.

Globallasuv dunyodagi barcha kommunikatsiyalar, er yo'ldoshi orqali bo'layotgan aloqalar, reaktiv aviatransport va butun dunyo axborot tarmog'iga ulangan shaxsiy kompyuterlarning har bir mamlakatning o'z imkoniyatlari asosida bunyod etish axborotlarini qabul qilish, qidiruv ishlarini olib borish, saralash, qayta tiklash, ma'lumotlarni uzatish va qabul qilishda yuksak sifat o'zgarishlarini ta'minlaydi. Shunday qilib, global ma'lumotlar makonida bir-biriga o'zaro ta'sir o'tkazuvchilar safidan joy oladilar. Asta-sekin bir-biriga bog'liq bo'lgan yagona global iqtisodiyot vujudga keladi, bu iqtisodiyot doirasida milliy biquqlik barham topadi. Ichki mahsulot ishlab chiqarish sur'atlari tashqi savdning ehtiyojlariga qarab aniqlanadi, shuningdek, moliyaviy oqimlarning va milliy chegaralar orqali kapital harakatining tezlashishi ro'y beradi, ishchi kuchi migratsiyasi kuchayadi, filiallari butun dunyo bo'ylab tarqalgan va elektron tarmoqlar orqali bog'langan texnologik ayirboshlashlarni soddalashtiruvchi ko'p millatli korporatsiya-lar mavqeini yanada mustahkamlanadi.

Iqtisodiyotni globallashtirish qanchalik hayotiy ekanligini «kuchli ettilik»ka kirgan rivojlangan mamlakatlar geosiyosiy man-faatlari o'zida aks ettirib turibdi. Hozirgi paytda dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy emas, balki jismoniy birligi mavjud. Er yuzi tsivilizatsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy birligiga eng katta dunyo-ni, bir tomondan juda rivojlangan, mamlakatlarga, ikkinchi tomondan esa ularga iqtisodiy jihatdan tobe mamlakatlarning mavjudligidir.

Kuchli ettilikka kiruvchi mamlakatlarda XX asr boshi va oxirida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMMning hajmi muvofiq ravishda Buyuk Britaniyada 4593 va 19704, Germaniyada 3134 va 19119; Italiyada



1717 va 18416; AQShda 4096 va 27272; Frantsiyada 2849 va 20277, Yaponiyada 1235 va 20616 dollarga to'g'ri kelgan. Masalan, jahon iqtisodining 2003 yildagi asosiy ko'rsatkichlar 2-jadvalda keltirilgan.

Dunyo taraqqiyotining hozirgi sharoitida hech bir mamlakat, hatto eng qudratli hisoblangani ham yakka hokim bo'lishga qodir emas. Faqatgina mustahkam uyushma sifatida rivojlanayotgan mamlakat-larni shu uyushma irodasiga bo'ysundirgan holda ushlab turishi mum-kin. Hozirda bunday siyosiy kuch sifatida AQSh davlatini ko'rsatish mumkin.

Har yili maxsus ekspertlar tomonidan dunyo mamlakatlarining «globallashuv indeks» lari tuzib chiqiladi. Jumladan, 2004 yilda A.T.Kearney va Foreign Policy jurnali tomonidan dunyoning 64 mamlakati bo'yicha «Globallashuv indeksi» e'lon qilindi. Bu mamlakatlar hissasiga jahon aholisining 84%, jahon YaIMning 96% to'g'ri keladi.

3-jadval

### **Turli ko'rsatkichlar bo'yicha globallashuv darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar**

	Iqtisodiy integratsiya	Shaxsiy aloqalar	Texnologiya-lar	Jahon iqtisodiga tortilganlik	Integratsiya-lashgan ko'rsatkichlar
	Irlandiya	Shvetsiya	AQSh	Avstriya	Irlandiya
	Singapur	Irlandiya	Yangi Zelandiya	Frantsiya	Singapur
	Gollandiya	Singapur	Singapur	Yangi Zelandiya	Shveysariya
	Panama	Chexiya	Chexiya	Portugaliya	Gollandiya
	Slovakiya	Kanada	Kanada	Germaniya	Finlyandiya
	Chexiya	Avstriya	Daniya	Italiya	Kanada
	Finlyandiya	Isroil	Shveysariya	Buyuk Britaniya	AQSh
	Malayziya	Daniya	Gollandiya	Shvetsiya	Yangi Zelandiya
	Shveysariya	Xorvatiya	Shveysariya	Argentina	Avstriya
	Shvetsiya	Yangi Zelandiya	Singapur	Daniya	Daniya

Globallashuv reytingini tuzishda 4 ta asosiy parametr hisoblangan:

1. Iqtisodiy integratsiya - xalqaro savdo investitsiyalar va to'lovlar hajmi bo'yicha;

2. Shaxsiy aloqalar - xalqaro turizm va safarlar, xalqaro tele-fon so'zlashuvlari, pochta jo'natmalari va pul o'tkazmalari hajmi bo'yicha;

3. Xalqaro aloqalarni ta'minlovchi texnologiyalar – internet-dagi foydalanuvchilar, internet–serverlar soni bo'yicha;

4. Mamlakatni xalqaro siyosatga tortilganligi – davlatni xal-qaro tashkilotlarga a'zoligi, chet el elchixonalari va vakolatxona-lar soni bo'yicha.

Tadqiqotlar o'tkazilgan 64 davlat ichida «Globallashuv indeksi» bo'yicha so'nggi 10 ta o'rinni Eron, Hindiston, Misr, Indoneziya, Venesuela, Xitoy, Bangladesh, Turkiya, Keniya va Braziliya kabi mamlakatlar egalladi.



O'zbekiston Respublikasi ham globallashuvning turli parametr-lari bo'yicha tobora yuqori o'rinlarni egallashga harakat qilmoqda.

## 2. O'zbekiston jahon xo'jaligi tizimida

O'zbekiston - umumjahon xo'jaligida ko'zga ko'ringan mamlakat hisoblanib, dunyoning 200 dan ziyod mamlakatlari ichida bir qator xom ashyo resurslari, ishlab chiqarish infrastruktura salohiyati miq-yoslari bo'yicha muhim o'rinni egallaydi.

O'zbekiston hududi va zamini turli xil boyliklarga ega. Ular-dan ko'plari jahon miqyosida ajralib turadi. Mamlakat hududi say-yoramizning 1,5% dan ortiq sug'oriladigan erlariga to'g'ri keladi hamda bu erlarda etarli harorat va quyosh nuri tufayli qimmatbaho qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olinadi. O'zbekiston zaminida 3 mingdan ziyod konlar va foydali qazilma boyliklari aniqlangan. Xususan, bu zaminda dunyoning 5% oltin zaxirasi joy-lashgan. Respublika jahon bozorida xaridorgir bo'lgan mis, uran, kumush, volfram, molibden, tabiiy gaz, fosforitlar, kaliy tuz-lari, nodir metallar bilan ta'minlanganligi bo'yicha etakchi o'rin-larni egallaydi.

Hozirgi O'zbekiston xalqaro miqyosda bir qator strategik muhim foydali qazilmalarni qazib olishda sezilarli darajada ajralib turadi. Xususan, dunyoning 0,33 foiz hududini egallagan, jahon aho-lisining 0,41% ega bo'lgan O'zbekiston ulushiga dunyoning barcha mamlakatlarida qazib olinayotgan uran rudasining 6%i, oltinning 3,4%i, tabiiy gazning 2,2%i to'g'ri keladi. O'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarining ayrim turlarini etishtirish bo'yicha ham dunyoda etakchi o'rinlarni egallaydi. Jumladan, O'zbekiston hissasiga qora-ko'l terisi bo'yicha jahon ishlab chiqarishining to'rt-dan bir qismi, paxta xom ashyosining 4%i to'g'ri keladi.

O'zbekiston ko'plab turdagi sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda salmoqli o'ringa ega. Masalan, paxta etishtirishda – 6 o'rin, uran qazib chiqarishda – 5 o'rin, volfram qazib olishda – 6 o'rin, oltin zaxiralari bo'yicha – 4-o'rin va qazib olishda 9-o'rinda, shuningdek, meva-sabzavotlarning ayrim turlarini etishtirishda, gaz, bir qator nodir metall qazib olishda, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda jahonning 15-20 etakchi mamlakatlari qatoridan o'rin olgan.

Mustaqillik yillarida yangidan – yangi ishlab chiqarish tarmoq-lari tufayli O'zbekistonda yuqori texnologiyali avtomobil neft-kimyoy, farmatsevtika, elektronika sanoatlari jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. O'zbekiston birinchi bor avtomobillar, televizor-lar, konditsionerlar, kir yuvish mashinalar, portlovchi moddalar va boshqa tovarlar ishlab chiqarish bo'yicha jahon statistikasidan o'rin oldi. Shu davrda O'zbekiston

bir qator mahsulotlar, xususan, neft qazib olishda gaz, uran, kumush qazib olishda, g'alla, kartoshka etishtirishda o'zining dunyodagi o'rnini yanada mustahkamladi. Jahon ishlab chiqarish hajmida o'z ulushini ko'paytirdi.

Eng oliy sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish ro'yxatlari ham kengayib bormoqda. Eritilayotgan oltin va kumushning sifati nu-fuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan etalon qilib olingan. Mam-lakatda etishtirilgan uzum, mevalar, pomidor tomatlari, poliz mahsulotlari o'zining ta'mi va shifobaxshligi bo'yicha dunyoda tengi yo'q hisoblanadi. O'zbekiston to'qimachilik sanoatidagi ayrim mahsulotlar sifati bo'yicha jahon bozorida ham raqobatbardosh hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodi so'nggi yillarda jahon iqtisodining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lgan sur'atlarda rivojlanmoqda. Jahon Banki ma'lumotlari bo'yicha O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti 2002-2003 yillarda 4,4% dan o'sdi, jahon iqtisodi o'sish sur'ati 2,8%ni tashkil etdi, 2004-2005 yillarda esa bu ko'rsatkichlar o'rta-sidagi farq yanada kattaroq bo'ldi. 2004 yilda muvofiq ravishda 7,7% va 3,1% dan; 2005 yilda 7% va 4,3% ni tashkil etdi.

O'zbekiston iqtisodiyot strukturasi va dinamikasidagi bunday ijobiy o'zgarishlar tashqi savdo aloqalarimizda o'z aksini topdi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning eksport va import tarkibi tubdan o'zgardi. Eksport hajmida xom ashyo mahsulotlari ulushi kamayib, tayyor mahsulot ulushi ko'payib bormoqda, import hajmida oziq-ovqat kiyim-kechak ulushi kamayib zamonaviy texnologiyasida investitsiya tovarlari ulushi ko'paydi. Tashqi savdo balansi yaxshi-lanib, oldingi salbiy qoldiq o'rnini barqaror ijobiy qoldiq egalladi.

O'zbekiston jahon bozoriga ayrim mahsulotlar chiqarishda etak-chi davlatlar guruhiga kiradi. Paxta xom ashyosini o'zimizda qayta ishlab tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishning o'sishiga qaramay, bizning mamlakatimiz bu qimmatli sanoat xom ashyosini eksport qilishda dunyoda (AQShdan keyin) ikkinchi o'rinni egallaydi, xuddi shunday ikkinchi o'rinni (Afg'onistondan keyin) qorako'l bo'yicha egallasa, uran rudasi eksporti bo'yicha esa 3-o'rinni egallaydi. 2003 yilda mamlakatimiz hissasiga paxta eksportining 13%i, elektr energiyasining – 2,3% oshiqrog'i, oltinning – 1,1%i to'g'ri keladi.

Mustaqillik yillarida jahon bozoriga etkazib berilayotgan milliy mahsulotlarimizning iste'mol qiymati va texnik para-metrlari sezilarli darajada yaxshilandi. Agarda mustaqillik dav-rigacha O'zbekiston paxtasi jahon bozorida oddiy mahsulot hisob-langan bo'lsa, hozirgi paytda AQSh va Avstraliya paxtalari kabi elita mahsulot hisoblanadi, ilgari kalava

iplarining past va o'rta navlari xorijga chiqarilgan bo'lsa, hozirda faqat zamonaviy texnologiyalarda yigirilgan oliy navli kalavalar jahon bozorida sotilmoqda. Xuddi shunday bahoni O'zbekistonning meva sabzavot-lariga nisbatan ham aytish mumkin.

### **3. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish tizimi**

Tarixiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, har bir mamlakatda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va mehnatni taqsimlash afzal-liklaridan to'liq foydalanish imkoniyatini yaratuvchi xo'jalik tizimi bilan yaqin integratsiyasiz hech bir davlat dunyo iqtisodiyoti-ning yuqori rivojlanish darajasiga erishmagan. O'zbekiston Res-publikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan boshlangan mamlakatimizning dunyo xo'jalik tizimiga integratsiyalashuvi ja-rayonida qonunchilik, me'yoriy-huquqiy bazalar va malakali xodim-lar bilan ta'minlash g'oyasi ilgari surildi va hayotga tatbiq etila boshlandi.

Shu bilan bir qatorda, yangi faoliyat sohalari uchun yuqori mala-kali xodimlar tayyorlash bazasi shakllantirildi, ya'ni Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti hamda tashqi iqtisodiy faoliyatning turli yo'nalish-lariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tashkil etildi. Hokimiyatlar, vazirlik va idoralar, xo'jalik sub'ektlari birlashmalari tarkibiga TIA boshqarmasining marketing xizmati bo'limlari kiritildi. «Kommercheskiy vestnik», «Hamkor», «Delo-voy partnyor Uzbekistana», «Biznes vestnik Uzbekistana» ro'znoma-lari tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo va investitsiyalar vazirligi faoliyatini ommaga etkazuvchi vosita hisoblanadi.

Prezidentimizning yuqori obro'-e'tibori sharafiga qisqa mud-datlarda investitsiya borasida yirik chet el investorlari bilan kelishuvlarga erishildi va uning asosida iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini texnik takomillashtirish ishlari amalga oshirildi, ya'ni yoqilg'i-energetika majmuasi, qora va rangli metallurgiya, to'-qimachilik sanoati va qurilish materiallari ishlab chiqarish tar-moqlarida mo'ljallangan rejalar muvaffaqiyatli bajarildi.

Chet el investitsiyalari yordamida meva va sabzavot, go'sht va sut mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha moddiy-texnik baza tubdan yangilandi.

Hozirda O'zbekiston jahon iqtisodiy hamjamiyatining teng hu-quqli a'zovidir. Mamlakatimiz obro'-e'tibori uning samolyot, avto-mobil, traktor, paxta terish kombaynlari ishlab chiqarishi tufay-li yanada mustahkamlanmoqda chunki bunday mahsulotlar faqat ri-vojlangan davlatlardagina ishlab chiqariladi. Buning asosiy jiha-ti shundaki, O'zbekistonda - murakkab ishlab chiqarishni tez va mohirlik bilan

o'zlashtirishga qodir bo'lgan yosh xodimlarning etar-lidir. Respublikaning tashqi savdo saldosining barqaror eksport tuzilmasida iste'mol uchun tayyor mahsulotlar ulushi doimiy ravishda o'sib bormoqda.

Iqtisodiyotni kelgusida tezkor rivojlantirish, chuqurlashti-rish, eksportni ko'paytirish va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqa-rishni tashkil etish uchun chet el investitsiyalarini jalb qilish ko'lamini oshirish talab etiladi. Bunday og'ir vazifalar bajarili-shi uchun davlat boshqaruv tashkilotlari, xo'jalik sub'ektlari bir-lashmalari kuchlarini tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish-ga safarbar qilish talab qilinadi.

Ushbu maqsadlarni, ro'yobga chiqarish uchun qisqa muddatlarda qu-yidagilar tashkil etildi:

**Tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo investorlar vazirligi;**

**Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki;**

**«Asaka» bank;**

**«O'zmarkazimpeks» DATSK;**

**«O'zsanoatmashimpeks» DATSK;**

**«O'zinterimpeks» DATSK;**

**«Markazsanoateksport» DATSK;**

**«O'zmaxsusimpeks» DK;**

**«O'ztashqitrans» DAK;**

**«O'rta Osiyo Trans» XAT DAK;**

**«O'zinvestloyiha» Respublika injiniring kompaniyasi;**

**«O'zbekinvest» MK;**

**«O'zEIKbyuro» (O'zbekistondagi Evropa ittifoqi komissiya-sining texnikaviy yordamni muvofiqlashtirish byurosi).**

Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi Davlat bojxona qo'mi-tasi yillik tovarlar eksporti (ishlar, xizmatlar) istiqbolini ish-lab chiqish sohasida, vazirliklar va idoralar - ishlab chiqarishni lokalizatsiyalash dasturini shakllantirish va amalga oshirishda, xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan iqtisodiy hamkorlik so-hasida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat hokimiyatlari, Toshkent shahri va mintaqalar tomonidan tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish sohasidagi faoliyat qo'llab-quv-vatlanadi.

Ularning tashqi iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish so-hasidagi faoliyatlari Vazirlar Mahkamasining Tashqi iqtisodiy aloqalar majmui tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Mamlakatimizda tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish bo'-yicha ko'rilgan chora-tadbirlar o'z samarasini berdi. Respublikada tashqi iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari amaliy jihatdan o'sdi, uning sifat

ko'rsatkichi yaxshilandi.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng, tashqi iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtiruvchi institutsional asoslar va tuzilmalarning yara-tilishi O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining birinchi nav-batdagi vazifalaridan bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning Farmoniga muvofiq, 1992 yilda Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil qilindi. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati (TIF)ni dunyo andozalariga mos, zamon talablariga javob bera oladigan darajada tashkil qilish maqsadida Prezidenti-mizning Farmoni bilan 2002 yilda O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligiga (TIAA) aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 23 iyul Farmoni bilan Tashqi iqtisodiy aloqalar Agentligi O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi (TIAIS) etib qayta tashkil etildi. Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar Agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi etib, Agentlikning viloyat va Toshkent shahridan tashqi iqtisodiy bo'yicha boshqarmalari viloyat va Toshkent shahridagi tashqi iqtisodiy aloqalar investitsiyalar va savdo boshqarmalari etib qayta tashkil etildi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi-ning asosiy vazifalari:

- tashqi iqtisodiy faoliyat, eksportni rag'batlantirish, xori-jiy investitsiyalar jalb etish, tashqi savdoni erkinlashtirish, tashqi savdo aloqalarini kengaytirish va mustahkamlash sohasida yagona davlat siyosati o'tkazilishini ta'minlash;

- jahon tovarlar (kapitallar, xizmatlar) bozorlarining kompleks marketing tadqiqotlarini amalga oshirish, ichki va tashqi bozorlar istiqbollari hamda samaradorligini hisobga olgan holda ularning ahvolini chuqur tahlil etish va rivojlanishini prognoz qilish, xori-jiy sheriklar bilan uzoq muddatli, barqaror savdo-iqtisodiy muno-sabatlarni o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

- iqtisodiyotni rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish hamda uning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish, respublikaning eksport salohiyatini rivojlantirish dasturlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining huquq va manfaatlarini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy institutlar, boshqa xalqaro huquq sub'ektlari bilan o'zaro



manfaatli asosda hamkorligini rivojlantirishni ta'minlash;

- qulay investitsiya muhitini shakllantirishga va respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar jalb etilishiga ko'makla-shish, investitsiya loyihalari ro'yobga chiqarilishi monitoringini amalga oshirish, xorijiy investorlarga zarur axborot yordami ko'r-satish.

Ixtisoslashtirilgan tashqi savdo kompaniyalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ular faoliyati samaradorligini oshirish masalalari Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazir-ligi zimmasiga yuklandi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq, TIFning huquqiy asos-lari yaratilgan edi. 1992 yilda «O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida»gi qonun qabul qilinib, u xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shu sohadagi o'zaro huquqiy munosabatlarini belgilab berdi.

TIF erkinlashtirilishi jarayonini chuqurlashtirish munosabati bilan O'zbekiston iqtisodiyotini jahon iqtisodiyoti tizimiga yanada integratsiyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi-ning 2000 yil 25-26 may kunlaridagi ikkinchi chaqiriq ikkinchi sessiyasida yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasining TIF to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

Qabul qilingan qonunga muvofiq, TIAIS barcha faoliyat turlari iqtisodiy sohaning normativ-huquqiy bazasini shakllantirishga qa-ratildi. Masalan, vazirlik O'zbekiston Respublikasining 80 ga yaqin qonunlari, 57 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, 116 ta O'zR Vazirlar Mahkamasining qarorlari tayyorlanishida faol ish-tirok etdi, jumladan:

- O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati er-kinliklari kafolati to'g'risida"gi;
- O'zbekiston Respublikasining "Bojxona tariflari to'g'risi-da"gi;
- O'zbekiston Respublikasining "Himoya chora-tadbirlari, anti-demping va tovon to'lovlari to'g'risida"gi;
- O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro shartnomalar to'g'ri-sida"gi;
- O'zbekiston Respublikasining "Mahsulotlar taqsimoti bi-timlari to'g'risida"gi;
- O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi;
- O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risi-da"gi;
- O'zbekiston Respublikasining "Chet el investorlari kafolat-lari va huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi;
- O'zbekiston Respublikasining "Kontsessiya to'g'risida"gi qonun-larni misol keltirish mumkin.



TIAIS faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri respublika-ning TIA geografiyasini kengaytirish hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu yo'nalishdagi faoliyatning erishgan yutuqlari juda katta, jumladan, O'zbekiston va dunyoning 140 dan ortiq mamlakati o'rtasida o'zaro savdo-iqtisodiy munosabatlar yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi 2005 yilda 9,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi, bu 2004 yildagi ko'rsat-kichdan 9,6 foiz ko'p demakdir. Eksportning o'sish sur'ati 2004 yilga nisbatan 11,5 foizni tashkil qildi, import esa, 7,2 foiz, ijobiy saldo 1 mlrd. 375 mln. AQSh dollaridan ortiq bo'ldi, bu esa, 2004 yilgi xuddi shu ko'rsatkichdan 97,04% ko'p. Respublika yalpi tashqi savdo aylanmasining yarmidan ko'prog'ini iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar hissasi tashkil qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, iqtisodiy chegaralarning ken-gayishi va TIF hajmining ko'payishi bilan bir qatorda uning tashkiliy tuzilmasida ham chuqur sifat o'zgarishlari ro'y berdi.

Bugun O'zbekiston dunyo bozorlariga nafaqat an'anaviy xom ashyo mahsulotlari - paxta, rangli metall va boshqa tovarlar chiqarmoqda, balki eksport tarkibida qayta ishlangan, yuqori qiymatli tayyor mahsulotlar ham joy olyapti. Shu vaqtning o'zida paxta tolasi va gazlamasi, kimyoviy mahsulotlar va plastmassa, avtomobillar, xizmatlar va qayta ishlangan boshqa mahsulotlar eksporti keskin oshdi.

Importning tarkibi ham sifat jihatidan o'zgardi. Raqobat-bardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan, yangi zamonaviy texnologiyalar - iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya-lash va texnologik yangilangan holda qayta tashkil qilish ustuvor yo'nalish deb belgilandi.

Shuning uchun import qilinayotgan mahsulotlar tarkibida mashina va uskunalarning ko'pligi tasodif emas. Tashqi savdo munosabatlarini yanada optimallashtirishda, mahalliy xom ashyo-dan tayyor mahsulot va butlovchi buyumlar ishlab chiqarishda qabul qilingan dasturning roli katta.

Hozirgi vaqtda TIAIS - milliy ishlab chiqaruvchilarga o'z mahsulotlarini tashqi bozorga sotish, marketing izlanishlarini olib borish, eksport qilinuvchi tovarlar bo'yicha uzoq va qisqa muddatli narxlar kon'yunkturasi ko'rsatkichlarini oldindan ay-tib berish orqali amaliy yordam berish bo'yicha xizmatlar ko'rsa-tadi.

TIAIS faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan yana biri – standartlash bo'yicha xalqaro tashkilot talablariga muvofiq, ma-halliy korxonalar

mahsulotlari sifatini oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish hisoblanadi.

Vazirlik tomonidan bojxona bojlari va to'lovlarini yanada bir xillashtirish bo'yicha izlanishlar davom ettirilmoqda. O'zbekistonning tovarlarni tariflash va kod berish tizimini uyg'unlashtirishga asoslangan TIF nomenklaturasi joriy qilingan. Respublikada tovar va xizmatlarning barcha turiga eksport boji bekor qilingan, eksport-import amallari uchun kvota tizimi qo'llanilmaydi. Litsenziyalash ham faqat maxsus eksport-import amallari uchun qo'llaniladi. O'zbekistonda importga son jihat-dan chegara qo'yilmagan, maksimal stavka 30 foizni, o'rtacha arif-metik ko'rsatkich esa, 14,6 foizni tashkil qiladi.

O'zbekistonning tashqi bozorda o'z mavqeini mustahkamlashi va respublika TIF sub'ektlari manfaatlarini himoya qilishda xorijiy mamlakatlardagi O'zbekiston elchixonalarining savdo, iqtisodiy masalalar bo'yicha maslahatchilari yordam ko'rsatadi. Ya'ni, ular agentlik xodimlari ichidan tayinlanadi va agent-likka tezkor ma'lumotlar etkazib turishni ta'minlaydi. Respublikaning savdo hamkorlari bo'lgan mamlakatlarning eksport qilinadigan tovarlari, bozorlar kon'yunkturasi tahlilini amalga oshiradi. Tadbirkorlik doiralari orasida bevosita aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi. Bugungi kunga kelib, maslahatchilar savdo-iqtisodiy masalalar bo'yicha dunyoning 16 mamlakatida o'z faoliyatlarini olib bormoqda.

Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazir-ligi O'zbekistonning xorijiy davlatlar, birinchi navbatda, EI, Rossiya, Yaponiya, XXR, Janubiy Koreya, Germaniya bilan investitsion va moliyaviy-texnik hamkorligining kengayishida muhim rolo'ynaydi. Vazirlik xorijiy davlatlar va xalqaro moliya institutlari tomonidan O'zbekiston Respublikasiga ko'rsatiladigan yordamlarning muvofiqlashtiruvchisidir.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan Jahon savdo tashkilotiga kirishga katta ahamiyat berilib, ushbu yo'nalishda maqsadga muvofiq qadamlar qo'yilmoqda, ya'ni hozirda Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo'yicha idoralararo komissiya ishlab turibdi, agentlik zimmasiga esa, uning kotibiyati vazifasini bajarish yuklatilgan.

Xorijiy davlatlar bilan o'zaro munosabatlarda respublikaning milliy manfaatlarini o'zaro surilishining mexanizmlari-dan biri

O'zbekistonning 30 dan ortiq mamlakatlar bilan yo'lga qo'yilgan savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha ikkiyoqlama huku-matlararo komissiyalarning faoliyat yuritayotganligidir.

Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligida yuqori malakali kadr-lar tayyorlash dasturi bo'yicha mutaxassislar malakasini oshirish Markazi tashkil qilingan. Bu erda vazirlik va idoralarning xo-dimlari, respublikaning faol doira vakillari muntazam ra-vishda agentlik yordamida O'zbekistonda va chet ellarda tashkil qilinayotgan turli se-minar va kurslarda ishtirok etish imkoni-yatiga ega bo'ladilar.

**O'zbekistonda ko'rgazma markazining roli katta.** "O'zko'r-gazmasavdo" mutaxassislari ko'rgazma va yarmarkalar bilan bog'liq faoliyatning barcha xizmat turlarini taqdim etadi. Tajribali mutaxassislar guruhini birlashtirgan texnik imkoniyatlarga, o'z mavqeiga ega hamkorlar ishtirokida o'tkaziladigan ko'rgazma va yarmarkalar orqali bozor strategiyasining samarali bo'lishiga yordam beriladi.

**"O'zko'rgazmasavdo"** pavilonlarida har yili dunyoning 30 mamlakatidan 200 dan ortiq chet el firmalari ishtirokida 20 ta-gacha xalqaro ko'rgazmalar tashkil etiladi.

Xalqaro biznes-markazi dunyoning barcha ishbilarmon-lariga O'zbekistondagi faoliyatlari muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur bo'lgan barcha turdagi xizmatlarni taklif etadi.

Agentlik tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida respublika hu-kumati tomonidan qo'yilgan vazifalarning izchil ravishda amal-ga oshirilishiga, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga tez va to'laqonli integratsiyalashuvi samarali amalga oshishiga yordam beradi.

#### 4. O'zbekistonning Tashqi iqtisodiy siyosati va uning amalga oshirilishi

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davlat tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solib turishga sifat jihatdan yangicha yondashuvni talab qiladi. Hozirgi paytda davlat tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solib turishda quyidagi vazifalar ilgari surilmoqda.

- uzoq muddatli strategiyani aniqlash;
- eksport va import, valyuta, tashqi savdo va to'lov balanslarini ishlab chiqish va prognozlarni tasdiqlash;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining faoliyatini nazo-rat qilish;
- mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida faol va samarali ishtirok etishi uchun qulay sharoit yaratish bilan birga ularni rag'batlantirish.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati o'z ichiga quyidagi siyosatlarini oladi:

- tashqi savdo siyosati – eksport va import siyosati;
- tashqi investitsiya siyosati – xorijiy investitsiyalar importi va o'zbek investitsiyalarining eksport siyosati;
- valyuta siyosati – diskont, Deviz, valyutani subsidlash, valyuta zaxiralarini diversifikatsiyalash siyosati;
- bojxona siyosati;
- migratsiya siyosati.

**Tashqi savdo siyosati** - O'zRning xorijiy davlatlar bilan mah-sulotlar, xizmatlar va texnologiyalar ayirboshlashni qamrab olgan tashqi savdo faoliyati munosabatlarini o'rnatish va tartibga solish hisoblanadi.

Tashqi savdo eksport siyosati - O'zbekiston mahsulotlarining jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash va ularni ishlab chiqarishni rag'batlantirishga yo'naltirilgandir.

Tashqi savdo import siyosati - O'zRga xorijiy mahsulotlar, ish va xizmatlar kiritilishini tartibga solishga yo'naltirilgan.

**Tashqi investitsiya siyosati** - O'zR hududiga xorijiy investi-tsiyalarni jalb qilish va ishlatish, shuningdek, o'zbek investitsiya-larining xorijga chiqarilishini tartibga solish bo'yicha chora-tad-birlar kompleksi.

Xorijiy investitsiyalarni import qilish quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan:

- xalqaro standartlar darajasi bo'lgan milliy tovar va xizmatlar hajmini ko'paytirish;
- ilg'or texnologiya, tajriba va nou-xaularni jalb etish;
- ishsizlikni qisqartirish va aholi bandligini o'stirish;

- MD va YaMMni o'stirish.

**Valyuta siyosati** – valyuta vositalarini shakllantirish va ma'lum bir maqsadga yo'naltirgan holda samarali foydalanishga qaratilgan siyosatdir.

Valyuta diskont siyosati – valyuta kursining korrektirovka-siga asoslangan investitsiyalar harakati va balanslashtirilgan to'lov majburiyatlari uchun hisob stavkasi foizlarini qo'llash bo'yicha iqtisodiy va tashkiliy chora-tadbirlar tizimidir.

Valyuta deviz siyosati – valyuta intervensiyasi va valyuta cheklashlari yordamida valyutani sotish va sotib olish kurslarini tartibga solish tizimidir.

Valyuta intervensiyasi – milliy valyutaning ko'tarilish yoki tushib ketish chegarasida uning dinamikasini cheklash uchun xorijiy valyutani sotish va sotib olish bo'yicha O'zR MBning maqsadli opera-tsiyalaridir.

Valyuta cheklashlari – milliy, xorijiy valyutalar va tilla bilan bog'liq reglamentlovchi operatsiyalarning iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlari tizimidir.

Mavjud valyuta siyosati tizimining normal amal qilishi va to'lov balansi muvozanatini ta'minlashga qaratilgan.

Uzoq muddatli valyuta siyosati valyuta mexanizmini o'zgartirish bo'yicha o'ziga xos tuzilmaga ega bo'lgan uzoq muddatli chora-tadbirlarni qamrab oladi. Bunda xalqaro tashkilotlar darajasida dav-latlararo muzokara va kelishuvlardan foydalaniladi. Uzoq muddatli valyuta siyosati doirasida shunday chora-tadbirlardan, chunonchi, valyuta hisob-kitobidagi tartib, valyuta kursi va pariteti reji-midan, oltin va zaxiradagi valyutadan xalqaro to'lov vositalari va boshqalarda foydalaniladi.

Bojxona siyosati O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida bojxona nazorati va tovar ayirboshlashni tartibga solish vositalaridan samarali foydalanish ichki bozorni himoya qilish va milliy iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlaridan iborat.

**Migratsiya siyosati** - O'zRga va undan tashqariga ishchi kuchlarining kirishi va chiqishini tartibga solishni ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston dunyodagi barcha mamlakatlar tomonidan xalqaro iqtisodiy aloqalarni har tomonlama kengaytirish va rivojlantirishga qaratilgan izchil siyosat olib bormoqda. Bugungi kunga kelib O'zbekiston respublikasi turli sohalarni, jumladan, iqtisodiy sohadagi xalqaro munosabatlarni tartibga solib turuvchi juda ko'plab xalqaro konventsiya va kelishuvlarni imzoladi hamda bir qator nu-fuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi.

**Respublika tashqi iqtisodiy siyosatining shakllanishi** qu-

yidagilarga asoslangan:

- Respublika iqtisodiyotining biqiqligini engib o'tish;
- Respublikada ochiq bozor iqtisodiyoti asosini shakllantirish;
- Respublikaning tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqaruvchi o'z tizimini shakllantirish;
- Xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish;
- Barcha xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga faol tarz-da a'zo bo'lish.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kun, 1991 yildan boshlab Respublika hukumati tomonidan tashqi iqtisodiy munosabatlarni liberallashtirish siyosati izchil ravishda olib borilmoqda. Bu jara-yon rivojlanishning bir necha bosqichini bosib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi 10 yildan ziyod davr mobaynida xalqaro shartnomalar tuzishda qatnashdi va hozir ham faol qatnashib kel-moqda. Masalan, Avstriya, Belgiya va ko'plab boshqa davlatlar bilan (68) shartnomalar tuzishga muvassar bo'lindi.

O'zbekiston ko'plab xalqaro tashkilotlar: Evropa iqtisodiy ittifoqi, Evropa ittifoqi, YuNISEF, YuNESKO va boshqalar bilan hujjatlar imzoladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston bilan Hamdo'stlik Mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy ahamiyatga molik nosavdo to'lovlar va pochta o'tkazmalari to'g'risida, jinoyatchilikka qarshi narkotik va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi sohasida bitimlar, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida yagona iqtisodiy makon barpo etish bo'yi-cha, avtomobil transportlarida xalqaro yuk tashish masalalari bo'yicha, ikki tomonlama soliqqa tortishga yo'l qo'ymaslik to'g'risida, mahkumlarni jazoni o'tashi uchun o'z vataniga qaytarib berish (eks-traditsiya) to'g'risida va boshqa qator shartnoma hamda bitimlar im-zolangan.

**Birinchi bosqich:** 1991 yildan 1994 yilgacha **Importni rag'batlantirish siyosati o'tkazildi.** Buning sababi, respublikada bir qator ishlab chiqarish va sanoat mahsulotlarining etishmayotganligi edi. Negaki, Sobiq Ittifoq parchalanib ketishi bilan uning bir butun xalq xo'jalik kompleksi - majmuasi parokandalikka yuz tutdi. Oqibatda boshqaruv tizimi va xalq xo'jaligidagi aloqalarga ham pu-tur etdi. Bu bosqichda importga bojxona to'lovlari yo'q edi. Eksport uchun litsenziyalanadigan va kvotalanadigan mahsulotlarning turlari 71 ta edi. Eksport bojxona to'lovlari faqatgina alohida ko'rinish-dagi xom ashyo resurslariga nisbatan qo'llanilardi.

Birinchi bosqichning muhim tomoni shuki, bozor munosabatlari-ni qaror toptirishda import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish,



eksport imkoniyatlarini rivojlantirish va mustahkam-lash, tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va kengaytirish siyosati yuritildi. Tashqi savdoda davlat monopoliyasiga barham berildi va tashqi iqtisodiy aloqalarning yangi mexanizmlari shakllantirildi. Korxonalarining mustaqil ravishda tashqi bozorga chiqishlarining me'yoriy-huquqiy asoslari yaratildi, chet el investorlarining faoli-yat yuritishi uchun ishonchli kafolat ta'minlandi.

**Ikkinchi bosqich:** 1995 yildan 1998 yilgacha.

Mahalliy xom ashyolardan foydalanish orqali bir vaqtning o'zi-da eksport uchun yo'naltirilgan ishlab chiqarish imkoniyatlarini ish-ga solib, ishlab chiqarishni lokalizatsiyalash asosida rivojlantirish siyosati yuritildi.

1995 yilda tashqi savdoning notarif tartibga solish usullari o'rniga tarifli tartibga solish usullari joriy qilindi. 1996 yilda litsenziyalanadigan va kvotalanadigan mahsulotlar soni to'rttaga qisqartirildi. Bular: paxta, don, rangli metallar va elektr quvvat-lari edi. Eksportning maksimal boj stavkasining miqdori 40% ga kamaytirildi va eksport tarifi bir turkum tovarlar uchun bekor qi-lindi. Eksport uchun mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalariga im-tiyozlar berildi.

1997 yil fevralida hukumat tomonidan **Eksport salohiyatini rivojlantirish Dasturi** ishlab chiqildi. Bu dastur mavjud resurs-lardan va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan maksimal darajada foy-dalanish asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish, eksport hajmi-ni barqaror o'stirish uchun sharoit yaratish va uning tizimini tako-millashtirib borishga qaratilgan.

1997-1998 yillarda tashqi savdoni erkinlashtirish siyosati da-vom etdi. Importga bo'lgan bojxona badalining maksimal stavkasi 30% edi (avtomobilga bo'lgan badaldan tashqari), 65 xil tovarlar turkumi uchun import bojxona badali solig'i qo'llanildi. (Bu o'rtacha 28% qilib belgilandi). Bu turkumlarga kiritilmagan mahsulotlarga eng minimal – 3%lik stavka qo'llanildi. Bundan ko'zlagan maqsad o'tish davrida milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish masala-sini hal qilish edi. Import qilinadigan xalq iste'moli mollari, oziq-ovqat mahsulotlari, mashinalar, asbob-uskunalarining sifati ustidan nazorat o'rnatish maqsadida yuk jo'natishning avvalgi ins-pektsiya tizimi joriy qilindi; xo'jalik sub'ektlarining shaxsiy valyuta vositalari hisobiga tuzilgan import kontraktlarini ro'y-xatga olish bekor qilindi.

**Uchinchi bosqich:** 1999 yildan boshlangan. Eksport qilishni tur-li yo'l bilan rag'batlantirish siyosati faollashtirildi. Shundan ke-yin respublika tashqi savdosida olg'a siljishlar ro'y berib, yana ijobiy tendentsiyalar kuzatildi.

1999-2001 yillarda respublikada mahsulotlarni tasvirlash va kodirovka

qilish xalqaro muvofiqlashtirilgan tizimiga asoslangan O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatida tovar nomenklaturasi amal qila boshladi. Respublika bojxona hududiga olib kiriladigan bir qator oziq-ovqat mahsulotlari (qoramol, parranda, go'sht va go'sht mahsulotlari, choy va choy xom ashyosi, don, javdar va boshqalar), Far-matsevtika dori-darmonlari, charm xom ash si uchun import bojxona badallari bekor qilindi. Nol darajali stavkadagi mahsulotlar turkumi soni 73 tadan 497 ga ko'paydi.

Erkin savdo hududini yaratish kelishuvini imzolagan mamlakat-lar (Ozarbayjon, Armaniston, Belarussiya, Ukraina, Tojikiston, Turkmaniston) bojxona hududidan import qilingan mahsulotlardan bojxona badali olinmaydi.

Respublikada amalga oshirilayotgan valyuta siyosati tashqi iqti-sodiy aloqalarning rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazadi. 1998 yil-dan beri Respublika hukumati tomonidan xorijiy valyuta bozorini erkinlashtirish yo'li bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Respublikada xalqaro ISO va MEK hujjatlari va Evropa nor-malari bilan uyg'unlashtirilgan **Milliy sertifikat-siya tizimi tashkil** qilindi va kompleksining davlat standartlari sifatida amaliyotga kiritilishi tugallandi.

1999 yildan mahsulotlarning tashqi bozorlarga olib chiqili-shi, iste'molchilarga mahsulot haqida aniq ma'lumot berish va mahsulot ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sog'lom raqobatni rivojlan-tirish maqsadida respublikada shtrixli kod tatbiq qilina boshladi.

O'zbekiston xalqaro iqtisodiy munosabatlar ob'ekti sifatida umumjahon globallashuv jarayoniga jalb qilinyapti. Lekin, bu ja-rayonni tezlashtirishga O'zbekistonning okeandan uzoqligi va geog-rafik joylashuvining noqulayligi to'siq bo'lib turibdi. Shu jihat-dan qaraganda, respublikada tashqi iqtisodiy aloqalarni bundan keyingi rivoji uchun transport magistrallarini rivojlantirish muhim masalalardan biri bo'lib turibdi. Bu muammoni hal etish uchun etarli imkoniyatlar bor. O'zbekistonda 44 ming km. avtomobil va 4 ming km. temir yo'llarini o'z ichiga olgan katta transport ti-zimi tashkil etilgan. Hozir respublikadagi barcha avtomobil va te-mir yo'llar iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IXT) dasturi, TESIS Evropa ittifoqi texnik yordami dasturi va xalqaro yuklarni va odamlarni tashish uchun yo'naltirilgan TRASEKA dasturi loyiha-lariga kiritilgan. (Eron, Pokistonning janubiy, Turkiyaning ja-nubi-g'arbiy dengiz portlari bilan tutashgan avtomobil yo'llar hamda Kavkaz orqali Evropa mamlakatlari bilan bog'laydigan O'zbe-kistonning shimoliy va sharqiy yo'nalishlari (Xitoy, Yaponiya, Mon-goliya) bo'ylab ketgan asosiy avtomobil yo'llari mavjud.



Yangi yo'nalishlarni barpo etish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish Evropa va janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo va diplo-matik aloqalarni o'rnatish uchun katta imkoniyatlarni ochish mumkin.

Hozirgi paytda O'zbekiston eksport va importni amalga oshi-rishda minimal darajada oltita yo'nalishdan foydalanmoqda. Bu mamlakatimiz kompaniyalari tomonidan foydalanib kelinayotgan barcha yo'nalishlar o'rtacha masofasini 5200 km dan 3700 km ga qisqar-tirish imkonini berdi. Bu-eksport va import jarayonidagi trans-port vositalari qatnovi to'xtab qolish holatlari va xarajatlarini kamayishiga olib keldi.

## Tayanch so'z va iboralar

**Jahon bozori** - ishlab chiqarish omillarining xalqaro mehnat taqsimoti bazasida mavjud bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi barqaror tovar pul munosabatlari sohasi.

**Import** - tovarlar va xizmatlarni chet eldan sotib olish.

**Investitsiyalar** - milliy daromadning mamlakatda investitsiya tovarlarini ishlab chiqarishga yo'naltiriladigan qismi.

**Proteksionizm** - ichki bozorni chet el raqobatidan himoya qilish maqsadida tovar va xizmat xalqaro oqimlari yo'lga qo'yiladigan g'ov - davlat tomonidan joriy etiladigan cheklovlar tizimi.

**Transmilliy korporatsiyalar** - xalqaro kontsernlar; xalqaro bozorda faoliyat ko'rsatuvchi, muayyan tovarni ishlab chiqish va sotish-da etakchi mavqeni egallagan eng yirik kompaniyalar.

**To'lov balansi** - mamlakatning muayyan davriy vaqt uchun tashqi dunyo bilan moliyaviy bitimlarining natijalarini hisoblash.

**Xalqaro valyuta rezervlari** - boshqa davlatlar va xalqaro tash-kilotlar bilan hisob-kitob qilish uchun foydalanish mumkin bo'lgan oltin, erkin konvertatsiyalanadigan valyuta va boshqa aktivlar.

**Eksport** - tovar va xizmatlarni xorijga sotish.

**Embargo** - mamlakat bilan savdo qilishga to'liq taqiqning jo-riy etilishi.

## Nazorat savollari

1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar deganda nimalarni tushunasiz?
2. Xalqaro ayirboshlashning hajmi va jadallashuvi nimalarga bog'liq?
3. Jahon ayirboshlashi rivojlanish jarayonida qanday asosiy bosqichlardan o'tgan?
4. Hozirgi bosqichda xalqaro iqtisodiy munosabatlar qanday xususiyatlarga ega?
5. Mamlakatlar nima sababdan xalqaro iqtisodiy aloqalarga katta ahamiyat beradilar?
6. Mutlaq afzallik va nisbiy afzallik deganda nimani tushunasiz?
7. Xalqaro ayirboshlashning rivojlanib borishi jarayonida nisbiy afzallik nazariyasiga qanday qo'shimchalar kiritilgan?
8. Tashqi iqtisodiy sohada davlat siyosatining mohiyati va zaruriyati nimalardan iborat?
9. O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy siyosatini belgilashda bozor iqtisodiyotiga o'tishning boshlang'ich davriga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
10. Respublikaning iqtisodiy imkoniyatlari deganda nimalarni tushunasiz?
11. Mustaqillikning dastlabki yillarida, islohotlarning birinchi bosqichlarida tashqi iqtisodiy sohada O'zbekiston olib bora-yotgan davlat siyosatining asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
12. Tashqi iqtisodiyot sohasida ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun, birinchi navbatda, qanday zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?
13. O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatida boshqaruv tizimini tubdan qayta shakllantirish qaysi holatlar bilan bog'liq edi?
14. Respublika umumboshqaruv tashkilotlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi asosiy vazifalari nimalardan iborat?

## **II bob. XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLARNING TASHKILiy-HUQUQIY ASOSLARI**

1. Jahon xo'jalik aloqalarining huquqiy asoslari
2. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va ularning asosiy guruhlari
3. BMT tizimidagi tashkilotlarga qisqacha tavsifnoma va ularning tuzilishi
4. Xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari
5. O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlardagi ishti-roki

## 1. Jahon xo'jalik aloqalarining huquqiy asoslari

Jahon mamlakatlarining hukumatlar darajasidagi munosabat-lari Xalqaro huquq asosida tartibga solib boriladi. Xalqaro huquq - huquqiy me'yorlarning alohida tizimi bo'lib, bu me'yorlar mus-taqil sub'ekt sifatida davlatlarning huquq va majburiyatlarini o'rnatish orqali xalqaro munosabatlarni tartibga solishga qara-tilgan. Xalqaro huquqda huquqiy me'yorlarni vujudga kelishi xalqaro shartnomalar tuzish natijasida yoki xalqaro an'analarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Ikki yoki bir nechta xalqaro iqtisodiy munosabatlar qatnashchilarining birgalikdagi har qanday faoliyati kelishilgan, huquqiy kuchga ega bo'lgan hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Bu kamida ikki mamlakat o'rtasida tuziladigan xalqaro bitim-lardir. Ular bir qancha turlarda bo'ladi:

1. Umumiy xarakterga ega ikki davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar asosida tuzilgan bitimlar, diplomatik munosabatlar o'rnatish haqidagi bitimlar, bunda iqtisodiy munosabatlar alohida bo'lim sifatida ajratiladi.

2. Maxsus bitimlar, ya'ni iqtisodiy masalalar bo'yicha ikki yoki ko'p tomonlama tuziladigan quyidagi bitimlar:

a) savdo bitimlari va shartnomalar. Bular mahsulotlar va xizmatlar eksport-importining umumiy shartlari va tartibini aniqlovchi hujjatlar bo'lib hisoblanadi. Bulardan tashqari alohida ahamiyatga ega mahsulotlar va xizmatlarga taalluqli maxsus bitim-lar. Masalan, o'simlik va hayvonot dunyosining yo'qolib borayotgan turlarining xalqaro savdosi bo'yicha Konventsiya, shuningdek, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar manfaatlarini ko'zlagan holda keskin narx tebranishining oldini olish yoki yumshatish maqsadida xom ashyo resurslari savdosida qo'llaniladigan ko'p tomonlama shartnomalar. Bu bitimlar kontragentlar yoki xorijiy sheriklar o'rtasida xalqaro tijorat shartnomalari-kontrakt tuzish uchun bo'lib xizmat qiladi:

b) bojxona bitimlari,

v) turli mamlakatlar darajasida tenglashtirish va qayta soliq olinishining oldini olish maqsadida xalqaro munosabatlar qatnashchilarining soliq solishning umumiy qoidalari, sharoitlari va tartibi to'g'risidagi soliq bitimlari. Hozirgi vaqtda barcha rivojlangan mamlakatlar o'rtasida o'zaro soliq bitimlari imzo-langan. Birinchi bor bunday shartnomalar IXTT tomonidan 1963 va 1973 yillarda ishlab chiqilgan va bular boshqa shu turdagi bitimlar uchun namuna bo'lib

qolgan;

g) investitsiyalarni himoyalash haqidagi davlatlararo bitimlar, ya'ni ikki mamlakat o'rtasida tuziladigan kapital qo'yilmalarning o'zaro kafolati va rag'batlantirish haqidagi shartnomalar.

Jahon amaliyotida xalqaro iqtisodiy munosabatlarni o'rnatish va tartibga solishda yuqorida sanab o'tilgan bitim va shartnoma-lardan tashqari, boshqa qator hujjatlar ham qo'llaniladi. Bu hujjatlar majburiy yoki tavsiya shaklida bo'lishi mumkin. Tavsiya xarakteriga ega hujjatlar qatoriga 1974 yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan tasdiqlangan Davlatlarning iqtisodiy huquqlari va majburiyatlari Xartiyasini kiritish mumkin. Bu hujjatda Yangi xalqaro iqtisodiy tartibni (YaXIT) o'rnatishga qaratilgan asosiy qoidalar quyidagilar ekanligi ko'rsatilgan.

1) har bir davlatning o'z boyligi va iqtisodiy faoliyat sohasidagi mustaqilligi;

2) dunyo bo'yicha xom ashyolardan foydalanish dasturlarini birlashtirish;

3) rivojlanayotgan mamlakatlar mahsulotlarini sanoati rivojlangan mamlakatlar bozorida erkin sotilishidagi to'rsiqlarni bartaraf etish;

4) rivojlanayotgan mamlakatlarni imtiyozli ravishda texnologiyalar bilan ta'minlash;

5) transmilliy korporatsiyalarning salbiy ta'sirini chegaralash;

6) jahon valyuta tizimini isloh qilish. Bu me'yorlar va talablar BMTning barcha iqtisodiy tashkilotlari faoliyatida rivojlandi va 25 ta muhim dasturda o'z ifodasini topdi.

Boshqa muhim bir hujjat bu-1980 yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan va tavsiya xarakteriga ega bo'lgan chegaralangan amaliy ishchanlikni nazorat qilish bo'yicha adolatli qoidalarning ko'p tomonli asosda kelishilgan kodeksidir.

Chegaralangan amaliy ishchanlik (ChAI) - bozordagi o'z mavqeini suiiste'mol qilayotgan korxonalar, birlashmalarning faoliyatidir. Ular raqobatni chegaralaydi, demping narxlarini qo'llaydi, xalqaro savdo qoidalarini buzadi. Shuning uchun ko'p mamlakatlar raqobatni himoyalash va ChAI bilan kurashish bo'yicha qonun loyihalariga ega. Bu qoidalar xalqaro darajadagi birinchi loyihalarga ega. Bu qoidalar xalqaro darajada birinchi bor UST va EX da qabul qilingan. Ularning BMT doirasida qabul qilinishi raqobat sohasida keng ko'lamli xalqaro tizim barpo etilishini boshlab berdi. Bu tizim davlat va korxonalar darajasida olib borilayotgan raqobatga qarshi harakatlarning barcha turlarini yagona nazorat ostiga olish imkonini beradi:

\* amaliy ishchanlikning chegaralanganligini;

- \* ishlab chiqarishning umumlashuvini;
- \* davlat subsidiyalarini;
- \* tarif va notarif cheklashlarni.

Bu nisbatan qattiq qoidalar hozirgi vaqtda tavsiya xarakteriga ega. Har bir mamlakat o'z tashqi iqtisodiy faoliyatini faqat xalqaro qonun loyihalari va me'yoriy hujjatlarga asoslanib tartibga soladi.

Ular o'rtasidagi qarama-qarshilik qanchalik past darajada bo'l-sa, xalqaro munosabatlar o'rnatish shunchalik oson kechadi.

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy asosini yaratuvchi, yo'nalishlarini tartibga soluvchi bir qator qonunlar qabul qilingan. Ular O'zbekistonda o'z faoliyatini amalga oshirayotgan xalqaro ayirboshlashning barcha ishtirokchilari hamda xorijda faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatimiz vakillarining huquq va majburiyatlarini aniqlaydi. Jumladan, O'zbekiston Konstitutsiyasida mamlakatimiz xalqaro munosabatlarning mustaqil sub'ekti tarzida tashqi siyosatini o'z manfaatlarini ko'zlab belgilashi, xalqaro tashkilotlarga, davlatlararo tuzilmalarga kirish huquqi kafolatlab qo'yilgan. Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida, O'zbekiston Respublikasining etakchi xalqaro tashkilotlarga a'zoligi to'g'risida, valyutani tartibga solish to'g'risida, xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risida va shu kabi boshqa qonunlarda O'zbekiston xalqaro iqtisodiy aloqalarning teng huquqli sub'ekti sifatida ta'riflangan. Bundan tashqari, «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar to'g'risida»gi 1995 yil 22 dekabrda qabul qilingan qonunda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish, bajarish, to'xtatish, to'xtatib turish va denonsatsiya qilish tartibi quyidagicha belgilab qo'yilgan:

- \* Milliy valyutada a'zo-davlatlarning qo'shimcha to'lovlari.
- \* XTTBning subsidiyalari.
- \* Shveytsariya tomonidan ajratiladigan kreditlar va yordamlar.

XRA, asosan, unchalik rivojlanmagan mamlakatlarga uzoq mud-datli, 50 yillik kreditlar va qolganlarga 35 yillik kreditlar be-radi, kredit oluvchi davlat 10 yil davomida hech qanday to'lovlarni bajarmaydi (Faqatgina komissiya xarajatlariga 1,75% hajmda mablag' olinadi). Ko'p tomonlama investitsiyalarni kafolatlovchi Agent-ligi - jalb qilingan mablag'larni sug'urtalashni amalga oshiradi.

## 2. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va ularning asosiy guruhlari

Tovar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchlari, ilmiy-texnik axborot-larni xalqaro ayirboshlash, hayotda bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarni faqatgina bir necha davlatning o'zaro kelishilgan holda faoliyat ko'rsatishi bilan hal etish mumkin. Shu sababdan umumiy manfaatni ko'zlagan holda mamlakatlararo iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro tashkilotga bo'l-gan ehtiyoj tug'ildi. Xalqaro iqtisodiy aloqalarning barcha tizim-larini har tomonlama tartibga solib turishni ta'minlovchi mexa-nizm shakllanishi va rivojlanib borishi xalqaro iqtisodiy aloqa-larni muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minladi va uning ajral-mas tarkibiy qismi bo'lib qoldi. Jahon xo'jalik aloqalarida ish-tirok etuvchi mamlakatlarning iqtisodiy manfaatlariga taalluqli asosiy muammolar quyidagilar hisoblanadi;

- Bojxona bojlari darajasi, eksport va import kvotalari, narxlar, valyuta kurslari, foiz stavkalari va boshqalar xususida kelishib olish;
- Qonunchilik va me'yoriy asoslarni unifikatsiyalashtirish (bir xillashtirish);
- Huquqiy va me'yoriy bazani unifikatsiya (bir xil) qilish, ish-lab chiqarishning texnikaviy va texnologik shart-sharoitlarini, mahsulotlarni tashish, saqlash va realizatsiya qilishda yagona talab-larni ta'minlash;
- Tovarlar sifatiga, uning iste'mol qiymatiga, ishchi kuchlari sifatiga, mehnat sharoitlariga qo'yiladigan talablarni kelishib olish.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarni har tomonlama tartibga solib turish mexanizmining vujudga kelishi va rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyoti va xalqaro ayirboshlashga xos bo'lgan bir qator ob'ektiv omillar va jarayonlar ta'siri ostida sodir bo'ladi. Barcha turli xildagi faktlarni ikki yo'nalish bo'yicha guruhga ajratish mumkin.

### **Umumiy xususiyatga ega omillarga:**

- \* Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, xo'jalik aloqa-larini xalqarolashuvi;
- \* Fan-texnika taraqqiyoti;
- \* Global muammolar kelib chiqishi, ekologiya, kambag'allik va qashshoqlik, oziq-ovqat, demografiya, energetika kabi muammolarning vujudga kelishi;
- \* Jahon mamlakatlarining qarama-qarshi qutblarga bo'linib ketishini oldini olish.

### **Aniq xarakterli xususiyatga ega omillarga tegishli:**



\* Hududiy iqtisodiy integratsiya.

\* Xalqaro iqtisodiy aloqalarni liberallashtirish jarayonlarini rivojlantirish, eng avvalo, xalqaro miqyosda mahsulot va xizmatlar ayirboshlanishi.

\* Transmilliy korporatsiyalar rolini oshirish.

\* Davlatlar o'rtasidagi savdo iqtisodiy aloqalarning serqirra bo'lishiga intilish (tendentsiyasi)ni kuchaytirish va bunday aloqalarning ikki tomonlama modelini mumkin qadar kamaytirish.

\* Bir-biriga ta'sir o'tkazadigan xizmat ko'rsatishning yangi turlari bilan savdo qilish, axborot texnologiyalari, yadro energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, fazoni o'zlashtirish kabi yangi sohalarning paydo bo'lishi va tez sur'atlar bilan kengayib borishi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimining har tomonlama tartibga solishning shakllanishi va rivoji amalda xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning o'zaro mustahkam aloqa tizimini yaratishda va xalqaro iqtisodiy aloqalar aniq bir sohani tartibga solib turuvchi kelishuv imzolanganligida yaqqol namoyon bo'ladi.

Keyingi yillarda xalqaro tashkilotlarning soni tez ko'paya boshladi, biroq bu asosan ikki qarama-qarshi tizim doirasida yuz berdi. Bu tizimlarning har biri a'zo davlatlarning siyosiy, iqtisodiy faoliyatini muvofiqlashtiruvchi o'z tashkilotlariga ega edi. Turli mamlakatlarni yagona jahon hamjamiyatiga birlashish jarayoniga g'ov bo'layotgan siyosiy va mafkuraviy to'siqlarning bartaraf etilishi bilan ko'plab xalqaro tashkilotlarning faoliyat doirasi ancha kengaydi va bunda energiya, xom ashyo, oziq-ovqat, ekologiya muammolari bilan bir qatorda iqtisodiy va ijtimoiy masalalarga katta e'tibor berila boshlandi.

Davlat guruhlarini hududiy belgisi bo'yicha yoki iqtisodiy faoliyatning ma'lum sohalaridan manfaatdorlikning umumiyligi asosida birlashtiruvchi tashkilotlar yuzaga keldi. Bunday tashkilotlar savdo, ishlab chiqarish, transport, valyuta-moliya operatsiyalari va boshqa sohalarda ham yuzaga keldi. Hozirgi paytda bir-biridan ko'p jihatlari bilan farq qiladigan yuzlab xalqaro tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ana shu farqlariga qarab xalqaro tashkilotlarni turli guruhlariga ajratish mumkin.

I. Umumiy huquq doirasi keng bo'lgan, shuningdek, iqtisodiy masalalar bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar. Masalan, BMT, Arab davlatlari ittifoqi, Afrika birdamlik tashkiloti, Amerika davlatlari tashkiloti va boshqalar.

II. Davlatlararo tashkilotlar. Bu tashkilotlar ma'lum bir hududda joylashgan mamlakatlarning manfaatini ko'zlab (EIT, MDH, AML (Arab

mamlakatlari ligasi), ABT (Afrika birlashgan tash-kiloti), ADT (Amerika davlatlari tashkiloti), IXTT (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti), OPEK va boshqalar) iqtisodiy va tarmoqlari xususiyatidan kelib chiqadigan masalalarni hal etadi.

Hal etilgan masalalar maqsadiga qarab:

I. Umumiy iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal etuvchi tashki-lotlar - IXTT, EIT, IIMBT, Arab mamlakatlarining umumiy bozo-ri va boshqalar.

II. Alohida tarmoqlar va iqtisodiy sohalarni rivojlantirish masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar:

\* Savdo sohasidagi tashkilotlar-XTO (GATT), YuNKTAD, tabiiy kauchuk bo'yicha xalqaro tashkilot, kakao bo'yicha xalqaro tashkilot, OPEK, mis eksportyorlari bo'yicha hukumatlararo tashkilot, boksit qazib oluvchi mamlakatlarning xalqaro asotsiatsiyasi.

\* Valyuta-moliya tashkilotlari - XVF, ETTB, XTB, OTB. Investitsiyalarni har tomonlama kafolatlovchi tashkilot, investitsion nizolarni tartibga soluvchi xalqaro markaz.

\* Sanoat sohasi hamkorligi tashkiloti - YuNIDO.

\* Qishloq xo'jaligi hamkorligidagi tashkilot, qishloq xo'jaligi hamkorligi bo'yicha xalqaro fond.

\* Transport va aloqa tashkiloti-xalqaro elektron aloqalari ittifoqi, butun dunyo pochta ittifoqi.

\* Bundan tashqari iqtisodiy soha faoliyatini tashkil etuvchi tashkilotlar-intellektual mulk bo'yicha butun dunyo tashkiloti, Af-rika qishloq xo'jaligini rivojlanishini integrallashtiruvchi Mar-kaz.

Bu tashkilotlar davlat va hokimiyat darajasida tashkil etilgan. Davlatlar bu tashkilotlarning a'zolari sifatida mustaqil sub'ekt bo'lib, xalqaro iqtisodiy aloqalar tashkilotiga kiradi.

Bundan tashqari faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotlar:


II. Xalqaro tarmoq tadbirkorlari birlashmasi - metall konst-ruktsiyasi bo'yicha Evropa konventsiyasi, Evropa mebel ittifoqi va boshqalar.


III. Xalqaro kooperativ tashkilotlar-xalqaro kooperativ alyans, Skandinaviya mamlakatlari ulgurji kooperativ jamiyati va boshqa-lar.

Bunday tashkilotlar alohida yuridik shaxslar tomonidan tashkil etilgan bo'lib, ba'zi bir kooperativlar, tadbirkorlar va ularning u yoki bu davlatdagi ittifoqlari bu tashkilotlarning a'zosi hisoblanadilar.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning shartli guruhlanishi 1-chizmada ko'rsatilgan.

## Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar





### **3. BMT tizimidagi tashkilotlarga qisqacha tavsifnoma va ularning tuzilishi**

Birlashgan Millatlar Tashkiloti turli davlatlarning bir-bi-riga keng qamrovli ta'sir o'tkazishini ta'minlovchi hamda barcha mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga yordamlashuvchi tashkilot hisoblanadi. BMTning nizomi 1945 yil 24 oktyabrda kuchga kirdi. BMT mustaqil davlatlar tashkiloti sifatida namoyon bo'lib, insoniyat oldida turgan xalqaro muammolarni echish, nizolarni bar-taraf etish, kechiktirib bo'lmaydigan masalalarni tartibga solib turish mexanizmini yo'lga qo'yadi.

BMTning asosiy organi - Bosh Assambleya hisoblanadi. Bosh Assambleya Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lgan davlat-lardan tashkil topgan bo'lib, unga BMT nizomi doirasida - harbiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va huquqiy masalalarni muhokama qilish vakolati berilgan.

#### **BMTning tashkil etish maqsadlari**

1. Dunyoda xalqaro xavfsizlikni saqlash.
2. Millatlararo do'stona aloqalarni rivojlantirish;
3. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muammolarini hal etishda ko'p tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish.

BMTga a'zo davlatlarning 1945-2006 yillardagi dinamikasi quyidagicha bo'ldi: 1945 yil – 51; 1950 yil – 60; 1955 yil – 76; 1965 yil – 117; 1975 yil – 144; 1990 yil – 159; 2000 yil - 189; 2003 yil - 190 va 2006 yilda – 194 ta a'zo bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi bu tashkilotga 1992 yili a'zo bo'lib kirgan.

#### **BMT faoliyatining asosiy tamoyillari**

1. Barcha a'zo davlatlarning teng huquqligi;
2. BMT Nizomini vijdonan bajarish;
3. Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan echish;
4. Tashkilotning barcha tadbirlariga har tomonlama yordam ko'rsatish;
5. A'zo davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik (tinchlikka xavf solish, tinchlikni buzish va agressiya aktlaridan tashqari) holatlarda.

#### **BMTni moliyalashtirish**

BMTning asosiy moliyaviy manbai unga a'zo bo'lgan davlatlar-ning a'zolik badallaridan tashkil topgan badal to'lovlaridir. Badallar Bosh Assambleya tomonidan tasdiqlanadigan daraja bo'yicha to'lanadi.

To'lovning hajmi mamlakat milliy daromadining hajmiga nisbatan belgilanadi. Bunda boshqa omillar ham hisobga olinadi. Masalan, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM miqdori, maksi-mal to'lov - 25% va minimal to'lov - 0,001%. BMT a'zo bo'lgan dav-latlar badal pulini to'lash bilan birga, sarf-xarajatlarini ham qoplashi kerak. Bu sarf-xarajatlar BMTning harbiy kuchlarida yuz bergan favqulodda holatlar bilan bog'liq bo'ladi.

BMTga davlatlarning a'zolik badallarining ulushi 2001 yilda quyidagicha taqsimlangan: «Kuchli Etilik» mamlakatlaridan – AQSh – 22,0% yoki 266943 ming dollar, Buyuk Britaniya – 5,6% yoki 67561 ming dollar; Italiya – 5,09% yoki 61809 ming dollar, Kanada – 2,5% yoki 31550 ming dollar, Germaniya – 9,8% yoki 119214 ming dollar, Frantsiya – 6,5% yoki 78906 ming dollar, Yaponiya – 19,6% yoki 238175 ming dollarni tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasining a'zolik badali 0,011 yoki 133472 dollarni tashkil etgan.

BMTning umumiy badallari hajmi 1213381 ming dollarga teng bo'lgan.

Bugungi globallashuv jarayonida davlatlarda hamda xalqlarda xalqaro hakam – Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning Kotibi-yatiga, BMT ning muassasalari, jamg'armalari va dasturlariga talab oshib bormoqda. Keyingi to'qqiz yilning o'zida BMT vakolati bilan tenglikparvar missiyalarda qatnashgan xodimlar soni 20 ming nafar-dan qariyb 80 ming nafarga o'sgan. Ayniqsa, huquqni himoya qilish va insonparvarlik yordami ko'rsatish bilan bog'liq vazifalar soni keskin oshgan. Ana shu davrda Kotibiyat boshqaradigan moliyaviy re-surslarning umumiy hajmi ikki hissa ortib, jami 18 milliard AQSh dollariga etgan. Eslatish joizki, hozirgi paytda BMTning yillik byudjeti faqat badallar hisobiga to'ldiriladi. Ayni paytda byudjetni qariyb chorak qismini AQSh qoplaydi.

Ba'zi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar o'z faoliyatida mustaqil hisoblanadigan hukumatlararo tashkilotlardir (IHTT, EH, ETTB, XHB va boshqalar), biroq ulardan ko'pchiligi BMT ning ixtisos-lashgan muassasalaridir. Ulardan eng yiriklari 3-chizmada ko'rsa-tilgan.

BMT ning asosiy tashkiloti Bosh Assambleya hisoblanadi. U BMT ga a'zo barcha davlatlardan tashkil topgan. Ular BMT Nizomi doirasida barcha harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, huquqiy masalalarni muhokama qilish huquqiga egadirlar.


Bosh Assambleya bilan bir qatorda va uning boshchiligida xal-qaro iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik uchun javobgarlikni BMT ning muhim

tashkiloti - Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS) o'z zimmasiga oladi. U Bosh Assambleya tomonidan saylanadi va tash-kilotning 54 mamlakatidan iborat. Uning bevosita tashkilotlari quyidagilar:

- sessiya tashkilotlari;
- funktsional tashkilotlar;
- EKOSOS qo'mitalari va komissiyalari;
- ekspertlar tashkilotlari;
- hududiy komissiyalar: EKE, EKA, ESKATO va boshqalar.



## BMT tizimidagi tashkilotlar



Bu tashkilotlar barcha iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish masalalari bo'yicha maslahatlar, tavsiyalar beradi, bu masalalarni o'rganadi, kengashga materiallar va hujjatlar tayyorlaydi.

EKOSOS BMT ning bir qator hukumatlararo muassasalariga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Bu muassasalarning har biri xalqaro darajada ma'lum funktsional yoki tarmoq muam-molarini hal etishga javobgardir (XVF, XTTB, XMK, FAO, YuNESKO va boshqalar). Bundan tashqari EKOSOSga iqtisodiy masalalar bo'yicha Bosh Assambleya tashkilotlari (YuNKTAD, PROON va boshqalar), shuningdek, BMT ning turli maqsadli fond-lari (YuNISEF va boshqalar) ustidan ham nazorat qilish vazifasi yuklatilgan.

BMT ning teng huquqli a'zosi sifatida O'zbekiston uning ko'plab iqtisodiy tashkilotlari faoliyatiga qo'shilgan (XVF, XT-TB, XMK, UST, ESKATO va boshqalarga). EKOSOSning 2000 yil 3 maydagi tashkiliy majlisida O'zbekiston BMTning bu tashkilo-tiga 2001-2003 yillar muddatida a'zo etib saylandi.

BMT ning bosh organi – BMT ning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyati masalalarini muvofiqlashtirib turuvchi Kengashi (EKOSOS) hisoblanadi. U 1946 yili tashkil etilgan bo'lib, Bosh Assambleya rahbarligida faoliyat ko'rsatib kelyapti. Tashkilot uch yil muddatga tayinlanadigan 54 ta a'zodan iborat. BMT ning barcha byudjet resurslarining 70%i EKOSOSga to'g'ri keladi.

Dunyoning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini tahlil qilish, xalqaro savdoning ahvoli, atrof-muhitni muhofaza qilish muam-molari, aholi demografiyasi muammolari, hududiy hamkorlik, rivojlanayotgan davlatlarga iqtisodiy va ilmiy-texnik yordam ko'rsatish, oziq-ovqat muammolari, ijtimoiy-iqtisodiy statis-tika muammolari, tabiiy resurslar bo'yicha muammolar, aholi yashash joylari muammolari, moliyaviy resurslarni rejalashtirish va tarqatish muammolari, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodida davlatning roli kabi masalalarni muhokama qilish va hal etish Kengash vakolatiga kiradi.

#### 4. Xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari

**Xalqaro Valyuta Fondi (XVF)**-xalqaro valyuta-kredit tash-kiloti bo'lib, BMTning ixtisoslashtirilgan tashkiloti maqomiga ega. Valyuta-kredit sohasini tartibga solib turuvchi davlatlararo tashkilot tuzish g'oyasi «buyuk depressiya» paytida tug'ildi. U 1945 yilning dekabr oyidan boshlab o'z faoliyatini boshladi. XVF Ni-zomga binoan, qaysi bir davlat qanday ijtimoiy tuzumda ekan-ligi, iqtisodiy tizimi qanday ekanligidan qat'iy nazar biron bir cheklov yo'q. Hatto XVFga a'zo bo'lish uchun jiddiy cheklovlar ham yo'q.

##### **XVF quyidagi maqsadlarda tashkil etilgan:**

\* Valyuta sohasi munosabatlarida xalqaro hamkorlik qilishni tashkil etish va bunga yordamlashish;

\* Savdoning me'yor darajada o'sishiga erishishda yordam berish;

\* Valyuta barqarorligini ta'minlash va valyuta munosabat-larini tartibga solish;

\* To'lov va pul o'tkazishning joriy operatsiyalarini ko'p tar-moqli tizimini yaratishda yordam berish;

\* Kafolatga ega bo'lgan a'zo mamlakatlarga fondning umumiy resurslarini vaqtincha havola etish.

\* To'lov balansi tanqislik jarayoni va ko'lamini qisqartirish.

Nizom kapitali taxminan 100 milliard dollarni tashkil eta-di. Shuningdek 30 milliard dollar vaqtincha jalb qilingan mab-lag'lar, har yili o'rta hisobda 6 milliard dollar kredit beriladi.

XVFning yuqori organi boshqaruvchilar Kengashi hisoblanadi. Huquqiy tashkilotlarda ko'pgina masalalarni hal etishda ko'pchilikning ovozi hisobga olinadi. Hozircha AQSh qator masalalar bo'yicha taqiqlash huquqiga ega. Vaholanki, ko'rilyotgan masalalar 85% ovoz olish bilan hal etilishi kerak. U yoki bu masala ko'rib chiqilishi va ovoz berish paytida mazkur tashkilotga a'zo mamla-katlarning fondga qo'shgan moliyaviy hissalar hajmi yoki XTTB-ning aktsiya kapitalidagi ishtiroki hisobga olinadi. To'lovlar har uch yilda qayta ko'rib chiqiladi. Umumiy summaning 2/3 qismi rivojlangan mamlakatlarga tegishli (shuning 1/5 qismi AQSh ga) mazkur tashkilot a'zolarining 4/5 qismini tashkil qilgan rivoj-lanayotgan mamlakatlarga 1/3 qismi to'g'ri keladi.

Organlarda ovozlar kvotalar hajmiga qarab davlatlar o'rtasi-da taqsimlanadi.

Har bir davlat 250 ta ovozga ega bo'lib, har 100 mingga 1 ta ovoz, hamma ovozlarining 46%i AQShga va EK davlatlariga, 34%-rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli.

**XVFning moliyaviy resurslari** XVFGa a'zo barcha davlatlar uchun mavjud. Kreditlar qoida bo'yicha mamlakatning moliyaviy iqtisodiy ahvolini yaxshilash dasturi asosida XVF talablarini bajarish sharti bilan beriladi. Lekin kredit Fondagi kvota hajmidan yuqori bo'lmasligi kerak.

**Kredit operatsiyalari.** Tashkilotga a'zo bo'lgan Davlat to'lov balans defitsitini qoplash maqsadida zarur bo'lgan mablag'ni chet el valyutasida milliy valyuta o'rniga 3-5 yillik muddatga olishi mumkin. Mamlakat kreditni o'zining milliy valyutasiga konver-tatsiyalanadigan valyuta hisobiga qoplaydi.

**Davlatlarning Fondagi rezerv darajasi:**

Ko'pi bilan 25% ulushi bo'lgan va ilgari Fondga qarz sifatida qo'yilgan chet el valyutasi summasidagi kredit.

Bu tashkilotga a'zo mamlakatlarning «Zaxira ulushi» Fondga o'z ixtiyorida bo'lgan milliy valyuta zaxirasi umumiy resurslar hisobidagi kvota miqdoridan yuqoriligi bilan aniqlanadi. Tash-kilotga a'zo Davlatning birinchi talabiga ko'ra XVFDan zaxira ulushi miqdorida mablag' berilishi mumkin. Bunda valyuta olish sababi sifatida to'lov balans quvvatiga ega ekanligi ko'rsatadi. Bunday turdagi mablag'larning olinishida oldindan Fond rozili-gi olinishi shart emas va kredit operatsiyasi sifatida ko'rilmaydi (Foiz va komission to'lovlar ko'zda tutilmaydi. Faqat olingan valyuta mablag'larini qaytarish zarur).

**Kredit ulushi**

XVFning umumiy resurslaridan foydalanishning bosh yo'li «Kredit ulushlari siyosati» hisoblanadi. Yuqori «Zaxira ulushi» qatnashchilari bo'lgan mamlakatlar (100 foizli kvota miqdorida chet el valyutasi olishi mumkin). Bu - har biri 25% kvotadan iborat bo'lgan «kredit ulushi»ga taqsimlanadi. Favqulodda hol-larda mablag' katta miqdorda berilishi mumkin. Valyuta, iqtiso-diy chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlash uchun beriladi. Bunday vaziyatda so'rovnoma Fond ijro etuvchi kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi va ma'lum siyosiy-iqtisodiy shartlarni bajarish olg'a suriladi.

**Rezerv ulushidan yuqori darajadagi kreditlar,** kredit ulushi chegarasi miqdorida faqat Fond tomonidan ishlab chiqilgan barqarorlashtirish tadbirlarini o'tkazish sharti bilan beriladi. Bir yillik kredit hajmi 1984 yildan boshlab 100-125% kvota hajmida belgilangan.

Rezerv ulushidan yuqori darajadagi kreditlar - «rezerv kre-ditlar haqidagi kelishuvi» yoki «stend-bay kelishuvi» va kredit-larni kengaytirish haqidagi kelishuv kiradi. XVFGa a'zo davlat-lar XVF

tomonidan kelishilgan shartnoma asosida milliy pulla-ri chegarasi miqdorida chet el valyutasini shartnoma amal qilish muddati ichida xohlagan vaqtda olishlari kafolatlangan.

**Moliyalashtirishni kengaytirish tizimi** rezerv va kredit ulushlarini to'ldirdi. Unda a'zo davlatlarning to'lov balansi defitsitini moliyalashtirish maqsadida valyuta mablag'lari Nizo-mda ko'rsatib o'tilgan oddiy ulushlarga nisbatan uzoq muddatga katta hajmda beriladi. To'lov balansida muhim muammolarning kelib chiqishi bunday mablag'ni olishga asos bo'ladi. Moliyalashtirishni kengaytirish krediti Fondning o'z resurslari hisobidan beriladi. Yuqori darajadagi kreditlarning ishlatilishi mam-lakatdan olingan mablag'lar va bunday kreditlarning yopilmasli-gini qo'shganda, kvotalarda umumiy 140% ni tashkil etadi. Olin-gan oddiy valyuta mablag'lari kengaytirilgan moliyaviy tizim shartnoma asosida 12 barobar to'lov darajasida  $4^{1/2}$  da 10 yil muddat ichida qoplanishi kerak.

**Bu moliyalashtirish tizimi darajasiga XVF quyidagi kre-ditlarni xavola etadi:**

\* Oddiy kredit - 1 yil muddatga beriladigan to'lov balansini qoplash uchun ajratiladigan, 4-5 yilga uzaytirilishi mumkin bo'l-gan kredit. Kredit hajmi sharoitga qarab aniqlanib, mamlakat-ning milliy valyuta hajmi bir yil davomida ajratilgan kvota-ning 25% dan va umumiy hajmda 200% dan oshmasligi kerak.

\* Kompensatsiyalash kreditlari - eksport tushumini qisqari-shini ko'zlab 3-5 yil muddatga beriladigan kredit.

\* Barqarorlashtirish (bufer) kreditlari - jahon bozoridagi noqulay kon'yunktura munosabati bilan xom ashyolar zaxirasini qazib olishni moliyalashtirish uchun 3-5 yil muddatga beriladigan kredit.

\* Moliyalashtirishni kengaytirish-to'lov balansiga tasodifiy ravishda zarar etganda tashqi hisoblarni qayta qurish uchun 3 yil muddat bilan 140% foizli kvotagacha beriladigan kredit bo'lib, bu kredit 4 yil muddat ichida yopilishi kerak.

**Jahon Banki** - xalqaro tashkilot bo'lib, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, xalqaro moliya korporatsiyasi, investitsiyalarni ko'p tomonlama kafolatlash Agent-ligi uning tarkibiga kiradi.

**Xalqaro Tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB)** BMTning ixtisoslashtirilgan muassasasi bo'lib, u 1944 yili Bretton-Vuds-da (AQSh) quyidagi maqsadlarda tashkil etilgan.

\* Bu bankka a'zo davlatlarning hududidagi ishlab chiqarishni qayta

tiklash va rivojlantirishga ta'sir o'tkazish maqsadida, rag'batlantirish yo'li bilan kapital mablag'larni jalb etish.

\* Xususi chet el kapital mablag'larini jalb etishni rag'batlantirish.

\* Xalqaro savdoning uzoq muddatli balanslashtirilgan o'si-shini ta'minlash va to'lov balansi muvozanatini ushlab turishda yordam berish.

Xalqaro bankning huquq organlarining ma'lum bir qarorga kelishida ko'pchilikning ovozi hisobga olinadi. AQSh etakchi aktsi-oner sifatida barcha masalalar bo'yicha veto huquqini yo'qotdi. Chunki eng yirik ixtisoslashgan boshqa aksionerlar ko'pchilikni - 80%ni tashkil qiladi.

Aksionerlik kapitali 14 milliard dollarni tashkil etadi. Bir yilda o'rta hisobda 15 milliard dollar kredit taqdim etadi. To'lanadigan kapital 9%ni tashkil etadi. 9%i esa yozilish yo'li bilan tashkil toptiriladi va kafolatli fond sifatida xizmat qiladi. Xalqaro taraqqiyot va tiklanish aksionerlik Bankining aksionerlik kapitalining uchdan bir qismi AQSh ulushiga to'g'ri keladi. Bank boshqaruvchilar kengashida umumiy ovozning 50%-AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Kanada, Ita-liya davlatlariga tegishli.

Qarzar Bankka a'zo mamlakatlar hududlarida joylashgan va ularning siyosiy birligini tashkil etuvchi xususi savdo korxonalariga beriladi. Bank o'zining kreditlari bilan ob'ekt narxining faqat 30%ni qoplaydi. Odatda, uzoq muddatli, 20 yillik kreditlar hukumat kafolati ostida beriladi. Bank qarzga mablag' berish bilan birga, texnik yordam bo'yicha keng ko'lamdagi xizmat ham ko'r-satadi. Bank 1980 yildan buyon muayyan dasturni qo'llab-quvvatlash va investitsion islohotlar o'tkazish uchun qarzar berib kelmoqda.

Bank funktsiyalarida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. U se-kin asta sof moliyaviy muassasadan rivojlanish strategiyasini ishlab chiquvchi va aprobatsiya qiluvchi jahon markaziga aylanib bordi. Chunki milliy iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy va siyo-siy ahvolini hisobga olmasdan, uning rivojlanish xususiyatlari-ni bilmasdan turib texnik loyihalarni amaliyotga tatbiq etib bo'lmaydi. Bank, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarning qarzlari bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal qilish uchun ham kreditlar ajratadi. Odatda, narx siyosatini olib borish, moliya-viy tizim, ichki mablag'ni ko'paytirishni rag'batlantirish, xusu-siy lashtirish, ichki savdo-fondlarini rivojlantirishga oid chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Kreditlar, asosan, iqtisodiy va ijtimoiy infrastrukturani, shuningdek,



qishloq xo'jaligini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Xalqaro moliyaviy korporatsiya (XMK) birorta bankka tegishli bo'lmagan o'zining xususiy pul mablag'lariga ega bo'lib, 1956 yil-dan boshlab mustaqil yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. U o'z boshqaruvchilariga va ishchilariga, pul mablag'lari-ga ega. XMK yuqori rentabelli xususiy korxonalariga hukumat tomonidan kafolatlanmagan kreditlarni berish bilan xususiy sektorni rivojlantiradi.

Paydo bo'lish maqsadlari.

\* Hukumat tomonidan kafolatlanmagan mablag'ni jalb qilish yo'li bilan xususiy korxonalarini rivojlantirishda moliyaviy yor-dam ko'rsatish.

\* Ichki va tashqi kapital investitsiya imkoniyatlarini boshqarishning ilg'or usullari bilan uyg'unlashtirish.

\* Bu tashkilotga a'zo-mamlakatlar xususiy mablag'larni ishlab chiqarish korxonalariga kapital mablag'larni jalb qilish uchun xususiy mablag' oqimini rag'batlantirish.

**Moliyalashtirish manbai** bo'lib XMKga a'zo-davlatlarning a'zolik badallari va foyda tushumi hisoblanadi.

XMK xususiy sektorining barqaror rivojlanishiga quyidagi yo'llar orqali ta'sir ko'rsatadi:

\* Rivojlanayotgan davlatlarda xususiy sektorni moliyalashtirish orqali.

\* xalqaro moliya bozorida rivojlanayotgan mamlakatlarning xususiy kompaniyalariga moliyaviy mablag'larni jalb qilishida yordam ko'rsatish.

\* Davlatlar va korxonalariga konsultatsion (maslahat) va tex-nik yordam ko'rsatish.

XMKning siyosatini belgilab beruvchi va investitsion loyiha-larni tasdiqlovchi 175 ta a'zo davlat mavjud. XMKning korpora-tiv vakolati-Boshqaruv Kengashiga tegishli. Bu Kengash tarkibiga a'zo-mamlakatlar tomonidan tayinlangan vakillar kiradi. Korpo-ratsiyaning mablag'lari a'zo mamlakatlar tomonidan to'langan badallar hisobidan tarkib topadi, bu davlatlarning ovoz berish huquqi tegishli ulushlariga qarab belgilanadi. XMKning Nizom kapitaliga qo'yilishi mumkin bo'lgan summa 2,45 milliard dollar-ni tashkil etadi. Boshqaruvchilar Kengashi vakillarining ko'pchiligi o'z vakolatlaridan tashqari XTTB direktorlaridan va XMKga a'zo-davlatlar vakillaridan iborat Direktorlar kengashini bosh-qaradi. Barcha loyihalar Direktorlar kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi.



Korporatsiya tomonidan qilinadigan investitsiya korporatsiya-ning shaxsiy kapitali orqali moliyalashtiriladi. Aksionerlar-ning qo'llab-quvvatlashi va a'zolik badalining XMK kapitaliga kelib tushishi pul mablag'larining katta qismini xalqaro moliya-viy bozorga jalb qilish imkonini bermoqda. Bu ish - kreditlash uchun zarur bo'lgan umumiy moliyaviy resurslar hajmining 80% foiziga teng eng yuqori A.R.A reytingiga ega obligatsiyalar chiqarish, XMK davlat obligatsiyalarini chiqarish, yoki xususiy qimmat-li qog'ozlarni jalb qilish, XTTBning zayomlari 20% jalb qilish orqali amalga oshirildi. Odatda, XMK investitsiyalashni 1 milli-ondan 100 million dollargacha bo'lgan hajmda amalga oshiradi.

Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi - rivojlanayotgan mamlakatlarga imtiyozli kreditlar berish maqsadida tashkil etilgan bo'lib, u XTTBning mansabdor shaxslari tomondan boshqariladi.

Assotsiatsiyaning moliyaviy resurslari quyidagilar hisobidan tashkil topadi:

- \* XTTBga a'zo eng rivojlangan 20 ta mamlakat, shuningdek, Quvayt mamlakati, BAA (Birlashgan arab amirliklari)ning konvertirlangan valyutasi hisobidan;

- \* Iqtisodi kam rivojlangan mamlakatlardan olinadigan 10 foizi konvertirlangan, 90 foizi milliy valyuta hisobidagi ba-dallar-to'lovlari.

- \* A'zo-davlatlarning ko'p tomonlama savdo kelishuvlarini o'tkazishda forum sifatida ishtiroki.

- \* Savdo sohasidagi kelishmovchiliklarni hal etishda yordam berish.

- \* Tashqi savdoni tartibga solib turishda olib boriladigan milliy siyosatni o'rganishni yo'lga qo'yish.

- \* O'z faoliyatini XIMni tartibga solib turishga jalb etilgan boshqa xalqaro tashkilotlar bilan muvofiqlashtirib olib borish.

### **Savdo va sanoat sohasidagi xalqaro tashkilotlar**

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar dastlab hunarmandchilik, keyinchalik sanoat mahsulotlarini ayirboshlash ko'rinishida rivojlana boshladi. Hozirda savdo va sanoat sohasida quyidagi yirik xalqaro tashkilotlar mavjud: Umumjahon savdo tashkiloti (UST), savdo va rivojlanish bo'yicha BMT anjumani (YuNKTAD, Sanoatni rivojlantirish bo'yicha BMT tashkiloti. (YuNIDO) va boshqalar.

Umumjahon Savdo Tashkiloti (UST) – erkinlashtirish tamoyillariga muvofiq xalqaro savdo qoidalarini tartibga soluvchi xalqaro iqtisodiy tashkilotdir.


UST 1995 yil 1-yanvardan boshlab ish olib bormoqda. Uni tu-zish

to'g'risidagi qaror GATT (GATT) ning Urugvay raundi doirasidagi ko'p yillik muzokaralar natijasida 1993 yil dekabr-da qabul qilingan. UST rasmiy ravishda 1994 yil aprelda Maro-kash anjumanida tashkil etilgan, shuning uchun UST ta'sis etish haqidagi bitim Marokash bitimi deb ham yuritiladi.

Agar GATT faqat tovarlar savdosini tartibga solish bilan shug'ullangan bo'lsa, UST ning faoliyat sohasi kengroq, ya'ni u tovarlar savdosidan tashqari xizmatlar savdosi va intellektual mulk huquqining savdoga bog'liq tomonlarini ham tartibga soladi.

Dastlab UST ga 77 davlat a'zo bo'lib kirgan bo'lsa, 2003 yil-ning o'rtalariga kelib ularning soni 146 tani tashkil etdi.

## Umumjahon savdo tashkilotining tashkiliy strukturasi



### UST vazifalari

Bosh vazifasi - to'siqlarsiz xalqaro savdoga ko'maklashishdir. Jahon savdo tizimi quyidagi **beshtamoyilga** mos kelishi lozim.

- 1) Savdoda kamsitishning bo'lmasligi.
- 2) Savdo to'siqlarini qisqarishi.
- 3) Savdo shartlarining barqarorligi va oldindan ma'lum bo'lishi.
- 4) Xalqaro savdoda musobaqalashuvni rag'batlantirish.
- 5) Sust rivojlangan davlatlar uchun xalqaro savdodagi imti-yozlar.

### USTning asosiy funktsiyalari:

- UST bitimlari talablarini bajarilishini nazorat qilish;
- Tashqi iqtisodiy munosabatlar bo'yicha UST ishtirokchi – mamlakatlar o'rtasidagi muzokaralar uchun sharoitlar yaratish;
- Tashqi iqtisodiy savdo siyosati muammolari bo'yicha davlat-lar o'rtasidagi bahslarni tartibga solish.
- Xalqaro savdo sohasida a'zo davlatlar siyosati ustidan nazo-rat;
- rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko'rsatish;
- boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik.

BMT konferentsiyasining savdo va rivojlanish bo'yicha tash-kiloti (YuNKTAD) 1961 yildan faoliyat ko'rsatib kelmoqda. BMT Bosh Assambleyasining doimiy va asosiy organi bo'lib, xalqaro iq-tisodiy hamkorlikka oid masalalarni muhokama qiladi.

YuNKTADning asosiy maqsadi xalqaro savdoni rivojlanti-rishga, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiyoti ri-vojini tezlashtirish, moliya sohasini taraqqiy ettirishga ko'mak-lashishdan iborat. (YuNKTAD) funktsiyasiga ilmiy tekshirish ishlarini olib borish, yangi kontseptsiyalarni ishlab chiqish va si-yosat tahlili, texnik hamkorlik qilish kiradi.

YuNKTAD rivojlanib kelayotgan mamlakatlarga yordam ko'rsatish uchun (YuNKTAD) kuchlarni safarbar etishda etakchi rol o'ynaydi.

Bir yilda ikki marta o'tkaziladigan konferentsiya uning Bosh organi hisoblanadi. Komitetlar Kengashi sessiyalari ko'pincha sav-do va xom ashyo tovarlari savdosini taraqqiy ettirish, tayyor mahsu-lotlar va yarimfabrikatlar, kemasozlik texnologiyalarini etkazib berish, rivojlanayotgan mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik qilish bo'yicha va boshqa masalalar yuzasidan chaqiriladi.

Konferentsiya o'tkazish uchun ketgan xarajatlar yordamchi organlari va kotibxonasi uchun sarflangan mablag'lar BMT byudjeti hisobidan qoplanadi.

YuNIDOning asosiy maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlar sanoati rivojlanishini rag'batlantirish va sanoatlashtirishni jadallashtirish hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun tashkilot quyidagi vazifalarni hal etadi:

a) muayyan mamlakatdagi barcha sharoitlarni hisobga olgan holda tavsiyalar ishlab chiqish va sanoatlashtirish dasturini tay-yorlashda aniq yordam ko'rsatish;

b) sanoati rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning moliya, sanoat va hukumat tashkilotlari o'rtasida aloqa o'rnatili-shida vositachilik qilish;

s) sanoat loyihalarini asoslash bo'yicha ilmiy tadqiqot va qidiruv ishlarini tashkil etish va olib borish;

d) texnologik ma'lumotlarni taqdim etish va milliy texnik xodimlarni tayyorlashda yordam ko'rsatish.

YuNIDO mablag'lari ishtirokchi mamlakatlarning majburiy to'lovlari hisobiga yaratiladi.

Texnik yordam ko'rsatish bo'yicha faoliyat, asosan, BMTning Taraqqiyot dasturi hisobiga moliyalashtiriladi. Uning fondi hu-kumatlar, hukumatlararo va hukumatga qarashli bo'lmagan tashki-lotlarning ixtiyoriy to'lovlaridan tarkib topadi.

Savdo va sanoat sohasidagi xalqaro tashkilotlar jumlasiga jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi neft eks-port qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK) ham kiradi. U 1960 yilda tashkil etilgan bo'lib 1993 yilda Yaqin Sharq, Lotin Amerikasi, Afrika va Osiyoning 13 mamlakatini birlashtirdi va neft ulkan zaxiralarini, ya'ni jahonda qazib olinadigan neft-ning 40 foiziga yaqinini nazorat qiladi. Bu tashkilotda etakchi-lik Fors qo'ltig'i mamlakatlariga tegishlidir. Ular jahon neft zaxiralarining 2/3 qismiga ega bo'lib, G'arbning sanoati rivojlangan mamlakatlariga bu xom ashyoning asosiy qismini etkazib beruvchilar hisoblanadilar. 1984-1990 yillarda Yaqin Sharqda neft import qilish Yaponiyada 65 foizdan 68 foizgacha, G'arbiy Evropada 36 foizdan 41 foizgacha o'sdi. 1993 yilda AQShda bu mahsulotni iste'mol qilishda importning hissasi 56 foizni tashkil etdi. Har bir mamlakat iqtisodiyotida neftning strategik xom ashyoligini hisobga olgan holda OPEK qanday imkoniyatlarga egaligi va jahon hamjamiyati uning faoliyatiga qanday ahamiyat berishini tushunish mumkin.

Xalqaro valyuta-moliya tizimining, jahondagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatning barqarorligi ko'p jihatdan jahon neft bozoridagi ahvolga bog'liq. Bu bozorda OPEK etakchi o'rin tutadi. OPEK 1993 yilda quyidagi mamlakatlarni birlashtirgan: Jazoir, Venesuela, Gabon, Indoneziya, Eron, Iroq, Qatar, Quvayt, Liviya, Nigeriya, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabis-toni, Ekvador.

Yuqorida ta'riflab o'tilgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlardan tashqari iqtisodiyotning turli sohalarida ish yuritayotgan boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlar ham mavjud (mehnat, ta'lim, aloqa, transport va boshqa sohalarda). Ularning barchasi qanday ishni bajarishidan qat'i nazar, faoliyatlari o'zaro cham-barchas bog'liq, chunki ular bir vazifani, ya'ni xalqaro ayirbosh-lashni kengaytirish va chuqurlashtirish vazifasini hal etadilar.

## **5. O'zbekiston respublikasining xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki**

Mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekiston xalqaro iqtiso-diy aloqalarning teng xuquqli sub'ektiga aylandi, dunyoning qa-riyb 160 davlati tomonidan tan olindi, ko'pgina xalqaro tashki-lotlar a'ziligiga qabul qilindi. O'zbekistonning xalqaro tash-kilotlardagi faoliyati mamlakatimizning Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining yorqin dalilidir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi 1992 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) a'ziligiga qabul qilindi. O'zbekistonning BMT dagi faol ish-tiroki Prezidentning, avvalo, Markaziy Osiyo mintaqasida xavf-sizlik, tinchlik va inoqlikni ta'minlash kabi dolzarb muam-molarga jahon hamjamiyati e'tiborini tortgani bilan bog'liq edi. O'zbekiston Respublikasi bilan BMT o'rtasida munosabat, birinchi navbatda, BMT tomonidan ishlab chiqilgan tadbirlarni muvaf-faqiyatli ravishda amalga oshirishda faol ishtirok etish, uning faoliyatiga yangicha mazmun baxsh etishdan iborat, chunki dunyoda yuzaga kelayotgan siyosiy-harbiy, iqtisodiy-ijtimoiy, diniy moja-rolar yangi ming yillikda BMT faoliyatini takomillashtirishni taqozo qilyapti.

BMTning O'zbekistonda amalga oshiriyotgan loyihalari iqtisodiyotning turli sohalarini, shu jumladan, maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat, ilm-fan, demografiya va boshqa sohalarini qam-rab olgan. Bu loyihalar vazirliklar va tashkilotlarga amaliy yor-dam beribgina qolmay, audit va buxgalteriya hisobi xalqaro me'yor-larini ishlab chiqish va joriy etish, kichik va o'rta biznesni qo'l-lab-quvvatlash, yangi texnologiyalar bilan tanishish hamda o'qish-o'rganish maqsadida xorijiy mamlakatlarga safar uyushtirishda yordam bermoqda.

O'zbekiston tashabbusi bilan BMT homiyligida 1995 yilda Toshkent shahrida Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligi muam-molariga bag'ishlangan xalqaro seminar muvaffaqiyatli o'tkazildi. Mazkur seminarda 30 dan ortiq davlatlar jumladan Rossiya, Xi-toy, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh va boshqa davlat-lardan, 20 ta xalqaro tashkilotlardan Diplomatik va hukumat vakillari qatnashdi. Undan tashqari, BMT dasturi asosida 1996 yilda Toshkentda Markaziy Osiyoda giyohvandlik moddalarining noqonuniy harakatining nazorati bo'yicha konferentsiya bo'lib o'tdi. Mazkur anjumanda 21 mamlakatdan kelgan ekspertlar ishtirok etdilar. Shuningdek, BMT bosh kotibi Kofi Annan 2002 yil oktyabr oyida mamlakatimizga tashrif buyurdi va bo'lib o'tgan uch-rashuvlar chog'ida Terrorizmga qarshi kurash, hududiy



xavfsizlik, ijtimoiy taraqqiyot, Orol muammolari chuqur tahlil etildi, mintaqada suv resurslaridan samarali foydalanish, davlat bosh-qaruvi, inson huquqlari masalalari yuzasidan va BMT faoliyatini isloh qilish yuzasidan fikrlar almashib olindi.

Ayniqsa, O'zbekistonning BMT tizimidagi tashkilotlardan Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) va Jahon Banki (JB) bilan hamkorligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston bu tashki-lotlarga 1992 yilda a'zo bo'lgan edi.

Masalan, XVF tomonidan 1996-1997 yillarda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni o'tkazish makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun 259 mln. dollar kredit ajratildi va bu mablag'-lar milliy valyutani qo'llab-quvvatlashga sarflandi.

2002 yil yanvarda XVF ekspertlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan yirik loyiha-monitoring dasturi hamda iqtisodiy va moliyaviy siyosat masalalari Memorandumi bo'ldi. 2002 yil iyun oyining o'rtalarida O'zbekistonga XVF delegatsiyasi tashrif buyur-di. Delegatsiya amalga oshirilgan ishlarni ma'qulladi. XVF va boshqa xalqaro institutlar tomonidan moliyaviy resurslar bilan qo'llab-quvvatlab turish ko'zda tutilib, 2002-2003 yillar uchun mo'ljallangan iqtisodiy rivojlanishning asosiy parametrlarini o'z ichiga olgan dastur ishlab chiqish haqida bir bitimga kelishil-di. Aytish lozim, XVF tomonidan O'zbekistonning makroiqtisodiy siyosati maqullandi.

Jahon banki tomonidan 1992 yildan boshlab milliy iqtisodiyotning ayrim sohalarini rivojlantirishga, institutsional o'zgarishlar qaratilgan dasturlar moliyalashtirilib kelinmoqda. Birlamchi 21 mln. dollar qarz institutsional rivojlanish hamda tizim yo'nalishlarini ishlab chiqish va dasturni moliyalashtirish, texnik yordam ko'rsatish maqsadlari uchun berildi. Ishlab chiqilgan dasturlar davlat sektorini isloh qilish, xususiylashtirish ja-rayonlarini tezlashtirish, huquqiy bazani tashkil etish va rivojlanishini, moliya sektorini, aholining ijtimoiy himoyasi va bandligini, energetika va telekommunikatsiyani o'z ichiga qamrab olgan. Jumladan, 1995 yilda O'zbekistonga importning muhim moddalarini moliyalashtirish uchun 160 mln. dollar hajmidagi muvofiqlashtuvchi qarz va paxtachilikni modernizatsiyalashga qaratilgan loyiha bo'yicha 66 mln. dollar miqdorida qarz berildi.

Bu loyiha O'zbekistonning jahon bozoriga chiqarayotgan paxta xom ashyosi sifatini yaxshilashni amalga oshirishga yo'naltirilgan.

1998 yilda umumiy hajmi 127 mln. dollarga teng uch zayom belgilandi: suv ta'minotiga, sanitariyaga va sog'liqni saqlashga 75 mln.



dollar; bezarar ichimlik suvi ta'minotini moliyalashtirish, sanitar sharoitni yaxshilash va Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati aholisini sog'lig'ini yaxshilashga, Toshkent shahri sanitar tozalash loyihasiga 24 mln. dollar;

O'zbekistonda xususiylashtirish jarayonlarini tezlashtirishga korxonalarining institutsional rivojlanishiga 18 mln. dollar.

1999 yilda qo'shimcha ikkita loyiha ishlab chiqildi va ma'qullandi: 30 million qiymatga ega bo'lgan «Zdorove» loyihasi. Bu loyiha sog'liqni saqlash tizimida dastlabki tibbiy xizmat ko'rsatish samara-dorligini yaxshilashga, umumiy rahbarlikni mustahkamlashga qaratilgan.

Moliya sektorini institutsional rivojlantirishga qaratilgan zayom - 25 mln. dollar: Tijorat banklarini korporativ boshqarish tizimini takomillashtirish hamda Markaziy bankning tartibga solib turish va nazorat qilish vazifasini kuchaytirishni ta'minlashga qaratilgan.

Samarqand, Namangan, Buxoro, Nukus, Olmaliq shaharlarida yo'lovchilar tashuvchi shahar transportini rivojlantirish loyihasi uchun 2000 yilda 29 mln. dollar zayom belgilash ma'qullandi. Ko'zda tutilgan tadbirni amalga oshirish uchun 350 ta yangi avtobus sotib olish, avtobuslarga texnik xizmat ko'rsatuvchi markazlarni yaratish rejalashtirildi.

O'zbekiston, shuningdek, global ekologiya fondi tomonidan moliyalashtiriladigan 2 ta hududiy loyiha ishtirokchisi hamdir. Orol dengizi havzasida suv resurslari va atrof-muhitni boshqarish loyihasi.

Hozirgi kungacha Umumjahon banki tomonidan umumiy qiymati 534,1 mln. dollar bo'lgan 11 ta zayom ma'qullandi. Mazkur mablag'ning 57%i o'zlashtirildi. Yana to'rtta loyiha ishlab chiqilmoqda. Irrigatsiya infrastrukturasini reabilitatsiyasi, davlat moliya tizimi boshqaruvini takomillashtirishi, drenaj tizimini rivojlantirish, sog'liqni saqlash sektori rivojlanishi. Mazkur loyihalar O'zbekistonning umumiy strategiyasining bir qismi bo'lib, 2002-2003 yillarga mo'ljallangan loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashdi. Umuman olganda, strategiya kreditlashdagi ikki hollatni ko'zda tutadi.

- Minimal kredit – 150 mln. dol. Belgilangan muddat mobaynida amal qiladi.

- Islohot jarayonlari tezlashtiriladigan bo'lsa, 3 yil muddat bilan ajratiladigan – 350 mln. dollar kredit.

O'zbekiston Respublikasi 1992 yilda Evropa Tiklanish va Taraqqiyot bankiga (ETT) a'zo bo'ldi. Bu tashkilotning Sovet Ittifoqiga tegishli aksiyalari respublikalararo taqsimlanib olinganda

O'zbekistonga 4200 aktsiya tekkan edi. 1994 yil yanvar oyida bank direktorlar Kengashi O'zbekiston Respublikasi banki tomonidan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalariga maj-buriy to'lovlarni tugatish to'g'risida qaror qabul qildi. Dast-labki loyihani amalga oshirish 1993 yilda boshlandi.

Bank orqali moliyalashtirilgan loyihalar kichik va o'rta biz-nesni rivojlantirishga, tadbirkorlar sinfini vujudga kel-tirishga, transport, energetika va iqtisodiyotning sanoat sekto-rini rivojlantirishga yo'naltirildi.

ETTB O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borishning asosiy 7 yo'nalishini belgiladi.

- Moliya sektori va bank infratuzilmasi;
- Kichik va o'rta korxonalarining rivojlantirish;
- Bozor infratuzilmasi;
- Energetika majmuasi;
- Paxtani qayta ishlash va engil sanoatning boshqa tarmoqlari;
- Turizmning infratuzilmasi;
- Tabiiy resurslarini o'zlashtirish.

Bank tomonidan 2000 yilgacha qiymati 432 mln. EKYu ga teng bo'lgan 17 ta loyiha investitsiyalashtirildi. Amalga oshirilgan jami loyihalardan 11 tasi xususiy sektorini rivojlantirishga qaratildi. Shuning 9 tasi kichik va o'rta biznesni rivojlanti-rishga, lizing kompaniyalariga, savdo sohasiga; ikki loyiha – yangi tashkil etilgan qo'shma tijorat banklari Ustav kapitaliga (O'zbek- Gollandiya, va O'zDeu qo'shma banklariga). Xususiy sektorni rivoj-lantirish doirasida 4 ta loyiha qurilishga, to'qimachilik sanoa-tini rivojlantirishga hamda tabiiy resurslar (oltin qazib olish) ga yo'naltirildi. Davlat sektorida ETTB tomonidan oltita loyiha moliyalashtirildi. Bu – Toshkent aeroportini, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini, Sirdaryo GRESini rekonstruktsiya qilish va qattiq chiqindilarni utilizatsiya qilish loyihalari edi.

Hozirgi paytda O'zbekistonda ETTB ishtirokida ishlab chiqil-gan va 1 mlrd. dollardan ortiq qiymatga ega bo'lgan 15 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Bunda bankning bevosita ulushi 597,7 mln. dollarni tashkil etadi. 2004 yil 3-5 may kunlari Toshkentda Markaziy Osiyo mintaqasida birinchi marta ETTB boshqaruv kengashining har yili o'tkaziladigan majlisi Biznes-forum bilan birgalikda o'tkazildi.

Toshkent forumi mintaqadagi xalqaro tashkilotlar faoliyati-ni muvofiqlashtirishni chuqurlashuviga ko'maklashdi. ETTB yil-lik

yig'ilishining Markaziy Osiyoda o'tkazilishi xalqaro moliya-lashtirish institutlariga hududiy hamkorlikka nisbatan umumiy nuqtai nazarlarni muhokama qilish uchun yaxshi imkoniyat yaratib berdi. Shu maqsadda Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) donorlik faoliyatini uyg'unlashtirish uchun norasmiy hududiy uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuv davomida shu narsa aniqlandiki, 1994 yilda tasdiqlangan hamkorlik haqidagi Memoriandum asosida Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan ETTB va OTB qo'shma faoliyati foydali bo'lib chiqdi. ETTB va Olmota-Bishkek yo'llarini tiklash regional loyihasini, O'zbekiston bilan Tojikistonni qamrab olgan elektr uzatish tarmoqlarini modernizatsiyalash loyihasini amalga oshirish-da hamkorlik qilmoqda. Har ikki bank «O'zbektelekom» kompaniya-sini xususiylashtirishga tayyorlash, temir yo'llarni tiklash, kichik va o'rta korxonalarini moliyalashtirishda ishtirok etmoqda.

Toshkent forumi bir qator mamlakatlar hukumatlari va xalqaro biznesning O'rta Osiyo mintaqasida joylashgan davlatlarga qiziqishi oshganligini ko'rsatdi. Ular tomonidan iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari yuqori baholandi. Shunday bo'lsa-da mintaqaning iqtisodiy rivojlanishiga va xorijiy sarmoyalar kiritilishiga to'sqinlik qiluvchi bir qator kamchiliklar mavjudligi ko'zga tashlanib qoldi. Iqtisodiy islohotlar o'tkazish ja'rayonlarini tahlili islohotlarni qo'llab-quvvatlashga bo'lgan yondashuvlar to'g'riligini ko'rsatdi. Ilgari Markaziy Evropa mamlakatlarida muvaffaqiyatli qo'llangan va hozirga kelib nihoyasiga etkazilayotgan o'zgarishlarda ham shunday islohotlarni qo'llab-quvvatlash yo'li tutilgan edi. Endi o'tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan boshqa mamlakatlarda bu usulga muhim o'zgartirishlar kiritishni zamon talab qilyapti. Xalqaro tashkilotlarning Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari iqtisodiy imkoniyatlarini to'lato'kis ro'yobga chiqarish yo'lida olib borayotgan ish usullarini o'zgartirish, yangi shakl va uslublarni qo'llash lozim bo'ladi.

Umuman, forumning hudud miqyosidagi ijobiy ishlaridan quyidagilarni alohida ko'rsatib o'tish kerak. Birinchidan, O'rta Osiyo davlatlari boshqaruvi konsensusi belgilandi va xalqaro tashkilotlarning hududiy hamkorlikni kengaytirish kerakligi, mintaqada savdo to'siqlarini (barerlarini) bartaraf etish, iqtisodiy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish lozimligi ko'rsatib o'tildi. Ikkinchidan, hududiy hamkorlikning bosh yo'nalishi aniq belgilab olindi. Bular jumlasiga savdoning kengaytirilishi, jahon bozoriga energiyaga mahsulotlarini chiqarish, suv resurslaridan foydalanish, bozor

infratuzilmasi, qashshoqlikka qarshi kurash va ekologiya muammolari kiritildi. Uchinchidan, hududiy muammolarni hal etishda xalqaro tashkilotlar ishtiroki-ning yangicha yondashuvi ko'rsatib o'tildi.

Evropa banki boshqaruvi 2002 yil 4 martda respublikamizda o'z harakat strategiyasini tasdiqladi. Yangi strategiya ikki yilga mo'ljallangan edi. ETTB boshqaruvi birinchi bor mazkur hujjatda o'z aksiyadorlarining holatini etti «etalon test»da ko'rsatdi. Shundan uchtasi siyosiy sohaga taalluqlidir. Bu, birinchi navbatda, siyosiy oshkoralik va ommaviy axborot vositalarining erkinligi, mamlakat siyosiy hayotida nodavlat tashkilotlarning rolini oshi-rish, ularning haqiqiy erkinligi va mustaqilligi, inson huquq-lariga rioya qilish hisoblanadi.

Iqtisodiy testlar milliy valyutaning konvertatsiyasiga, sog'lom raqobat muhitiga hamda xususiylashtirish jarayonlarining ochiqligiga, bank sohasini takomillashtirishga, jamoa tashkilot-lari korxonalari, kommunal xizmat ko'rsatish jamoat tashki-lotlari boshqaruviga taalluqlidir. Xuddi shu shartlariga amal qilish bankning bundan keyingi O'zbekistonda yuritadigan siyosa-tini belgilaydi. Respublikamizga investitsiyalarning kirib keli-shi, davlatimizning jahon miqyosidagi iqtisodiy va siyosiy jihat-dan qo'lga kiritadigan yutuqlari ana shu investitsiyalarga bog'liq. Bank boshqaruvi o'z oldiga qo'yilgan shartlarni bajarishda aniq va printsipial bo'lishga qaror qildi. Dastur 2 yilga mo'ljallangan bo'lishiga qaramasdan bir yilning ichida O'zbekistonning iqtiso-diy va siyosiy hayotidagi ijobiy o'zgarishlarning guvohi bo'lmoqchi edi. Bu yangi strategiya va testlar biznes-forumning asosiy axbo-roti hisoblanadi.

Kichik va o'rta korxonalarining rivojlanishi uchun ETTB ma-halliy banklar kanallari orqali yangi kredit tarmoqlarini ochish, shuningdek, qo'shimcha loyihalarini amalga oshirishni bevosita in-vestitsiyalash mexanizmini ko'rib chiqadi. ETTB o'zining mikrokre-dit dasturini qo'shimcha tarzda kreditlashni davom ettiradi. ETTB tashqi savdoni rivojlantirishga ko'maklashuvchi dasturini, Kichik biznesni moliyalashtirish ETTB hisobidan qo'shimcha mablag' bilan to'ldirish, korxonalarining sanatsiya Dasturi va boshqa donorlik resurslari orqali O'zbekiston iqtisodini qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston OTTB ga 1996 yilda a'zo bo'ldi. Respublikada kre-ditlar bilan bog'liq barcha operatsiyalar 1996 yil sentyabrdagi ora-liq strategiya faoliyatiga binoan o'tkazildi. 1996-1998 yillarda asosiy yo'nalishlar bo'yicha quyidagilar nazarda tutildi: Bank tomonidan

qishloq xo'jaligi, kichik va o'rta korxonalarni mo-liyaviy qo'llab-quvvatlash uchun 50 mln. dollar; infratuzilma reabilitatsiyasi, dastavval, avtoyo'llar va temir yo'llar sektori uchun 120 mln. dollar; maorif uchun 40 mln. dollar ajratildi. Bank tomonidan ajratilgan zayom 210 mln. dollarni tashkil etdi.

1999 yilda O'zbekiston hukumati OTB dan moliyaviy yordam uchun yangi so'rovnoma berdi. Iltimosnomaga binoan bank mamlakatning yangi faoliyat strategiyasini tayyorladi, bu 2000-2003 yillarga mo'ljallangan yordam rejasi hisoblandi. Ishlab chiqilgan mamlakat faoliyati strategiyasining asosiy maqsadi mavjud iqtisodiyotni bozor institutlariga asoslangan iqtisodiyotiga o'tishi boshqaruvi hisoblanib, aholining turmush darajasini ko'tarish va qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan. Yangi strategiyaga qo'shimcha ravishda moliyaviy sektor va shahar ijtimoiy infratuzilmasi kiritildi. Jami kreditlashtirish to'liq dasturiga 2000-2003 yillarda 613 mln. dollar ajratildi. Dastur qishloq xo'jaligi, transport, maorif, bank sektori, shahar infratuzilmasi kabi 14 ta loyihani o'z ichiga qamrab olgan.

2002 yilda respublikaga qo'shimcha imtiyozli kreditlar, texnik va gumanitar yordamlarni qo'shib hisoblaganda respublikamizga ko'rsatilgan jami tashqi yordam 379,3 mln. dollarni tashkil etdi. 2001 yilda esa 433 mln. dollarni tashkil etgan edi.

2002 yilda donorlar tomonidan ko'rsatilgan texnik va gumanitar yordam ikki martadan ziyod o'sdi, shu davrda yangi kredit majburiyatlari ko'zga ko'rinarli darajada o'tgan davrga nisbatan kamaydi.

2002 yilda kredit va grantlar beruvchi yirik donorlar tashkilotlari beshligidan OTB (78 mln. dol.) YuSAID (60,5 mln. dol.) MBRR (40,4 mln. dol.) Ispaniya Hukumati (18,1 mln. dol.) KFV Germaniya banki (17,3 mln. dol.) tashkilotlari joy olgan.

2002 yilda ajratilgan kredit va grantlar umumiy hajmining 55,3% xalqaro manbalar orqali ta'minlandi.

2003 yil iyulda Toshkentda «Evropa Ittifoqi (EI) bilan O'zbekiston o'rtasida hamkorlik va sherikchilik qilish haqidagi shartnomaning bajarilishiga ko'maklashish» loyihasining ikkinchi fazasi – prezentatsiyasi bo'lib o'tdi. Shartnoma 1996 yil imzolangan bo'lib, 1999 yilda ratifikatsiya qilingan edi. EI va O'zbekiston mamlakatlari – a'zolari tomonidan ma'qullangan mazkur shartnomaning kuchga kirishi uchun 3 yil kerak bo'ldi.

Bu shartnomada 102 modda, 5 ta ilova bo'lib, ma'muriy organlarning bojxona masalalari bo'yicha birgalikdagi harakati va boshqa

arizalar hamda qarori ham bor. Shartnoma mavjudligi O'zbekistonning XST ga kirishga haqli ekanligini isbotlaydi.

Shartnomaning asosiy maqsadlari quyidagilardir:

- Davlat Mustaqilligi va suverinitetini qo'llab-quvvatlash;
- Demokratiyani mustahkamlash;
- O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini yaratish.

Hozirda byudjet hisobidan mablag' ajratish bilan moliyalash-tirish ta'minlangan. O'rta hisobda loyiha xarajatlari 1 mln. evroni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining Umumjahon savdo tashkilotiga ki-rish masalasi dolzarb bo'lib turibdi.



## Ko'p tomonlama savdo tizimining evolyutsiyasi

Muzokaralar	Vahti va ishtirokchi mamlakatlar soni	Ko'rilgan masalalar
GATTni shakllantirish va Jeneva davrasi	1947; 23 mamlakat	tariflar
ANNES davrasi	1949; 29 mamlakat	tariflar
Tarkvni davrasi	1950-1951; 32 mamlakat	tariflar
Jeneva davrasi	1955-1956; 33 mamlakat	tariflar
Dilon davrasi	1960-1961; 39 mamlakat	tariflar
Kennedi davrasi	1963-1967; 74 mamlakat	tariflar; notarif to'riqlari; dempingga qarshi tadbirlar, bojxona bahosi va boshqalar
Tokio davrasi	1973-1979; 99 mamlakat	tariflar, notarif to'riqlari, dempingga qarshi tadbirlar, subsidiyalar, davlat xaridlari, standartlar va boshqalar
Urugvay davrasi (UST tuzish)	1986-1994; 128 mamlakat	tariflar; notarif to'riqlari; savdo, xizmatlar, intellektual mulk va savdo bahslarini hal etish bilan bog'liq investitsion xususiyatidagi tadbirlar
Doxa davrasi	2000-hozirgi vaqtgacha; 146 mamlakat	atrof-muhit bo'yicha avval kelishilgan qoidalar va tadbirlarni takomillashtirish

GATT (UST) doirasidagi barcha muzokaralarning asosiy masa-lasi ishtirokchi mamlakatlar savdo tartiblarini erkinlashtirish hisoblanadi. (5– jadval).



## MDH mamlakatlarini USTga qo'shilish jarayonidagi maqomining izohi

Mamlakat	Ariza berilgan sana	Muzokaralar boshlangan vaqt	Hozirgi maqomi
Armaniston	Noyabr 1993	Yanvar 1996	2003 yilda a'zo bo'ldi.
Ozərbayjon	Iyun 1997	Mart 2001	Muzokaralar boshlang'ich bosqichda, memorandum bo'yicha savol-javoblar jarayoni bormoqda.
Belorus	Sentyabr 1993	Iyun 1997	Ko'ptomonlama muzokaralar davom etmoqda. Muammolar: qishloq xo'jaligi, texnik to'siqlar, sanitar va fitosanitar tadbirlar
Gruziya	Iyul 1996	Mart 1997	2000 yilda a'zo bo'ldi.
Qozog'iston	Yanvar 1996	Mart 1997	Ikkitomnolama muzokaralar bormoqda.
Moldava	Noyabr 1993	Iyun 1997	2001 yilda a'zo bo'ldi.
Rossiya Federatsiyasi	Iyun 1993	Iyul 1995	Ikkitomnolama muzokaralar davom etmoqda.
Ukraina	Noyabr 1993	Fevral 1995	Ikkitomnolama muzokaralar davom etmoqda.
O'zbekiston	Dekabr 1994	Yanvar 1995	Muzokaralar boshlang'ich bosqichda memorandum bo'yicha savol-javoblar jarayoni bormoqda.

USTga a'zo bo'lgan MDH mamlakatlari tajribasi, ayniqsa, quyidagi qonun hujjatlarini o'rganishga e'tibor qaratilishi lozimligini ko'rsatadi:

Aksionerlik jamiyatlari haqidagi;

Markaziy bank va kredit muassasalari haqidagi;

iqtsodiy faoliyatni litsenziyalash haqidagi;

ichki soliqqa tortish haqidagi;

standartlashtirish va sertifikatlash haqidagi;

intellektual mulkka bo'lgan huquqni himoyalash haqidagi;

iste'molchi huquqlari haqidagi va boshqalar.

Har qanday holda ham USTga kirish bo'yicha muzokaralar ja-rayonida bojxona tariflarining pirovard darajasini aniqlash talab etiladi.

O'zbekiston USTga kirish haqidagi muzokaralarni memorandum topshirilgandan keyin 7 yil mobaynida olib bormoqda. Biz mamlakatimizning ushbu tashkilotga kirishdan manfaatdorligi hamda ushbu jarayondagi qiyinchiliklardan dalolat beradi. O'zbekiston USTga kirish masalalarida sezilarli xalqaro-texnik ko'mak oladi.

TASIS dasturi doirasida «USTga kirishga ko'mak» va SPS moddalarini amalga oshirish uchun «O'zbekiston tovar ishlab chiqa-ruvchilar va tadbirkorlar palatasiga ko'mak», «Evropa qonuniy ax-borotlari markazini tuzish» va boshqa loyihalar amalga oshirilgan.

YuSAIDning qo'llab-quvvatlashi asosida «Savdo va investi-tsiyalarni rivojlantirish» loyihasi amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasi UST Vazirlar Konferentsiyasida doimiy ravishda ishtirok etmoqda. Bunda boshqa delegatsiyalarning rahbarlari va UST kotibiyati – bilan ikkitomonlama uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

## TAYANCH SO'Z VA IBORALAR

11. **Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar** – davlatlar guruhlarini hududiy belgisi yoki iqtisodiy faoliyatining ma'lum sohalaridan manfaatdorligini umumiyligi asosida birlashtiruvchi tashkilot.

12. **Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)** – keng doiradagi muammolarni hal etishda davlatlarning o'zaro birgalikdagi harakatlarini ta'minlovchi xalqaro tashkilot.

13. **Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti** – iqtisodiy hamkorlikning barcha asosiy yo'nalishlari bo'yicha a'zo davlatlar siyosatini nazorat qiluvchi tashkilot.

14. **EKOSOS** – BMTning iqtisodiy va ijtimoiy kengashi.

15. **ESKATO** – BMTning Osiyo va Tinch okeani tashkilotlari bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi.

16. **Xalqaro Valyuta Fondi (XVF)** – maqsadi a'zo-davlatlar, valyuta-moliya siyosatini muvofiqlashtirish, ularga to'lov balansi-ni tartibga solish hamda valyuta kursini saqlash uchun mablag' ajratishga ixtisoslashgan xalqaro moliyaviy tashkilot.

17. **Jahon banki (JB)** – BMTning Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, xalqaro moliya korporatsiyasi, xalqaro taraqqiyot uyushmasi va investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha Xalqaro agentlik kabi ixtisoslashgan muassasalaridan tashkil topgan banklar guruhi.

18. **Umumjahon savdo tashkiloti (UST)** – mahsulotlar va xizmatlar savdosini qamrab oluvchi BMTning savdo masalalari bo'yicha doimiy muassasasi.

19. **YuNKTAD** – savdo va rivojlanish bo'yicha BMT anjumani.

20. **YuNIDO** – BMTning sanoat rivojlanishi bo'yicha tashkiloti.

## Nazorat savollari

1. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tashkil etilishi qanday muammolar bilan bog'liq?
2. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni shartli ravishda qanday guruhlarga ajratish mumkin?
3. BMT ixtisoslashgan muassasalari bo'lgan yirik xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni aytib bering?
4. IXTTga qaysi mamlakatlar a'zo va u qanday muammolarni hal etadi?
5. Birlashgan iqtisodiy tashkilotlarga umumiy tavsif bering, ularni hamkorlik tashkilotlaridan farqini ayting?
6. XVF tuzilishidan ko'zlangan asosiy maqsadlar faoliyati-ning xususiyatlari nimalardan iborat?
7. UB guruhini tashkil etuvchi ixtisoslashgan muassasalar, ularning asosiy vazifalari va hal etadigan muammolarini yoriting?
8. BMT ixtisoslashgan muassasalari tarkibiga kirmagan val-yuta-kredit tashkilotlari, ularning faoliyati to'g'risida aytib be-ring?
9. Tariflar va savdo bo'yicha Bosh bitimning mohiyati va uning xalqaro ayirboshlash rivojlanishidagi ahamiyati nimadan iborat?
10. Sanoat sohasidagi xalqaro tashkilotlarning umumiy tav-sifini bering?
11. Xalqaro bitimlarning ko'rinishlari, ularning asosiy maz-munini aytib bering?
12. Chegaralangan amaliy ishchanlik deganda nima tushuniladi va mamlakatlar bunga qarshi qanday kurash olib boradilar?
13. Savdo bitimlari va shartnomalariga qisqacha tavsif bering?
14. Soliq bitimlari nima maqsadlarda tuziladi? Ularning ahamiyati nimadan iborat?

### **III bob. TASHQI IQTISODIY FAOLIYHTNI TARTIBGA SOLISH USULLARI**

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, uning mohiyati va asosiy usullari
2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish-ning nazariy asoslari
3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning tarif usullari
4. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning notarif usul-lari
5. O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi

## **1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, uning mohiyati va asosiy usullari**

Tashqi iqtisodiy siyosat nima? Bu – davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solish va ishlab chiqarish omillari-ning taqsimlanishida mamlakat ishtirokini muqobillashtirish rejimini belgilashga oid bir maqsad sari yo'naltirilgan faoliyatdir. Tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy tarkibiy qismlari-tashqi savdo siyosati (eksport va import siyosatini o'z ichiga oladi), chet el investitsiyalarini jalb etish va xorijdagi milliy sarmoya qo'yilmalarini tartibga solish sohasidagi siyosat, valyuta siyosati-dir. Bundan tashqari, alohida olingan davlatlar va mintaqalar bi-lan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni geografik jihatdan muvoza-natlashtirish vazifalari ham tashqi iqtisodiy siyosatni hal eta-diki, bu hol mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash iqtisodiyotini mustahkamlashi bilan bog'liq. Bu – xorijiy mamlakatlar uchun eksport mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishni talab etadi. Bunga chetga mahsulot chiqaradigan korxonalar faoliyatini rag'batlantirmasdan turib, chet el investorlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib bermasdan, xalqaro turizm tizimini rivojlantirmasdan, ishchi kuchlari migratsiyasini ta'minlamasdan, milliy valyutani mustahkamlamasdan turib erishib bo'lmaydi. Shuning uchun davlatlar diqqat-e'tiborlarini ana shu masalalarni ijobiy tarzda echishga harakat qiladilar. Hozir O'zbekiston res-publikasida ham shu jarayon kuzatilmoqda.

Tashqi iqtisodiy siyosat tashqi iqtisodiy faoliyatni ham tartibga soladi. Ko'pchilik davlatlarda mavjud bo'lgan tashqi iqtisodiy siyosat vositalarining keng doirasi ularga o'z tashqi iqtisodiy aloqalari tarkibini va ularni rivojlantirish yo'nalishlarini shakllantirishga ham, boshqa mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari va tashqi iqtisodiy siyosatiga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Tashqi iqtisodiy siyosat vositalarining ushbu doirasi savdo-siyosiy mexanizmi sifatida ko'zga tashlanadi.

Har bir davlat tashqi iqtisodiy faoliyatini muayyan bir davr-dagi o'ziga xos iqtisodiy-ijtimoiy holatidan kelib chiqib, shunga mos keladigan tashqi iqtisodiy-siyosiy sohasidagi vazifalarini belgilab oladi va uni tartibga solib turishning turli usullaridan foydalanadi. Shunday qilib xalqaro savdoni tartibga solish vositalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- eksportni rag'batlantirish vositasi
- importni chegaralash vositasi

Eksport siyosatida ko'zda tutilgan vositalarga quyidagilar kiradi:

- mablag' orqali va pul ishtirokisiz tartibga solish
- eksportga ko'maklashuvchi tashkiliy-texnik vositalar: yarmarkalar tashkil etish orqali ko'maklashish, ko'rgazmalar tashkil etish, davlat vakillari tarkibida xorijiy mamlakatlarga borib kelish.

Ishlab chiqarish bosqichi va tovarni realizatsiya qilishni hisobga olgan holda eksportni rag'batlantirish:

ilmiy-tadqiqot echimlarini ishlab chiqish bosqichida davlat tomonidan beriladigan dotatsiyalar; ishlab chiqarishni rivojlan-tirish, tarmoq rekonstruktsiyasi, yangi asbob-uskunalarni olish uchun, amortizatsiyalash uchun davlat tomonidan beriladigan dotatsiya;

ishlab chiqarish bosqichida: eksport uchun mahsulot ishlab chiqaruvchilarga beriladigan soliq imtiyozlari, ishlab chiqarishni, das-tavval qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni subsidiyalash;

tovarni sotish va sotib bo'lgandan keyin ko'rsatiladigan xizmatlar, ya'ni eksportni kreditlash, kreditni sug'urtalash, uzoq muddatli ijara, milliy ishlab chiqaruvchilar – eksport qiluvchi davlat tashkilotlarini bepul kon'yunktura axborotlari bilan ta'minlash.

Import siyosatida ko'zda tutilgan vositalarga quyidagilar kiradi:

- tartibga solib turishning tarif va notarif usullari;
- ichki bozorni pulli va pulsiz himoyalash;
- to'g'ri va yashirin proteksionizm.

**Ichki bozorni pulli himoyalashda** tovar bahosi hisobga olingan holda tovarning bojxona bahosi miqdorida olinadigan boj, boj yig'implari va soliqlaridan foydalanish ko'zda tutilgan. Bu qoidalar, ayniqsa, xom ashyolar va yarim fabrikatlar uchun tegishlidir.

**Ichki bozorni pulsiz himoyalashda** import tovarlari narxiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydigan tarif cheklashlaridan foydalanish ko'zda tutilgan. (Bu hisobga chegara yig'implari va soliqlari kirmaydi). Bunga tovarning sifati, texnologik darajasi, xizmat qilish muddati, kafolatlangan xizmati va boshqa ko'rsat-kichlar ham kiradi.

**Ichki bozorni bevosita himoyalashda** tovar oqimini bevosita chegaralash, huquqiy normalar va qoidalar asosida mamlakat hukumati tomonidan qabul qilingan qaror asos bo'ladi.

**Ichki bozorni yashirin himoyalash** ijrochi hokimiyat tomonidan belgilanadi va u niqoblangan bo'lib, odatda, bunga taraf-larning o'zaro majburiyatlari kiritilmaydi.

Umuman olganda, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning barcha usullarini bevosita ta'sir etish darajasiga qarab ikki guruhga



bo'lish mumkin:

- Tartibga solishning bevosita usullari – davlat rezident va norezidentlarining tashqi-iqtisodiy faoliyatiga bevosita yo'nal-tirilgan bo'lib, olib boriladigan rasmiy hamda huquqiy aktlar va normativga asoslanib tartibga solinadi.

- Bilvosita tartibga solib turish usullari davlatning olib borayotgan umumiy ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, davlatning tashqi-iqtisodiy faoliyati, mamlakatdagi umumiy vaziyat bilan bevosita bog'liq bo'l-magan sohalar va tarmoqlarni rivojlantirish, institutsional is-lohotlar o'tkazishda qabul qilingan qonunlarning ta'sirchanlik darajasi, aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilashga, milliy madaniyat va an'analarni rivojlantirishga qaratilgan va bajarilishi shart qilib qo'yilgan siyosat bilan belgilanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solib turish «qurollari» qandayligidan qat'i nazar quyidagilarni ko'rsatib o'tish kerak.

Tarifli (bojxona tarifi) usullar;


Notarif usullar.

## 2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslari

Bir qator mamlakatlarning iqtisodchilari tomonidan xo'jalik xodimi sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solib turishda qo'llaniladigan usullari nazariy jihatdan tahlil qilib ko'rildi, bunday ta'sir ko'rsatishning aniq usullarini amalda qo'llashdan olingan natijalar tekshirib ko'rildi. Shundan keyin tarif kiritish joriy qilindi.

**Kiritilgan tarifdan olingan natija.** Tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solib turishning eng ko'p tarqalgan usuli bojxona tarifi, bojxona soliqlari hisoblanadi. Bunday tarif-ning joriy etilishi tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarga ta'sir etadi.

Tarifning joriy etilishi natijasida import  $Q^{\frac{1}{s}}$  darajasi-dan  $Q^{\frac{1}{d}}$  darajasiga qisqaradi. Shunda mamlakatda tovar ishlab chi-qarish  $Q_s$  darajasidan  $Q^{\frac{1}{s}}$  darajasigacha o'sadi, ichki ehtiyoj  $Q_d$  darajadan  $Q^{\frac{1}{d}}$  darajagacha qisqaradi.



Bojxona tarifining joriy etilishi birinchi navbatda iste'molchilarga salbiy ta'sir ko'rsatadi: tarif nafaqat import tovar-lari, balki mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar narxining oshib ketishiga olib keladi. Import tarifining kiritilishi oqibatida iste'molchilarning sof holdagi yo'qotishi u yoki bu sohada  $a+b+c+d$  darajada bo'ladi. Mamlakatda tovar ishlab chiqa-ruvchilar mahsulotlari sotilish hajmining oshishi va narxning yuqoriligi hisobiga yutadilar. Tarifning joriy etilishi ishlab chiqaruvchilarga o'z sohasida «a» darajada foyda ko'rish imkonini beradi. Bu tarif importni butunlay taqiqlamaydi, balki im-portni cheklab turadi, shunday qilib  $l$  sohasi bo'yicha davlatga foy-da keltiradi. Davlat bu foydani ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlar uchun ishlatishi mumkin.

Bojxona tarifning joriy etilishi jamiyatda ma'lum darajada yo'qotishlarga olib keladi, bu – fir-malar tomonidan haddan tashqari ko'p mahsulot ishlab chiqarilishi bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish xarajatlarining dunyo miqyosidagi narxdan oshib ketishiga olib keladi, ishlab chiqarilgan mahsulot turib qoladi. Bular soha bo'yicha «b»va «d» darajani tashkil etadi. Tarif joriy etilishidan jamiyatning yo'qotishi VNP ga nisbatan unchalik katta bo'lmasligi mumkin, lekin bu tarifning bekor qilinishi VNP doirasi darajasi (-1%), (+10%) da mo'l-ko'llikka erishish mumkin. Bekor qilinadigan savdo to'siqlari yuqori bo'lsa, yoki bu to'siqlar butunlay olib tashlansa, maksimal (yuqori) ko'rsatkichlarga erishiladi. Umuman olganda, bojxona tariflari amaliyotda millat farovonligi darajasini tushirib yuboradi, chunki iste'molchilar ishlab chiqaruvchilardan va davlatdan oladigan pullariga nisbatan ko'proq mablag' yo'qo-tadilar. Tarif import mahsulotlarini iste'mol qiluvchilar hi-sobidan qilinadigan daromadlarni boshqa bir ijtimoiy guruhlar foydasiga taqsimlab olish uchun xizmat qiladi. Tarifni joriy etishning eng asosli hujjati deb sanoatning yaxshi rivojlan-maganligi va mudofaa tarmog'ini yaratish zarurligi dalil qilib keltiriladi. Keltirilgan «yosh» tarmoqlarni chet el raqobatidan himoya qilish, mamlakatda ish bilan bandlik darajasining o'sib borishi, monokultura ko'rinishidagi iqtisodiyotni engib o'tish bilan bog'liq barcha dalillar chuqur tekshiruvdan o'tkazilishi ke-rak.

Ko'p hollarda bu maqsadga ishlab chiqarish subsidiyalari va so-liqlarni iste'mol uchun sarflash bilan xarajatlarni kamaytirish orqali erishish mumkin. Bu holda ishlab chiqarish subsidiya-laridan foydalanishdan iste'molchilarning yo'qotish (zarar ko'-rish) darajasi «d» ga teng bo'ladi.

**Import kvotalarini ishlatish.** Import kvotalari har yili mamlakatga olib kelishga ruxsat etilgan chet el mahsulotlari miq-dorini chegaralashdir. Davlat chetdan keltiriladigan chegaralangan miqdordagi mahsulotlar uchun litsenziya ajratadi va litsenziyalan-magan importni taqiqlaydi. Litsenziyani kvotaga ayirboshlash auk-tsiyon bozori orqali sotish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu alo-hida nufuzli firmalar orqali bo'ladi.


Litsenziyalangan import mahsulotlari miqdori ichki bozor-ning talab darajasidan past bo'lsa, bu holda kvota import haj-mini kamaytiribgina qolmaydi, shu bilan birga, ichki bozor nar-xini jahon bozor narxidan oshib ketishiga olib keladi. Bunday hollarda import kvotalarini cheklash odatdagi tarif bo'yicha olib boriladi.

Erkin raqobat sharoitlarida kvota va tariflarning turmush darajasiga ta'siri bir xil bo'ladi. Ko'riladigan sof milliy za-rar b va d sohalari bo'yicha bo'ladi.

Import kvotasi ichki bozorni butunlay egallab olgan taqdirda ham, tovar ekvivalenti bilan solishtirib ko'rilganda ham mil-latga qimmatga tushadi.

Bu holda cheklovchi usul sifatida ixtiyoriy ravishda eksportni cheklash usulidan, shuningdek, eksport solig'idan foydalanish mum-kin.


Eksport uchun mahsulot ishlab chiqaruvchilarning eksport solig'idan keladigan yo'qotishi iste'molchilar yutishi va davlat-ning import yig'imlaridan tushadigan daromadidan oshiq bo'ladi. Natijada, u yoki bu mahsulotning jahon bozoridagi narxi o'zgar-magan taqdirda ham mamlakat katta zarar ko'radi.




2-chizma. Kvotani kiritish

Eksportni ixtiyoriy cheklash. Eksport qilinuvchi import bilan shug'ullanuvchi mamlakatning tazyiqi ostida muayyan davlatga mo'l-jallangan eksportini muzokara olib borish bilan qisqartirish ko'zda tutiladi. Eksportni ixtiyoriy cheklash import bilan shug'ul-lanuvchi mamlakatning iqtisodiyotiga import tarifi va import kvotasini qo'llashiga qaraganda yanada ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holda bojxona solig'idan yoki import litsen-ziyalarini auktsionda sotishdan keladigan daromad o'rniga davlat chet el ekspertlariga bu sohadan olinadigan daromadni berib qo'ya-di, natijada, ichki bozordagi narx jahon bozoridagi narxdan yuqo-ri qilib belgilanadi.

Mamlakatga tashqarisidan mahsulot olib kelish va chetga mah-sulot chiqarishni davlat tomonidan tartibga solib turish import qiluvchi davlatga yoki aniq import qiluvchi firma (kompaniya)ga iqtisodiy sanksiya yurgizish orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiy sanksiya sifatida savdo embargosi qo'llanishi ham mumkin. Quyidagi sxemada iqtisodiy sanksiya qo'llanishi mumkin bo'lgan mamlakatlarga embargo qo'llanishi natijasida ko'rilgan foyda ko'rsatilgan.



3-chizma. Embargoga kiritilgan mamlakatlar



Davlat importi  
4-chizma. Jahon savdosi

Embargoning qo'llanishi (F nuqtasidan E nuqtasigacha) mam-lakat uchun keltirgan zarari (soha bo'yicha  $b+c$ ) va embargoni joriy etgan mamlakat uchun keltirgan zarar (soha bo'yicha «a»). Bu holda boshqa mamlakatlar yutadi (soha bo'yicha «b»). Embargoni joriy etilishidan keladigan umumiy yo'qotish soha bo'yicha  $a+s$  ga teng.

Grafikda ko'rsatilgan:

$S_w$ - embargo joriy etilishigacha tushgan eksport takliflari.

$S_n$  - embargoga qo'shilmagan mamlakatlardan tushgan eksport takliflari.

F nuqtasi - erkin savdo sharoitidagi mutanosiblik.

E nuqtasi – embargo sharoitidagi mutanosiblik.

Bu «Savdo urushi» ni qo'llovchi, ya'ni embargoni joriy etuvchi mamlakatning eksport takliflari ravon bo'lgan taqdirdagina muvaffaqiyatga erishishi mumkin. (Bu mamlakat eksport hajmini iqtisodiyotiga zarar keltirmaydigan qilib qisqartirishi mumkin).

Iqtisodiy sanksiya qo'llaniladigan mamlakatning importga bo'lgan talabi juda notekis, noravon bo'lgan (iqtisodiyoti tashqi savdoga qattiq bog'lanib qolgan bo'lsa) taqdirdagina iqtisodiy sanksiya naf berishi mumkin. Sanktsiyaning kutilmagan holda keng ko'lamda joriy etilishi ham muvaffaqiyatga olib keladi. Embargo odatda iqtisodiy baquvvat mamlakatlar tomonidan kuchsiz mamla-katlarga nisbatan qo'llaniladi.

### 3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning tarif usullari

Bojxona tariflari tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga so-lib turishning namunali quroli hisoblanib, u o'z faoliyati ji-hatidan iqtisodiyot mexanizmini bir maromda ushlab turish xusu-siyatiga ega. Bojxona tarifi bir qancha vazifani bajaradi.

- Milliy ishlab chiqaruvchilarni norezidentlar tomondan ra-qobatga o'z ta'sir kuchini o'tkazishdan saqlaydi;
- Davlat byudjetiga moliya mablag'lari kelib tushishini ta'minlaydi;
- Mahalliy tovarlarning jahon bozoriga oqimini ta'minlaydi.

**Bojxona tariflari** deyilgandan soliq stavkalarining mu-fassal ro'yxati bo'yicha tovarlarga solinadigan bojxona soliqlari miqdori tushuniladi. Soliq ko'rsatib o'tilgan stavkalar bo'yicha olinadi. Stavkalar miqdori bir ustunli yoki ko'p ustunli bo'lishi mumkin:

- Bir ustunli tariflar – tovarning qaysi mamlakatda ishlab chiqarilishidan qat'i nazar belgilangan bir stavka miqdoridagi soliq turi; bu soliq turi asosan kam rivojlangan mamlakatlar uchun qo'llaniladi.
- Ko'p ustunli – ishlab chiqarilgan tovar qaysi mamlakatga te-gishli ekaniga qarab har bir tarif mavqei o'rniga bir necha stavka qilib belgilangan (qoidaga binoan uch-to'rt stavka) soliq.

**Boj** – bojxona hududi orqali o'tkazilayotgan tovarlardan dav-lat bojxona tashkiloti tomonidan pul hisobida olinadigan yi-g'implar boj deb ataladi va u davlat tomonidan belgilangan soliq hisoblanadi. Bir qancha belgilariga qarab, bojni turkumlarga ajratish (klassifikatsiyalash) mumkin.

Soliqqa tortilish ob'ektiga ko'ra:

- import boji – milliy bojxona hududiga kiritilgan tovar-lardan olinadi;
- eksport boji – milliy bojxona hududidan olib chiqib keti-layotgan tovarlardan olinadi;
- tranzit boji – mamlakatning milliy bojxona hududi orqali olib kelinayotgan tranzit tovarlardan olinadi.

Mamlakatlarning savdo-siyosiy munosabatlarini hisobga ol-gan soliq turlari:

- avtonom boj–davlatlararo savdo shartnomalari bo'lmagan hollarda qo'llaniladi;
- konventsion boj-qulay shart-sharoitlarni yaratib berish haqida mamlakatlar o'rtasida ikki yoqlama kelishuv bo'lganda qo'l-laniladi.

Tovarlarning qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganiga qarab:

- maksimal boj – eksport qiluvchi mamlakat bilan import qiluvchi mamlakat o'rtasida qulay shart-sharoitlar tug'dirilmagan, aniqroq qilib aytganda, qulay sharoitlar yo'q bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Bu holda bojning o'zak (negiz) stavkasiga qaraganda ikki baravar yuqori bo'ladi.

- minimal (o'zak-negiz) boj – juda yaxshi shart-sharoitlar tug'dirilgan-yaratilgan holda qo'llaniladi.

- preferentsional boj – imtiyozli boj. Bu bojning stavka miqdori o'zak-negiz miqdoriga qaraganda ikki baravar kam, rivojlanish darajasi juda past bo'lgan mamlakatlar uchun nol darajasi qo'llaniladi.

Bojlar undirish usuliga qarab advalor, maxsus va aralash boj-larga bo'linadi:

- **advalor bojlar** – tovarning qiymatidan foiz hisobida oli-nadigan turkumdagi bojning eng ko'p tarqalgan turi hisoblanadi va tovarlarga belgilangan narxlar ko'tarilgan sharoitda samarali bo'lib, import-mamlakatlarning bojdan himoyalaniish darajasini oshiradi.

- **maxsus** (muayyan xususiyatga ega bo'lgan) **bojlar** – tovarning og'irlik birligida yoki narxning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lmagan tovar hajmidan o'ylab topilgan (soxta) summa shaklida olinadi; tovarlar narxi tushib ketgan vaqtda bu usul qo'llansa ko'p naf be-radi.

- **aralash bojlar** – boj tarifida ko'rsatilgan advalor hamda spetsifik boj yig'indisi yoki biryo'la qo'shib olinishi; bunda o'sha vaqtga mos eng samarali boj stavkasi tanlab olinadi.

Bundan tashqari, alohida bojlar antidemping, kompensatsion, taqiqlovchi bojlarni qo'llash ham uchraydi.

- Antidemping boj – u yoki bu mamlakatning normal baho-sidan ancha past narxlarda bu xil tovarni keltirish mamlakatda shunday tovarlarni ishlab chiqaruvchilar uchun moddiy zarar kel-tirishi mumkin bo'lgan yoki shunday tovarlarni ishlab chiqarishni tashkil etish yoki kengaytirishga to'siq bo'ladigan hollarda qo'llaniladi.

- Kompensatsion boj – subsidiyadan bevosita yoki bilvosita foydalanib, chetdan tovar olib kelishda, tovar ishlab chiqarish yoki chetga mol chiqarishda qo'llaniladi. Chetdan keltiriladigan tovar mamlakatning o'zida tovar ishlab chiqarayotganlarga moddiy zarar etkazishi mumkin bo'lgan holda yoki shu xil tovarni ishlab chiqarishni tashkil etish yoki kengaytirishga to'siq bo'ladigan hollarda qo'llaniladi.

Bojxona bojlaridan tashqari hamma mamlakatlardan tovar olib kelinayotgan paytda turli xil yig'imlar va soliqlar ham olinadi. Bu yig'im va soliqlar tovar keltirilayotgan mamlakatning ichki bozordagi



raqobat muvozanati, mamlakat sanoat tarmoqlarini himoyalash; davlat xazinasini to'ldirish maqsadlari; bojxona xizmatini ta'minlash va shu kabilar uchun qulay sharoit yaratadi.

Tovarlarni olib kirishda qo'llaniladigan yig'imlar va soliqlardan tushadigan umumiy qo'shimcha summa miqdori ko'pincha bojxona tarifida belgilangan boj solig'i summasidan ko'proqni miqdorni tashkil etadi. Ba'zi bir yig'imlar stavkalari belgi-lanmagan bo'ladi va faqat mamlakatning olib borayotgan iqtisodiy siyosati hamda kon'yunkturaning holatiga qarab olinadi.

Bojxona tariflari tuzilishi ichki bozorni samarali himoya-lashning «eskalatsiya» tarifi negizi asosida quriladi.

Samarali tarif stavkasi (stavka effektivnogo tarifa) – ish-lab chiqarish jarayonida tovarlar narxining oshib ketmaslik tari-fini qattiq nazorat qilishni bildiradi. Mahsulotning narxi tayyor mahsulotlar uchun boj stavkasining hajmi, xom ashyo va yarim fabrikatlar boj stavkasi va ularning tayyor mahsulotdagi hissasi o'rtasidagi farqqa bog'liq.

Boj hajmi bilan tayyor mahsulotlar va xom ashyolar o'rtasidagi farq qanchalik yuqori bo'lsa, tayyor mahsulotlarda xom ashyo hissasi qanchalik ko'p bo'lsa, bojdani himoyalashning haqiqiy stavka hajmi shunchalik ko'p bo'ladi. Bojdani himoyalashning (protek-tsiyoning samarali darajasi) haqiqiy (yoki samarali) darajasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$q = \frac{t - a_1 t_1}{1 - a_1}$$

$t$  – import uchun tayyor mahsulotga bojxona bojining bel-gilangan darajasi.

$a_1$  – tayyor mahsulot narxida import xom ashyo bahosining his-sasi bojxona tarifida yo'qligi.

$t_1$  – import xom ashyosining nominal tarifi.

Hozirgi zamon xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bosqichida o'zaro savdo aloqalarini tartibga solib turuvchi rolni o'ynab turgan bojxona mavqei pasayib borayapti.

1947-1998 yillar mobaynida bojxona boji 45% dan 3-4% gacha pasaydi. Uning rivojlangan mamlakatlardagi o'rtacha stavkasi Yaponiyada 3,5% ni, AQShda 5% ni, Evropa Ittifoqi mamla-katlarida 7,5% ni tashkil etdi. Bu hol bir qator omillar ta'siri ostida yuz berdi.

- GATT-UST ning maqsadga yo'naltirilgan faoliyatlari;
- Bir qator qulay sharoitlarning ta'siri;
- Investitsiya tovarlarini to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyasi

shaklida olib kelish imkoniyati vujudga kelganligi;

- Preferentsional (engillik) kelishuvlarning keng tarqalgan-ligi;
- Integratsiyalash guruhlari faoliyati;
- Bog'lovchi tarif printsiptini amaliyotda keng qo'llanilayot-gani.

Alohida tovarlar guruhiga—to'qimachilik, kiyim-kechak, teri-charm, kauchuk, sayyohlik tovarlari, baliq va baliq mahsulotlari, transport jihozlariga bojning yuqori stavkalari saqlanib qol-gan.

Milliy qishloq xo'jalik bozorlarini himoyalash maqsadida oziq-ovqat mahsulotlari uchun ham boj stavkalari yuqori. Bunga qishloq xo'jaligi sohasini «tarifikatsiya» qilish jarayoni ham ta'sir ko'rsatmoqda. Tarifikatsiya Evropa Ittifoqi mamlakatlari amaliyotida sut mahsulotlariga, shakar, sabzavot va mevalarga ta-qiqqlangan boj tarifining paydo bo'lishiga olib keldi. Evropa Ittifoqi mamlakatlarida qishloq xo'jalik bozorlarini himoya qilish tarifida Yaponiya yoki AQShga nisbatan yuqori tarifli bojlarning joriy etilishi natijasida boj stavkasi haddan ziyod yuqori «tarif cho'qqisi»ga ko'tarildi va bu bojlar tovar bahosi ustiga qo'yiladigan 12% dan ortiqni tashkil etadi hamda bu boj turlari milliy ishlab chiqaruvchilarni samarali himoyalash vosi-tasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Boj stavkalarini tabaqalashtirishning milliy boj tarif-larida ahamiyati juda katta bo'lib, 350-900 foizgacha etadi. «Tarif cho'qqisi» ishlab chiqarishning bir qator tarmoqlari, masalan, sab-zavot, meva, baliq, poyabzal va charm mahsulotlari, sayyohlik ji-hozlari, avtomobilsozlik mahsulotlari, yuqori texnologik tovar-lar (maishiy elektronika va soatlar) kabi turlari uchun ko'proq xosdir. Misol uchun, tovarlarning «jonli hayvonlar va mahsulot-lar» guruhi uchun bojning eng yuqori miqdori – Evropa Ittifoqi mamlakatlari uchun 198 foiz, Yaponiya uchun 50 foiz, Vengriya uchun 108 foiz, Koreya respublikasi uchun 243 foiz belgilangan.

#### **4. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning notarif usullari**

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning notarif usullari o'zining ta'sir kuchi darajasiga qarab ikki guruhga bo'linadi:

1. To'g'ri usullar – bu usul ochiq-oydinligi bilan ajralib turadi hamda huquqiy me'yoriy hujjatlar bilan aniqlanadi. Bu-larga kvotalash, litsenziyalash, eksportning ixtiyoriy cheklash ichki soliqlar kiradi.

2. Yashirin usullar – bu usul matbuotda rasman e'lon qilin-magan davlat idoralarning turli yo'riqlari, bozor munosa-batlari bilan bog'liq tadbirkorlikda yuzaga kelgan ahvol; tashki-lotlarning siyosiy, ijtimoiy va madaniy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Tartibga solishning notarif usulini qo'llashdan ko'zda tutil-gan maqsad:

- import hajmini qisqartirish (import narxi ko'tarilma-guncha);
- import narxlarini oshirish (narx himoyasi samarasi tarif samarasi bilan taqqoslab ko'riladi);
- import tovarlariga talabning elastik o'zgarishi (kvota talab elastikligini kamaytiradi);
- bozor kon'yunkturasidan qat'i nazar tovarlar miqdori va qiymatini belgilaydi.

Keyingi 20 yildan beri tartibga solishning notarif usul-lari milliy bozorlarni himoya qilishning asosiy vositasi bo'lib kelayapti. Dunyo mamlakatlari ichki bozorlarini notarif himoyalash darajasi 16,5 foizni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich sanoati ri-vojlangan mamlakatlarda 10,4 foizga, rivojlanayotgan mamla-katlarda 21,9 foizga teng. O'tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan ba'zi bir mamlakatlarda bu ko'rsatkich yuqori bo'lib, Polshada 32,4 foizni, Vengriyada 19,5 foizni tashkil etadi. Bu raqamlar OESRning bergan baholari natijalarini ko'rsatib tu-ribdi.

Notarif usullar Evropa Ittifoqi mamlakatlari va AQShda amaliy jihatdan keng tarqalgan. Bu usullar AQSh boj tarifi po-zitsiyalarining 16,8 foiziga yoyildi. Evropa Ittifoqi mamlakat-larida 19,1 foiz, Yaponiyada – 10,7 foiz, Kanadada – 10,4 foiziga tarqaldi. Shu bilan birga, Yangi Zelandiya, Islandiya, Turkiya kabi mamlakatlarda bu usul amaliy jihatdan unchalik qo'llanilmaydi.

Tartibga solishning notarif usullari Jahon savdo tashki-lotining tasnifiga ko'ra besh guruhga bo'linadi:

- davlatning savdodagi ishtiroki, cheklangan amaliyot va umu-miy

xarakterga ega bo'lgan davlat siyosati;

- bojni tartibga solish (protseduralari va ma'muriy rasmiyat-chilik);
- savdodagi texnik to'siqlar;
- shunga o'xshash xarakterdagi miqdor va o'ziga xos chegaralash;
- to'lovlar mexanizmiga qo'yilgan garovni cheklash.

Davlatning savdodagi ishtiroki, cheklangan amaliyot va umumiy xarakterga ega bo'lgan davlat siyosati shulardan foydalanishni ko'z-da tutadi:

- Subsidiya va boshqa turdagi yordamlar-eksport uchun va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish uchun yo'naltirilgan, soliq imtiyozlarini, yordam bilan «bog'liq» ikki tomonlama das-turni, imtiyozli kreditlashni kafolatlagan eksport kreditlarini qamrab olgan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita dotatsiyalar.

- Davlat tomonidan sotib olinishi.

- Davlat savdo tashkilotlari, davlat monopoliyasi va alohida frangayzing – savdo amaliyotida davlat tomonidan qo'llaniladigan cheklashlar, hukumat sanktsiyasi, xalqaro yuk tashish sohasida kamsitilishlarga yo'l qo'ymaslik haqidagi kelishuv.

- Davlatning sanoati sohasidagi siyosati hamda sanoatda hukmron bo'lgan rayonlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar.

- Ilmiy tadqiqot ishlarini davlat tomonidan moliyalash-tirish va boshqa yo'nalishdagi texnologik siyosatni olib borishda shaxsiy intellektual mulkni (patentlar, savdo markalari, mual-liflik huquqi) himoya qilishni o'z ichiga qamrab olgan xususiy firmalarga yordam ko'rsatish

- Kompensatsion boj – Bu maxsus import bojlari bo'lib ma-halliy ishlab chiqaruvchilarga zarar keltirgani uchun import to-varlardan olinadigan boj. Bu bojlar chet el davlatlari tomonidan eksportni subsidiyalashni chetlashtirishga qaratilgan.

- Soliqqa tortishning milliy tizimi va ijtimoiy sug'urtalash

- Makroiqtisodiy siyosat – yalpi milliy mahsulot (YaMM)ga, mamlakatning tashqi savdosiga, kapital harakatiga ta'sir o'tka-zuvchi pul-kredit sohaslarini, to'lov balanslari va boshqalarni tartibga solishga qaratilgan siyosat.

Raqobat siyosati – raqobatni rag'batlantirish yoki cheklashga qaratilgan antimonopoliya va boshqalarni tartibga solish siyosati.

Chet el investitsiyasiga nisbatan yuritiladigan siyosat - qanday maqsadlarda ishlatish shartlarini o'z ichiga olgan chet el investitsiyasining oqimi va qaytishiga erishish qonun-qoidalari va mo-

nitoringi.

Milliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi raqobatlaridan himoya-lash shakllaridan biri hukumatning tovarlarni sotib olish tizi-mi hisoblanadi. Bu tizimga muvofiq hukumat tashkilotlari ma-halliy tovar ishlab chiqarishga imtiyozlar beradi. Bu imti-yozlarning umumiy hajmi milliy yalpi milliy mahsulotning 10-15 foizni tashkil etadi. Bundan ko'zlangan maqsad eng yuqori sifatli tovarlarni va xizmatlarni ancha arzon narxlarda xarid qilishdir.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan hukumatning prefe-rentsional munosabati – chet el tomonidan taqdim etilgan narxni tabaqalashni mol etkazib beruvchi ayrim mamlakatni tanlab olish siyosati; chet el firmalari (partnerlarga faqat milliy bozordan hukumat shartnomasida ko'rsatib o'tilgan molni sotib olishda qo'-yiladigan talab; faqat mahalliy ishlab chiqaruvchilarga taalluqli hukumat shartnomalarining ayrim turlarini zaxiralashni o'z ichi-ga oladi.

Yashirin turdagi diskriminatsion ko'rinishga ega hukumat sav-dosi o'z ichiga quyidagilarni oladi.

- Tender savdosini o'tkazishni tanlash,
- Tender savdosi ishtirokchilarini ogohlantirish vaqtini va usullarini belgilashda diskriminatsiya (kamsitish) usuli.
- Milliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini ko'zlab qo'lla-niladigan standartlar va qonun-qoidalar.
- Qaytadan mol etkazib beruvchilarning muhim shartlari haqi-da qisqacha axborot berish.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashning eng yuqori darajasi qishloq xo'jaligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ish-lab chiqaruvchilar dotatsiya ekvivalentining ishlab chiqarish hajmi bahosiga qarab 3 foiz atrofida o'zgarib turadi. Yangi Zelandiya va Shveysariyada 76 foizni tashkil qiladi. Buning eng yuqori dara-jasi guruch (sholi), sut, shakar-qand ishlab chiqaruvchilar uchun xa-rakterli hisoblanadi. AQShda milliy ishlab chiqaruvchilarni sub-sidiyalash darajasi (ishlab chiqarish hajmi bahosiga nisbatan) 0,5 foizli tashkil etadi, hukumat shartnomalari bilan birga olib qaralganda 2 foizdan ko'proqni tashkil etadi.

Eksportni subsidiyalash samaradorligi kompensatsion boj-larni qo'llash bilan neytrallashtiriladi. Bu usul butun jahon iqtisodiyotida ijobiy samara bersa ham, ba'zi bir davlatlarda naf bermasligi mumkin.

**Boj tartiblari va ma'muriy rasmiyatchilikka quyidagi-lar kiradi:**

- Tovarning bojxona qiymatini aniqlash usuli: tovarning narxini aniqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan usul qo'llaniladi va shu asosda bojxona boji olinadi. Tovarning bojxona qiy-matini import qiluvchi mamlakatlarning qonunlari asosida u yoki bu tovarning sotilishi va sotish uchun taklif etilgan vaqtdagi ha-qiqiy qiymati yoki narxi belgilab beradi. Boj qiymati qo'l-lanilayotgan usullardan biri asosida shunga qaratiladi: import qiluvchi mamlakatlarda tovarlar qiymatini sotish, eksport qi-luvchi mamlakatlarda tovarlarning ichki bozordagi qiymatini so-tish, boshqa mamlakatlarga (bundan import qiluvchi davlatlar mustasno) eksport tovarlari qiymatini sotish, bojxonaning mini-mal qiymati.

- **Bojxona turkumlaridan foydalanish** – bunda bojga torti-lishi lozim bo'lgan tovarlarni turkumlash (xalqaro amaliyotda unifikatsiya qilinmagan, ya'ni bir shaklga keltirilgan)ning mil-liy usullari qo'llaniladi. Boj turkumlanishi qancha ko'p miqdorda tarif pozitsiyasiga ega bo'lsa, proteksion (chetdan keltirilayotgan mollarga ko'p boj solish) samara shuncha ko'p bo'ladi.

- **Antidemping amaliyoti** – bundan ko'zlangan maqsad maxsus import bojni joriy etish bo'lib, shu yo'l bilan dempingni aralashmaydigan (neytralizovat) qilib qo'yishdan iborat. Bunday amaliyotni GATT-VTO nizomiga binoan qo'llashga ruxsat etiladi. Antidemping bojar bazaviy yoki milliy boj tariflaridagi minimal (eng kam) boj stavkalaridan o'rta hisobda bir necha barobar ko'p. Lekin bu - savdo hajmiga ta'sir etmaydi. Antidem-ping bojar import qiymatini o'rta hisobda 30-50 foizga, import hajmini 70 foizga qisqartiradi.

**Tovar dempingi** – bir mamlakatning tovarlarini boshqa bir mamlakatning bozorida pasaytirilgan narxda sotish bilan belgi-lanadi. Bunda bozor ko'p miqdorda mollar - tovarlar bilan to'ldi-rib tashlanadi. Bu ish qoidaga binoan monopol yirik kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladi. Tovar dempingi amal qilish mudda-tiga qarab quyidagilarga bo'lingan:

- **Doimiy va agressiv demping.** Bozor segmentining ayrim quyi qismida mahsulotlarga pasaytirilgan narx belgilash asosida raqobatchilarni bozordan siqib chiqarishga qaratiladi, bo'g'in segmentlarida esa monopol yuqori baho o'rnatiladi va hukmron kompa-niya qo'shimcha foyda ko'radi. Bunga qarshi kurashish uchun import qiluvchi mamlakatlar antidemping bojni ishga soladi, bu tadbir import qiluvchilarni bahoni ko'proq pasaytirishga majbur etadi, natijada, bundan iste'molchilar yutadi.

- **Bir marta qo'llaniladigan yoki passiv demping** yig'ilib qolgan



ortiqcha mahsulotlarni realizatsiya qilish uchun qo'llani-ladi; import qiluvchi mamlakatlarga qarshi kurash uchun tarif choralari ishga soladi.

### **Savdodagi texnik to'siqlar:**

- sanoat standartlari, xavfsizlikni ta'minlash;
- sifat standartlari, sog'liqni saqlash talablari;
- sanitariya-veterinariya normalari;
- qadoqlash qoidalari, savdo markalarini qamrab olgan tovar-ni markirovka qilish;
- reklama qoidalari.

Shunga o'xshash xarakterdagi miqdoriy va o'ziga xos cheklovga:

- import kvotalari ma'lum bir davr uchun import tovarlari hajmi va qiymatini cheklaydi;

- Eksport cheklovi importni cheklovi o'xshaydi.

Lekin ko'proq maxsus tovarlar eksportini cheklashga xizmat qiladi.

- Litsenziyalash - mamlakatdan tashqariga tovar chiqarish va chetdan tovar keltirishga ruxsat beruvchi hujjat;

• Eksportni «ixtiyoriy cheklovlar eksportga tovar chiqaruvchi mamlakatlarning tazyiqi ostida o'z zimmasiga oladi; litsenziya-sidan foydalanishni talab qiladi; importga tovar chiqaruvchi mamlakatda narxning ko'tarilishiga ta'sir o'tkazadi. (Yaponiyadan avto-mobillarni Frantsiyaga olib kelish avtomobillar narxini 33 foizga oshirib yubordi);

• Moliyaviy nazoratning valyutali va boshqa shakldagi to'lovlarini chet el valyutasiga nisbatan cheklash xalqaro savdoni yoki litsenziyalashni talab etuvchi kapital harakatini nazorat qilish maqsadini ko'zda tutadi. Chunki kelishuvning mohiyatiga qarab ko'pgina valyutalar kursi tizimi qo'shilgan bo'lishi mumkin;

• Mahalliy komponent shundan iborat: tugal tovar ishlab chiqarish ichki mahsulotlar yoki materiallar, ishchi kuchlari hisobiga bo'lishi kerak;

• Diskriminatsion ikkiyoqlama kelishuv deyilganda, alohida tovarlar uchun va davlatlar uchun savdo siyosatiga qaratilgan biror yo'lni tanlab olish imkonini beruvchi preferentsial savdo tushuniladi;

• Muqobil savdo. Bu alohida kelishuv bo'lib, barterni ham o'z ichiga olgan va duch kelgan tovarlarni an'anaviy usul-naqd pul bilan emas, boshqa yo'llar bilan sotib olish.

**Kvotalash**-eksport-import miqdorini cheklashning keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblanadi.

Kvotalash yoki kontingent (ma'lum mamlakatlarga kiritiladigan,



ulardan chiqariladigan yoki ular orqali o'tkaziladigan ba'zi tovarlar uchun belgilab qo'yilgan miqdor) deyilganda qiymati bo'yicha import (eksport) miqdorini cheklash yoki ma'lum bir mud-datga miqdor cheklovi tushuniladi. Shu bilan bir vaqtning o'zida kvotada belgilanganidan ortiqcha mahsulot importi (eksporti)ni ham taqiqlaydi. Import kvotalarining joriy etilishi ma'lum tovarga nisbatan talabni cheklaydi va import mahsulotlari chiqaruvchi mamlakatlar ichki bozorida narxning ko'tarilishiga olib ke-ladi. Hozirgi vaqtda kvotalarning bir necha turidan foydalanil-moqda.

- Global – bu har yili belgilanadigan kvota.
- Individual – Bu kvota import qiluvchi ma'lum bir firma tomonidan olib kelinadigan tovarga belgilanadi va import chek-lovining juda kuchli tadbiri hisoblanadi.
- Mavsumiy - qishloq xo'jalik mahsulotlarini yig'ishtirib olish mavsumida qo'llaniladi.
- Tarif kontingenti – preferentsial import hajmini aniq-lash uchun qo'llaniladi, tarif kvotasida belgilanganidan ko'p miqdorda tovar olib kelinsa, bu holda odatdagi darajada bojga tor-tiladi.

Amaliyotda kvotalar quyidagicha taqsimlanadi:

- Auktsion asosida - hukumat litsenziyalarini auktsion savdo-lari doirasida taqsimlash;
- Mamlakatni o'tgan davr importdagi ulushi asosida;
- Xedjerlari asosida.

#### **To'lovlar mexanizmidagi cheklovlar:**

- Iste'molchi mamlakatlar ichki bozoridagi import tovardan (ichki diskrimatsion soliqqa tortish) olinadigan soliqlar;
- Bilvosita chegara soliqlari iste'molchi mamlakatlarning bojxona hududidan olib o'tilayotgan tovardan olinadi (faqat im-port tovarlardan olinadi);
- Import depoziti talabi shundan iborat: import qiluvchi ma'lum miqdordagi summani (import qiymatini hisobga olib) kelgusidagi boj to'lovi uchun bankning maxsus foizsiz schetiga garovga qo'yadi. Bitishuv nihoyasiga etgach, garovga qo'yilgan summa foiz miqdorisiz import qiluvchiga qaytarib beriladi. Depozit summasi import tovarning qiymatiga qarab 50-70 foizga etishi mumkin va import uchun sarflanadigan naqd mablag' resurslarini kamaytirishga qaratiladi.

Dunyo amaliyotida milliy, xorijiy va jismoniy shaxslar uchun, tovarlar va xizmatlar uchun belgilangan soliqlarning bir xil stavkalaridan kelib chiqqan soliq olish printsipti keng tarqalgan. Lekin bu holda turli

xil narxlardan foydalaniladi: milliy tovar uchun sanoat narxi, chet el tovari uchun «sif» narxi qo'llaniladi va bu narxga sug'urtalash va tansport xarajatlari ham qo'shiladi.

Soliqlar Evropa Ittifoqi mamlakatlari milliy qishloq xo'jaligi bozorlarini himoyalashda keng qo'llaniladi. Kvotalar olib kelinayotgan mahsulotlarning miqdorini belgilaydi. Bu ichki bozorda narx o'sishini rag'batlantiradi.

Soliqlar ichki bozor narxlarini doimo bir xil darajada ushlab turadi. Bu – talabga qarab mumkin bo'lgan hajmdagi mahsulot olib kelish imkonini beradi. Talabning o'sishi oqibatida kvotalar tarif ekvivalenti ortib boradi, soliqning ekvivalenti bo'lsa pasayadi.

G'arbiy Evropa mamlakatlari amaliyotida import soliqlari - **«Sirpanuvchan kompensatsion yig'imlar»** keng qo'llaniladi. Buni qo'llashdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad ma'lum tovarlar uchun belgilangan ichki yuqori narxni ushlab turish hamda nazorat ostiga olingan narxni tartibga solib turish hisobiga qishloq xo'jalik bozorini himoya qilishdan iborat. Ko'pgina tovarlarga minimal import narxi (yil sayin EI Komissiyasi tomonidan aniqlab turiladigan) belgilanadi, bu tatbiq indikator vazifasini o'tab boshqa bir uchinchi mamlakatdan mahsulot olib kelish imkonini beradi.

Kompensatsion yig'im hajmi tovarning dunyo narxi hamda Evropa Ittifoqi mamlakatlaridagi transport xarajatlari va tovar sifatini hisobga olgan ichki nazorat narxi o'rtasidagi farqqa bog'liq bo'ladi. Yig'imlar ta'siri ostida importga mo'ljallangan qishloq xo'jalik mahsulotlarining 70 foizi Evropa Ittifoqiga kelib tushadi. Buning natijasida qayta ishlangan mahsulotlar bir vaqtning o'zida boj to'lovi va kompensatsion yig'imga tor-tiladi. Yig'imlar qishloq xo'jaligi xom ashyosidan, boj esa shu xom ashyodan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotdan olinadi.

Qishloq xo'jaligi Evropa Ittifoqi, AQSh, Kanada, Yaponiya va boshqa mamlakatlar iqtisodiyotining eng ko'p protentsion himoyalangan tarmog'i hisoblanadi.

## **5. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solinishi**

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davlat tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning yuqori sifat ko'rsatkichiga bo'lgan yangicha yondashuvni talab qiladi. Hozirgi vaqtda davlat tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solishda quyidagi vazifa-lar ustuvor masala sifatida ko'riladi:

- uzoq muddatli strategiyani aniqlash;
- eksport va import, valyutali tashqi savdo, investitsiya prognozlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;
- tashqi iqtisodiy faoliyatga jalb etilgan vazirliklar, idoralar, kontsern va assotsiatsiyalar, ishlab chiqarish birlashmalari va barcha turdagi xususiy korxonalarining faoliyati ustidan nazorat o'rnatish;
- mamlakatni xalqaro mehnat taqsimotida yanada faol va samarali ishtiroki etishi uchun sharoit yaratib berish va rag'batlantirish.

Davlatning asosiy vazifasi tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar faoliyatlarini tartibga solib turishni cheklov-chi chora-tadbirlarni o'rnatishdan iborat emas, balki ularning jahon bozoriga kirib borishlari uchun har tomonlama yordamla-shishdan iborat.

Davlat milliy manfaatlarini, butun jamiyat manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soladi va uning qatnashchilariga aniq chora-tadbirlar bilan yordam ko'rsatadi, qo'llab-quvvatlaydi yoki tashqi iqtisodiy faoliyatning ayrim nomaqbul turlari amalga oshirilishiga imkon bermaydi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tomonidan tartibga solib turilishi o'z ichiga quyidagilarni oladi.

- Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish;
- Soliq va imtiyozlarning tabaqalashgan tizimini joriy etish;
- Tashqi iqtisodiy faoliyatni axborotlar bilan ta'minlab turishning davlat tizimini tashkil etish;
- Ayrim hududlar, tarmoqlar, korxonalarining tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va uni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan dotatsiya, subsidiya, subventsiya, byudjetdan ssuda, tavakkal-chilik sug'urtasi shaklida moliyaviy yordam berish;
- Respublikada tashqi iqtisodiy aloqalarni turli xil shakllarini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli kompleks dasturlarni ishlab chiqish, moliyalashtirish va ekspertizasini o'tkazish;
- Mahsulotlarni (ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlar) eksport va import

qilish tartibini deklaratsiyalash;

- Valyuta mablag'lari va boshqa fondlarni tashkil etish va ulardan foydalanish;

- Davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha rivojlanadi.

- Iqtisodiyotni mustahkamlash, barqarorligi va rivojlani-shini ta'minlash;

- Fuqarolar sog'lig'i, xavfsizligini ta'minlash va atrof-mu-hit muhofazasi;

- Mamlakatdagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni chet el bozo-riga chiqish imkoniyatlarini ta'minlash;

- Mahalliy tadbirkorlar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar-ning raqobatbardoshligini ta'minlash;

- Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini rivojlantirishni rag'batlantirishni ta'minlash, ilmiy-texnik taraqqiyotiga ko'mak-lashish;

- Ayrim tarmoqlar ehtiyojini qondirish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning holati va rivojiga davlat to-monidan ta'sir o'tkazish chora-tadbirlari tizimida, ayniqsa, boj-tarif asosida tartibga solib turish muhim o'rin tutadi. U mavjud qonunlar va huquqiy-me'yoriy aktlarga asoslanadi: O'zbekiston Respublikasining «Bojxona tarifi to'g'risida»gi O'zbekiston Res-publikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari, Davlat bojxona qo'mitasi, Moliya vazirligi, davlat soliq qo'mitasining qabul qil-gan va me'yoriy hujjatlari.

O'zbekiston 2002 yilning 1 iyulidan boshlab tashqi iqtisodiy faoliyatida Tovarlar nomenklaturasi qo'llanila boshladi. Bundan ko'zlangan maqsad bundan buyon import operatsiyalarini boj tarif-lari asosida tartibga solib turishni takomillashtirish, import bojini unifikatsiyalash edi.

Butunjahon savdo tashkilotining standartlariga mos ravishda import tariflari tuzilishi takomillashtirildi, 2002 yilning 1 iyunidan boshlab import bojining yangi stavkalari tasdiqlanib amaliyotga joriy etildi; jismoniy va yuridik shaxslar uchun alo-hida import bojxona boj stavkalari joriy etildi, jismoniy shaxslar uchun bojxona bojini yangi turi – yagona bojxona boji joriy etildi; O'zbekiston hududiga import tovarlarining olib kirishning yangi qoidalari qabul qilindi.

Mahsulotlar olib kelish va chetga chiqarishni tartibga solish chora-tadbirlari hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar, qonuniy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunga misol qilib kodirovkalash, embargo e'lon qilish va texnik to'siqlarni ko'rsa-tish mumkin.

Hozir paytda O'zbekiston Respublikasida quyidagi taqiqlov-chi va cheklovchi chora-tadbirlar amal qilib turibdi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan "eksport uchun taqiqlangan buyum-lar va mahsulotlar" Ro'yxati. Bunday taqiqlangan buyumlar va mahsulotlar ro'yxati mamlakatdagi ichki vaziyatga ko'ra hamda jahon bozorida sodir bo'lgan vaziyatdan kelib chiqib tuziladi.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga, Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq O'zbekistonga "olib kirilishi taqiqlangan buyumlar" Ro'yxati;

- O'zbekiston Respublikasining «maxsus yuklar va harbiy kontingentlar tranziti to'g'risida»gi qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasi bojxonaga hududidan tranzit bilan olib o'tilishi taqiqlangan buyumlar Ro'yxati.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish maqsadida res-publikada eksporti taqiqlangan tovarlar miqdori qisqartirildi. 2002 yil may oyidan boshlab sut kukuni, choy xom ashyosi va etil spirti eksportiga belgilangan taqiq bekor qilindi, 2002 yil iyun oyidan boshlab chet el valyutasi ajratilishi tavsiya etil-maydigan import va iste'mol tovarlari ro'yxati bekor qilindi. O'zbekiston Respublikasining amal qilib turgan qonunlariga bi-noan hozirgi vaqtda kvotalash ham bekor qilindi.

Milliy ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida yuridik shaxslar tomonidan keltiriladigan import iste'mol tovarlari, chunonchi sifatli texnologiyalar xom ashyolar, butlovchi qismlar, mahsulotlar va nooziq-ovqat tovarlar uchun belgilangan yig'imning tovar bojxona qiymatining 30 foizi miqdoridagi qismini to'lashdan ozod qilindi.

2003 yil iyul oyida uy-joy qurilishini kengaytirish uchun shart-sharoit yaratish, aholining va respublika korxonalarining yog'och va yog'och materiallariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, bu mahsulotlar bilan ichki iste'mol bozorini to'ldirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomondan maxsus qaror qabul qilindi. Bu qarorga binoan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan olib kelinadigan yog'och va yog'och materiallariga import bojlari bekor qilindi.

Eksport-import operatsiyalarini tartibga solishning tarifli va notarif usullari mexanizmini takomillashtirish, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni va ichki bozorni himoyalash doirasida Respublikada «Himoya choralari, dempingga qarshi va kompensatsion bojlar

to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.

Ko'pgina davlatlar milliy iqtisodiyotni tiklash jarayonida ishlab chiqaruvchilarini chet el raqobatidan himoya qilish maqsadida proteksionizm siyosatini qo'llaydilar. Aks holda mahalliy korxonalar «sinishi», ishsizlikning yuzaga kelish xavfi tug'iladi. Lekin proteksionizm siyosati salbiy oqibatlarga olib kelishi ham mumkin. Masalan, iqtisodiyotning himoya qilinayotgan sohalarida resurslardan oqilona foydalanmaslik holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Iqtisodiyot tizimini boshqarishni qayta qurish vositasi sifatida tariflar va bojlarni qo'llash milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ko'proq samara beradi. Xususan, respublika xalq xo'jaligining u yoki bu sohasi ahamiyatini, ularning rivojlanish imkoniyatlarini baholab, qisqa muddatlarda kam sarf-xarajatlar qilib, jahon bozorida raqobatlasha oladigan va mamlakat valyuta resurslarini to'ldirishini ta'minlaydigan tarmoqlarda qo'llanilishi va rag'batlantirishi mumkin.

Agar mamlakatlar Bojxona Ittifoqiga birlashsalar, unda bojxona tarifi barcha ishtirokchi davlatlar uchun ularning savdo munosabatlarida yagona bo'lib qoladi (masalan, Evropa iqtisodiy hamjamiyati). Bojxona tariflari miqdori alohida mamlakatlarda iqtisodiyotida va jahon xo'jaligida yuz berayotgan jarayonlar ta'sirida o'zgaradi. Umuman, jahonda bojlarning pasayishi tendentsiyasi kuzatilmoqda va u ikki tomonlama va ko'p tomonlama muzo-karalar asosida mamlakatlar tomonidan rag'batlantirilmoqda va nazorat qilinmoqda.

Shunday qilib, bojxona bojlari va tariflar milliy darajada bo'lgani kabi, millatlararo darajada ham tashqi savdoni tartibga solishning muhim vositalari hisoblanadi. Bojxona tariflari va bojlaridan tashqari tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bilvosita, egiluvchan usullari sifatida turli soliq turlari keng qo'llaniladi. Bunda faqat tashqi soliq tizimidagi emas, balki ichki soliq tizimidagi soliq turlaridan ham keng foydalaniladi. Faqat tashqi savdoni tartibga solishda qo'llaniladigan soliqlarga import va eksport soliqlari kiradi. Ular olib kelinayotgan yoki olib chiqilayotgan mahsulotlarga, ularning oqimlarini tartibga solish, ya'ni rag'batlantirish yoki to'xtatish maqsadida belgilanadi.

Ko'pgina mamlakatlarda import tushumlariga soliqlar keng qo'llanilsa, eksport mahsulotini sotishdan tushadigan tushumlarga soliq imtiyozlari joriy etilgan. Bu eksportni rag'batlantirishga, ichki va tashqi bozorlardagi narxlar farqi ko'p bo'lganda o'z mahsulotlari kabi import mahsulotlarga ham mamlakat ichida sotish uchun bir xil sharoitlar



yaratish imkonini beradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat, shuningdek, ichki soliqlar tizimi yordamida ham tartibga solinadi. Davlat sotishdan olingan foy-daga, pul kapitalidan daromadlarga, kapitalning qo'shimcha o'si-shiga, qimmatbaho qog'ozlarga, ortiqcha foydaga va boshqalarga so-liqlarni belgilab, o'zining hamda xorijiy ishlab chiqaruvchilar-ning faoliyati uchun qulay yoki qulay bo'lmagan sharoitlarni yara-tishi mumkin.



## Tayanch so'z va iboralar

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish – davlat tashkilotlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish va uni bajari-lishini ta'minlash jarayonidir.

2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlatlararo darajada tar-tibga solish xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan ishlab chi-qiladigan va ishtirokchi mamlakatlar manfaatdorligini ta'min-lashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishdir.

3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish usullari - tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda qo'llaniladigan vo-sitalar va yo'l-yo'riqlar majmuasidir.

4. Bevosita usullar - taqiqlash yoki ruxsat berish xususiyatiga ega bo'lgan usullar.

5. Bevosita usullar - tashqi iqtisodiy faoliyatga iqtisodiy tayanchlar yordamida ta'sir etish.

6. Bojxona boji – mamlakatga olib kelinayotgan yoki mamlakatdan olib ketilayotgan mahsulotlarga solinadigan majburiy so-liq.

7. Advalor boji - mahsulotlar qiymatiga foiz hisobidan undiriladigan boj.

8. O'ziga xos (spetsifik) boj - mahsulot og'irligi, hajmi yoki birligiga belgilangan pul miqdorida undiriladigan boj.

9. Import boji – davlat byudjetini to'ldirish va ichki bo-zorlarga tushadigan chet el tovarlari oqimini tartibga solish maq-sadida belgilanadigan boj.

10. Eksport boji – mamlakat ichida talab ko'p bo'lgan mahsu-lotlar taqchilligini oldini olish maqsadida belgilanadigan boj.

11. Bojxona tarifi – boj olinadigan va boj olinmaydigan, olib kelish va olib chiqish taqiqlangan mahsulotlar, shuningdek, bojxona bojlari stavkalarining tartibga solingan ro'yxati.

12. Litsenziyalash - tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat olish tartibi.

13. Kvotalash – eksport va importga miqdoriy yoki qiymat chegaralarini belgilanishi.

14. Dempingga qarshi bojar - jahon narxlari va import qila-yotgan mamlakat ichki narxlaridan past narxlar bo'yicha eksport qi-linayotgan mahsulotlarga o'rnatiladigan boj.

15. Kompensatsion bojar – ishlab chiqarish yoki eksport qi-lishda subsidiyalar ajratilgan mahsulotlarga nisbatan belgila-nadigan boj.

16. Tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilarini ro'yxatga olish – tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarini hisobga olish va rasmiy-lashtirish tartibi.

17. Mahsulot bayonnomasi - tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchisining mahsulot davlat chegarasini kesib o'tayotgani haqida ushbu mamlakatda o'rnatilgan qoidalarga muvofiq bergan arizasi.

## Nazorat savollari

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish nima uchun za-rur va unda davlatning roli qanday?
2. Tashqi iqtisodiy faoliyat davlatlararo darajada qanday tartibga solinadi?
3. Tartibga solishning bilvosita iqtisodiy usullarining mo-hiyati nimadan iborat?
4. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish usullaridan foydalanishdagi muhim vazifa nima?
5. Tashqi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning aso-siy usullari qanday tasniflanadi?
6. Bojxona bojlari va tariflari deganda nimani tushunasiz?
7. Xalqaro amaliyotda bojxona bojlarining qanday turlari qo'llaniladi?
8. Bojxona tariflari nimalar asosida quriladi?
9. Bojxona tariflarining qanday boj miqdorlari ustuni mav-jud?
10. Oddiy boj miqdori ustuni nima?
11. Bojxona tariflari qanday vazifalarni bajaradi?
12. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda soliq tizi-mining ahamiyati qanday?
13. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bevosita usullari ifodalanishiga ko'ra qanday?
14. Litsenziyalash nima? Qanday litsenziya turlari mavjud?
15. O'zbekistonda qaysi boshqaruv tashkilotlari ishlar va xiz-matlar eksporti va importiga litsenziya berish huquqiga ega?
16. Kvotalashning mohiyati nimadan iborat?
17. O'zbekistonda kvotalash nima maqsadda qo'llanilmoqda?
18. Tashqi savdoni tartibga solishning bevosita tarifli bo'l-magan usullari guruhiga bojxona bojlarining qanday turlari ki-radi?
19. Tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchilarini ro'yxatga olish qanday amalga oshiriladi va nimalarni o'z ichiga oladi?
20. Mahsulot bayonnomasi o'zida nimalarni aks ettiradi va qanday ko'rinishlarda amal qiladi?

## **IV bob. ZAMONAVIY XALQARO SAVDO VA JAHON NARXLARI**

1. Xalqaro savdoning ahamiyati va uning nazariy asoslari
2. Tashqi savdo operatsiyalari mohiyati, turlari va shartlari
3. Jahon narxlari mohiyati, turlari va shakllanish omillari
4. Jahon xizmatlar savdosi
5. Davlatlarning xalqaro raqobatbardoshligi
6. O'zbekiston tashqi savdosini rivojlanishi

# 1. Xalqaro savdoning ahamiyati va uning nazariy asoslari

Xalqaro savdo xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim va eng rivojlangan shakli hisoblanadi. Uning hissasiga xalqaro ayirboshlash hajmining 80%i to'g'ri keladi. 1999 yilda jahon bo'yicha eksportning umumiy hajmi 5610 mlrd. dollarni tashkil etdi, shu jumladan, rivojlangan mamlakatlar hissasiga 3752,35 mlrd. dollar va rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga 1494,3 mlrd. dollar to'g'ri keladi.

Xalqaro savdo mamlakatlar uchun ixtisoslashtirishni rivojlantirish, resurslar unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish bilan dunyo miqyosida ishlab chiqarish-ning umumiy hajmini oshirish imkonini beradi.

Iqtisodiy resurslar, ya'ni tabiiy, inson, investitsion re-surslar mamlakatlar o'rtasida bir xilda taqsimlanmaganligi xalqaro savdoning rivojlanishiga turtki beruvchi muhim omil hisoblanadi.

Turli xil tovarlarni samarali ishlab chiqarish turli xil texnologiyalar, resurslar kombinatsiyasini talab qiladi. Bu esa mamlakatda tovar ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini o'zgarib turishiga yoki ma'lum vaqt o'tishi bilan o'zgartirish-ga sharoit yaratadi. Xalqaro savdo ichki savdodan farqli ravishda qo'shimcha qiyinchiliklar bilan bog'liq:

1. Davlat tomonidan ko'proq siyosiy nazorat o'rnatishga harakat qilinishi;

2. Milliy valyutaning mavjudligi;

3. Resurslar harakatini ichki harakatchanlikka nisbatan xalqaro darajada pastligi.

Xalqaro savdo - xalqaro mehnat taqsimoti asosida yuzaga keladigan turli mamlakat tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi aloqa shakli bo'lib, ularning bir-biriga o'zaro qaramligini ifoda etadi. Ilmiy-texnik rivojlanish ta'siri ostida turli mamlakatlar iqtisodiyotida tarkib o'zgarishidagi siljishlar - sanoatlashgan ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va birlashuvi, milliy xo'jalikning bir biriga bo'lgan ta'sirini kuchaytiradi. Bu, o'z navbatida, xalqaro savdoni faollashtirishga yordam beradi. Jahon Savdo Tashkiloti tomonidan o'tkazilgan tadqiqot jahon ishlab chiqarish hajmining har 10% o'sishi jahon savdosi hajmining 16% o'sishiga to'g'ri kelishini va uning rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratishini ko'rsatdi.

Xalqaro savdo milliy iqtisodiyot va jahon xo'jaligi iqtisodiy

o'sishining asosiy omillaridan biri bo'lib qolmoqda va shu bilan bir vaqtda, mamlakatlarning tashqi savdoga bog'liqligi ham oshib bormoqda.

«Tashqi savdo» iqtisodiy tushuncha bo'lib, bir davlat bilan boshqa bir davlatlar o'rtasida tovarlar va xizmatlarning to'langan importi va eksportidan tashkil topgan savdosini anglatadi.

Zamonaviy tashqi savdo faoliyati o'z xususiyatining turli-tumanligi bilan ajralib turadi, u ma'lum bir tovar savdosiga ixtisoslashuvi bilan birga, tayyor mahsulotlar, mashina va uskunalar, xom ashyo, xizmatlar, texnologiyalar va moliyaviy uskunalar savdosi bilan shug'ullanishni ham o'z ichiga oladi.

Xalqaro savdo keng ma'noda dunyodagi barcha mamlakatlarning umumiy savdo hajmini bildiradi. Tor ma'noda ayrim mamlakatlardan, mintaqalardan, qit'alar tashqi savdosining umumiy hajmini ham ifodalaydi.

Xalqaro savdoning holati va rivoji quyidagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

- **Tashqi savdo aylanmasi** - xalqaro tovar ayirboshlashda qat-nashuvchi mamlakatning eksport va import qiymati summasini o'z ichiga oladi. Tashqi savdoning fizik va qiymat hajmi bir-biridan farqlanadi. Fizik hajmi – tashqi savdoning real dinamikasi joriy valyuta kurslarini hisobga olgan holda aniqlanadi. Xalqaro savdo hajmi barcha mamlakatlardan eksporti hajmini qo'shish orqali hisoblanadi

- **Tovarlar strukturasi** - qabul qilingan tasniflash tizimiga mos, asosiy tovar guruhlarini (xom ashyo va tayyor mahsulotlar, xizmatlar, mashina va uskunalar va h.k.) o'zida ifoda etadi.

- **Geografik strukturasi** – xalqaro savdoning umumiy hajmida alohida davlatlar, mintaqalar, qit'alarining salmog'ini (ulushini) ifodalaydi.

Keyingi o'n yillik dunyoda sodir bo'lgan global siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar tashqi iqtisodiy faoliyatning holati va rivojiga, shuningdek, xalqaro savdoga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. So'nggi o'n yillikda jahon savdosiga xos bo'lgan rivojlanish tendentsiyalari quyidagilardan iborat:

Jahon savdosining o'sish sur'ati dunyo yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hamda sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sish sur'atidan yuqori bo'ldi. 90-yillarda jahon savdosining dinamikasi dunyo bo'yicha ishlab chiqarilgan YaIM hajmidan deyarli uch barobar oshib ketgan. Dunyo mamlakatlari «Milliy iqtisodiyot»larining «ochiqlik» darajasi 1990 yildagi 19% dan 1998 yilda 23% ga o'sdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda jahon savdosi dinamikasi o'zining notekis rivojlanishi bilan ajralib turadi. Jumladan, uning o'sish

sur'ati 60-yillarda – 9,6% ni, 70-yil-larda 20% ni, 80 – 90-yillarda esa 6,5% ni tashkil etdi. Shu bilan birga, XX asrning so'nggi 20 yilligida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar eksporti hammadan ko'ra dinamik tarzda o'sdi. 2000 yilda rivojlangan mamlakatlar jami eksporti 2,9 barobar, rivojlanayotgan mamlakatlar eksporti 2,5 barobar, o'tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan davlatlar eks-porti 1,3 barobarga ko'paydi.

Shu davrda jahon eksportining tovar strukturasi ham tub o'zgarishlar bo'ldi. Eksport hajmida xom ashyo, yonilg'i va oziq-ovqat ulushi 2 barobarga, ya'ni 44,7% dan 27,2% ga qisqargan bo'lsa, tayyor buyumlar, yarim fabrikatlarning ulushi 1,5 martaga oshdi. Ularning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 7%ni, oziq-ovqatda esa 4% ni tashkil etdi, xom ashyo eksportida esa o'sish kuzatilmadi.

Keyingi paytlarda dunyodagi savdo aloqalarining geografik o'rni ham o'zgarib, rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga qarab siljimoqda. Jahon savdosining asosiy qis-mi, ya'ni uchdan ikki qismi rivojlangan mamlakatlar guruhi his-sasiga to'g'ri kelmoqda. Jahon savdosining yuqori konsentratsiya-si unchalik katta guruhni tashkil etmagan davlatlar hissasiga, ya'ni dunyoning birinchi o'nligiga kiruvchi davlatlariga jahon eksportining 58,6%i va importining 58,3%i to'g'ri keladi.

Xalqaro savdo munosabatlarini hozirgi paytdagi rivojlani-shining o'ziga xos xususiyatlaridan biri jahon xizmatlar savdosi-ning o'sish sur'ati tovarlar savdosining o'sish sur'atiga qaragan-da ancha yuqori ekanligidir.

Sanoat mahsulotlari bilan savdo qilishning o'sish sur'atlari oziq-ovqat va mineral xom ashyo qiymati fizik hajmiga qaraganda ancha yuqori. Bu yuqoridagi tovarlarning eksportiga ixtisoslash-gan rivojlanayotgan mamlakatlarning savdo sharoiti yaxshi emas-ligidan dalolat beradi.

Tashqi savdoning vujudga kelishi ikki muhim ob'ektiv sabab-lar bilan izohlanadi. Birinchidan, tabiiy va xom ashyo resurs-larining mamlakatlar o'rtasida notekis taqsimlanganligi bilan izohlanadi. Masalan, Yaqin Sharq mamlakatlari hissasiga jahon neft zaxiralarining 70%ga yaqini to'g'ri kelsa, mis, tabiiy gaz, boksit va boshqa foydali qazilmalar zaxiralarining 70-80%i rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Shuning uchun bir qator sanoati rivojlangan mamlakatlarda bu xil tabiiy boyliklarga ehtiyoj katta, foydali qazilmalar zaxiralarining kamligi, shuningdek, yonilg'i, xom ashyo mahsulotlariga



bo'lgan ehtiyojning o'sib borishi – bu resurslarni keng ayirboshlashni hayotiy zaruratga aylantirgan. Mazkur mahsulotlar so'nggi yillarda jahon eksportining  $\frac{1}{4}$  qismidan ko'prog'ini, yarim tayyor mahsulotlar savdosini ham hisobga olganda  $\frac{1}{2}$  qismini tashkil etadi. Xalqaro savdoning ikkinchi muhim ahamiyatli tomoni ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan izohlanadi. Qaysi bir mamlakat malakali ishlab chiqaruvchi kuchlarga ega bo'lsa, mehnat unumdorligi darajasi ham yuqori bo'ladi. Mutaxassislarining baholashlaricha, sanoatda mehnat unumdorligining darajasi 1990 yilda bir ishlovchi hisobiga AQSh da 57; Germaniyada 45,4; Yaponiyada 40,5; Turkiyada 18,0; Hindistonda 7 ming dollarni tashkil etgan.

### **Xalqaro ayirboshlashda mutlaq afzallik tushunchasi**

Nima sababdan davlatlar xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yanada kengaytirishga alohida ahamiyat beradilar?

Chunki har qanday ayirboshlashning ahamiyati, uning samaradorligi, xalqaro miqyosda kelishilgan bitimlardan tomonlar oladigan afzalliklar bilan belgilanadi.

Bu erda iqtisodiy nazariya, xoh tovarlar va xizmatlar savdosi bo'lsin, xoh axborotlar, kapital, ishchi kuchi savdosi bo'lsin, ayirboshlashdan olinadigan afzallikka-har bir qatnashuvchi mamlakat ega bo'ladi va natijada butun jahon xo'jaligi yutadi, deb tushuntirishga va isbotlashga harakat qiladi.

Adam Smit birinchi bo'lib, qaysi mamlakat o'z mahsulotini boshqa mamlakatlarga qaraganda kamroq xarajatlar bilan ishlab chiqarsa, shu mamlakat xalqaro ayirboshlashda qatnashishi mumkin, deb tushuntiradi. U iqtisodiy nazariyaga mutlaq afzallik tushunchasini kiritdi.

Ayirboshlashdagi mutlaq afzallik tushunchasini quyidagi misolda tushuntirish mumkin. Faraz qilaylik, dunyoda faqat ayirboshlashning ikki qatnashuvchisi, yohud ikki guruh mamlakatlar: G'arb bilan Sharq mavjud hamda ular faqat ikki xil mahsulot – televizor va kiyimlar ishlab chiqaradilar. Bunda ishlab chiqarish sharoitlaridagi farqni hisobga olgan holda mahsulot tayyorlashga ketgan sarflar turlicha. Bu sarflar mahsulot ishlab chiqarishga zarur bo'lgan ish soatlarida ifodalanadi (6-jad-val)

**Ayirboshlash va mutlaq afzallik**  
(bir birlik mahsulot ishlab chiqarishga  
sarflangan zarur vaqt, soatlarda)

	G'arb	Sharq
Televizorlar	3	10
Kiyimlar	6	4

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, G'arb televizorlar ishlab chiqarishda mutlaq afzallikka ega. Chunki u bu tovarlarni ishlab chiqarishga kamroq mehnat sarflaydi. Ammo ayirboshlash bo'lmasa, mamlakatlar o'zlarining mutlaq afzalliklaridan foydalana olmaydilar va natijada ularning har biri sarflangan xarajat-lari bo'yicha bir donadan televizorga, bir birlik kiyimga, butun jahon 2 dona televizor va 2 birlik kiyimga ega bo'ladi.

Ayirboshlash sharoitida vaziyat butunlay o'zgaradi. G'arb bir birlik kiyim ishlab chiqarish o'rniga, unga sarf bo'ladigan mehnatni (6 soatni) qo'shimcha 2 dona televizor ishlab chiqarishga, Sharq bir dona televizor ishlab chiqarishga ketadigan mehnatni (10 soatni) qo'shimcha 2,5 birlik kiyim ishlab chiqarishga sarflaydi. Shu taxlit o'zaro ayirboshlash natijasida, masalan, bir dona G'arb televizoriga Sharqdan bir birlik kiyim ayirboshlashdan har ikki tomon va butun jahon ishlab chiqarishi yutadi. Chunki keltirilgan mehnat sarflari bo'yicha G'arb 2 dona televizor va 1 birlik kiyim-ga, Sharq bir dona televizor va 2,5 birlik kiyimga, butun jahon esa 3 dona televizor va 3,5 birlik kiyimga ega bo'ladi.

Shunday qilib, misolimizda mamlakatlarni kamroq xarajat-lar bilan biror-bir mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi shu mamlakat uchun qo'shimcha foyda manbai bo'lib xizmat qiladi.

### Nisbiy afzallik qonuni

Shu bilan birga, mamlakat qandaydir mahsulot ishlab chiqarishda mutlaq afzallikka ega bo'lmagan holatlar ham keng tarqalgan. Bunday vaziyatda mamlakat xalqaro ayirboshlashdan manfa-atdormi, jahon xo'jaligi muomalasi doirasidan chiqib ketmay-dimi degan savol tug'iladi. Bu savolga David Rikardo nisbiy afzallik qonuni bilan javob berdi. Ushbu qonun ayirboshlashga qanday amal qilinishini yana yuqoridagiga o'xshash misol yordamida tushuntirishi mumkin (7-jadval).

**Ayirboshlash va mutlaq afzallik**  
(bir birlik mahsulot ishlab chiqarishga  
sarflangan zarur vaqt, soatlarda)

	G'arb	Sharq
Televizor	3	10
Kiyim	6	8
1 dona televizor qiymati kiyimlar sonida ifodalangan	0,5	1,25
1 birlik kiyim qiymati televizorlar sonida ifodalangan	2	0,8

Jadvaldagi raqamlardan ko'rinib turibdiki, Sharq hech qaysi bir mahsulot bo'yicha mutlaq afzallikka ega emas. Biroq nisbiy afzallik qonuniga muvofiq bunday holat Sharqni G'arb bilan foydali savdo munosabatlariga kirishi uchun to'siq bo'la olmaydi. Chunki buning uchun qandaydir mahsulot bo'yicha mutlaq emas, balki nisbatan kamroq qiymatga ega bo'lishi etarlidir. Misolimizda, 1 dona televizor G'arbnig ichki bozorida 0,5 birlik kiyimga, Sharqning ichki bozorida esa 1,25 birlik kiyimga almashtiriladi, ya'ni G'arbda televizor nisbatan arzonroq.

Kiyimlar ayirboshlashni ko'rib chiqsak, yuqoridagi nisbatlar aksincha, G'arbda 1 birlik kiyim 2 dona televizorga to'g'ri kelsa, Sharqda bor-yo'g'i 0,8 dona televizorga to'g'ri keladi, ya'ni kiyimlarning nisbiy qiymati Sharqda birmuncha pastroq. Shu bois, G'arb mamlakatlari uchun kiyim-kechaklarni o'zining bozoridan ko'ra arzonroq bo'lgan Sharq mamlakatlaridan xarid qilish qulay, chunki bu ularga arzonroq tushadi, ya'ni 1 birlik kiyimga 2 donadan kamroq televizor sotib olish mumkin bo'ladi.

O'z navbatida, Sharq mamlakatlari 1 birlik kiyimni berishga buning evaziga ular 0,8 dona televizordan ko'proq, ya'ni o'z ichki bozoridagidan ko'proq televizor olsa rozi bo'ladi.

Shunday qilib, ayirboshlashda qatnashuvchi ikki tomonni qondiruvchi mahsulotlarning xalqaro bahosi ichki narxlarning ikki nisbati o'rtasida belgilanishi lozim (kiyim bo'yicha 0,8 va 2,0 televizor bo'yicha 0,5 va 1,25).

Agarda almashuv nisbati 1 ga teng bo'lsa, ya'ni bir dona televizor 1 birlik kiyimga o'zaro almashtirilsa, o'sha xarajatlar bilan birinchi mamlakat 2 dona televizor va 1 birlik kiyimga, ikkinchi mamlakat 1 dona televizor va 1,25 birlik kiyimga, jahon xo'jaligi 3 dona televizor va 2,25 birlik kiyimga ega bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bunday ayirboshlashdan hamma yutadi.

## **Jahon savdosining Xeksher-Olin nazariyasiga muvofiq afzalliklari**

Ta'kidlab o'tish kerakki, yuqoridagi misolda ishlab chiqarish-ning faqat bir omili - mehnat omili ko'rib chiqildi. Shved iqtisodchilari E.Xeksher va B.Olin o'z tahlillarida, asosan ishlab chiqarishning ikki omilini – kapital va mehnat omilini ko'rib chiqdilar. Ularning ta'kidlashicha, ishlab chiqarish kapitali serob va kam ishchi kuchiga ega mamlakatlar kapital talab qiladigan tovarlar ishlab chiqarishda afzallikka ega bo'ladilar, ishchi kuchiga boy va kapitali etarli bo'lmagan mamlakatlar ko'p mehnat talab qiladigan mahsulotlar ishlab chiqarishda afzallikka egadirlar.

Shunday qilib, Xeksher – Olinlarning ta'kidlashicha, bu mamlakatlar o'z ishlab chiqarishlarida nisbatan katta hajmga ega bo'lgan omillarni talab etuvchi mahsulotlarni ustun darajada eksport qilishga intiladilar, chunki bu ishlab chiqarish omili-ning nisbiy arzonligi ancha past darajadagi sarflarni ta'minlaydi va uni jadal ishlatishga olib keladi.

Nisbiy afzallik nazariyasiga oid so'nggi tadqiqotlarda xalqaro ayirboshlashning afzalligini aniqlashda ishlab chiqarish-ning beshga yaqin omili ilmiy tahlil uchun asos qilib olingan. Ular qatoriga moliya kapitali, inson kapitali, qishloq xo'jaligi-giga yaroqli erlar va boshqa tabiiy resurslar kiritilgan.

Nisbiy afzallik nazariyasida qo'llanadigan tushunchalar xalqaro ayirboshlashning maqsadga muvofiqligini faqat ishlab chiqarish xarajatlaridagi sarflar bilan, ya'ni mahsulotlar taklif etilishi tomonidan izohlab beradi. Bunday bir tomonlama yonda-shuvga ko'ra, nisbatan jadal ayirboshlash iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha bo'lgan mamlakatlar o'rtasida olib borilishi kerak. Boshqacha aytganda, ishlab chiqarish xarajatlari kam bo'lgan mamlakatlar ishlab chiqarish xarajatlari yuqori bo'lgan mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalar qilishdan yanada ko'proq manfa'atdor bo'lishlari lozim bo'ladi. Lekin xalqaro savdodagi bugungi ahvol uning aksini ko'rsatmoqda. Hozirgi paytda aksariyat mamlakatlar xalqaro savdoda iqtisodiy qudrati o'zlariniki bilan teng bo'lgan sheriklar bilan ish olib borishni afzal ko'radilar. Xususan, AQSh, Yaponiya, Germaniya o'zaro bir-birlari bilan avtomobillar, kompyuterlar, maishiy texnika, kimyo sanoati mahsulotlari ayirboshlaydilar. Bu hodisani nisbiy afzallik nazariyasi nuqtai nazaridan izohlashga hojat yo'q.

## **Styuart Mil: jahon talabining shartlari va xalqaro ayirboshlashning foydaliligi**

Haqiqiy hayot murakkabroq bo'lgan voqea-hodisalarni tushun-tirib berish uchun yanada batafsilroq bo'lgan, «talab» iqtisodiy kategoriyasini o'z ichiga olgan kengroq modellarni taqozo ega bosh-ladi. Styuart Milning isbotlashicha, sheriklar uchun xalqaro ayir-boshlashning afzalligi belgilovchi xalqaro baholar jahon talabi-ning shartlari bilan aniqlanadi. Bu qoida nima sababdan bir mamlakat ikkinchi bir mamlakatdan ishlab chiqarish xarajatlari bir xil mahsulotlarni nisbiy ustunlikka ega bo'lmagan holda ham sotib olishini tushuntiradi: mahsulot unga talab bo'lgan erda sotiladi va bu talab iste'molchilarning daromadlari, o'ziga xos didlari va talabnomalari yordamida aniqlanadi.

## **2. Tashqi savdo operatsiyalari mohiyati, turlari va shartlari**

Tashqi savdo operatsiyalarining ko'pchiligi ma'lum shartlar asosida to'lovni valyuta bilan amalga oshirishni ko'zda tutadi. To'lov shartlari: valyuta bahosi va uni aniqlash yo'llari; to'lov valyutasi; baho valyutasining to'lov valyutasiga mos kelmay qolgan hollarida valyuta kursini qayta hisoblash, valyutani xavf-xatar-dan sug'urtalashga qaratilgan shart; hisob-kitob shartlari; ular-ning shakllari, to'lov vositalari.

Baho valyutasi – shartnomada tovarning bahosi ifodalangan valyuta.

To'lov valyutasi bu – shartnoma bo'yicha tovar to'lovi amalga oshiriladigan valyuta.

Valyutaga qo'yilgan shartlar tashqi savdo operatsiyalari, yo milliy valyutaga nisbatan chet el valyutasi kursining o'zgarishi yoki milliy valyutaning xarid qobiliyati pasayib ketishi oqibatida kelib chiqadigan valyuta xavf-xatarini bartaraf etishda qo'llaniladigan sug'urtalash usuli.

Valyutaga qo'yilgan shartlar asosida shartnomaga ilova qilib baholar jadvali tuzib chiqiladi. Amalda quyidagilardan foydalaniladi:

Bilvosita valyuta shartlari-tovarning bahosi xalqaro savdo hisob-kitoblarida keng tarqalgan valyutada belgilangan bo'lib, to'lov odatda milliy valyutada ko'zda tutilgan bo'lsa qo'llaniladigan shartlar.

Bevosita valyuta shartlari - baho valyutasi va to'lov valyutasi mos kelib, lekin shartnoma bo'yicha to'langan summa miqdori boshqa ancha barqaror, ya'ni shartli valyutaga nisbatan kurslarning o'zga-rishiga bog'liq holda hisob-kitoblar valyutasiga qo'yiladi.

Multivalyuta shartlari - «valyuta savati»ga to'lovda valyuta kursining o'zgarishiga proporsional ravishda to'lov summasining korrektirovkasini mo'ljallaydi.

SDR bazasida valyuta shartlari-multivalyuta shartining turi bo'lib hisoblanadi.

Hisob-kitob shartlari kontragent davlatdagi tovar bozori-ning holati, tovarlar xarakteri, savdo an'analari, hukumatlararo bitimlari bor-yo'qligi bilan aniqlanadi. Xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlari yo'qligi bilan aniqlanadi. Xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlari odatda naqd hisob-kitoblar asosida, mashina va uskunalarda esa kredit asosida realizatsiya qilinadi.

Hisob-kitob shakllari – yuz foiz miqdoridagi avans, ochilgan hisob raqamidagi kredit, akkreditiv va inkassalardan foydalanish mo'ljallanadi. Asosiylari bo'lib akkreditiv va inkassa hisoblanadi.



Xalqaro savdo-sotiqda tovarlarni etkazib berish tayanch shartlarining tashqi savdo bahosida transport omilini inobatga oluvchi har xil turlaridan foydalanadilar. Bu turlarda taraflarning mahsulot etkazib beruvchining omboridan mahsulot oluvchining omboriga etib borishiga qadar bo'lgan turli bosqichlarda tovarlar tashilishini ta'minlash majburiyatlari tartibga solinadi, transport xarajatlari hamda tovarlarning yo'lda tasodifiy nobud bo'lishi yoki shikastlanishi xavfi bilan bog'liq boshqa xarajatlarni taqsimlash tartibi nazarda tutiladi.

XX asr boshlarida jahon savdosida «tovarlarni etkazib berishning tayanch shartlari»ning yagona talqini mavjud emasligi oqibatida ahdlashuvchi taraflarning shundan kelib chiquvchi majburiyatlari mavhum bo'lib qolayotganligi sababli, qolaversa, savdo bitimlari ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlariga nisbatan anchagina aniq va ixcham shartlarning (atamalar va ularning sharhlarining) tizimi yo'qligidan kuchli qiyinchilik sezildi. 1936 yili Xalqaro savdo palatasi savdo atamalarini talqin etish fakultativ qoidalarining dastlabki majmuini qabul qilganligi ham shu bilan izohlanadi. Bu majmua «Inkoterms-1936» nomi bilan mashhur bo'ldi.

Unga 1953, 1967, 1976 va 1980 yillarda kiritilgan qo'shimchalar sotuvchi zimmasidan asta-sekin sotib oluvchi zimmasiga o'tuvchi javobgarlik asnosida tovarlarni yuklash, tashish, yuklab tushirish va sug'urtalash bilan bog'liq eksportchi va importchi-larning munosabatlari soz holda bo'lishiga erishish imkonini berdi.

Bu jihatdan 1953 yil, ayniqsa, sermahsul bo'ldi. O'shanda bir yo'la 9 ta atama qabul qilinib, «Inkoterms» shartlari sifat jihatidan yangilandi. Xalqaro savdo munosabatlari amaliyotiga EXW («frankokorxonona») atamasi qo'shildi, bu atamada tovarni etkazib borishda majburiyatlarni sotuvchi uchun minimumga va sotib oluvchi uchun maksimumga keltirish mujassam topdi. O'shanda tovarni sotib oluvchining mamlakatiga etkazib berishga doir barcha majburiyatlarni sotuvchining zimmasiga yuklaydigan DES («frankokema» etkazib berish) va DEO («frankobandar-goh» etkazib berish) shartlari ham qabul qilindi. Boshqa atamalar ana shu o'ta bir-biridan yiroq nuqtai nazarlar oraliqida u yoki bu transport turiga nisbatan qo'llaniladigan bo'ldi. 1967 yilda yana bir «ekstremal» atama - DDP («mahsulotni boj to'lagan holda etkazib berish») qabul qilindi. Bu shart, agar atamadan keyin mahsulot etkazib berilishi lozim bo'lgan joy ko'rsatilgan bo'lsa, tovarni bevosita sotib oluvchiga etkazib berish vazifasini sotuvchi zimmasiga yukladi.



1990 yilda "Inkoterms-90» hujjatining yangi tahriri yuzaga keldi. Hozirgi vaqtda bu hujjat 2000 yilgi tahrirda («Inko-terms-2000») amal qilayotir.

«Inkoterms»ning 2000 yilda qayta ishlanishining asosiy sabablaridan biri atamalarni keyingi yillarda anchagina keng tarqalib borayotgan axborotlarning elektron almashinuviga moslashtirishga bo'lgan mushtarak intilish bo'ldi.

Yuqorida aytilganlarga qaramay, «Inkoterms»ning asosiy vazifasi hamma vaqt «tang nuqta»ni, ya'ni sotuvchi o'z zimmasidagi shartlarni bajargach, tovar etkazib berilgan deb hisob-lash mumkin bo'lgan vaziyatni aniqlashdan iborat bo'lib qolave-radi. Shu bilan birga, uning tovarga ilova etiladigan hujjat-larni va tijorat hujjatlarini rasmiylashtirish, eksport-im-portni litsenziyalash va tovarni etkazib berganlik uchun to'lov-lar to'lash tartibiga, «tekshiruv operatsiyalari»ni tashkil etish-ga, shartnoma hujjatlarining mazmuni va turlariga, sotuvchi-ning yuklarning o'rovi va markalanganligi borasidagi maj-buriyatlarini, sug'urta muddatlari va shu singarilarni aniq-lashga bo'lgan ta'sirini etarlicha baholamaslik mumkin emas. Bundan tashqari, xalqaro tijorat shartlari tovarlarni ichki ehtiyoj uchun etkazib berilishini, valyuta daromadlari va xarajatlarini boshqarishda, ichki sug'urtalashni rag'batlantirish va shu singarilarda davlat iqtisodiy siyosatining muhim vositasidir.

Hozirgi vaqtda shartnomalar tuzilayotganda asosan «**Inko-terms-2000**» (savdo atamalarini sharhlash bo'yicha xalqaro qoi-dalar) qo'llanilmoqda. «Inkoterms-2000» xalqaro konventsionalarda yoki muayyan davlatlar doirasidagi qonunlarda yuridik jihatdan mustahkamlangan hujjat emas. Bu aslida tashqi iqtisodiy fao-liyat sohasidagi odat va rasm-rusum majmui bo'lib, tovarlar etkazib berish shartlariga qarab tovar sotuvchisi hamda sotib oluvchisining huquqlari va majburiyatlarini belgilaydi. Tabiiyki, «Inkoterms» shartlarini sharhlash tavsiya xususiyatiga ega bo'ladi.

Shu bilan birga, mazkur hujjatning qoidalari taraflar o'rta-sida yuzaga kelgan, bir-birlariga bo'lgan da'volar hakamlik sudida ko'rilayotganda xalqaro amaliyotda e'tiborga olinishini yodda tutish zarur. Mazkur hujjatning xalqaro amaliyotda foydalanilishi nizolarning hakamlar tomonidan ko'rib chiqilishi bilangina chek-lanib qolmaydi. Buning boshqa muhim jihatlari ham bor. Masa-lan, shartnoma tuzilayotganda tovarlarni etkazib berishning «In-koterms»da mufassal bayon etilgan shartlari aytib o'tiladi. Shy bois, shartnomada mahsulot

etkazib berish shartlari belgila-nayotganda ana shu hujjatga havolalarni aytib o'tilishi maqsadga muvofiqdir. Shu zaylda ular shartnomaning tarkibiy qismiga ay-lanadi, buning uchun taraflarning ikkiyoqlama qarori bo'lishi, binobarin, o'zaro majburiyatlarni belgilab olishda ular ana shu hujjat qoidalariga bevosita yoki bilvosita asoslanmoqlari zarur.

Tushunmovchiliklar va nizolardan xoli bo'lish uchun, yozma shartnoma tuzilayotganda matnga quyidagi iborani kiritadilar: «Ushbu kontraktni talqin etishda «Inkoterm» shartlari amaldagi tah-rirda o'z kuchiga ega». Bu gapni, odatda, Avstriya, GFR, Frantsiya kabi «Inkoterm» shartlari xalqaro savdo odatlariga taalluqli deb hi-soblanadigan va bu haqda atayin aytib o'tilmagan hollarda ham foydalaniladigan mamlakatlar bilan shartnomalar tuzishda ham ko'rsatib o'tadilar.

Shartnoma tuzuvchilar biron-bir sababga ko'ra o'z tayanch shart-larini yoki o'zlariga maqbul shunday shartlarni kiritishlari mumkin. Lekin bunday kezlarda shartnomada ularni aniq ta'riflashdan tashqari ahdlashuvchi taraflar ularni birdek tushunishiga ishonch hosil qilish ham zarur. Agar kontraktida «Inkoterm» shartlariga zid shartlar keltirilgan bo'lsa, ana shu shartlar ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, «In-koterm» shartlari shartnomaga boshqa shartlar kiritilmagan paytdagina tayanch shar-tlar deb hisob-lanadi.

«Inkoterm»da **13 ta atama (shart)** keltiriladi. Ular tovarlarni dengiz, aviatsiya, temir yo'l transporti va avtotransportda eksport-import tarzida tashishda, shuningdek, aralash tashishda ishlatiladi.

Atamalarda «franko» («xoli, ozod») tushunchasidan foydalana-dilar. Bu tovar ko'rsatilgan punktga etkazib berilishi yuzasidan sotib oluvchi hech qanday xarajat qilmaydi, ya'ni xarajatlardan xoli degan ma'noni anglatadi. Ayni shu punktda tovarga bo'lgan mulkdorlik va uning nobud bo'lishi xavfi sotib oluvchiga o'tadi va mahsulot pirovard manzilga etkazib berilishi bilan bog'liq barcha xarajatlar uning zimmasida bo'ladi. Shuningdek, pirovard manzil (punkt) shartnomada ko'rsatilmasligi mumkin, ko'pincha, shunday qiladilar ham.

Ana shu asosiy atamalarni quyida ko'rib chiqamiz.

## **E GURUHI**

Bunda bittagina shart bor. Bu **EXW** (*ex works* - «**franko-korxon**») sharti bo'lib, mahsulotni zavoddan etkazib berish nazarda tutiladi. Ishlab chiqaruvchilarga juda yoqadigan va ular iloji boricha ko'proq foydalanadigan atama aslida shu. Sotuvchi mahsulotni sotib oluvchi ixtiyoriga to'g'ridan-to'g'ri o'z zavodida tegishli o'rovda yuklab olishga taxt holda berishini anglatadi va bunda u boshqa hech

qanday xarajatni zimmasiga olmaydi. Sotuvchi sotib oluvchi tomonidan ajratilgan transport vositasiga mah-sulotni ortish uchun ham, bojxona to'lovlarini to'lash uchun ham, agar alohida aytib o'tilgan bo'lmasa, eksport qilinayotgan tovarning bojxona rasmiylashtiruvi uchun ham javob bermaydi. Tovarni sotuvchining hududidan tayin etilgan joyga etkazib berish bilan bog'liq barcha xavf turlari va barcha xarajatlar sotib oluvchi zimmasida bo'ladi. Shunday qilib, mazkur atama sotuvchi uchun im-kon qadar kam majburiyatni nazarda tutadi.

## G GURUHI

Unga yukni sotib oluvchi kuchi bilan tashish shartlari asosida maxsulot etkazib berishning uchta turi kiradi:

1. **FCA (free carrier — «franko-tashuvchi»)**, shartlashib olingan punkt ham ko'rsatiladi. Bu tur dengiz transportidan boshqa barcha transport turida tovarni (eksportning bojxona rejimiga chiqarilgan tovarni) tashishda qo'llaniladi. Bu shartga ko'ra sotuvchi tovarni kontraktda ko'rsatilgan punktga etkazib berish va u erda tovarni sotib oluvchiga yoki ekspeditorga yohud sotib oluvchi ko'rsatgan tashuvchiga topshirish majburiyatini oladi. Shundan keyingi barcha xarajatlar (bojxona rasmiyatchiliklari, yuk ortish, tashish, sug'urtalash va shu kabi xarajatlar) sotib oluvchi hisobidan qoplanadi. Import litsenziyasi haqini va tovarni uchinchi mamlakat osha tashish bilan bog'liq barcha xarajatlarni ham sotib oluvchining o'zi to'laydi. Sotuvchining javobgarligi to-var sotib oluvchi ko'rsatgan tashuvchiga belgilangan joyda top-shirish paytida tugaydi.

2. **FAS (free alongside ship - «kema bortida xoli»)**, yuk ortib jo'natiladigan aniq port ham ko'rsatiladi. Dengiz yoki daryo orqali tashishda qo'llaniladi. Shu sababli shartnomada, masalan, «FAS Toshkent aeroporti» deb ko'rsatib bo'lmaydi. Sotuvchi tovarni portdagi yig'im va xarajatlarni to'laydi, tovarni bandargohda joylashtiradi. «Inkoterms-2000» tovarni olib chiqib ketish uchun zarur bojxona rasmiylashtiruvlarini bajarishni ham sotuvchi zimmasiga yuklaydi. Shundan keyingi barcha xarajatlar, tovarning tasodifiy nobud bo'lishi va shikastlanish xavfi, shu jumladan, kemaga ortish xarajatlari sotib oluvchi zimmasiga tushadi. Kema-ning kechikishi tufayli yoki tashuvchi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaganligi oqibatida kelib chiqishi mumkin bo'lgan barcha xarajatlar ham sotib oluvchi zimmasida bo'ladi.

3. **FOB (free on board - «bortda xoli»)**, yuk ortib jo'natiladigan punkt ham ko'rsatiladi. Bunday shartlar FAS shartlari bilan bir xil, lekin

tovar sotib oluvchi yollagan kema bortiga sotuvchi hisobidan yuklanadi. Tovarning topshirilish payti uning kema chetanidan o'tkazilishidir. Eksport rasmiyatchiliklari, ya'ni litsenziya va boj xarajatlari sotuvchi hisobidan bo'ladi. Kema-ning kechikishi, tovar shtivkasi bilan bog'liq xarajatlar va ja-vobgarlik sotib oluvchi zimmasida bo'ladi.

G' guruhidagi har uchala shartda sotib oluvchi sotuvchini kema keladigan muddatdan (FOB) yoki tovar tashuvchiga topshiriladigan sanadan vaqtida xabardor etishi shart, sotuvchi esa sotib oluvchini tovar yuklanganidan xabardor qilib, unga yuklash hujjatlarini shartnomada ko'rsatilgan usulda topshirishi shart.

## **S GURUHI**

**(asosiy tashish xarajatlari to'langan)**

**CFR (cost and freight - «qiymat va fraxt»)**, tayin etilgan port ham ko'rsatiladi. Bu usul dengiz yoki daryo transportida tashishda ko'llaniladi. Ana shu shartga ko'ra sotuvchi tovar shartnomada tayin etilgan portga etkazib berilishini tashkil etadi va shu asnoda barcha xarajatlarni o'z zimmasiga oladi. Tovarga bo'lgan mulk huquqining boshqaga o'tish payti-tovar sotuvchi yollagan kema bortiga ortilgan paytdir. Barcha bojxona rasmiyatchiliklari sotuvchi zimmasiga tushadi.

**CIF (cost-insurance-freight - «qiymat, sug'urta va fraxt»)**, CFR shartlarining ayni o'zi, lekin unga qo'shimcha ravishda sotuvchi bunda tovar tashish vaqtini ham sug'urtalashi shart.

**SRT (carnage paid to... - «yukni tashish ...gacha to'langan»)**, tayin etilgan punkt ham ko'rsatiladi. Bu shart tashishning har qanday turida qo'llaniladi. Zarur bojxona rasmiyatchiliklari sotuvchi zimmasida bo'ladi, tovarni kelishilgan va shartnomada ko'rsatilgan punktga (dastlabki tashuvchiga) etkazib berish bilan bog'liq barcha xarajatlarni ham uning o'zi to'laydi.

**CIP (carriage and Insurance paid to... — «tashish va sug'urtalash ...gacha to'langan»)**, tayin etilgan punkt ham ko'rsatiladi. Oldingi shartning aynan o'zi, lekin unga qo'shimcha ravishda sotuvchi tovarni ham sug'urtalashi shart.

## **D GURUHI (etib kelish)**

**DAF (delivered at frontier - «mahsulotni chegaraga qadar etkazib berish»)**, transportning har qanday turi uchun, shu jumladan, aralash tashishlarda qo'llaniladi. Yuklarni temir yo'l va yoki avtomobil transportida tashishda uning samaradorligi ko'p-roq. «Chegara» tushunchasi har qanday chegarani, shu jumladan, eksportchi mamlakat chegarasini ta'riflash uchun foydalanilishi mumkin. Shu bois tayin

etilgan joydagi punktni kelishib olish va aniq ko'rsatish juda muhim. Tovarni chegaraga qadar tashishdagi, shu jumladan, uchinchi mamlakat osha tranzit tarzida tashishdagi barcha xarajatlarni qamrab oladi. Bojxona rasmiyatchiliklari so-tuvchi zimmasida bo'ladi, tovar ko'rsatilgan punktga etib borgunga qadar bo'lgan barcha xavf va taxdidlar ham uning zimmasida bo'ladi.

**DDP** (*delivered duty paid* — «mahsulotni boji ...gacha to'langan holda etkazib berish»), tayin etilgan joy ham ko'rsatiladi. Bu shart mahsulot etkazib berishning barcha turlarida ishlatiladi. Sotuvchi tovarni shartnomada belgilab qo'yilgan punktga etkazib berish bilan bog'liq barcha xarajatlarni, shu jumladan, barcha eksport va import bojlarini to'laydi, chegaraning har ikkala tarafidagi bojxona rasmiy-lashtiruvini ham uning o'zi amalga oshiradi. Bu shart, odatda, ko'pincha sotuvchi o'z transport vosita-laridan foydalanayotganda qo'llaniladi.

**DDU** (*delivered duty unpaid* - «mahsulotni boj to'lamagan holda etkazib berish»), tayin etilgan joy ham ko'rsatiladi. Oldingi shart-ning ayni o'zi, lekin bunda sotuvchi mahsulotni olib kirishda bojxona bojini to'lamaydi.

**DES** («mahsulotni kemadan etkazib berish») — tayin etilgan port ham ko'rsatiladi. Tovarni dengiz transportida tashishda qo'llaniladi. Sotuvchi mahsulotni kemada etkazib berish bilan bog'liq barcha xarajatlarni zimmasiga oladi, lekin yukni kemadan tushirib olish hamda tovarni olib kirish uchun zarur bojxona rasmiyatchiliklarini bajarish uning zimmasiga kirmaydi.

**DEQ** («mahsulotni bandargohdan etkazib berish») - tayin etilgan port ham ko'rsatiladi. Oldingi atamaga qiyosan olganda, bunda yukni kemadan tushirib olish sotuvchi hisobidan bo'lishi kerak degan shart ham qamrab olinadi. Bojxona rasmiyatchiliklarini bajarish va to'lash majburiyati sotib oluvchi zimmasiga tushadi. Darvoqe, «Inkoterms»ning oldingi tahrirlariga ko'ra, bu majburiyat sotuvchi zimmasida edi.

«D» guruhiga mansub deyarli barcha shartlar «S» guruhi shart-lariga mos keladi, lekin tafovut shundan iboratki, tovar uchun tavakkalchilik sotuvchi zimmasidan sotib oluvchi zimmasiga tovar-ni yuklash paytida emas, balki tovar tayin etilgan joyga etib kelgan paytda o'tadi.

**Shuni ta'kidlash joizki, sotuvchi zimmasiga tushayotgan majburiyatlar DDP shartlarida eng ko'p va EXW shart-larida eng kam hisoblanadi.**

Pirovardida shuni eslatib o'tish lozimki, kontraktda ko'rsatilgan va tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan mahsulot etka-zib berish



to'g'risidagi ma'lumotlar *tovarning bojxona rasmiy-lashtiruvda inobatga olinadi*. Chunonchi, agar sizning shartno-mangizda bo'lganidek, import FCA shartlarida amalga oshiri-layotgan bo'lsa, ya'ni sotuvchi tovarni shartnomada ko'rsatilgan punktda sotib oluvchiga yoki ekspeditorga yohud sotib oluvchi ko'r-satgan tashuvchiga topshirganidan keyingi barcha xarajatlar (boj-xona rasmiyatchiliklari, yuk ortish, tashish, sug'urtalash va shu sin-garilar) sotib oluvchi hisobidan amalga oshiriladi. Import litsenziyasi haqini va tovarni uchinchi mamlakat osha tashishga doir barcha xarajatlarni ham uning o'zi to'laydi. Bunday hollarda bojxona qiymatini aniqlashda (bojxona to'lovlarini undirish maqsadida) tovarning shartnomada ko'rsatilgan bahosiga yukni O'zbekiston Respublikasi chegarasiga qadar etkazib berish bilan bog'liq xarajatlar qo'shiladi. CIF shartlarida mahsulot etkazib berish esa, masalan, tovarning qiymati va tovarni O'zbekiston che-garasiga etkazib berishga doir keyingi barcha xarajatlarni xo-rijiy kontragent o'z zimmasiga olganligini anglatadi va bunday hollarda bojxona qiymati kontraktda ko'rsatilgan qiymatga to'g'-ri keladi.<sup>1</sup>

**Tashqi savdo operatsiyalarini sug'urtalash.** Sug'urtalashning zarurligi ishlab chiqarish jarayonining inson va tabiatning stixiyali yoki tasodifan harakati natijasida keladigan zararni kamaytirish yoki butunlay bartaraf etish maqsadi bilan bog'liq. Shu maqsadda munosabatlar sub'ekti tomonidan maxsus fondlar tashkil etilmoqda. Bu fondlar manbai ikki yo'nalish bo'yicha, ya'ni sug'urta fondi va investitsion fond sifatida foydalaniladi.

Sug'urta ob'ekti sifatida aniq moddiy qiziqish yuzaga chiqadi. Moddiy boyligini sug'urta qilayotgan shaxs sug'urtalanuvchi deb ataladi. Sug'urtalanuvchi sifatida turli xil tashkilotlar (bir-lashmalar) ko'rsatilib, tuzilgan shartnoma asosida mijozlarning foyda olishlari uchun zararlarini qoplash majburiyatini oladi-lar.

Xalqaro qoidaga ko'ra, sug'urta fondi badali sug'urta mukofoti deb atalib, zararni qoplash to'lovi bo'lib hisoblanadi. Sug'urta mukofoti hajmi sug'urta polisida o'z ifodasini topib, tavakkal-chilikning oldindan kelishilgan turi darajasiga qarab aniq-lanadi. Kelgusida etishi mumkin bo'lgan zararni qoplash o'lchami tovar bahosi hisobiga olingan sug'urta bahosi bilan amalga oshi-riladi. CIF shartnomasiga ko'ra sug'urta shartnomaning minimal bahosini +10% qoplamog'i kerak.

Amaliyotda o'zaro va qayta sug'urtalash keng qo'llaniladi.

<sup>1</sup> Manba: Solik va bojxona xizmati. 2006 yil 26 sentyabr.

Tavakkalchilikdagi tasodiflarning ko'pi tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish, yuk tashish paytida sodir bo'ladi. Bu transport sug'urtasi muhimligini ko'rsatadi. Transportda yuk tashishda yukning o'ziga transport vositasi va yuk tashish haqi sug'urta qilinadi. Shularga mos ravishda yuk va transport vosi-talarini sug'urtalash operatsiyalari turli sharoitlarda amalga oshiriladi (yuklar-kargo, transport vositalari kasko).

Sug'urtalash summasi sug'urtalangan tovarni realizatsiya qi-lishdan kutilayotgan foydani ham o'z ichiga oladi. Yukni trans-portda tashishda sug'urta bo'yicha chiqimni ko'taradigan shaxs ham aniqlanadi. Bu shartnoma shartlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.



### 3. Jahon narxlari mohiyati, turlari va tuzilish omillari

Jahon narxlarini jamiyat uchun ishlab chiqarilgan sifatli tovarning jahon bozoridagi qiymatining puldagi ifodasi bilan aniqlash mumkin.

Agar tovar quyidagi talablarga javob bersa, tovar narxini jahon narxiga tenglashtirish mumkin:

- 1) xalqaro savdoda doim yirik-yirik kelishuvning bo'lishi;
- 2) kelishuvlar maxsus emas, tijoratga oid bo'lishi lozim;
- 3) kelishuvlarni faqat erkin konvertirlanuvchi valyutada tu-zish;
- 4) kelishuv yo eksport, yoki import kelishuvi bo'lishi lozim;
- 5) barcha operatsiyalar bozorda erkin tartibda amalga oshiri-lishi zarur.

Amaliyotda narx darajasiga va dinamikasiga har qanday o'zga-rishlar, chunonchi, ishlab chiqarishda, taqsimlashda, ayirboshlashda va ma'lum bir tovarni iste'mol qilishda yuz bergan hamda ko'zda tutilgan o'zgarishlar ta'sir ko'rsatadi. Jahon narxi turli omil-lar ta'siri ostida tashkil topadi, bu omillarning eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi:

- 1) qiymat va iste'mol qiymati ta'siri;
- 2) talab va taklifning nisbati;
- 3) valyuta kursi (nominal va real) ta'siri;
- 4) yirik xo'jalik yurituvchi sub'ektlari va hukumat institut-lari ta'siri;
- 5) muayyan kelishuvlarni tuzishdagi shartlarning o'ziga xos tomonlari.

**Qiymatning paydo bo'lishida** qiymatning texnologik asosi: fan-texnika taraqqiyotining (FTT) ning konstruktorlik tarmog'i – uzoq muddatga mo'ljallangan tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'satish samaradorligini oshirishning asosi bo'lib, mahsulot bir-ligi uchun sarflanadigan resurslar sarfini kamaytirishni shart qilib qo'yadi.

**FTT konstruktorlik** tarmog'i nomenklaturadagi mahsulot-larni ishlab chiqarishni kengaytirishni va xillarini ko'pay-tirishni, funktsional xossalarini yaxshilashni ta'minlaydi. Bu qoidaga ko'ra, ilmiy-tadqiqot ishlari va echimlariga sarflanayot-gan xarajatlar idan o'sib boradi. Bu sifatliroq va qimmat-roq resurslardan foydalanish hisobiga bo'ladi.

Yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etish bosqichida mah-sulot birligiga sarflanadigan xarajatlar oshadi, lekin ishlab chiqarish jadal (intensiv) rivojlana boshlagandan keyin, yangilik orqasida tejamkorlikka erishilgandan keyin mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlar keng miqyosda kamayadi. Mahsulot bir-ligiga sarflanadigan resurslar sarfi

fizik me'yorining kamay-tirilishi resurslar narxining ko'tarilishiga olib keladi.

Inflyatsiya sharoitida mahsulot birligi uchun belgilangan xarajatlar va mahsulot narxi jismoniy me'yor xarajat omillarini kamaytirish hisobiga ishlab chiqarish omillari narxiga nisbatan sekin o'sadi. Boshqacha qilib aytganda, barcha omillar ishga solingan ishlab chiqarish sur'ati qancha yuqori bo'lsa, ya'ni mahsulot birligiga mehnat va kapital sarfi tez kamayib borsa, mahsulotga qo'yiladigan narx shuncha sekinlik bilan o'sadi.

**Talab va taklif nisbati.** Taklifning ehtiyojdan oshib ketishi mahsulot etkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirib, mahsulot narxining pasayishiga olib keladi. Narxning pasayishi esa, o'z navbatida, ehtiyojning kengayishiga olib keladi va ehtiyoj taklifdan oshib keta boshlaydi. Shundan keyin xaridorlar o'rtasida raqobat kuchayib, narxlar o'sa boshlaydi. Bu, o'z navbatida, ehtiyojni ma'lum miqdorda qisqarishiga olib keladi. Taklif ehtiyojdan osha boshlaydi. Bahoning quyi chegarasi samarali ishlab chiqarishlar tomonidan mahsulot birligiga qilingan xarajat bilan belgilanadi; yuqori chegarasi samarali faoliyat ko'rsatilgan ishlab chiqaruvchilarning mahsulot birligiga sarflangan xarajatlari bilan belgilanadi. Mana shu bilan «tebranuvchanlik printsiplari» ifodalanadi.

Narxlarning tebranish miqdori o'zining tarmoq xususiyatlariga ega. Xom ashyo tarmoqlarida narxlarning o'zgarish diapazoni qayta ishlash sanoatidagi narxlarning o'zgarish diapazonidan ancha yuqori.

**Tashqi savdoga valyuta kursining ta'siri.** Ma'lum bir davlatdan tovar va xizmatlar eksportining o'sishi chet elda milliy valyutaga bo'lgan ehtiyojni oshiradi va bir vaqtning o'zida mazkur davlatda xorijiy valyutaga bo'lgan taklifni shakllantiradi. Ma'lum bir davlatda tovar va xizmatlarga importning oshishi u erda chet el valyutasiga bo'lgan ehtiyojni vujudga keltiradi va xorijliklar uchun milliy valyuta taklifini shakllantiradi.

**Valyuta kursining tashqi savdoga ta'sirining asosiy printsiplari.** Milliy pul birligining almashuv kursi pasayganda eksportchi chet el valyutasi daromadi hisobiga o'z valyutasida katta summani oladi. Bu tashqi bozorda sotish bahosini pasaytirishga, eksport hajmini oshirishga va o'zining eksport operatsiyalaridan keladigan foydani ko'paytirishga, eksport hajmini oshirishga imkon beradi. Boshqa barcha teng sharoitlarda milliy pul birligining tashqi qadrsizlanishi mahalliy korxonalarining tashqi va ichki bozorda import tovarlari bahosi

ko'tarilishi bilan raqobatbardoshligini oshiradi. Bu bilan import hajmi qisqarib, savdo balansi yaxshilanadi.

Milliy pul birligi tashqi qiymatining o'sishi mahalliy korxonalarining raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir etib, ichki va tashqi bozordagi xorijiy raqobatchilari mavqeini mustahkam-laydi. Eksport qiluvchilarning savdo hajmi qisqaradi va foyda olishi pasayadi. Import tovarlarining narxi tushib ketadi; im-port hajmi oshib borishi bilan savdo balansi yomonlashadi.

Bu ko'rsatib o'tilgan ijobiy va salbiy holatlar va ularga parallel ravishda valyuta kurslarining o'zgarishi inflyatsiya da-rajasi-dagi o'zgarishlar bilan birga kechadi. Bu amaliyotda real valyuta kursi tushunchasidan foydalanishni shart qilib qo'yadi.

Real valyuta kursi deyilganda ikki davlatda ham inflyatsiyaning tezlik darajasi hisobga olingan milliy pul birligi almashinuvi tushuniladi.

Funt sterling kursining (oxirgi marta qadrsizlanishdan keyin) AQSh dollariga nisbati -1 funt sterling 1,5 AQSh dollariga to'g'ri keladi va Buyuk Britaniya va AQShda inflyatsiya tezlik darajasining muvofiqligi yillik hisobda 3% va 2% bo'lsa, funt sterlingning real kursi 1 funt sterling=1,5 AQSh \$/f.st.\*(1+0.03/1+0.02)=1.5\$/1 f.st.ni tashkil etadi.

Masalan, f. st. kursi pasaygunga qadar (1.6\$/1 f.st.) 10 funt sterling yoki 16 AQSh dollariga teng bo'lgan.

Tovarning yangi narxi 15,1 AQSh dollari/1 funt sterling xorijlik xaridor uchun ko'proq foydali hisoblanadi:

$$10 \text{ f. st.} * 1.51 \text{ \$/f.st.} = 15,1\$$$

Mamlakat savdo balansining holati valyuta kursining miqdoriga, import va eksport tovarga ehtiyoj tavsifidan tashqari ta'sirga moyil bo'ladi.

Mamlakat savdo balansi holati valyuta kursining hajmidan tashqari import va eksport tovarlari ehtiyojiga berilgan ta'rif-tavsifining ham ta'siri bo'ladi. Har doim ham amaliyot milliy valyuta kursining pasayishi yoki ko'tarilishi o'ziga mos keladigan savdo balansining yaxshilanishi yoki yomonlashuviga olib kelaver-maydi. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun mu-him ahamiyatga molik boshlang'ich narxi ravon (elastik) bo'lgan tovarlarni import qilish hatto ma'lum darajada narx ko'taril-ganda ham kamaymaydi. Valyuta kursining pasayishi ta'siri os-tida tovarlar eksporti teng miqdorda import narxlarining ko'tarilishi darajasiga etolmaydigan darajada qisqarishi mumkin.

Ikki holatda ham importning qiymat hajmi ortib, savdo balansining ahvolini yomonlashtiradi. Eksport bahosining pasayishiga olib keluvchi milliy valyuta kursining pasayishi har doim ham eksport savdosi va eksportdan keladigan foydaning o'sishiga olib kelavermaydi. Ko'pincha, tovar etkazib beruvchilar o'zlari uchun ahamiyatga ega bo'lgan bozorlarda (masalan, Yaponiya kompaniyalari AQSh bozorida) mavqelarini saqlab qolish maqsa-dida narx belgilashda ba'zi bir kurs o'zgartirishlarni kirita-dilar.

Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, narxlar ma'lum vaqt davomida bir necha chorakdan tortib 2-3 yilgacha valyuta kursining o'zga-rishi ta'siri ostida bo'ladi..

Yuqorida aytib o'tilganlardan ko'rish mumkinki, valyuta kursining tashqi savdoga ta'sir mexanizmi ko'pincha (davomiy pasayib borish tashqi kursining uzoq muddatli o'sib borishi nominal ifodalangan savdo defitsiti (taqchilligi)ning chuqurlashuviga mos bo'lgani holda) yashirin xususiyatga ega bo'ladi. Valyuta kursining uzoq vaqt davomida o'sib borishi nominal ifodasida savdo balansining ijobiy saldosi o'sishiga xalaqit bermasligi mumkin. Valyuta kursini muntazam ravishda qisqartirib borishni savdo taqchilligi chuqurlashib borishi deb aytish mumkin.

Qisqa muddatlik asosida «erkin va suzuvchi» valyuta kursining tebranish chastotasi kuchayganida eksportga ham, tegishli davlatlarning importiga ham ehtiyoj qisqaradi.

Valyuta kursining noaniq harakati eksport tushumi va import to'lovlari hisob-kitoblarida, boshqacha qilib aytganda, valyuta bilan bog'langan tavakkalchilikda namoyon bo'ladi.

Valyuta bilan bog'liq tavakkalchilik natijasida ko'rilgan zararni qoplash tashqi savdo narxida ko'zda tutilgani sababli qo'shimcha xarajatlar ko'payib ketadi. Shu bois, dunyodagi rivojlangan etakchi mamlakatlar valyuta kursidagi nomutanosiblikni bartaraf etish va valyuta kursidan makroiqtisodiyotni tartibga solib turish vositasi sifatida foydalanish (savdo va to'lov balansini, yalpi ehtiyoj) orqali milliy iqtisodiyotni har tomonlama koordinatsiya qilish siyosatini olib borishga intiladi.

**Inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi omillar.** XX asrning ikkinchi yarmida dunyo bozorida narxlarning ko'tarilishi «taklif inflyatsiyasi» deb nomlangan holat bilan bog'liq bo'lgan. Ushbu holatda umumiy narxning o'sishi tabiiy resurslarga bo'lgan xarajatlarning o'sib ketganida ifodalanadi: neft va boshqa energiya manbalarini qazib olish

va ancha qimmat bo'lgan energiya manba-laridan foydalanish munosabati bilan ularning bahosi oshib ketgan.

Klassik nazariyada inflyatsiya - davlat byudjeti taqchilligi natijasida sodir bo'lib, jahon bozorida dollarda ifodalangan narxlarga kamroq ta'sir etadi.

Inflyatsiyani tiyib turish omili – ishlab chiqarish samara-dorligini oshirish bo'lib, «taklif inflyatsiyasi» ishlab chiqarishda material va energiya hajmi sarfini kamaytirish yo'li bilan bosib turiladi, klassik inflyatsiya mehnat va kapital sarfini kamay-tirish orqali tiyib turiladi.

Yirik xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va hukumat institutlari ta'siri. Jahon hamjamiyati dunyo bozorida narxlarni barqaror bo'lishidan manfaatdor bo'lib, bu quyidagilarda ifodalanadi:

- barqaror narxlar jahon xo'jaligining muvozanatlashgan va jadal intensiv rivojini ta'minlovchi qulay investitsion muhit-ni tashkil etish va saqlashga imkon tug'diradi;

- narxlarning keskin o'zgarishi tovar ishlab chiqaruvchilar hamda tovarlar va xizmatlarni iste'mol qiluvchilar manfaat-lariga zarari tegishi bilan ijtimoiy munosabatlarni bevosita keskinlashuviga olib keladi.

Ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning jahon narxlari ikki asosiy darajada, ya'ni milliy va xalqaro darajada tartibga solinadi. Narxlar iqtisodiy va ma'muriy usullar yordamida tartibga solinadi.

Narxlarni davlat tomonidan tartibga solish deyilganda butun tizimning barqaror rivojlanishiga yordam berish maqsadida narx-larga qonunchilik, ma'muriy va moliya-byudjet ta'siri o'tkazish tushuniladi. Narxni davlat tomonidan tartibga solish shakllari turlicha bo'ladi:

- ishlab chiqarishda sohasida va tovar muomalasida davlat-ning bevosita ishtiroki;

- tovar bozorining talab ehtiyojini va taklif muvozanatiga ta'sir o'tkazish;

- monopoliyaga qarshi qonunchilik vositasida ta'sir etish;
- daromadlar siyosatini olib borish;
- pul muomalasi orqali bozor kon'yunkturasini tartibga so-lish;
- pul muomalasi aniq holatini hisobga olgan holda mazkur usullarni uyg'unlashtirish;

- narxlarni tartibga solishda bevosita va bilvosita usul-lardan foydalanish.

Bevosita tartibga solish usulidan asosan jamiyatga xizmat qi-luvchi tarmoqlarda (energetika, transport, aloqa, suv ta'minoti va h.k.) foydalaniladi.



Narxlar va tariflar qoidaga ko'ra, monopoliyalarga nisbatan daromadning katta bo'lmagan normasi va ularning aholiga reali-zatsiya qilingan tovarlaridan kelgan daromadning yuqori norma-sidan kelib chiqib o'rnatiladi.

Davlat narxlari ham aholiga xizmat qiluvchi tarmoqlarni rag'batlantirish hamda milliy iqtisod rivojlanishining yuqori sur'atlarini ta'minlash maqsadida tartibga soluvchi vosita hisoblanadi.

Tartibga solishning bevosita usuli sifatida (AQSh, Frantsiya, Belgiya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlarda) ma'muriy narx o'rnatish usulidan foydalaniladi.

Narxlarni tartibga solishning bu usuli yirik monopoliyalar uchun juda qo'l keladi, ular tovarlar va xizmatlarni ancha past bo'lgan ma'muriy narxlarda sotib olib, foyda ko'radilar.

Narxlarni bilvosita tartibga solish usulida qiymatning shakllanishini aniqlanib beruvchi omillarning ta'siri ko'zda tutiladi. Eng avvalo, yalpi talab va taklifni fiskal - pul kredit va valyuta siyosati orqali tartibga solish ko'zda tutiladi. Bu ishlab chiqarish va bandlikni rag'batlantirish va shu orqali iste'mol bozorini tartibga solish imkonini beradi. Bundan tashqari, davlatning investitsiya, amortizatsiya, tabiiy rentalar, ish haqi siyosatlarini chora-tadbirlaridan ham narxlarni bilvosita tartibga solishda foydalaniladi.

Davlat tomonidan narxlarni tartib solish, ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish va sotishda keng qo'llaniladi. Narxlarni davlat tomonidan tartibga solib turish fermerlar ishlab chiqargan mahsulotlar narxlarini bir xil darajada ushlab turish bilan ma'lum miqdorda daromad olishlari va jamg'arma jamg'arishlarini ta'minlashga ham qaratilgan. Bu, o'z navbatida, qishloq xo'jaligida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash imkonini beradi. Shuning uchun AQShda qishloq xo'jalik mahsulotlarining kafolatlangan narxi darajasidan bo'zori narxi pasayib ketgudek bo'lsa, davlat fermerlarga federal byudjetdan subsidiyalar beradi.

Hukumat yoki yirik xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (TNK, monopoliya va boshqalar) jahondagi narx darajasiga dumping orqali ta'sir o'tkazishlari mumkin. Bundan kuzatilgan maqsad ma'lum bir tovarlarga yoki tovarlar guruhini jahon bozorida ichki bozordagi narxga nisbatan arzonroq sotish bilan tashqi bozorni egal-lashdan iborat. Bundan ko'riladigan zarar tashqi bozordagi narxni ko'tarish hamda import-mamlakatlari iqtisodiyotiga suqilib kirish bilan qoplanadi.

## Narxlar shakllanishining o'ziga xos omillari

Alohida shartnomalar asosida-etkazib beriluvchi ma'lum bir tovar turi va xizmat narxlari aynan shu xildagi tovar turi va xizmat narxlarining jahon bozoridagi darajasidan farq qilishi mumkin. Bu holat tovarning o'ziga xos sifat belgilari, tovarni yuklash va to'lovi, yuklangan turkumning (partiyasi) hajmi, har ikki tomon munosabatlarining xarakteri bilan bog'liq holda tuzilgan shartnomaning o'ziga xos talablari bilan izohlanadi.

Xalqaro savdoda narxlar turlarining ko'pligi shart-sharoit-larning har xil ekanligini aks ettiradi, mana shunday sharoitda oldi-sotdi aktlari tuziladi. Kuzatuvlar jahon narxining o'zgarib turish tendentsiyasi ana shu shart-sharoitlarga ham bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Tovarlarning o'zgaruvchan narxini aniqlash tovar sifatining doimiyligini, bir xil sharoitdagi yuklash va to'lov-larning taqqoslab ko'rishni talab qiladi. Shuning uchun tovarning tashqi savdo narxini asoslash; aniqlash va kelishib olishda keli-shuvning o'ziga xos tomonlarning belgilab beruvchi tabiati haqida aniq tushuncha tasavvurga ega bo'lish kerak.

Misol uchun texnologik-mashina mahsulotlari, murakkab tex-nik tovarlari savdosini olib ko'raylik, bu savdo ishlab chiqaruvchi – sotuvchi va iste'molchi – xaridorning bevosita ishtirokida o'tka-zilib, tovarni etkazib berishning barcha shart-sharoitlari keli-shib olinadi.

Xalqaro savdo sohasida qo'llaniladigan jahon narxlari tur-larining ko'pchiligiga qarab quyidagicha turkumlash mumkin. Oldi-sotdi bo'yicha konkret operatsiyalar o'tkazishni hisobga olgan holda:

- **Shartnomaviy narx** - sotuvchi va xaridor o'rtasida kelishilgan va shartnomada ko'rsatilgan aniq baho;

Odatda u etkazib beruvchi taklif etgan bahodan past bo'lib, tijorat siri sifatida hech qaerda oshkor etilmaydi.

- **Ma'lumot beruvchi narxlar** maxsus nashrlarda, byulleten-larda, davriy adabiyotlarda, kompyuter ma'lumot kanallarida e'lon qilinadigan sotuvchi bahosi bo'lib, qoidaga ko'ra, ular ancha balandroq va kam harakatchan bo'ladi. Mazkur tovar bozorda yuzaga kelgan umumiy dinamika va tendentsiyani ifodalaydi.

- **Birja narxlari** – birja orqali sotiladigan tovarlar bahosini aks ettiradi. Bu asosan xom ashyo tovarlari va yarim fabrikatlar bo'ladi. Birja savdosiga qo'yilgan tovarning bozordagi konyunkturasini o'zida ifodalaydi, ko'p hollarda noiqtidosdiy omillar ta'siriga tushib qoladi; kelishuv chog'ida tovarning birja kotirovkasining, tovarni etkazib berishni, to'lovni va boshqalarni o'zida ifoda ettirmaydi, kotirovka



bahosi maxsus byulletenlarda bosib chiqariladi. Alohida tovarlar tur-larining kotirovka narxlari ko'pincha ayrim birjalarda tarkib topgan narx darajasi va dinamikasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

- **Auktsion narxlar** – tovarning savdo jarayonida vujudga kelgan bahosi bo'lib, ma'lum bir davrdagi talab va taklifni aks ettiruvchi va tovarning real bahosidir. Auktsionlarda asosan san'at asarlari, mo'yna, hayvonlar kabi o'ziga xos tovarlar realizatsiya qilinadi.

- **Tashqi savdoning statistik narxlari** – milliy va xalqaro statistik ma'lumotnomalarda bosilgan hisob-kitob narxlari, bu ma'lumotlar ma'lum bir tovarda aniq, konkret bahoni aks ettirmaydi. Asosan faqat mamlakatlar va umumjahon tashqi savdosi rivojining dinamikasi va tendentsiyasini umumiy tahlili va statistik hisob-kitoblar uchun xizmat qiladi.

- **Jahon bozor narxining** vujudga kelishining xususiyat-lariga qarab «erkin bozor» va «yopiq bozor» narxlariga bo'linadi. «Erkin bozor» bahosi raqobat sharoitida yuzaga keladi va talab bilan taklif nisbatini aks ettiradi. Tovarlarni realizatsiya qi-lish uchun ma'lum bir joyda tashkil etilgan, auktsion savdolar birjalarga oid baholar hisoblanadi. «Yopiq bozor» bahosi sotuv-chi va xaridor o'rtasidagi o'ziga xos munosabat bo'lib, mazkur tovar-ga talab va taklif ob'ektlarining ta'siri kam bo'ladi. Bu baholar firmalarda ichki savdo, iqtisodiy guruhlarining mintaqaviy ham-da mahsus preferentsial kelishuvlar bahosidir.

Kelishuv xizmati xiliga qarab bahoning quyidagi turlari mavjud:  
erkin konvertirlanadigan valyutada to'lanadigan savdo bitim-lari narxi;

erkin konvertirlanmaydigan valyutada to'lanadigan savdo bi-timlar narxi;

kliring kelishuvlar bo'yicha shakllangan narx;

nosavdo operatsiyalari bo'yicha shakllangan narx;

transfert narx (firma ichida).

**Tovar va xizmatlarni olib kirish - olib chiqilishiga qa-rab narxlar.** FAS va FOV eksport narxlariga ajratiladi. Bu narxlar bo'yicha eksport qiluvchi firma import qiluvchiga tovar narxiga transport xarajatlarini ham o'z ichiga olgan narxda sota-di. Bunda tovarni kema bortiga (FAS) etkazib berish, yoki yuklash xarajatlarini qo'shib hisoblab kema bortiga chiqarib berish ko'zda tutiladi.

CIF import narxlari – FOB narxidan tashqari yukni eksport qiluvchi yoki import qiluvchining mamlakat chegarasigacha trans-portda etkazib

berish va sug'urta xarajatlarini o'z ichiga oladi.

**Kelishuvlarni o'rnatish qoidalari:**

–shartnoma narxi tomonlar kelishuvi asosida belgilanadi. Qoidaga ko'ra, turli davlat hukumatlari o'rtasidagi shartnoma va kelishuvlar asosida aniqlanadi;

–birja kotirovkalari, auktsion savdolar narxi;

yirik firmalarning taklif narxlari va amaldagi bitimlar narxi;

–xalqaro bitimlarda ishtirok etuvchi mamlakatlarning ichki ulgurji narxlari, bu narxlar eksport va importning bojxona bojidan va soliqlari hajmidan farq qiladi.

Eksport qiluvchi mamlakatning eksport narxi; asosiy xom ashyo etkazib beruvchi mamlakatlar narxlari, G'arbiy Evropadagi yirik bozorlarining import narxi jahon narxi bo'la olishi mumkin.

Alyuminiy bo'yicha –Kanadaning eksport narxi;

Yog'och-taxta materiallari bo'yicha Shveysariya narxi;

Kauchuk bo'yicha - Singapur birjasining narxi;

Mo'yna bo'yicha – Nyu-York, London va boshqa auktsionlar narx-lari.

Amaliyotda jahon bozorida o'z tovarining raqobatbardoshligi-ni oshirish maqsadida turli chegirmalar qo'llaniladi. Chegirmalar qo'llanilganda o'rnatilgan summa olib tashlangan bazis narx – jahon narxi hisoblanadi.

Amaliyotda quyidagi chegirmalardan foydalaniladi:

–tovarni naqd pulga sotib olingandagi miqdori;

–preyskurant bahosidan umumiy chegirmalar; (asosan kichik hajmli tovarlar uchun belgilanadi)

–dilerlik chegirmalari;

–maxsus chegirmalar (idoralarning imtiyozga ega kategoriyalari uchun).

Chegirma o'lchovining har biri konkret holatda alohida aniqlanadi va qoida bo'yicha birinchi taklif etilgan bahosidan 2-10% atrofida bo'ladi. Aniq sharoitlarda chegirma miqdori birinchi taklif narxining 20-30% iga etishi mumkin.

Jahon narxi darajasi, uning o'zgarib turish tezligi juda ko'p omillar ostida bo'ladi:

–qiymat omili – ijtimoiy zararli mehnat sarfining o'zgari-shi;

–kon'yunktura omili – talab va taklif nisbatining o'zgarishi bilan bog'liq;

–davlat tomonidan tartibga solib turish omili – davlatning xalqaro savdo sohasida olib boradigan iqtisodiy siyosati;

–valyuta- moliya omili – valyuta bozorining ahvoli;

–siyosiy omil - harbiy-siyosiy vaziyat.

XX asrning ikkinchi yarmida mamlakatlar, dunyo xo'jaligi ham-da xalqaro iqtisodiy munosabatlarning iqtisodiy-siyosiy rivojlanishi o'ziga xosligi jahon bozorida narxlarning shakllanishida o'z ifodasini topdi.

–XX asrning ikkinchi yarmida jahon narxlarining shakllanish xususiyatlari:

–XX asrning ikkinchi yarmida eksport narxlari o'sishi dinamikasida ko'tarilish tendentsiyasi kuzatildi, ayniqsa, xom ashyo guruhidagi yonilg'i narxi ko'tarildi, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarida unchalik katta ko'tarilish bo'lmadi.

Narxlarning birinchi marta katta ko'tarilishi Ikkinchi jahon urushi bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, ikkinchisi 1970 yil o'rtalari bo'lib o'tgan energetika inqirozi natijasida ro'y berdi.

–XX asrning 50-60 yillari jahon eksportining barcha tovarlarining indeks narxi o'rtacha ko'tarilishi bilan xarakterlandi;

–XX asrning 80-90 yillarida oziq-ovqat mahsulotlari, xom ashyolarning ba'zi bir turlari, yonilg'i, tayyor mahsulotlar narxi pasaydi.

#### 4. Jahon xizmatlar savdosi

Xizmatlar o'ziga xos tovar ko'rinishiga ega. Xizmatlarni vu-judga keltirishning jarayonlari ham bor. Xizmatlar shu jarayon-lardan tashqarida yashay olmaydi. Ularning tovar-buyumlardan far-qi shunda. Xizmatlar tovarlarni bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chirib yurish, odamlarning ko'chib yurishi hamda axborotlarni uzoq masofalarga uzatish bilan bog'liq. Xizmatlarni iste'mol qi-lish bilim olish, kasb mahoratini oshirish, sog'liqni tiklash (rek-reatsiya) bilan ham bog'liq. Xizmatlar iste'mol jarayonida vosita-chilik qilib, uzoq muddatda foydalanish uchun mo'ljallangan to-varlarni iste'mol qilish xususiyatlarini ta'minlagan holda ish-latish imkonini beradi.

Ular dunyo xo'jaligining ajralmas qismiga aylanib qoldi va milliy iqtisodiyotning qay darajada rivojlanganini tavsiflab beradi. Hozirgi vaqtda aholining yashash turmush darajasini is-te'mol qilayotgan xizmatlar soni va sifati bilan aniqlash mum-kin. Vositachilik xarakteriga ega bo'lgan barcha xizmatlar ko'p ji-hatdan barcha ishlab chiqarish jarayonlarining, birinchi navbatda, tovar-pul munosabatlari samaradorligini belgilab beradi.

Xalqaro xizmatlar savdosi o'ziga xos qator xususiyatlarga ega. Jumladan, xizmatlarni ko'pincha sezib bo'lmaydi, ularning ko'pchiligi buyumlarga o'xshamaydi, ishlab chiqarish va iste'mol qilish bilan ajralmagan holda bo'ladi, bir xil emas, sifat jihatdan o'zgaruvchan, taklif etiladigan xizmatlarning ko'pchiligi saqlash uchun noloyiq. Ular bojxona nazoratidan ham o'tmaydi. Xizmat-larning ma'lum bir qismini (kommunal xizmatlar) o'z tabiatiga ko'ra xalqaro oborotga kiritish mumkin emas. Qoidaga ko'ra, xiz-matlar sohasi moddiy ishlab chiqarish sohasiga qaraganda davlat tomonidan ko'proq himoya qilingan. Bu har ikki soha o'zaro mus-tahkam bog'langan.

UST tasnifiga ko'ra xizmatlarning 600 turi mavjud. Xizmat-larni tasniflash xizmatlarning belgilariga qarab ma'lum maq-sadlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Xizmatlarni belgilariga ko'ra xalqaro iqtisodiy munosabat-larning turli shakllariga mos ravishda quyidagi guruhlariga ajra-tib ko'rsatish mumkin:

–xalqaro savdoga bog'liq xizmatlar, yuk va yo'lovchi tashishni sug'urtalash;

–chet el kapitalini qo'yish bilan bog'liq bo'lgan bank va boshqa moliyaviy tashkilotlar xizmatlari: bunga qurilish va montaj ish-lari

ustidan nazorat o'rnatish hamda tadqiqot loyihalash ishlari-ni olib borish bilan bog'liq professional xizmatlar ham kiradi.

–bir vaqtning o'zida savdo va investitsiyaga bog'liq bo'lgan xizmatlar – ya'ni aloqa, axborot, ishga aloqador bo'lgan tovarlar va xizmatlar, konsultatsiya berish xizmatlari kiradi.

–shaxslarning qisqa (bir yilgacha) muddatli davrda chet elda bo'lgan vaqtda iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar.

BMT tasnifiga muvofiq xizmatlar hisobiga xizmat deb turkumlangan 160 ta faoliyat kiradi. Ular 12 asosiy guruhlariga bo'lingan:

- 1) ishga aloqador xizmatlar - xizmat turining 46 tarmog'i;
- 2) aloqa xizmati –25 turda;
- 3) qurilish va injiniring xizmati -5 turda;
- 4) distribyutorlik xizmatlari – 5 turda;
- 5) umumta'lim xizmatlari -5 turda;
- 6) atrof-muhitni himoya qilish xizmatlari – 4 turda;
- 7) sug'urtalash ham qo'shilgan moliyaviy xizmatlar – 17 turda;
- 8) soliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar - 4 turda;
- 9) turizm va sayohat - 4 turda;
- 10) sport va madaniyatga oid xizmatlar -5 turda;
- 11) transport xizmati – 33 turda;
- 12) boshqa xizmatlar.

Milliy iqtisodiyotda xizmatlar sohasining rivojlanganlik darajasi, holati va uning xalqaro savdoda tutgan o'rnini baholash uchun bir qator ko'rsatkichlardan foydalanadi:

- Jahon savdosi u yoki bu mamlakatning ulushiga jahon savdo-si xizmatlari umumiy hajmiga nisbatan foiz (%) hisobida ko'zda tutilgan tashqi xizmat.

- YaIM mamlakatlarning savdo xizmatlaridagi o'rni.

- YaIM mamlakatlarida ekport tovarlari ulushining ekport xizmati ulushiga nisbatan aniqlanadigan indeks xizmat.

Indeks hajmining kichikligi mamlakat iqtisodiyotida xizmat sohasining ahamiyati nihoyatda katta ekanligidan dalolat bera-di.

- Mamlakat savdo xizmatlaridagi eksport xizmat ulushi netto-eksport qiluvchi yoki netto-import qiluvchi deb tariflanadi.

- Tashqi savdo kvotasi YaIMning xizmat ko'rsatish sohasidagi ulushiga nisbatan tashqi savdo xizmat ulushini ko'rsatadi.

- Tashqi savdo xizmatlarining odamlar tomonidan iste'mol qilinishi.

- Mamlakatning xalqaro savdo xizmatiga nisbatan eksportga

ixtisoslashuvining ma'lum darajadagi koeffitsienti eksport xizmati ko'rsatuvchi mamlakatning umumiy eksport xizmatining jahon eksport xizmatida qatnashuvchi mamlakatlarning ko'rsatgan xizmatlariga nisbatan foiz (%) ulushi; bunda uncha ahamiyatli bo'lmagan ko'rsatkichlar iqtisodiy yuksak darajada rivojlanishdan darak beradi.

Mamlakatlarning xizmat ko'rsatishning ma'lum bir turi bo'yicha ixtisoslashuvi iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan aniq-lanadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar ko'proq moliyaviy, tele-kommunikatsion, informatsion va ishga oid xizmatlar bilan shu-g'ullanadilar. Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya, Shveytsariya va AQSh kabi rivojlangan mamlakatlar maorif va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar eksporti bo'yicha etakchi o'rinni egallay-dilar. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun transport, turistik va moliyaviy (offshor) xizmatlari bo'yicha ixtisoslashishi xarakter-lidir. Xizmatlarda aks etishning xususiyati shundaki, xalqaro miqyosdagi xizmatlarga haq, joriy to'lov balansi hisobi bo'yicha o'tkaziladi.

Jahon savdosi rivojining hozirgi bosqichi umumiy yo'na-lishi jahon tovar savdosi o'sishi sur'atiga qaraganda jahon savdo xizmati sur'ati ilgarilab ketganligi bo'lib hisoblanadi. Ayrim davlatlarning tashqi savdo oborotida ham, xalqaro ayirboshlashda ham xizmatning ulushi ortib bormoqda. XX asrning so'nggi yigir-ma yilligida xizmat sohasiga chet el investitsiyalarining kirib kelishi juda ilgarilab ketganligi kuzatildi. Xalqaro valyuta fondi hisob- kitoblariga ko'ra, xalqaro savdo sohasida umumiy eksport hajmining 25 foiz ulushi xizmatlarga to'g'ri keladi. Shun-ga qaramay, xalqaro savdo sohasida tovarlar savdosi etakchi o'rinni egallab turibdi.

XX asrning saksoninchi yillaridan boshlab jahonda xalqaro savdo xizmati tez sur'atlarda o'sayotganligi qayd etilmoqda. Yalpi xalqaro tovar oborotida jahon savdo xizmat solishtirma hajmi 1999 yilda 1980 yildagi 17% dan 25% ga o'sdi. Eksport xizmatlar hajmi 1990 yilda 1339,2 mlrd. dollarni, import xizmatlar hajmi 1334,3mlrd. dollarni tashkil etdi, jahon eksport xizmatining o'sish hajmi 2% ga teng deb baholangan (1997-98 yillardagi moli-yaviy krizis bunga salbiy ta'sir ko'rsatgan).

Ayrim mamlakatlar oborotida savdo xizmatlarining hissasi 15% dan 30% gacha to'g'ri kelmoqda. Savdo xizmatlarining 3/4 qis-mi Singapur va Syangan kabi rivojlangan etakchi mamlakatlar his-sasiga to'g'ri kelmoqda. AQSh, Germaniya va Frantsiya etakchi rol o'ynab kelmoqda. XX asr oxirida jahondagi ettita mamlakat – Bu-yuk Britaniya, Frantsiya,



Germaniya, Italiya, Yaponiya, Niderlandiya, AQSh davlatlariga jahon savdo xizmat oborotining yarmi to'g'ri keldi.

Asosiy xizmatlarni eksport qiluvchilar G'arbiy Evropa mamlakatlari hisoblanadilar – ularning eksport xizmatining hajmi 1999 yilda 630,0 mlrd. dollarga teng bo'lgan. Undan keyingi o'rinlarda Shimoliy Amerika (284 mlrd.) Osiyo mamlakatlari (267 mlrd. dollar), shu jumladan, Yaponiya (60 mlrd. dollar) turadi.

**Rivojlangan mamlakatlar guruhida** Jahon xizmatlar sav-dosida asosiy etakchi davlatlar quyidagilar hisoblanadi. AQSh -18,2% yoki 240,0 mlrd. dollar; Angliya-7,6% yoki 100,5 mlrd. dollar; Frantsiya - 6,4% yoki 84,6 mlrd.dollar; Italiya -5,1% yoki 66,6 mlrd. dollar.

Xizmatlarni import qilishda asosiy mamlakatlar: AQSh -12,7% yoki 165,8 mlrd. dollar; Germaniya – 9,6% yoki 125 mlrd. dollar; Yaponiya - 8,5% yoki 110,7 mlrd. dollar; Angliya - 6% yoki 78,8 mlrd.dollar; Frantsiya – 5,0% yoki 65,4 mlrd. dollarga teng.

Xizmatlar eksportida rivojlanayotgan mamlakatlar hissasi quyidagicha: Syangan – 2,6% yoki 34,2 mlrd. dollar; Xitoy- 1,8%; Koreya Respublikasi - 1,8%, shuningdek, Turkiya, Singapur va Tay-van respublikalari ham bor. Xizmatlar importi mavjud davlat-lar: Xitoy- 2,2%; Koreya Respublikasi- 1,8%; Tayvan – 1,8%; Syangan, Braziliya, Singapur, Hindiston hisoblanadi.

Jahon eksport tizimida transport xizmati hissasi qisqarib bormoqda. Bu hol xom ashyoni eksport qilish sur'ati sekin o'sib bo-rayotganligi, tashilayotgan yuk qiymatida transportni tarkib top-tirish qiyinlashib ketayotganligi bilan izohlanadi. Shu bilan bir vaqtda, turizm hissasiga to'g'ri keladigan, shuningdek, rekreatsion xizmatlar hajmi ortib bormoqda. Bunga ko'pchilik davlatlarda havo yo'li orqali yuk tashishning ortib borayotganligi va yo'lovchi tashish qiymatining pastligi, aholi tumush darajasining o'sib borayotganligi, xizmatlarning qulaylik darajasi ortganligi, mil-liy chegaradan o'tish rejimining erkinlashuvi, turistik infra-tuzilmaning rivojlanganligi imkon berdi. Shuningdek, bank, sug'urta va boshqa vositachilik qilish bilan bog'liq uddabronlik xizmati ulushi oshib bormoqda. Xizmat ko'rsatishning eng istiq-bolli va zarur turi INTERNET tarmog'i orqali ko'rsatadigan xizmat bo'lib qolmoqda, elektron savdo ham rivoj topmoqda. Xalqaro savdo xizmatlari rivojlanishiga to'siq bo'layotgan omillar quyi-dagilar hisoblanadi:

- xizmatlarning ko'p turlari mahalliy miqyosda taqdim etili-shi;
- telekommunikatsiya, aloqa, turizm uchun sermahsul texnikalar



etishmayotganligi, dunyoda siyosiy barqarorlik zarurligi;

-tovarlar savdosiga qaraganda xizmatlarni erkinlashtirish darajasining pastligi va oshkora bozorning kamligi.

Xulosa o'rnida shularni ta'kidlash lozimki, erkin savdoning hozirgi sharoitdagi tushunchasi jahon xo'jalik aloqalarini va ja-hon iqtisodiyotining globallashuvi bilan bevosita bog'langan.

Savdo global integratsiyaning eng qudratli harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. So'nggi o'n yillikda jahon eksporti hajmi qariyb 2 baravarga ko'paydi hamda **2003** yilda 9 trillion AQSh dollarini tashkil etdi.

Mamlakatlar o'rtasida chuqurlashib borayotgan o'zaro bog'liqlik jahon savdosi strukturasidagi o'zgarishlar bilan bir vaqtda kech-moqda. Yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti hajmini oshi-shi iqtisodiy integratsiyaning katalizatoriga aylanmoqda. Ayni paytda, jahon xizmatlar savdosi ham o'sib bormoqda va hozirda jahon savdosining to'rtidan bir qismini tashkil etadi. Lekin shu bilan birga qishloq xo'jaligi mahsulotlari asosiy xom ashyo re-surslari ulushi kamayib bormoqda (1980 yildagi 15% dan 2003 yilda 10% gacha tushdi). Eslatish joizki, jahon eksportida rivoj-langan mamlakatlar ulushi hamon yuqoriligicha qolmoqda. Hozirda bu mamlakat hissasiga eksportning uchdan ikki qismi to'g'ri kela-di. Quyidagi jadvalda xalqaro savdoda, shu jumladan, xizmatlar savdosida etakchilik qilayotgan davlatlarning eksport-import ko'r-satkichlari keltirilgan.

**Jahon savdosining etakchi mamlakatlari  
(2003 y. ma'lumotlari bo'yicha, mlrd. AQSh doll.)**

Tovarlar eksporti	Xizmatlar eksporti	Import			
Jami	Shu jumladan hitek	Jami	Shu jumladan, chet el turizmi	Tovarlar	Xizmatlar
Germaniya 748,4	AQSh 162,6	AQSh 282,5	AQSh 65,1	AQSh 1305,6	AQSh 218,2
AQSh 724	Yaponiya 94,7	Buyuk Britaniya 129,5	Ispaniya 41,7	Germaniya 601,7	Germaniya 167
Yaponiya 471,9	Germaniya 86,9	Germaniya 111,7	Frantsiya 36,6	Xitoy 412,8	Buyuk Britaniya 112,4
Xitoy 438,4	Buyuk Britaniya 71,5	Frantsiya 98	Italiya 31,3	Frantsiya 388,4	Yaponiya 109,7
Frantsiya 384,7	Xitoy 68,2	Ispaniya 76,4	Germaniya 23	Buyuk Britaniya 388,3	Frantsiya 81,6
Buyuk Britaniya 303,9	Singapur 63,8	Italiya 72,8	Buyuk Britaniya 19,4	Yaponiya 383	Italiya 74,1
Gollandiya 293,4	Frantsiya 52,6	Yaponiya 70,2	Xitoy 17,4	Italiya 289	Gollandiya 66,2
Italiya 290,2	Malayziya 40,9	Gollandiya 64,1	Avstriya 13,6	Gollandiya 261,1	Xitoy 53,8
Kanada 272,1	Gollandiya 33,7	Xitoy 44,5	Turkiya 13,2	Kanada 245,6	Irlandiya 48,5
Belgiya 254,6	Irlandiya 31,6	Gonkong 43,2	Gretsiya 10,7	Gonkong 232,6	Kanada 47,8

**Manba:** World Development Indicators. The world Bank. Washington, DC, 2004.

## 5. Davlatlarning xalqaro raqobatbardoshligi

Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi, avvalo, uning iqtisodiy va tijorat ko'rsatkichlariga asoslanadi.

O'tgan asrning 60–yillaridayoq xalqaro raqobatbardoshlik tushunchasiga AQShlik iqtisodchilar M.Erlix va Dj.Xaynlar tomonidan «davlat yoki firmaning o'z tovarini sota olish qobiliyati» deb ta'rif berilgan. AQSh Prezidenti komissiyasining 1985 yil-dagi ma'ruzasida raqobatbardoshlikka - mamlakatning erkin va adolatli bozor sharoitida jahon bozori talablariga javob beruvchi tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish yo'li bilan fuqarolarning daromadlarini shakllantirish va oshirish, deb ta'rif berilgan.

Jahon iqtisodiy forumi homiyligida 1986 yildan boshlab 32 ta mamlakatning raqobatbardoshligi to'g'risidagi ma'ruzalar nashr etila boshlandi. Bu ma'ruzalarda mamlakatlar iqtisodiy raqobatbardoshligining umummilliy omillari quyidagicha guruhlash-tirilgan: iqtisodiy dinamizm, sanoat samaradorligi, bozor orientatsiyasi darajasi, moliyaviy tizimning dinamikligi, inson resurslari, davlatning firmalarga ta'sir darajasi, tabiiy boyliklar, tashqi savdo va innovatsion orientatsiya, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik. Bu omillar 292 kriteriyaga asoslangan edi.

Jahon iqtisodiy forumining 1991 yildagi ma'ruzasida unga iqtisodiyotning raqobatbardoshlikka ahamiyati va mohiyati, ta'sir etuvchi omillar 330 kriteriyadan foydalangan holda quyidagicha guruhlandi:

- mamlakatning yalpi salohiyati – iqtisodiy potentsiali;
- internatsionallashuv – davlatning xalqaro savdo va xalqaro investitsiya oqimidagi ishtiroki darajasi;
- hukumat – davlatning rag'batlantiruvchi roli;
- moliya-kapital bozorining faoliyati yuritishi va moliyaviy xizmat sifati;
- infratuzilma – resurslarni biznesning asosiy ehtiyojlari-ga muvofiqligi;
- fan va texnologiyalar, ilmiy-tekshirish va tajriba-konstruktorlik ishlarining imkoniyatlari va natijaviyligi;
- inson – mehnat resurslarining soni va sifati.

**Mamlakatning raqobatbardoshligi** yuqorida sanab o'tilgan omillarning o'zaro aloqasi, xo'jalik-siyosiy muhitning o'ziga xosligi, iqtisodiyotini, uning xo'jalik yuritish mexanizmining samaradorligi bilan aniqlanadi. Ayniqsa, mamlakatlar raqobatbardoshligini aniqlashda asosiy e'tibor milliy muhitga, ya'ni: mamlakatni investorlar uchun

jozibadorligi, unda hukm surayotgan ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, innovatsiyalarga va boshqa ne'mat-larga hamda huquqiy va iqtisodiy moyillikka qaratiladi.

Mamlakatlar raqobatbardoshligi ilmiy tushunchasi 1990 yilda Garvard biznes-maktabining professori M.Porter tomoni-dan kiritilgan bo'lib, bu tushunchaga uning «Millatning raqobat ustunliklari» monografiyasida ilmiy ta'rif berilgan. Uning fikricha, muayyan bir davlatning raqobatbardoshligi asosida unumdorlik, boshqacha aytganda, «ishchi kuchi va kapitaldan samara-li foydalanish» yotadi. Alohida bir mamlakatdagi aholining turmush darajasi shu mamlakatda aholi jon boshiga to'g'ri keladi-gan milliy daromad ko'rsatkichi bilan o'lchanadi. Bu ko'rsatkichni M.Porter jahon iqtisodiyotida mamlakatning raqobatbardoshligi-ni aniqlashda asos qilib olgan. Mamlakat va firmalar o'rtasidagi farovonlikka tenglik belgisini qo'ysada, amalda bu tenglik dun-yoda kechayotgan real jarayonlarni aks ettirmaydi.

Porter tomonidan mamlakatning xalqaro raqobatdagi ahvoli-ni aniqlab beruvchi dunyo ishlab chiqarishining aniq bir tarmog'i-dagi ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi. Bu ko'rsatkichlar umu-miy xarakterga ega bo'lib, shunday muhitni shakllantiradiki, mahalliy firmalar shu muhit ichida raqobatlashadilar. Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimining murakkablashgan-ligini hisobga olgan holda Porter tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar to'rtta boshqa-boshqa omilni, ya'ni texnologik innovatsiya, sanoat iqtisodiyoti, iqtisodiy geografiya, xalqaro savdo, siyosiy bilimlar, sanoat sotsiologiyasi, menejment omillarini birlashtiradi.

M.Porter tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar tizimi “raqobat rombi” nomini olib, o'z ichiga quyidagi ko'rsatkichlar guruhini qamrab olgan:

1. Omil shartlari - odam resurslari, tabiiy resurslar, kapital, ilmiy-axborot imkoniyati (tovar va xizmatlar bilan bog'liq barcha to'plangan bilimlar), infratuzilma (hayot tarzi sifatiga ta'sir etuvchi barcha omillar).

2. Ichki talab (ehtiyoj) sharoitlari – eng avval dunyo bozorida rivojlanish tendentsiyasiga moslik va sifatlilik, iste'molchilar «sifati»; ichki imkoniyatning o'ziga xos tomonlarini - talab (ehtiyoj)ning segment tarkibini hisobga olish;

3. Turdosh va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar – odatda, alohida tarmoqlar emas, balki tarmoqlar «guruhi» raqobatbardosh bo'ladi. Shuning uchun kompaniya ham gorizontol, ham vertikal yo'nalish bo'yicha integratsiyalashadi hamda ishlab chiqarishni ma'lum geografik kenglik

doirasida birlashtirish (kontsentratsiyalash)ga intiladi.

4. Firmaning tuzilishi va strategiyasi, ichki tarmoq raqobati. Bu mamlakatning ish yuritishdagi milliy xususiyati; investorlar tarkibi mamlakatda raqobatchilikni rivojlanganlik darajasi.

M.Porter davlatning raqobatdagi o'rnini nuqtali (punktir) chiziqqa o'xshatadi, uning fikricha, davlatning to'g'ridan-to'g'ri aralashuvi raqobatbardoshlikka ta'sir etadi. Davlatning asosiy vazifasi tarmoq-larning raqobatini nazorat qilishni ta'minlash hisoblanadi.

M.Porter qo'l ostidagi yana bir guruh olimlar alohida tarmoq-ning xalqaro raqobatbardoshlik manba va oqimini tahlil qil-dilar. Bu alohida olingan mamlakatlar industriyasining raqobat-bardoshligi darajasiga qarab tasniflash imkonini berdi. Rivoj-lanishning har bir shunday bosqichi firmalarning aniq bir tarmo-g'iga va faoliyati strategiyasiga ham tegishli; davlatning ma'lum darajada iqtisodiyotga, iqtisodiy siyosatning yo'nalishlariga ara-lashuviga ham tegishli. O'tkazilgan tahlil asosida milliy iqtiso-diyotni harakatga keltiruvchi to'rt kuchga mos (muvofiq) raqobat-bardoshlikning to'rt bosqichi aniqlab olindi.

Bu bosqichlar - ishlab chiqarish omillari, investitsiyalar, ish-lab chiqarishga joriy etilgan yangiliklar yaratilgan boyliklar bosqichlaridan iborat bo'lib, birinchi uch bosqich milliy iqtiso-diyot va milliy boylik raqobatbardoshligining rivojlanish va o'sishini o'zida aks ettiradi, to'rtinchi bosqich esa o'sishning asta-sekin susayishi va oxir-oqibatda pasayib ketishini anglatadi.

Mamlakatlarning yanada yuqori bosqichga ko'tarilishi quyidagi sharoitlar bilan izohlanadi:

- ishlab chiqarish omillarining shakllanish mexanizmi, ular-ning miqdori va sifati;
- iqtisodiy jarayon ishtirokchilarining motivlari;
- kam harakatchanlikni (inertsiyani) engib o'tishga yordam beradi-gan ichki raqobat;
- talabni (ehtiyoj) mukammallashtirish;
- ayrim omillarning etishmasligi;
- biznesda yangi ishchi o'rinlari yaratish qobiliyati.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun nafaqat barqaror siyosiy iqlim va oqilona makroiqtisodiy siyosat, hatto iqtisodiy rivojlanishning mikroiqtisodiy asoslari ham zarur. Milliy iq-tisodiyotni rivojlantirishning mikroiqtisodiy asoslari – ish-chanlik muhitini yaratishga qaratilgan firmalarning amaliy raqo-bati va strategiyasi, raqobatda ustunlik qilish mexanizmini ish-lab chiqish va iqtisodiy

siyosatga asoslanadi.

Mikroiqtisodiy farqlar ma'lum darajada davlatlararo jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM darajasidagi farqlar bilan tushun-tiriladi. Shunga asoslangan holda M.Porter «mamlakatning mik-roiqtisodiy raqobatbardoshligi indeksi» ko'rsatkichini kiritdi. Aholi turmush darajasi milliy iqtisodiyot unumdorligi o'lchovi hisoblanmish tovar va xizmatlar qiymati, millatning kapital va tabiiy resurslari bilan o'lchanadi. Demak, iqtisodiy rivojla-nishning bosh muammosi, ishlab chiqarishni tez va bir tekis o'sishini ta'minlash uchun qulay sharoit yaratib berishdan iborat ekan.

Buning uchun mikroiqtisodiy sharoit o'zaro bog'liqlik daraja-sining murakkabligini aniqlash kerak bo'ladi. Chunki kompaniyalar shu asosda raqobatlashadi, raqobat mikroiqtisodiy tushuncha bo'yi-cha firmalarni malakali kadrlar bilan ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. M.Porter «Ishchanlik doirasi»ni "Raqobat rombi" deb ataydi. M.Porter investitsiyalashning yuqori sur'atlariga yordam-lashuvchi davlatning mikroiqtisodiy siyosati firmalarning ishlab chiqarishini o'stirishga yordam bermaydi, deb hisoblaydi. Bu qan-day holda ro'y berishi mumkin? Agar unga mos keladigan shakl tan-lanmagan, etarli kasb mahoratiga ega ishchi kuchlari, yordamlashuv-chi, qo'llab-quvvatlab turuvchi tarmoq bo'lmasa, shuningdek, tashqi raqobat bosimining kuchi sezilmasa, korporatsiyani boshqarish ta'-minlanmagan bo'ladi. Ishga bog'liq axborotlar etarli bo'lmaganda esa ishlab chiqarish sekin o'sadi.

M.Porter va boshqa bir guruh olimlar tomonidan 2000 yilda yana ikki indeks: «Hozirgi kunda raqobatbardoshlik» va «O'sish raqobatbardoshligi» indeksleri kiritildi.

**«O'sish raqobatbardoshligi» indeksi** – iqtisodiyotning kelajakdagi o'sishiga yordam beruvchi omillar bo'lib, aholi jon boshiga YaMM ishlab chiqarishning sur'ati bilan o'lchanadi va teng miqdor-dagi yana uchta indeksga bo'linadi:

-iqtisodiy yaratuvchanlik indeksi. Bu indeks innovatsiyaning iqtisodiy samaradorligi yoki texnologiyaning samarasini o'lchaydi;

-moliyaviy indeks – yig'implarni yuqori sur'at bilan olib bo-ruvchi va investitsiya qiluvchi – moliyaviy tizim samaradorligini o'lchaydi;

-xalqaro indeks - mamlakatning iqtisodiy integratsiyasi dara-jasini jahondagi boshqa mamlakatlar bilan taqqoslab o'lchaydi.

«Hozirgi kundagi raqobatbardoshlik» indeksi ikki subin-deksni o'z ichiga oladi:

-kompaniyalarning strategiya va operatsiyalari murakkabligi

indeksi:  
-ishchanlik doirasi sifati indeksi.



## 6. O'zbekistonning tashqi savdo faoliyati

O'zbekiston respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgan dast-labki yillardan boshlaboq dunyo mamlakatlari bilan tashqi savdo aloqalarni kengaytirishga katta ahamiyat berib kelmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 1994-2004 yillar natija-lari shuni aniq ko'rsatib turibdiki, jahon iqtisodiy aloqalari tizimiga mamlakatimiz integratsiyasi jarayoni davom etmoqda va o'sib bormoqda. O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan inves-titsiya va savdo hamkorligini yanada rivojlantirish buning aso-sidir. Respublika tashqi savdo aylanmasi shu yillar ichida 18,1 foizga oshdi, savdo operatsiyalari esa, borgan sari rivojlanib, turli-tumanlik kasb etmoqda, ya'ni tovar va xizmatlarning keng ko'lamli ro'yxati, tashqi iqtisodiy aloqalar ishtirokchilarining geografiyasi hajmi va soni kengayib bormoqda.

9-jadval

### O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi, eksporti va importi

	1994 y.	1995 y.	1996 y.	1997 y.	1998 y.	1999 y.	2000 y.	2004 y.
Savdo aylanmasi mln. AQSh ollari	5662,2	6612,6	9311,3	8910,5	6816,9	6346,5	6212,1	6689,2
MDH ulushi, %	61,2	38,4	27,6	31,2	26,9	28,2	37,0	31,5
Boshqa mamlakatlar ulushi, %	38,8	61,6	72,4	68,8	73,1	71,8	63,0	68,5
Eksport mln. AQSh dollari	3087,4	3719,9	4590,2	4387,5	3528,2	3532,8	3264,7	3725,0
MDH ulushi, %	52,6	34,5	22,9	34,4	26,0	30,4	35,9	26,0
Boshqa mamlakatlar ulushi, %	47,4	65,5	77,1	65,6	74,0	69,6	64,1	74,0
Import mln. AQSh dollari	2556,1	2892,7	4721,1	4523,0	3288,7	3110,7	2947,4	2964,2
MDH ulushi, %	53,3	43,5	32,1	28,0	27,8	26,0	38,2	38,3
Boshqa mamlakatlar ulushi, %	46,7	56,5	67,9	72,0	72,2	74,0	61,8	61,7
Tashqi savdo qoldig'i mln. AQSh dollar	550,0	827,2	-130,9	-136,5	239,5	125,1	317,3	760,8
MDX mamlakatlari bilan mln. AQSh dollari	736,6	13,9	-467,1	240,4	1,6	172,9	46,6	-167,0
Boshqa mamlakatlar mln. AQSh dollari	-186,6	803,3	336,2	-475,9	237,9	-47,8	270,7	927,8

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari.

Geografik jihatdan tovar ayirboshlashning o'sishi uzoq xorij mamlakatlari bilan 18,2 foizni, MDH mamlakatlari bilan esa, 15,4 foizni tashkil qildi. Uzoq xorij mamlakatlarining res-publika tovar ayirboshlashdagi solishtirma og'irligi o'sib, umu-miy hajmi 68,5 foizga, MDH davlatlari bo'yicha tovar ayir-boshlashning solishtirma og'irligi esa 31,5 foizga teng bo'ldi.

Tovar ayirboshlashda respublika korxonalarini eksport faoliyatining faollashuvi hisobiga chet eldan tovar va xizmatlarni sotib olish ham oshdi. Eksport va import mos ravishda 2002 yilga qara-ganda 124,6 foiz va 109,3 foizni tashkil qildi.

Eksportning o'sish sur'ati importga nisbatan o'rtacha 2-3 mar-ta oshdi, mamlakatning to'lov qobiliyati mustahkamlandi; 1998 yildan boshlab, tovar ayirboshlash ijobiy saldosini ta'minlana boshlandi. Investitsiya faolligi o'sishida davlat kafolatisiz beri-layotgan bevosita chet el investitsiya va kreditlarining hajmi 2,5 martaga o'sdi.

Tashqi savdning rivojlanishida O'zbekiston eksport nomenklaturasidagi an'anaviy tovarlarga jahon kon'yunkturasining yaxshilanishi yordam berdi. 1998 yildagi jahon narxlarining keskin tushib ketishidan so'ng, barqarorlik alomatlari ko'rinib, paxta tolasi narxlarini o'sishi boshlandi. Energotashuvchilarga, qora va rangli metallga nisbatan birja kotirovkalari oshdi, shunga mos ravishda, xom ashyolarga, tovarlarga nisbatan ham narxlar ko'ta-rildi.

Shu bilan bir qatorda, *iqtisodiy islohotlar jarayonida sanoat tarmoqlaridagi qayta tarkibiy o'zgarishlar, tashqi savdo uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar shakllanishi tufayli to-var ayirboshlash tizimining o'sishi yuz berdi.*

Makroiqtisodiy barqarorlik muhitida tashqi iqtisodiy faoliyat-ni erkinlashtirilishi, almashuv kursini bir xillashtirish va tashqi savdning joriy operatsiyalari bo'yicha milliy valyutaning konvertatsiya-lashga o'tilishi bilan tashqi iqtisodiy aloqalar faollashuviga va mamlakat iqtisodiyotining tashqi dunyo bilan bo'lgan munosabatlarida ijobiy ta'sir kuzatildi.

Bunday makroiqtisodiy vaziyat iqtisodiyot sektorida izchil ra-vishda olib borilgan islohotlar natijasida shakllandi. So'nggi yil-larda olib borilgan islohotlar tahlil qilib ko'rilsa, asosiy ustuvor yo'nalish - tashqi iqtisodiy faoliyatning xilma-xilligi va erkinlash-tirilishiga harakat qilinganligi kuzatiladi.

Mahalliy xom ashyoning solishtirma hajmi uzluksiz oshirilib borilishi hisobiga, sanoatda qayta tuzilmaviy o'zgarishlar o'tkazilishi natijasida importga bo'lgan talablar qisqarishiga erishildi. Chet el investitsiyalari jalb qilinishi va eksport salohiyati rivojlanishi respublika korxonalarida ishlab chiqarishni

o'stirish va yangi-yangi mah-sulot turlarini eksport qilish uchun shart-sharoitlar yaratyapti.

Mustaqillikning so'nggi yillarida yanada rivojlanayotgan transport kommunikatsiyasi, bank, marketing axborot tuzilmalari to'la hajmda tashqi savdoga xizmat ko'rsatishda tadbirkorlarning yuqori darajadagi talablarini ta'minlayapti.

Umuman olganda, islohot yillari davomida shakllangan tashqi savdo infratuzilmasi hozirgi vaqtda hech qanday to'siqlarsiz savdo operatsiyalarini amalga oshirish, hamkorlarning geografik joyla-shuv masofasidan qat'i nazar, investitsiya faoliyatini rivojlan-tirish imkonini beryapti.

2000 yildan boshlab, YaIMda tovar almashinuvi va eksport ulushining o'sib borayotgani ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlar natijalari ekanligini isbotlaydi.

*Mahalliy xom ashyoni qayta ishlashning chuqurlashtirilishi, sa-noat ishlab chiqarilishida qayta ishlash tarmoqlarini solishtir-ma hajmining ko'payishi eksportning yangi tuzilmasini shakllanti-radi, bunda qayta ishlash darajasi ko'proq bo'lgan tayyor buyumlar eksporti muhim rol o'ynaydi.*

2003 yilda eksport tarkibidagi mahsulotlar qayta ishlanishi-ning o'sish sur'atlari xom ashyo o'sish sur'atidan oshib ketdi, shu-ning natijasida eksportning 57 foiz(o'sishi) tayyor mahsulot va xizmatlap hisobidan bo'ldi.

**O'zbekiston eksporti va importining tovar strukturasi**  
(jamiga nisbatan %da)

	1994y.	1995y.	1996y.	1997y.	1998y.	1999y.	2000y.	2001y.
<b>Eksport</b>								
Paxta tolasi	50,0	57,9	38,1	36,0	38,6	27,3	27,5	17,2
Kimyoviy mahsulotlar va plastmassalar	2,4	2,9	2,4	1,7	1,4	3,1	2,9	2,9
Rangli va qora metallar	2,7	2,6	3,5	4,6	5,1	4,3	6,6	6,8
Mashina va as-bob uskunalari	3,4	2,5	2,8	6,3	4,2	3,2	3,4	6,1
Oziq-ovqatlar	3,4	2,5	2,8	6,3	4,2	3,2	3,4	2,6
Energiya tashuvchilar	14,6	14,6	6,0	12,0	7,9	11,5	10,3	9,7
Xizmatlar	4,5	9,3	8,3	8,2	8,8	9,5	13,8	14,9
Boshqalar	18,7	25,5	34,4	27,4	30,8	34,7	30,2	39,8
<b>Import</b>								
Oziq-ovqatlar	31,5	18,2	29,5	19,3	15,6	13,1	12,3	10,1
Kimyoviy mahsulotlar va plastmassalar	6,2	9,3	12,5	12,5	12,4	11,7	13,6	13,1
Rangli va qora metallar	8,5	5,7	6,7	7,5	9,2	7,9	8,6	8,2
Mashina va as-bob uskunalari	16,2	47,9	35,8	45,9	47,2	44,8	35,4	44,1
Energiya tashuvchilar	13,5	1,9	1,1	0,6	0,5	2,1	3,8	2,3
Xizmatlar	0,3	5,0		7,5	5,1	8,1	8,5	9,9
Boshqalar	22,0	12,0	14,3	6,7	10,1	11,7	17,8	12,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Respublika korxonalarining xom ashyo eksport ulushi pasaymoqda, qayta ishlangan mahsulotlar eksporti esa ko'paytirilmoqda. Bugungi kunda, ip-gazlama, trikotaj hamda boshqa to'qi-machilik mahsulotlari eksport ulushi 2003 yildagi hajmi 14,3 foizni tashkil etadi. Eksport nomenklaturasiga polietilen, pax-ta tsellyulozasi, shisha tolasidan quvurlar, kabel-sim va elektro texnika mahsulotlari va ko'pgina boshqa tovarlar qo'shildi. Shu-ningdek, yil yakuni bo'yicha mineral va kimyo mahsulotlarining eksporti 1,4 martaga o'sganligi, qora va rangli metall, ulardan tayyorlangan mahsulotlar 25,5 foizga, mashina va uskunalar 87,4 foizga, boshqa tovarlar 28,4 foizga, turli xildagi pudrat ishlari, norezident sub'ektlarning nomoddiy xizmatlari 12,6 foizga oshdi.

Sanoat tarmoqlari talablari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bizga chet eldan kelayotgan tovarlarning tegishli nomenklaturasini shakllantiradi.

Importda ishlab chiqarish jihozlari - mashina va uskunalar solishtirma hajmi doimo oshmoqda. Investitsion loyihalar yo'nalishi bo'yicha olib kelingan ushbu mahsulotlar, lokalizatsiya dasturidoirasida, shuningdek, chet el investorlari qo'shma korxonalarining nizom fondiga qo'shgan ulushlari hisobiga amalga oshirilyapti.

Sanoat korxonalarida, respublika hududida xom ashyo resurslarini ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish uchun yo'naltirilgan qator ustuvor dasturlar amalga oshirilayapti. Bu 2004 yilning investitsiya dasturi, hududlarda qo'shma korxonalar tashkil qilish bo'yicha dasturlar, xom ashyo bazasida mahsulot ishlab chiqarishni lokalizatsiyalash dasturi, xalq iste'moli mollari kabilarni ishlab chiqarishni ko'paytirish dasturlaridir.

2003 yilda mashina va uskunalarining importi 192,1 mln. AQSh dollariga oshdi, unda ishlab chiqarish vositalarining ulushi 3 foizga o'sdi. Import dinamikasi va iste'molga mo'ljallangan tovarlarning ko'plab turlari bo'yicha iste'mol tarkibi ichki bozorning xorijiy mollarga bo'lgan talabi ta'minlanganligini ifodalaydi.

Tashqi savdo sohasiga kichik biznes tobora jadal sur'atlarda kirib kelmoqda. Respublika hududida tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shayotgan 1,5 mingdan oshiq kichik va xususiy korxonalar ishlab chiqarishda faol ishtirok etmoqda. Ishlab chiqarishda ushbu sektorning respublika iqtisodiyotidagi roli va ahamiyati solishtirib bo'lmas darajada o'sdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ko'rsatkichlari sanoat

korxonalarini ko'rsatkichlaridan de-yarli ikki barobar oldinda bormoqda. 2003 yilda ularning eksporti - 56,1 foizga, importi - 44,7 foizga ortdi. Ishlab chiqarish faoliyati rivojlanishi, yangi turdagi mahsulotlar, xizmatlarni o'zlashtirish, yangi ishlab chiqarishlar tashkil qilinishi, o'z navbatida, ijtimoiy masalalar hal qilinishiga ham yordam beradi. Aholining ish bilan bandlik darajasi oshirilishi ta'minlanadi, ichki bozor arzon narxlardagi mahsulotlar bilan to'ldiriladi. Hozirgi kunda ba'zi tovar va xizmatlar sifati chet elnikidan o'tsa-o'tadiki, ammo undan qolishmaydi.

Yil sayin tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari soni ko'paymoqda va tashqi iqtisodiy aloqalarning geografiyasi ham kengaymoqda. Hozirgi vaqtda jami tashqi savdo almashinuvining 60,3 foizi Evropa qit'asi mamlakatlari bilan bo'lgan iqtisodiy aloqalarga tegishli. Osiyo mamlakatlari bilan tovar almashinuvi hajmi 33 foizdan ko'proqni tashkil etadi, 2003 yilda ular bilan olib borilgan savdo operatsiyalari uzluksiz o'sib bordi. Amerika bilan tovar almashinuvining umumiy hajmidan tushgan ulush ancha past (6,5%), shu jumladan, Shimoliy Amerika mamlakatlari bilan savdo operatsiyalari 80,9 foizga to'g'ri kelyapti. Afrika, Avstraliya va Okeaniya mamlakatlari bilan tovar almashinuvining solishtirilgan hajmi uncha ahamiyatsiz va davlatning tashqi iqtisodiy aloqalariga ta'siri deyarli sezilmayapti.

So'nggi yillarda O'zbekistonning EI, MDH, Shanxay hamkorligi tashkilotlari bilan tashqi iqtisodiy hamkorligining rivojlanishi keskin darajada o'sdi. Mamlakatimizning Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha, Turkiya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston kabi doimiy hamkorlari va bir qator boshqa mamlakatlar bilan tashqi savdosi hajmi o'sdi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tovar almashinuvi 2003 yilda 5,2 foizni tashkil etdi. Respublika korxonalarining Afg'oniston, Eron eksporti keskin ko'tarildi.

O'zbekistonning tashqi savdo sohasidagi asosiy hamkorlari – Buyuk Britaniya, Germaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Janubiy Koreya, Turkiya, Xitoy, Eron, MDH davlatlaridan esa – Rossiya, Ukraina, Qozog'iston hisoblanadi.

Mamlakatimizning ishlab chiqarish va resurslar salohiyati xorijiy investorlarni tobora ko'proq o'ziga jalb qilmoqda. Vaqt o'tgan sari respublika korxonalarini bilan savdo va iqtisodiy aloqalar o'rnatishga intilayotgan nufuzli, dunyoga mashhur firma va kompaniyalarning doirasi kengaymoqda.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Jurnal. «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» 3-4, 2004.



O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi Osiyoning markaziy qismida joylashganligi, ya'ni, Shimoldan Janubga, Sharqdan G'arbga o'tuvchi savdo yo'li chorrahasida geosiyosiy o'rin egallaganligi ham yordam beradi. Markaziy Osiyo va MDH davlat-larining 200 milliondan ortiq aholisi va butun dunyo resurslar salohiyati hajmining 40 foizdan ko'prog'ini tashkil qilgan bozo-ri, yuqori industriya va iqtisodiy taraqqiy etgan Evropa, Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya, hamda endi kuchga kira-yotgan Janubi-Sharqiy Osiyo, Hindiston, Xitoy va boshqa mamla-katlarning bozorlari uchun katta imkoniyatlar eshigi ochilmoqda.

Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda, xalqaro moliya insti-tutlari va tashkilotlari bilan ikkiyoqlama va ko'pyoqlama hamkor-lik aloqalari rivojlanib, 1994 yildan beri O'zbekiston kuza-tuvchi bo'lib kelayotgan Xalqaro Savdo Tashkilotiga kirish bo'yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi 30 dan ortiq xalqaro tashkilotlar, jumladan, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Islom taraqqiyot banki, Evropa tik-lanish va taraqqiyot banki (ETTB) kabi moliya institutlarining a'zosisidir. Ushbu tashkilotlar ishtirokida O'zbekistonda ijtimoiy infratuzilma, sog'liqni saqlash, transport, ta'lim, kichik biz-nes va xususiy tadbirkorlik va boshqa sohalarda turli loyihalar amalga oshirilmoqda. Bugunga kelib, Jahon banki O'zbekiston Res-publikasiga 596,84 million AQSh dollari miqdorida 12 ta zayom, ETTB - 795,2 million AQSh dollari ajratdi. OTB bilan birga amalga oshirilayotgan jami loyihalar portfelining umumiy qiy-mati esa 1 mlrd. 340 million AQSh dollarini tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda respublika korxonalariga tashqi iqtisodiy faoliyatlari rivojlantirilishi uchun barcha qulay shart-sharoit-lar yaratildi. Investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish ko'p hollarda xo'jalik faoliyati sub'ektlari tashabbusiga, bevosita ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchilarga, ularning iqtisodiy sharoitlarini o'rganish qobiliyatiga, amal qilayotgan marketing mexanizmlaridan samarali foydalanishlariga bog'liqdir.

*O'tgan davr, asosan, tashqi savdo rivojlanishining erishilgan yutuqlari saqlanishini ta'minladi. Hozirgi vaqtda erishilgan natijalarni mustahkamlash, tashqi savdo va respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish sohasidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini amaliyotga joriy qilish ishlari davom ettirilmoqda.*



## **Tayanch so'z va iboralar**

1. Xalqaro savdo – mamlakatlar o'rtasidagi umumiy savdo munosabatlaridir.
2. Eksport operatsiyalari – tovar va xizmatlarni xorijga chi-qarish.
3. Import operatsiyalari – chet mamlakatlardan tovar va xizmatlarni olib kelish.
4. Reeksport operatsiyasi – avval import qilingan va qayta ish-lov berilmagan tovarlarni chetga eksport qilish.
5. Reimport operatsiyasi – avval eksport qilingan va qayta ish-lov berilmagan tovarni xorijdan import qilish.
6. Tashqi savdo balansi – mamlakatning tovarlar va xizmatlar eksporti va importi o'rtasidagi nisbat.
7. Tashqi savdo operatsiyalari – turli mamlakatlardagi hamkorlarning tashqi savdo ayirboshlashdagi harakatlari.
8. Tashqi savdo shartnomasi – xorijiy sheriklar o'rtasidagi savdo munosabatlari rasmiylashtiriladigan hujjat.
9. «Oferta» - tashqi savdo bitimi qatnashchilarning o'z sheri-giga kiritadigan taklifi.
10. Erkin taklif – sotuvchini xaridorga bog'liq qilib qo'ymay-digan taklif.
11. Qat'iy taklif – sotuvchini ma'lum bir xaridorga bog'liq qilib qo'yuvchi taklif.
12. Mol etkazib berishning bazis shartlari – sotuvchi va xaridor o'rtasidagi majburiyatlarni taqsimlovchi shartlar.
13. Ijara shartnomalari – mulkni qarzga olish munosabatlari rasmiylashtirilgan hujjat.
14. Patentli litsenziya – patent egasining unga tegishli kash-fiyotdan boshqa shaxs foydalanishi mumkinligini tasdiqlovchi hujjat.

## Nazorat savollari

- Tashqi savdo vujudga kelishining ob'ektiv shart-sharoitlari qanday?
2. Yangi bozorlarning egallab olinishi va siyosiy ta'sir sohasini kengaytirish qanday natija beradi?
  3. Tabiiy va xom ashyo resurslarining mamlakatlararo notekis taqsimlanganligi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning notekis rivojlanganligini tushuntirib bering.
  4. Tashqi savdo shartnomalari shartlariga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
  5. Namunaviy savdo shartnomalarining asosiy bo'limlari qanday?
  6. Pudrat shartnomalarining xususiyatlari qanday?
  7. Ijara shartnomalarida qanday munosabatlar rasmiylashtiriladi va amalda qanday ijara turlari mavjud?
  8. Qanday savdo «Muqobil» deb ataladi?
  9. Xizmatlar savdosining xususiyatlari qanday?
  10. Litsenziya savdosi va muhandislik-maslahati xizmatlari savdosining ahamiyati nima bilan aniqlanadi?
  11. Xalqaro turizmning qanday ko'rinishlarini bilasiz? Ularning qaysilarini rivojlantirish uchun O'zbekiston katta imkoniyatlarga ega?

## V bob. XALQARO VALYUTA TIZIMI

1. Xalqaro valyuta tizimining mohiyati va rivojlanish bos-qichlari
2. Valyuta kursi tushunchasi va shakllanishi
3. Xalqaro valyuta bozori
4. Valyuta operatsiyalari mexanizmi
5. To'lov balansi
6. O'zbekistonda xorijiy valyuta bozorini liberallashtirish

## 1. Xalqaro valyuta tizimining mohiyati va rivojlanish bosqichlari

**Xalqaro valyuta tizimi** – barcha mamlakatlarning jahon pul tizimi bo'lib, uning doirasida valyuta resurslari shakllanadi va xalqaro to'lovlar amalga oshiriladi.

Xalqaro valyuta tizimi (VT) tarkibiy qismlari quyidagilar:

- oltin;
- milliy valyutalar;
- xalqaro valyuta birligi - SDR, EUR;
- xalqaro valyuta moliya institutlari;
- valyuta kursini belgilovchi mexanizm;
- jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida o'zaro hisob-kitob qoidalari;
- xalqaro to'lovlarni balanslashtirish qoidasi.

Valyuta kursini belgilovchi mexanizm va xalqaro to'lov vosi-tasi VT ning asosiy tarkibiy qismlaridir. VT ning birligi bo'-lib bir yoki bir nechta rezerv valyutalar va xalqaro hisob ra-qamlarda ishlatiladigan pul birliklari hisoblanadi. Rezerv val-yuta yoki asosiy valyuta rivojlangan etakchi davlatning xalqaro to'-lov, rezerv vosita funksiyasini bajaruvchi valyuta paritetini aniqlovchi va tashqi valyuta kursini ta'minlovchi vosita bo'la oladigan valyutasidir. Hozirgi kunda rezerv valyutaga funt ster-ling, AQSh dollari, EVRO, Shveytsariya franki, Yaponiya ieni kiradi.

Rezerv valyuta mavqei–emitent davlatga milliy valyutasining to'lov balansi defitsitini xalqaro kredit miqyosida foizsiz va tashqi iqtisodiy monopoliya va raqobatchilarga tomon yo'lga qo'yi-lishini ta'minlashdir.

Xalqaro hisob birligi – bu xalqaro talab va majburiyatlar miqyosini o'lchashning shartli valyuta paritetini va kursini o'rna-tishda foydalanadigan valyuta birligidir.

Bunday hisob birligi SDR (qarz olishning maxsus huquqi) bo'lib, uning kursi rivojlangan mamlakatlar valyutalari savati asosida aniqlanadi. U davlatlararo hisoblarda 1970 yildan beri ishlatib kelinmoqda. SDR XVFga a'zo mamlakatlarning hukumat-lararo naqd pulsiz hisoblarda maxsus hisob raqamlariga yozilish yo'li bilan ishlatiladi. Bu bilan u norasmiy «oltin qog'oz» no-mini olgan. SDR XVF a'zo davlatlar markaziy banklariga no-rasmiy qaytarib olmaslik sharti bilan ajratiladi. Rasmiy ra-vishda u rezerv mablag' hisoblanib, milliy emissiya banklari uning summasini o'zlarining markaziy likvid zaxiralariga qo'-shish huquqiga ega. SDR jahon puli sifatidagi funksiyasini ba-jara olmadi. Sababi, SDR birligi haqiqatda dollar

pariteti bo'lsa-da, lekin dollar bilan raqobatlasha olmadi, real valyuta sifatida dollar ma'qul ko'rildi. SDR asosan ma'lum XVF doira-sida ishlatildi. SDRni dollarga nisbatan kursini aniqlashda «valyuta savati»dan foydalaniladi.

Valyuta savati o'rtacha tortilgan kollektiv valyuta kursini hi-soblash usuli bo'lib, to'plamdagi valyutalarni, ularning tarkibi va miqdori ixtiyoriy o'rnatiladi.

11-jadval

Valyuta savati tarkibi	Valyuta komponentlari	1 AQSh dollari uchun valyuta kursi*	AQSh dollarida ekvivalent
A	1	2	3
AQSh dollari	0,5720	1,00	0,5720
EVRO	0,7530	3,7028	0,2034***
Angliya funti	0,0812	1,6374**	0,1330****
Yaponiya ieni	31,800	116,0510	0,2740
Jami	1 birlik SDR		1,1672

\* Dollar kursi kunning o'rtasiga bo'lgan valyutalarning o'rtacha bozor kurslar Angliya banki kundalik axborotlar asosida SDR kursini hisoblash uchun XVF beriladi.

\*\* pul birligi funt sterlingda olingan (teskari kotirovka)

\*\*\* 1–ustun 2– ustunga bo'linadi.

\*\*\*\* 1–ustun 2– ustunga ko'paytiriladi.

SDR kursi 1981 yilda «valyuta savati» usuli bo'yicha jahon savdosida faol ishtirok etuvchi XVFga a'zo 16 mamlakatning tashqi savdo hajmini hisobga olgan holda aniqlangan edi. Tashqi savdo hajmi jahon savdosi hajmining eng kamida 1%ini tashkil qilgan. 2001 yilga kelib «valyuta savati»da SDRni hisoblash uchun qo'llanilgan valyutalar: AQSh dollar 40%, nemis markasi-21%, yapon ieni-17%, Frantsiya franki-11%ni Angliya funt sterlingi-11%ni, to 1999 yilning 1 yanvardan boshlab esa 8%ni tashkil etdi, ya'ni ularni soni 5 ta valyutadan iborat edi.

Evropa valyuta tizimiga a'zo mamlakatlar uchun xalqaro valyuta kiritilgunga qadar yagona pul birligi sifatida EKYudan (european currency unit) foydalanilgan. EKYuning prototipi 1950 yilda yaratilgan Evropa to'lov ittifoqi hisob birligi edi. O'zining oltin qiymati bilan bu birlik dollarga tenglash-tirilgan. XX asrning 1970 yillardan boshlab Bretton-Vuds valyuta tizimi quvvatsizlanishi sababli hamdo'stlik valyuta birligi samaradorligi ham pasaya boshladi. Buning asosiy sababi, dollar asosida tashkil etilganligi va uning oltin miqdoriga bog'liqligi edi. Shu bilan birga, bu davrda valyutalarning «yashil» kursidan ham foydalanilgan. Qishloq xo'jaligining ayrim tovarlari ope-ratsiyalarda

to'lov vositasi sifatida ushbu kurslar bozor kursiga nisbatan koeffitsient tarzida qo'llanildi. Koeffitsient asosida bunday hisoblash usuli ancha murakkab edi. Bu tizim o'zgarishi sharoit natijasida valyuta bo'yicha «bremen kommyunike» qabul qilindi. Valyuta kursi va kollektiv pul birligini birgalikda tebranishi hamdo'stlik jahon pulining funktsiya tizimi bo'ldi. Xalqaro pul funktsiyasi valyuta maqomiga aylandi. EKYu valyuta birligi emissiyasi 1979 yil 13 martda boshlandi va oltin bilan ta'minlandi. Yangi valyuta birligi «valyuta savati» usulida hisoblanib, valyutalarning ulushi emitent mamlakatlar iqtiso-diy ko'rsatkichlari asosida aniqlandi. SDRdan farqli o'laroq, EKYu xususiy bank va firmalarda (asosan kredit operatsiyalarda) hamda G'arbiy Evropada ishlatiladi. Shuningdek, EKYu tovar birjalarida ham ishlatiladi. 1984 yilda milliy valyuta birja-lari va bozorning ssuda kapitalida valyuta instrumenti sifatida qo'llaniladi. Unda AQSh, Avtraliya va Yaponiya ichki zayom obliga-tsiyalari qo'llaniladi. 1985 yildan boshlab davlat firmalarida haqiqiy sotib olish vositasi sifatida operatsiyalarda olib borildi. Bir qator mamlakatlarda pul muomalasi vazifasini bajardi.

Evropa Ittifoqida milliy valyuta o'rniga valyuta birligi-ning kiritilishi EKYuning turg'unligini oshirib qolmay, G'arbiy Evropa mamlakatlarida chuqur integratsiya jarayoniga ta'sir etdi. 1991 yilda esa Parijda bo'lib o'tgan iqtisodiy va moliyaviy yig'i-lishda EKYuni marka, funt sterling va frank o'rniga valyuta birligi sifatida kiritish va Evropa Ittifoqi Markaziy Banki tuzish haqida fikr almashildi. 1991 yil dekabrda bo'lib o'tgan Evropa Maslahati (Maastrix shahri, Niderlandiya) Evropa Ittifoqi shartnomasi qo'llab-quvvatlandi. Maastrix shartnoma-sida ko'rsatilishicha, 1999 yil 1 yanvardan yangi valyuta-EVRO jo-riy etiladi va 2002 yil 1 iyundan Evropa valyuta tizimiga ki-ruvchi mamlakatlarda muomalada bo'ladi, degan qarorga kelindi.

Shu bilan birga, ma'lum nomenklaturadagi qishloq xo'jaligi tovarlari operatsiyalari to'lovlari uchun reprezentativ yoki «Yashil» valyuta kursidan foydalanildi. Bu valyuta kurslari bozor kursiga nisbatan koeffitsient ko'rinishida joriy etiladi. Bu koeffitsientlar asosida valyuta kursini hisoblash juda murakkab edi. Sharoitning o'zgarishi oqibatida 1978 yilda «Bremen kom-myuniks» usulini qo'llash zarurati tug'ildi. U valyutalar kur-sining birgalikda tebranish tizimini va kollektiv valyuta kurs birligining bundan keyingi o'zaro aloqadorligini mustahkamlash bilan birlashtiradi. Kollektiv tomonidan muomalaga chiqarilgan bu valyuta o'z funktsiyalari bilan dunyo pullari o'rnini bosishiga ishonch hosil qilindi. Yangi valyuta birligi emissiyalari - EKYu 1979 yil 13-

martdan boshlab joriy qilina boshladi va oltin bilan ta'minlandi. Yangi valyutaning kurs birligi hisob-kitobi «valyuta savati» usuli bo'yicha olib borildi; valyuta ulushi emitent mamlakatlarning bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida aniqlandi. SDR dan farqli o'laroq EKYu xususiy banklar va firmalarning xalqaro pul aylanmalarida (ayniqsa kredit operatsiyalarida), shuningdek, G'arbiy Evropa mamlakatlaridan tashqarida ham ishlatila boshladi. 1984 yildan boshlab EKYu ning bir qismi milliy valyuta birjalarida va bozorlarida ssuda kapitalining valyuta vositasi (instrument) bo'lib qoldi. EKYu AQSh, Avstraliya va Yaponiya mamlakatlari ichki zayom obliga-tsiyalarida o'z ifodasini topdi. 1985 yildan boshlab davlatlar firmalari o'zaro operatsiyalarida haqiqiy sotib olish quvvatiga ega bo'lgan valyuta sifatida, bir qator mamlakatlarda pul momalasi sifatida ishlatildi.

Evropa mamlakatlarida integratsiyalash jarayonining chuqur ildiz otishi, valyuta birligi sifatida EKYuning barqarorligi Evropa Ittifoqi mamlakatlari milliy valyutasi o'rniga yagona valyutani kiritish uchun ob'ektiv sabab bo'ldi. 1991 yil aprelda Frantsiya va Germaniya davlatlarining Parijda bo'lib o'tgan iqtisodiy va Moliyaviy Kengash yig'ilishida marka, funt sterlingi va frank pul birligi o'rniga yagona valyuta sifatida EKYu kursini qabul qilish hamda Evropa kengashi (ES)ning Markaziy bankini tashkil etish fikri bildirildi. 1991 yilning dekabrda Evropa Kengashi sessiyasida (Maastrix, Niderlandiya shaharlarida bo'lib o'tgan) Evropa ittifoqi haqida Shartnoma ma'qullandi. Bu-Ma-astrix Shartnomasi deb ataldi. Bu shartnomaga binoan 1999 yil-ning yanvar oyidan boshlab yangi valyuta – **Evro** muomalaga kiritilib, 2002 yilning birinchi iyuniga qadar Evropa Valyuta tizimiga kirgan mamlakatlarning milliy pullari Evro bilan parallel ravishda muomalada bo'lishi ko'rsatib o'tildi. Lag vaqti shuning uchun kerak bo'ldiki, shu muddat ichida «Evrozona»ga kirish niyati bo'lgan mamlakatlar o'z mamlakatlari iqtisodini Evroni «sing-dirish darajasi»ga «etkazib» olishlari kerak edi, ya'ni Evroga moslashib olishlari kerak edi.

**Hududiy kollektiv valyuta** - bu bir regionda joylashgan mamlakatlarning o'zaro hisob-kitoblarida qo'llaniladigan pul birligi hisoblanadi. Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlari o'z xildan ortiq xalqaro pul birligi ishlatiladi:

- Iordaniya, Quvayt va boshqalar arab mamlakatlarida hisob-kitoblar hududiy kollektiv valyuta-arab dinori;



- Frantsiyaning Afrikadagi sobiq mustamlakalarida davlat-lari – franki;
- And bitimi qatnashchilari – Boliviya, Venesuela, Kolumbiya, Peru, Ekvadorda - And pesosi;
- Karib umumiy bozori qatnashchilari – Grenada, Yamayka, Dominikan respublikalarida Sharqiy Karib dinori ishlatiladi.

Xalqaro valyuta tizimida valyuta kursining asosi bo'lib xizmat qiluvchi element **valyuta paritetidir**.

XX asrning 30–yillarigacha valyuta kursi va valyuta almash-tirish pul birligi saqlab turishning rasmiy oltin miqdori bi-lan aniqlanadigan oltin paritetiga asoslangan edi, bu val-yutaning oltin miqdori bilan bog'liq bo'lib har bir pul birligi har xil mamlakatlarda rasmiy ravishda belgilangan oltin miq-dorida hisoblangan (u 1978 yil XVF tomonidan voz kechilgan).

Oltin miqdori quyidagicha bo'lgan: 1ft st - 7,32 gramm, 1AQSh dollari - 1,50 gramm sof oltinga teng bo'lgan.

Valyuta kurslarini o'rnatishda oltin pariteti amal qilgan vaqtlarda valyuta kurslari o'rtasidagi farq oltin tashish xara-jatlariga bog'liq bo'lgan, shunga muvofiq minimal va maksimal valyuta kurslari joriy etilgan. Bunday kurslar «oltin nuqtalar» deb atalgan.

Ikkinchi valyuta tizimi doirasida **valyuta pariteti prin-tsiipi** keng joriy etila boshlandi. Bu tizimda oldin bazaviy valyuta va uning oltin miqdori aniqlangan, so'ngra bazaviy val-yutaga nisbatan boshqa valyutalarning kurslari o'rnatilgan.

Valyuta pariteti bir mamlakat tovarlarini ikkinchi bir mam-lakatning munosib qiymatga ega bo'lgan tovarlariga ayirboshlashda yaqqol aks etadi, chunki bunda kredit-qog'oz pullarni chetlab o'tgan holda tovarlar umumiy massasining nisbati hisobga olinadi.

60-yillarning oxiri 70-yillarning boshida mazkur valyuta tizimida inqiroz boshlandi. Buning bir qator sabablari bor edi. Sabablarning asosiylari quyidagilardan iborat edi.

- 1960-70 va 1974-75 yillarda iqtisodda yuz bergan umumiy beqarorlik;
- inflyatsiyaning dunyodagi narx-navoga, firmalarning raqobat-bardoshligiga ko'rsatgan salbiy ta'siri; pulning xarid qilish quvvatining pasayishi, mamlakatlarda inflyatsiyaning kechish-o'tish sur'atlari har xilligi valyuta kurslarining og'ib turishi uchun sharoit yaratganligi.
- Ayrim mamlakatlarning to'lov balansining doimiy passiv-ligi (AQSh va Buyuk Britaniya) hamda boshqa mamlakatlar (Ger-maniya va

Yaponiya) balansi faolligining uzoq muddatliligi oqiba-tida kelib chiqqan xalqaro hisob-kitoblardagi nomutanosiblik;

- Jahon xo'jaligida yuz bergan o'zgarishlarga valyuta tizimi qoidalari (printsipi) to'g'ri kelmay qolganligi

Bu omillarning rivoji valyuta inqirozining turli ko'rinish-larini keltirib chiqardi.

- oltin talvasasi
- «Valyuta talvasasi» - issiq pullar joyini o'zgartirish, beqaror valyutalarni devalvatsiyasini kutmasdan ommaviy ravish-da sotish, valyuta kursini oshirish o'yini.

- fond birjasidagi vahima va qimmatli qog'ozlar kursining tushib ketishi

- valyuta kursining yoppasiga o'zgarishi
- Markaziy banklar aktiv valyuta integratsiyasi
- Milliy va xalqaro miqyosda davlat-monopolistik tartibga solishning faollashuvi

Bretton-Vuds valyuta tizimining inqirozi 1975-1976 yillar-gacha cho'zildi. Bu valyuta tizimini mustahkamlash uchun XVF to-monidan birmuncha harakatlar bo'ldi. Shulardan biri MVF tomonidan yaratilgan sun'iy valyuta birligi-SDR (bu valyuta birligi 01.01.1970 yilda chiqarilgan) bo'ldi. Bundan ko'zda tutilgan maqsad xalqaro valyuta tizimida oltinning rolini cheklash, AQShning oltin zaxirasini yo'qotishlardan himoya qilish edi. Shu bilan birga dollarning asosiy rezerv valyuta sifatidagi roli saqlandi. 1971 yilda AQSh dollarni oltinga konvertirlashdan voz kechdi va bir qator mamlakatlar tomonidan (GFR, Niderlandiya)valyutalar kursining erkin tebranishiga yo'l qo'yish haqida qaror qabul qilindi.

1976 yil yanvar oyida Kingson shahrida (Yamayka) XVFga a'zo mamlakatlarning o'zoro kelishuviga binoan valyuta islohoti o'tka-zilib, yuridik jihatdan rasmiylashtirildi va imzolandi.

To'rtinchi bosqich: xalqaro valyuta tizimi (Yamayka) quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

- Rasmiy standart sifatida SDR standarti joriy qilindi. Bu pul birligi valyuta tizimining negizi asosiy valyuta pariteti qilib olindi.

- Oltinni cheklashtirish jarayoni yuridik jihatdan to'xtatil-di, bu uning rasmiy qiymatini bekor qilishga, dollarni oltinga almashtirishni to'xtatishga olib keldi.

- Mamlakatlar xohlagan rejimdagi valyuta kursini tanlab olish huquqini qo'lga kiritdi, suzuvchi valyuta kursi rasman joriy etildi.

- Valyuta tizimini davlatlararo tartibga solib turish XVF tomonidan kuchaytirildi, lekin bu valyutaning barqarorligini ta'minlay olmadi.

Yamayka valyuta tizimi bozor iqtisodiyotining ko'pgina qarama-qarshiliklarini echish imkonini bermadi. Natijada, «Evropa valyuta tizimi»ni yaratishga to'g'ri keldi.

1979 yil mart oyida Evropadagi bir qator mamlakatlar-(Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksem-burg, Niderlandiya, Frantsiya, GFR) tomonidan hududiy valyuta tizimi sifatida «Evropa valyuta tizimi» yuridik rasmiylashtirildi. Bu valyuta tizimini yaratishdan maqsad G'arbiy Evropani Yamayka valyuta tizimidagi beqarorlikdan ihotaga, ya'ni himoya qilish, shu bilan iqtisodiy integratsiyani rag'batlantirish edi.

- Evropa valyuta tizimi quyidagilarga asoslanadi:
- Evropa valyuta tizimiga 1979 yilda joriy etilgan Evropa hisob-kitob valyuta birligi- EKYu asos qilib olingan.
- Valyuta kursi rejimi mexanizmi «Evropa valyuta iloniga» asoslangan. ES mamlakatlari valyuta kurslarining o'zaro tebrani-shi darajasi, ularning markaziy kursi tebranish darajasidan kelib chiqqan holda shunday belgilangan:  $\pm 2,25\%$  (Bu ko'rsatkich Italiya uchun tegishli emas, Italiya ko'rsatkichi  $\pm 6\%$ ); bir qator valyutalarning dollarga nisbatan birgalikda «suzish» tizimi  $\pm 2,25\%$  atrofida.
- Beqaror valyutalarni qo'llab-quvvatlash uchun kollektiv valyuta intervensiyasi joriy etilgan.
- Davlatlararo operatsiyalarni oltin bilan olib borish qayta tiklandi; EVS (Evropa valyuta fondi hamkorligi) doirasida xalqaro oltin fondi tashkil etildi; emissiyani tartibga solish, EKYudagi rezerv miqdori, EKYu emissiyasining oltin bilan ta'minlanishi.

Normativ valyuta kursining normativ nazariyasi - bu nazariya mualliflari valyuta kursiga iqtisodiyotni tartibga solib turishning qo'shimcha quroli sifatida qaraydilar va davlat tomonidan nazorat qilib turiladigan egiluvchan valyuta kursini taklif etadilar. Valyuta kursi xalqaro tashkilotlar tomonidan o'rnatilgan paritet va bitimlarga asoslanishi zarur.

## 2. Valyuta kursi tushunchasi va shakllanishi

Valyuta kursi o'zida milliy va xorijiy valyutalarning o'zaro nisbatini aks ettirib, bu nisbat ham ishlab chiqarish sohasiga, ham muomala sohasiga ta'sir etuvchi bir qator omillar bilan aniqlanadi. Valyuta kursi mamlakat pul birligining ifodasi bo'lib, boshqa mamlakatlar pul birligidagi «narx»ni ifodalaydi.

Valyutalar kursi dinamikasi bir qator omillar bilan bel-gilanadi:

- Valyutaning xarid qobiliyati, inflyatsiya sur'ati
- Valyutaga talab va taklif nisbati
- Turli mamlakatlarda foiz stavkalari darajasi o'rtasidagi farq
- Valyuta bozorlari faoliyati va spekulyativ valyuta operatsiya-lari
- Valyuta kursini davlat tomonidan tartibga solib turilishi
- Xalqaro jahon bozorida valyutaga bo'lgan ishonch darajasi
- Iste'molchilarni boshqa mamlakatlarning tovarlariga bo'l-gan qiziqishlarini o'zgarishi valyuta ayirboshlashlar mutanosib-ligi ularni kotirovkalash orqali o'rnatiladi.

**Valyuta kotirovkasi** – deyilganda valyutani birjada baho-lash va chet el valyutasi kursining milliy valyutaga nisbatan kur-sining aniqlanishi va o'rnatilishi tushuniladi. Kotirovkalash davlat va yirik tijorat banklari tomonidan o'tkaziladi.

Hozirgi paytda valyutani kotirovkalash ikki usulda amalga oshiriladi.

• **To'g'ridan-to'g'ri kotirovka.** Bu kotirovka xorijiy valyuta birligini milliy valyutada ifodalanishi bo'lib, ko'pchilik mamla-katlarda qo'llaniladi: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki-ning 2006 yil 24 yanvarda xorijiy valyutalarning so'mga nisbatan o'rnatilgan kurslari: 1\$ = 1186,73 so'm, 1 evro = 1452,91 so'm, 1 rossiya rubli = 41,95 so'm, 1 SDR = 1715,44 so'm.

• **Teskari kotirovka.** Milliy valyuta birligining xorijiy valyutada ifodalanishi. Masalan, 1 so'm = I/1186,73 AQSh dollar, 1 so'm = II/452,91 evro.

Buyuk Britaniyada teskari kotirovka ko'proq qo'llaniladi. Bu tarixiy an'ana bilan bog'liq odatlardan biri: Londonda 1ft.st. = 1,5387\$

Chet el valyutasining milliy valyutadagi kotirovkasi banklar tomonidan savdo-sanoat mijozlari bilan bo'lgan operatsiyalar chog'ida ko'proq ishlatiladi. Banklararo valyuta bozorida kotirovka AQSh dollariga nisbatan olib boriladi.

Xalqaro savdo va valyuta kredit operatsiyalarida foydalani-ladigan turli xil milliy valyutalar valyuta bozorida bir-biriga ma'lum bir nisbatda

almashtiriladi. Xalqaro tajribada almash-tirishning ikki turidan foydalaniladi.

Nominal almashtirish kursi (nominal exchange rate) ikki mamlakat valyutasi narxi nisbiyligini, boshqacha qilib aytganda, bir valyutaning narxi ikkinchi bir valyuta birligida ifoda etilishi-ni bildiradi.

Egiluvchan valyuta kursi tizimida almashtirish kursi valyuta bozoridagi valyutalar narxi muvozanatiga qarab belgilanadi. O'z zimmasiga xohlagan miqdordagi chet el valyutasini belgilangan kurs bo'yicha sotib olish va sotish huquqini olgan Markaziy bank fiksirlangan tizimdagi kurs bo'yicha milliy valyuta kursini o'rnatadi. Odatda, Markaziy bank milliy valyuta kursini erkin tebranish doirasida o'rnatadi. Agar valyuta narxi o'rnatilgan chega-raga yaqinlashsa M.B intervensiyani qo'llaydi, eng past chegaraga yaqinlashsa, shu valyutani sotib oladi yoki chet el valyutasi yohud oltinga almashtiradi. Agar yuqori chegaraga yaqinlashsa, shu valyutani sotadi yoki chet el valyutasi yohud oltinga almashtiradi.

**Valyuta intervensiyasi** deganda mamlakat Markaziy banki-ning o'z mamlakati milliy valyutasi kursiga ijobiy ta'sir o'tkazish maqsadida valyuta bozorida oldi-sotdi ishlariga aralashuvi tushuniladi. Pul-kredit siyosatini o'tkazishda qo'llaniladigan vositalar hisobga olib, valyuta intervensiyasi sof va aralash ko'rinishlarga ajratiladi. Sof intervensiya nazariy jihatdan pul-kredit sohasiga ta'sir etmaydi. Aralash intervensiyalar ancha murakkab bo'lsa ham ko'p qo'llaniladi. Ular pul-kredit sohasiga nazariy jihatdan ta'sir o'tkazadi, valyuta bozorida talab va taklifdagi o'zgarishlarni pul-kredit siyosati bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Davlat, odatda, o'zining valyuta rezervlarini qisqa muddatli qimmatli qog'oz (xazina veksellari va bosh.) hamda bank depo-zitlari ko'rinishida saqlab turadi. Konversion operatsiyani o'tkazishdan ilgari kredit vositalari operatsiyasini o'tkazish zarur. Bu, o'z navbatida, pul muomalasiga va foiz stavkalari darajasiga ta'sir etadi. Valyuta intervensiyasidagi jarayonlarda ruhiy holatning o'rni, ayniqsa, muhim hisoblanadi. Markaziy bank to-monidan operatsiyaning keng ravishda oshkor qilinishi valyuta bozori qatnashchilarining valyuta karcholonlari tazyiqiga bo'ysuni-shini vujudga keltirib chiqaradi. Markaziy bankning birjaga kirib borishi, valyuta brokerlariga murojaat qilishi ko'pincha valyuta bozoriga kuchliroq ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sir operatsiya-ning haqiqiy summasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan natijadan ham yuqori bo'ladi. Markaziy bank valyuta operatsiyasiga brokerlar orqali,

birjalar orqali hamda tijorat banklari orqali to'g'ri-dan-to'g'ri ta'sir etishi mumkin.

**Haqiqiy almashtirish kursi** (real exchange rate) Ichki mamlakatda chiqarilgan tovarning nisbiy narxini va shu narx nisbati asosida ikki mamlakat o'rtasidagi tovar almashinuvini bildiradi.

Nominal va valyutalarning haqiqiy almashtirish kursiga quyidagilar kiradi:

$$Er = \frac{\text{Bir mamlakatda ishlab chiqarilgan tovar narxi (milliy valyutada)}}{\text{Xuddi shu tovarning chet elda ishlab chiqarilgan narxi (chet el valyutasida)}}$$

Milliy valyutaning haqiqiy almashtirish kursi qanchalik past bo'lsa, milliy tovar shunchalik arzon bo'ladi va eksport qilish ham ko'payadi. Kursning mamlakatdagi bozor stavka foizi oshgan sari valyutaning haqiqiy kursi ham ko'tariladi.

Uzoq muddatli istiqbolli almashtirish kursi dinamikasiga ta'sirni belgilab beradigan omillar quyidagilar:

- Pul massasining dinamikasi
- YaMMning haqiqiy dinamikasi
- Bozor foizi stavkasi darajasi
- Mamlakat ichida va tashqarisida – chet elda ko'tarilayotgan inflyatsiya darajasi

Ma'lum bir mamlakatdagi savdo balansining savdo dinamika-si;

Qisqa muddatli istiqbolda SDning egri chiziq talab omil-lari asosida iste'molchilarning didi, iqtisodiy rivojlanish sur'ati, haqiqiy foiz (%) stavkalarining o'zgarishi va boshqalar yotadi.

Chet el valyutasi kursining o'sishi (chet el valyutasining narxi milliy valyuta birligida o'sadi) har qanday sharoitda ham bir xilda bo'ladi, agar:

- Mamlakatda pulni taklif qilish ortsa;
- Xorijiy mamlakatlarda pul taklifi pasaysa;
- Chet elda haqiqiy YaMM o'ssa;
- Mamlakatda haqiqiy YaMM pasaysa;
- chet el mamlakatlarida foiz (%) stavkalari o'ssa;
- Mamlakatda foiz (%) stavkalari pasaysa;
- Mamlakatda kutilayotgan inflyatsiya darajasi ko'tarilsa;
- Chet eldagi kutilayotgan inflyatsiya pasaysa;
- Mamlakatning savdo balansi pasaysa.



Xarid qobiliyati pariteti kontseptsiyasiga asosan xalqaro raqobat ichki va chet eldagi xalqaro savdoda ishtirok etuvchilar-ning tovarlari va xizmatlari narxini asta-sekin tenglashtirishga olib keladi. Ma'lum bir mamlakatdagi inflyatsiya chet eldagi inflyatsiya sur'ati darajasidan yuqori bo'lsa, bu holda (boshqa xar qanday bir xil sharoitga qaramay) Milliy valyutaning arzon-lashish tendentsiyasi yuz beradi. Bu kontseptsiyaga muvofiq valyuta kursi qanchaga o'zgarayotganini doim aniqlab borish kerak. Bu – turli mamlakatlarda narx darajasi o'rtasidagi farqni kompensa-tsiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Milliy valyutaning boshqa mamlakatlar valyutalariga qaytaruvchanlik darajasi konvertirlanishini aks ettiradi. Tashqi iqtisodiy operatsiyalarning ko'rinishi va bu operatsiyalarni o'tkazgan sub'ektlarga qarab, valyuta konvertatsiyasi turkumlarga (klassi-fikatsiya) ajratiladi.

**To'liq konvertirlanuvchi valyuta** tashqi iqtisodiy operatsiyalarning hamma turini va barcha kategoriyadagi u yoki bu valyuta egalarini (joriy tijorat operatsiyalari, va kapitalning harakat-lanish operatsiyasi, rezidentlar va norezidentlar, jismoniy va yuridik shaxslar) o'z ichiga qamrab oladi.

**Qisman konvertirlanadigan valyutalar**-tashqi iqtisodiy operatsiyalarning alohida turlariga va alohida kategoriyadagi valyuta egalariga tarqatiladi.

**Tashqi konvertirlanadigan valyutalar**-Norezidentlar uchun u yoki bu milliy valyuta vositalarini chet el valyutalariga mutlaqo erkin ravishda almashtirishni ko'zda tutadi, rezidentlar bu erkinlikka ega emas.

**Ichki konvertirlanadigan valyutalar**-faqat rezidentlar uchun erkin almashtirishni ko'zda tutib beriladi, norezidentlar uchun konkret valyuta operatsiyalarni o'tkazishda cheklashlar saqlab qolinadi.

Valyuta bilan operatsiyalar bir nechta valyuta kurslari bo'yicha olib boriladi.

**Sotuvchi kursi**- Eng yuqori kurs sifatida.

**Sotib oluvchi kursi**- past kurs sifatida.

1. Nyu-York Londonga nisbatan (to'g'ri kotirovka)

Sotib oluvchi kursi: 1ft.st.=1,5000\$

Sotuvchi kursi: 1ft.st.=1,5005\$

Nyu-York banki funt sterlingni sotib, har bir funt ster-ling uchun ko'proq dollar oladi, Ingliz valyutasini 1,5000 dol-lardan sotib olgan edi.

2. London Nyu-Yorkka nisbatan (teskari kotirovka).

Sotib oluvchi kursi: 1ft.st.=1,5005\$



Sotuvchi kursi: 1ft.st.=1,5000\$

Angliya banki dollarni sotib olishga qaraganda dollarni so-tishda har bir funt sterling uchun kamroq dollar ishlatgan.

Bu kurslar orasidagi farq marjani hosil qiladi. Bu farq - marjani bank xarajatlarini qoplashga va ma'lum bir qismi valyuta-tavakkalchiligini sug'urtalashga sarflanadi.

**O'rtacha kurs** sotuvchi va sotib oluvchining o'rtacha arifmetik kursidan hisoblab chiqariladi. Bu kurs ma'lum muddat oralig'ida iqtisodiy ko'rsatkichlarni solishtirib ko'rish, tashqi savdo kon-traktlarini tuzishda dilerlar tomonidan foydalaniladi.

«Kross-kurs»- ikki valyuta nisbati va undan kelib chiqadigan kursning uchinchi valyutaga nisbati (odat bo'yicha AQSh dollari-ga)dan kelib chiqadi. «Kross-kurs» bazasi asosida savdo-sanoat tizimlari uchun valyuta kotirovkasi amalga oshiriladi.

Tsyurixdagi Shveytsariya banki SFR kursini Daniya kronasida olmoqchi deylik. Bu holda «Kross-kurs» har ikkala valyutaning dollarga nisbati va shu nisbat asosida «Kross-kurs» SFR Daniya kroniga nisbati chiqariladi.

$$1,7582 \text{ Sfr} = 1\$$$

$$1\$ = 4,3761$$

$$100 = \text{XSFR}$$

$$100 = \frac{100 \times 1,7582}{4,3761} = 40,1773 \text{ Sfr}$$

Valyutaning teskari kotirovkasi foydalanilganda funt ster-ling kursi SFRga nisbatan hisoblab chiqiladi, so'ng valyutalar kursi dollarga nisbatan aniqlanadi.

$$\text{XSfr} = 1 \text{ ft.st.}$$

$$1 \text{ ft.st.} = 3,1275\$$$

$$1\$ = 1,7582 \text{ Sfr}$$

$$\text{Shunda: } 1 \text{ ft.st.} = 3,1275 \times 1,7582 = 5,4988 \text{ Sfr}$$

Moliyaviy konvertirlanadigan valyutalar – valyutani boshqa mamlakat valyutasiga aylantiriladi.

Savdo konvertirlanadigan valyutalar – tovar to'lovini olib borishga asoslangan.

Fiksing kursi- banklararo aniqlanganidek har bir valyutaga bo'lgan talab va taklif qiyosiy ravishda hisoblab chiqiladi,so'ng shu asosda sotuvchi va sotib oluvchi kursi o'rnatiladi. O'tkazi-layotgan valyuta-moliya siyosatiga muvofiq yo fiksirlangan valyuta kursi rejimi, yoki suzuvchi valyuta kursi rejimi qo'llanilishi mumkin.

1971 yil oltinni dollarga almashtirish to'xtatilgandan so'ng sanoati rivojlangan mamlakatlar o'z valyutalarini fiksirlangan dollar pariteti bilan himoyalab turishdan asta-sekin voz kecha boshladilar. 1973 yildan hamma erda kurslarning nisbatini o'rnatishning yangi usuli-suzib yuruvchi valyuta usuli joriy qilindi.

Sanoati yuqori darajada rivojlangan mamlakatlardan 48tasi o'z valyutalarini «erkin suzuvchi» valyutalar qatoriga qo'shdi: Mar-kaziy bank valyutalarning bozor narxini tartibga solib turish operatsiyalarini valyuta kurslari darajalarini belgilashdan ko'ra, haddan tashqari tebranishlarni bartaraf etish yuzasidan o'tkazdi.

30ga yaqin mamlakat, shu jumladan, O'zbekiston ham valyuta-larni «boshqariladigan suzish» usulini qo'llashga o'tdi. Davlat chet el valyutasi intervensiyasi bilan valyuta kursiga o'z ta'sirini o'tkazadi (milliy valyutaning oldi-sotdisi chet el valyutasi, aso-san AQSh dollarida amalga oshiriladi). Bunda uning aniq darajasi va dinamikasini belgilash va ushlab turish majburiyatini o'z zimmasiga olmaydi. Qolgan mamlakatlar turli xil fiksirlangan kurslarni o'rnatgan (Livan, Misr, Argentina, Panama, Polsha, Kipr, Gretsiya.)

### 3. Xalqaro valyuta bozori

Valyuta bozorlarida bir valyutani ikkinchisiga almashtirish amalga oshiriladi. **Bunday operatsiyalarni o'tkazish zarurati** Yagona to'lov vositasi yo'qligidan kelib chiqqan.

Valyuta bozorlari talab va taklif asosida valyuta oldi-sotdi-si amalga oshiriladigan rasmiy markaz hisoblanadi.

Funksional nuqtai nazardan qaraganda bozorlar xalqaro hi-sob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkazish, valyuta bozorlarida, sug'urta-lashni, valyuta bozorlari diversifikatsiyasi, valyuta interventsiya-sini o'tkazishni, qatnashchilarning daromad olishini ta'minlay-di. Institutsional nuqtai nazardan esa valyuta bozori korpora-tsiyalar, brokerlik firmalari korporatsiyalar, banklar majmuini ifodalaydi.

Hozirgi zamon valyuta bozoriga 50-60-yillarda Bretton Vuds valyuta tizimi faoliyat ko'rsatib turgan paytda asos solingan. Ja-hon bozorida asosini (yadro) shunday davlatlar tashkil etadiki, ularda valyutalarni cheklashi umuman yo'q yoki bo'lgan taqdirda ham arzirli darajada emas. AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Shveytsariya, Shvetsiya, Norvegiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Yaponiya, Singapur, BAA.

Valyuta bozorlari ishga solinadigan valyutalar to'plami valyuta operatsiyalari xarakteriga, hajmiga ko'ra xalqaro, hududiy, milliy bozorlarga bo'linadi. Milliy va hududiy bozorlarda banklar valyutaning chegaralangan miqdori bilan operatsiyalar o'tkazadi. Ma'lum bir mamlakat hududida joylashgan milliy valyuta bozorlarida banklar tomonidan o'z mijozlariga (kompaniya, bank, xusu-siy shaxs) valyuta xizmati ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi operatsiyalar o'tkaziladi; alohida kompaniyalarning o'zaro valyuta operatsiyalari valyuta birjalaridagi operatsiyalardir.

Hozirgi paytda uchta yirik xalqaro valyuta bozori markazi ajralib turadi.

- Amerika bozori – AQSh, Kanada, Meksika xalqaro valyuta-ning 40%i almashadi.

- Evropa bozori – London, Parij, Frankfurt, Tsyurix va bosh-qalar. Xalqaro valyuta 40%i almashtiriladi; London valyuta bozori etakchilik qilib, dunyodagi valyuta sohasida qilinadigan bitim-larning 30%i uning hissasiga to'g'ri keladi.

- Osiyo bozori- Tokio, Singapur, Syangan, Bahrayn xalqaro valyutaning 20% almashtiradi.

Xalqaro valyuta bozorida XVF, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Dilerlari Assotsiatsiyasi, Evropa banklari Xalqaro Kompaniyasi, Fond

birjalari Xalqaro Federatsiyasi, Evropa Moliya Jamiyati, Evropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki, London Klubi, Parij Klubi va boshqa tashkilotlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Valyutalar almashtiriladigan valyuta bozorida mutanosiblik valyutaga bo'lgan talab va taklifning o'zaro ta'siri natijasida o'rnatiladi. Talab va taklifni shakllantirish asosida mamlakat-larning tashqi iqtisodiy faolligi, birinchi navbatda, tashqi sav-do yotadi.

Xalqaro savdo jarayonida chet ellik import qiluvchilarda ma'lum bir mamlakatning mahsuloti uchun shu davlat milliy valyutasiga ehtiyoj tug'iladi, mahalliy eksport qiluvchilar, chet el say-yohlari va boshqalarda ham shunday holat yuz beradi. Milliy valyutani taklif qilish (chet el valyutasiga almashish maqsadida) mahalliy import qiluvchilar, chet ellik eksport qiluvchi va mahalliy sayyohlar tomonidan shakllantiriladi.

Chet el valyutasiga talab milliy valyutani taklif qilishni shakllantirgan ishtirokchilar tomonidan vujudga keltiriladi. Chet el valyutasiga taklif, o'z navbatida, milliy valyutaga talab-gorlar tomonidan shakllantiriladi.

Eng muhim printsiptial tomoni shundaki, bitta valyutaning oldi-sotdi bozori (masalan AQSh dollari) va boshqa bir valyutaning oldi-sotdi bozori (masalan, funt sterling) iqtisodiy jihatdan qaraladigan bo'lsa, bir butun, ajralmasdir. Dollarning egri chizig'i talab va taklifi nafaqat AQShning valyuta bozori-dagi holatini aks ettiradi, shuningdek, funt sterlingni egri chizikli talab va taklifi nafaqat Buyuk Britaniyaning valyuta bozoridagi holatini aks ettiradi, balki valyuta bozori yagona ham-da baynalminal bo'lgani uchun butun dunyoga tegishlidir. Shu bilan bir qatorda, valyuta bozorini ta'riflaganda yonma-yon ravishda valyutalarning farqini ham qiyoslab o'tish kerak. Bu-uni tahlil qilishni ancha mushkullashtiradi.

Valyuta bozorida talab va taklifning o'zaro erkin ta'sirlashu-vi valyutaning bozor kursi muvozanatini shakllantirishiga olib keladi, bu xolda har bir mamlakatning eksport va import hajmi bir-biriga mos keladi. Bu erda gap import hajmi haqida ketmoqda (milliy bozorda chet el tovarlarini sotib olish hajmi). Bu-Fundamental muvozanat deb yuritiladi.

Mamlakatning hududiy va xalqaro valyuta bozorlaridan chet el valyutasini sotib olib, uni yana bir o'zi uchun zarur bo'lgan valyutaga yoki milliy pulga almashtirib foydalanish mumkin. Valyuta operatsiyalarining asosiy qismi spekulativ va arbitraj valyutalar bitimi-

kelishuviga to'g'ri keladi. Valyuta bozoridagi ope-ratsiyalardan kelgan foydaning bir qismi tashqi savdodagi xalqaro hisob-kitoblarga, xalqaro turizm, xizmatlar, xususi pul o'tka-zishlarga xizmat qiladi.

Valyuta bozorining quyidagi turlari faoliyat ko'rsatib turibdi:

1. Banklararo, mijozli birja
2. Brokerlik va to'g'ri
3. Naqd pulli va tezkor

Banklararo bozor-valyuta savdosida muhim ahamiyatga ega. Bunda barcha operatsiyalar bevosita bank tomonidan zamonaviy aloqa vositalari orqali olib boriladi. Bu xilda tashkil etilgan valyuta bozori, ayniqsa, Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Shveysariya mam-lakatlarida rivoj topgan. Banklararo valyuta bozorining asosiy qatnashchilari banklar, banklar uylari, brokerlik firmalari ham-da yirik korporatsiyalardir.

Valyuta operatsiyalari asosan tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladi, Bunda chet el banklari-korrespondentlarining inkassa va boshqa to'lovlar yuzasidan topshiriqlari shartnoma aso-sida bajariladi. Valyuta bozorlarida amalga oshirilgan valyuta shartnomalarning 85-95% banklar, brokerlik firmalari hissasiga to'g'ri keladi. Banklararo valyuta bozori banklarning savdo-sanoat mijozlarining pul to'lovi bilan bog'liq majburiyatlari to'lov aylanmalariga ko'proq xizmat qiladi.

Valyuta bilan bo'ladigan operatsiyalarni bank o'z mijozlari hisobidan (komission asosda), shuningdek, o'z hisobidan o'tkazdi. Xalqaro to'lovlardagi rasm-rusmlarni soddalashtirish uchun pul qo'yilmalarini korrespondent scheti formasida o'zaro almashadi-lar.

Korrespondent schetida topshiriqqa binoan bir kredit tash-kiloti tomonidan boshqa bir tashkilot hisobiga o'tkaziladigan hisob-kitoblar o'z aksini topadi. Bu hisob-kitob korrespondent bitimi shartnomasi asosida o'tkazilishi kerak. Korrespondent scheti xalqaro raschet bo'yicha ikki xil ko'rinishga ega: «Nostro» scheti va «Loro» scheti.

«Nostro» scheti:

1. Bu schet chet eldagi bank korrespondentda bo'lib, barcha xara-jatlar va tushumlar u orqali o'tkaziladi.
2. Korrespondent scheti. Bu schet bo'yicha bankning topshirig'iga binoan barcha operatsiyalar korrespondent ijrosida o'tkaziladi.

«Loro» scheti:

1. Korrespondent scheti xalqaro hisob-kitobga ko'ra milliy bankda chet el banki- korrespondenti hisobiga ochiladi.

2. Schet, bank- korrespondent tomonidan ochiladigan bu schet korrespondent topshirig'i bilan beriladigan yoki olinadigan summa (pul)ni himoya qiladi. «Loro» scheti uchinchi bir bankning korrespondent scheti ham bo'lishi mumkin. Bu holda u «Vostro» deb nomlanadi.

Valyuta bozorlarining ishlab turishida sotuvchi bilan sotib oluvchi o'rtasida vositachilik vazifasini bajaruvchi brokerlar muhim rolo'ynaydi. Londondagi yarim yopiq assotsiatsiyaga birlash-tirilgan oltita yirik valyuta-depozit brokerlar firmasining jahondagi ta'sir doirasi keng. Valyuta bozorining beqarorligi brokerlar olib boradigan operatsiyaning o'sishiga olib keldi, ular-ning bu sohadagi xizmati nisbiy bo'lsa ham uzoq vaqtlardan buyon o'zgarishsiz qolib kelmoqda. Hozir amaliyotda banklar brokerlar yordamisiz kelishuv bitimlari tuzish huquqiga ega. Investitsiya muassasalari kapital bozorida operatsiyalar o'tkazish natijasida valyuta bitimlari o'tkazishga ham majbur bo'ldilar. Yirik savdo-sanoat korporatsiyalari valyuta bitimlari tuzishdan keladigan foydani banklarga berib qo'ymasdan, o'zlari olish uchun xususiy dilerlik uylarini ochdilar va sho''ba bank kompaniyalarini tuzdilar.

Valyuta bozorida shunday kredit-moliya muassasalari, omonat qo'yish va kooperativ institutlar, pension-investitsion fondlar vujudga keldi va ular faollashib ketdi.

Valyuta bozoridagi kelishuv-bitimlarda qurol sifatida quyidagilardan foydalaniladi:

- chet el valyutasida kredit muomala vositalari va to'lovlar (cheklar, vekselar), banklarning pul o'tkazuvlari (telegraf, poch-ta);
- chet elning naqd valyutasi (banknotlar, tanga pullar)
- chet el valyutasida bank depozitlari.
- bank veksellari – ma'lum bir mamlakatning banki tomoni-dan chet eldagi korrespondenti nomiga qo'yilgan veksellari.
- bank cheki-bank-avuar egasining chet eldagi bank-korrespondentiga ma'lum miqdordagi summani uning depozit schetidani chek egasining talab qilib olinadigan schetiga o'tkazish haqidagi yozma farmoni.
- bank o'tkazmalari – bankning boshqa bir mamlakatdagi bank korrespondentiga o'zining mijoz ko'rsatmasiga muvofiq chet el valyutasidagi ma'lum summani o'tkazib berish.
- depozit sertifikatlari-banklarning zaxira mablag'larni depozitga o'tkazish haqidagi yozma ravishdagi guvohnomasi. Bu guvohnoma



bo'lib, bu guvohnoma omonat qo'yuvchiga qo'yilmalar va foiz-larni olish huquqini tasdiqlaydigan hujjat.

- evronotalar- qisqa muddatli suzuvchi foizli stavka.

Hozirgi paytda tashqi iqtisodiy faoliyatda hisob-kitob-larining asosiy formalari banklar o'tkazmasi, inkassa hujjati, akkreditiv hujjat, ochiq hisob raqami bo'yicha hisob-kitob, chek bilan hisob-kitoblardan iborat.

Konversion pul aylanmasining 90%-asosiy beshta valyuta hisobiga – AQSh dollariga, EVRO, Yaponiya ieniga, funt sterling, Shveytsariya franklariga to'g'ri keladi.

Valyuta operatsiyalari har doim ma'lum darajada tavakkalchi-lik bilan o'tkaziladi. XX asrning 70-yillarida suzuvchi valyuta kurslarining joriy etilishi valyuta tavakkalchiligini o'tkir muammo qilib qo'ydi, bu muammoni amaliy jihatdan hal qilish chora-tadbirlari ko'rildi.

Valyuta tavakkalchiligi valyuta kurslarining tebranib turishi oqibatida pul yo'qotishlaridan zarar ko'rish demakdir.

- konversiyalashgan (naqd) tavakkalchilik ma'lum bir aniq operatsiyani o'tkazishda chet el valyutasida ko'riladigan zarar.

- translyatsiyalangan (buxgalteriya) tavakkalchilik aktiv bilan bog'liq bo'lib, ana shunga asoslangan holda joriy «translyatsiya» (qayta hisoblash kuni-sanasi) yoki «an'anaviy» (operatsiya o'tkazi-ladigan kuni-sanasi) «translyatsiya» o'tkaziladi.

Umuman olganda, valyuta tavakkalchiligi har bir valyutaning muddati va summasi bo'yicha aktivlar bilan passivlarning muvozanatlashmaganligidan kelib chiqadi. Valyutalar kursidagi nis-batlar o'zgarishi raqobatbardoshligining tushib ketishi orqali uzoqqa cho'ziladigan salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Banklar va kompaniyalar tomonidan valyuta tavakkalchiligini boshqarish-ning qisqa muddatli, uzoq muddatli, tashqi va ichki usullari ish-lab chiqilmoqda. Valyuta tavakkalchiligini hisobga olish va baho-lashning eng samarali usullardan biri «METChING» yoki aktiv va passivda o'zaro tavakkalchilikni yozib borish usulidir. Bu usulda valyuta tavakkalchiligi, masalan, valyuta chiqimidan valyuta tushu-mini ayirish yo'li bilan topiladi. Ikkinchi bir boshqa «NET-TING» usuli, valyuta bitimlarini maksimal qisqartirgan holda yirik bitimlar tuzish, bank yoki korporatsiyalarning barcha bo'lin-malari kelishib harakat qilishi usulidir.

Translyatsiya qilingan valyuta tavakkalchiligi dastavval kompaniya balansidagi milliy valyutani qayta hisoblashda, va kompaniyaning qilgan foydasi qaysi kuni (chet el kompaniyasi) to'g'ri kel-ganidan kelib



chiqadi. Korporatsiyaning chet eldagi filiali bilan-sini milliy valyuta bilan hisoblashning bir nechta usuli bor:

1. Barcha joriy operatsiyalar amaldagi valyuta kursi bilan baholanadi, uzoq muddatli operatsiyalar esa (tovar zaxiralari ham qo'shib) «an'anaviy» kurs bilan baholanadi.

2. Barcha moliyaviy operatsiyalar joriy kurslar bilan hisoblab chiqiladi, tovar operatsiyalari «an'anaviy» kurs bo'yicha hisoblab chiqiladi.

3. Barcha operatsiyalar joriy valyutada yoki an'anaviy valyutada hisoblab chiqiladi.

Valyutaning konversion operatsiyasidan keladigan foyda yoki zararga, odatda, korporatsiyaning faoliyatidagi operatsiyaning o't-kinchi bir qismi sifatida qaraladi. Kompaniyaning ish bilan bandligi u keltirgan foyda va zararda ko'rinadi. (Foydasi soliq-qa tortiladi). «Translyatsiya» (qayta hisoblash) natijalariga ba'zida balansdagi alohida bo'lim (modda) sifatida qaraladi, boshqa bir holda u o'tkinchi foyda va zarar deb baholanadi.

Valyuta tavakkalchiligini boshqarish har doim qanday strategiya tanlab olinganligiga bog'liq. Ko'pchilik korporatsiya va bank-lar valyuta tavakkalchiligini selektiv boshqarishni afzal ko'ra-dilar.

«Ichki» usullar valyuta tavakkalchiligining oldini olishga qaratilgan (preventiv xarakterdagi) usullardir. Bu-to'lovlarni TNK dagi tashqi hamkorlarga nisbati ham, shuningdek, ichki mono-liya gruppalariga ham (operatsiya leads and logs) chet el valyutasida to'lash jarayonini tezlashtiruvchi va sekinlashtiruvchi usuldir. Bosh va sho'ba kompaniyalari o'rtasida o'qlovlar rejimini o'zgar-tirish bilan tavakkalchilik xavfini sezilarli darajada pasay-tirish mumkin. Valyuta tavakkalchiligini boshqarish usullari sifatida valyutaning tashqi iqtisodiy bitimdagi narxini to'g'ri tanlay bilish usulidan foydalanish mumkin. Eksport qiluvchi uchun bunday valyuta «kuchli» valyuta hisoblanadi (Bu valyuta kursi bitim qancha vaqtga mo'ljallab tuzilgan bo'lsa, shu vaqt ichida o'sib boradi). Tuzilgan shartnoma bo'yicha pulga bo'lgan talab va maj-buriyat strukturasi muvozanati ikki xil yo'l bilan aniqla-nadi:

- Eksport va import uchun yoki chet el turistlarini chet elga yuborish uchun (bitim bir xil valyutada tuzilgan bo'lib, to'lov muddatlari deyarli bir xil bo'lishi kerak) tuzilgan bitimga bir paytning o'zida imzo chekish.

- Agar korxonalar faqat bir xil faoliyatga ixtisoslashgan bo'lsa, bunday holda valyuta strukturasi diversifikatsiyalash kerak bo'ladi (Valyuta

kursi qarama-qarshi tomonga o'zgarish xususiyati bo'lgan turli xil valyutalarni qo'llash bilan bitim tuzish).

Valyuta tavakkalchiligini uzoq muddatli himoya qilish dasturi korporatsiyaning narx siyosatidagi faolligi bilan bog'liq, jumla-dan, sug'urtalash narxini realizatsiya qilinadigan tovarlar ustiga qo'yish bilan.

«Tashqi» usullar, asosan, valyuta tavakkalchiligidan kelib chiqqan oqibatlarni betaraf holda keltirishga qaratiladi. Bu usulning ko'pchiligi banklarga tegishli, chunki banklar faoliyati turli-tuman kurash qurollariga asoslangan. Bu qurollardan bank-lar shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanadilar. Davlat tomoni-dan milliy eksportni rag'batlantirish maqsadida valyuta tavak-kalchiligini sug'urtalash yo'lga qo'yilganki, buning ma'lum ma'no-da ahamiyati katta.

Valyuta tavakkalchiligini kamaytirish uchun tezkor valyuta operatsiyalari (forvard, fyucher, opsiyon)dan keng miqyosida foydalaniladi. Bu operatsiyalardan tushgan mablag' tavakkalchiligi- dan kelgan zararni qoplashga hamda sug'urtalashga sarflanadi. Valyuta tavakkalchiligidan kelgan zararni tezlikda qoplash, chet el valyutalari oldi-sotdisini o'z vaqtida o'tkazish yo'li bilan kel-gusidagi to'lovlari uchun o'zini o'zi ta'minlashdan va valyuta tushu-mini ko'paytirishdan iborat.

Valyuta tavakkalchiligini sug'urtalash har qanday holatda valyuta olib-sotishni ham, navbatdagi teskari operatsiyani ham o'z vaqtida o'tkazishni talab qiladi. Chunki korporatsiya asosiy bitim-dan kelgan zararni tezkor va aksincha yo'l bilan operatsiya o'tkazish orqali kelgan foyda hisobidan qoplashi kerak bo'ladi.

5 yil va undan ko'p muddatga belgilangan uzoq muddatli valyuta shartnomalarini tuzish borgan sari keng tus olib bormoqda. Bank-lararo bozorda bu xil operatsiyalar yaxshi rivoj topgan va likvid-lik darajasi ham yuqori. Bu korporatsiyalarga uzoq muddatli yirik loyihalarni sug'urtalash imkonini beradi. Ayniqsa, valyutaga muvofiq keladigan foiz stavkalari darajasi, soliq rejimi va boshqa shartlar qatnashadigan chet el valyutasida qarz olish va in-vestitsiyalash juda keng qo'llanilmoqda.

80-yillarda uzoq muddatli valyutalar svoplaridan foydalanish keng quloch yoydi. Bunday operatsiyalar turli xil vosita-larning ekvivalent summasini almashtirishdan iborat bo'lib, besh-o'n yildan keyin teskari operatsiya qilish sharti bilan amalga oshiriladi. Valyuta narxi, boshqa shoshilinch bitimlarga o'xshash valyuta stavkalari o'rtasidagi foiz

farqidan iborat bo'ladi. Valyutalarni svoplar bilan olishning foydali tomoni shundaki, masalan, ochiq valyuta pozitsiyalarini kompensatsiya qilishga (ma'lum bir muddat ichida chet el valyutasini milliy valyutaga almash-tirish mumkin bo'lmaganda) yordam beradi, ba'zida kompaniya, kor-poratsiyalarning xususiy sho'bani kreditlash uchun ishlatsa ham bo'ladi.

Amaliyotda valyuta tavakkalchiligini sug'urtalashning ikkita asosiy usuli ishlatiladi:

- \* valyuta shartlari-egri, to'g'ri, SDR asosidagi mult- valyutani;

- \* forvard operatsiyalari-eksport qiluvchi shartnoma bo'yicha to'lovlarning kelib tushish vaqti grafigini taxminan bilgan holda oldin belgilangan (shoshilinch) kurs bo'yicha valyuta tushirish uchun o'ziga yon bosish haqida shartnoma tuzadi. Eksport qiluvchi milliy valyutada o'ziga tushadigan tushum summasini oldindan aniqlab, shu asosda shartnoma bahosini o'rnatadi. Bu shoshilinch shartnoma kur-si tuzilayotgan vaqtdagi valyuta kursidan yuqori (mukofotlar bilan kotirovka qilinganda) yoki past (diskont bilan kotirovka qilinganda) bo'lishi mumkin.

## 4. Valyuta operatsiyalari mexanizmi

Valyuta bozorlari asosini banklararo valyuta operatsiyalari tashkil etadi.

**Valyuta bitimi** bu-tomonlar o'rtasidagi kelishilgan vaqtda belgilangan kurs bo'yicha valyuta konversiyasini o'tkazish majburiyatidir. Valyuta operatsiyalari jarayonida ularning valyuta pozitsiyalarini aniqlab beruvchi chet el valyutalariga bo'lgan talabi va majburiyatlari nisbatida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Talab va majburiyat muvozanati teng bo'lsa, valyuta pozitsiyasi yopiq hisoblanadi. Agar talab va majburiyat nisbati bir-biriga to'g'ri kel-masa, valyuta pozitsiyasi ochiq hisoblanadi.

Naqd valyuta bilan savdo quyidagicha amalga oshiriladi:

- kassa bitimi (spot hisob-kitobi)
- shoshilinch-tezkor valyuta bitimi.

Kassa bitimi «spot» bitimi asosida amalga oshiriladi. Kassa bitimi valyutaning o'zgarib qolishi natijasida ko'riladigan za-rardan qochib, kapitalni tez ko'paytirish maqsadida tashqi savdo operatsiyalarida qatnashish uchun chet el valyutasini tezkor olishda qo'llaniladi. Bunday operatsiyalar valyuta bozorlarida keng qo'l-laniladigan bo'lib qoldi.

**Kassa bitimining** o'ziga xos xususiyatlari:

- bitim tuzish payti, ko'pincha, amalga oshirish payti bilan to'g'ri keladi yoki amalga oshirish ikki kunga kechishi mumkin;
- sotilgan valyuta telegraf orqali belgilangan hisob raqami-ga o'tkaziladi;
- asosan telegraf o'tkazish kursi qo'llaniladi; telegraf o'tka-zish kursiga har doim valyuta bozori qatnashchilari tomonidan valyuta kursining asosiy ko'rsatkichlari sifatida qaraladi;
- uzil-kesil hisob-kitob qilib bo'lingandan keyin «spot» muddatini to'g'ri belgilash katta ahamiyatga ega. Chunki bozor to-monlarning birortasi boshqalarga kredit bermasligini kafolat-laydigan bahoni kompensatsiya qilish printsipli asosida faoliyat ko'rsatadi. (masalan, London banki funt berayotgan kuni Amerika banklari dollar ekvivalentini qo'llashlari kerak).

«KESh» termini-shartnoma tuzilgan kunning o'zida qilina-digan hisob-kitob shartnoma turiga kiradi. (Shimoliy Amerika bozorida). Evropa va sharqdagi bozorlarda bu shartnoma «shu kun-ning o'zida shartnoma hisob-kitobi» deb nom olgan. Er shari min-taqalarida vaqt o'rtasidagi, dam olish kunlaridagi farqlarni hi-sobga oladigan bo'lsak, banklar o'rtasidagi operatsiyalarni bir vaqtning o'zida o'tkazish juda

mushkul. Yaxshi rivojlangan pul bozorlarida foiz (%) sutkalik overdraft bo'yicha hisoblab o'tka-ziladi, overdraftning o'zida kun davomida foiz (%) qo'shimchasi qo'shilmaydi. Tuzilgan shartnoma dam olish kuniga to'g'ri kelib qolsa, «spot» shartnomasi kuniga o'zgartirish (korrektirovka) kiritiladi.

Shoshilinch-tezkor valyuta shartnomasi-tashqi iqtisodiy operatsiyalar bo'yicha to'lovlarni sug'urtalash hamda chetga kapital chiqarish, arbitraj foyda olish maqsadida real valyuta yuzasidan tuziladi. Shoshilinch-tezkor operatsiyaga forvard va opsiyon shartnoma kiradi. Shartnomaning ma'lum muddatga tuzilishining sabablari quyidagilardan iborat:

\* Tijorat maqsadlarida ishlatiladigan valyutaning konvertlashganligi, kelgusidagi to'lovlar uchun chet el valyutalari oldi-sotdisini o'z vaqtida kechiktirmasdan o'tkazish, valyuta tavakkalchi-ligining oldini olish uchun:

\* valyuta kursining tushib ketishi ehtimoli tufayli ko'rila-digan zararni qoplash maqsadida chetga chiqarilgan to'g'ridan-to'g'ri yoki portfel investitsiyani sug'urtalash;

\* Kurslar o'rtasidagi farqlar hisobidan spekulyatsiya qilish yo'li bilan foyda olish; 1972 yildan buyon xedjerlash va foyda ko'rish (f'yuchers) maqsadida shoshilinch-tezkor birja valyuta ope-ratsiyalari sinab ko'rilmogda.

Valyuta kursi, foiz (%) stavkalari, soliqqa tortishda keskin o'zgarishlar yuz berishi, valyutani cheklash yoki valyutani cheklashni kuchaytirish, qarzdorlar qarzlarni uzishi yanada yomonlashuvi kuzatilganda xalqaro hisob-kitobda valyutadan muddatli foydalanish joriy etiladi.

Import qiluvchilar milliy valyutalar kursining pasayishini kutib to'lovlarni tezroq to'lashga intiladilar yoki chet el valyuta-sini ma'lum muddatga sotib oladilar, eksport qiluvchilar, aksin-cha, qo'llaridagi valyutalarini ushlab turadilar yoki kelgusi valyuta tushimini ko'zlab muddatli sotuvga ham chiqarmaydilar.

Valyutaning forvard kursi shunday kurski, ana shu kurs bo'yicha valyuta ma'lum bir muddat ichida sotib olinishi yoki sotilishi mumkin.

Valyutaning oddiy forvard kurslari bozor «svop» kursining mukofotlari hamda diskontiga asoslangan bo'lib, mukofotlar «spot» kursiga qo'shiladi, diskontlar «spot» kursidan ayriladi (to'g'ri kotirovka bo'yicha). Forvard kurslari kotirovkalashmaydi, ikkita elementga-kurs «spot» hamda forvard marja kursiga ega bo'ladi.

«**Autrayt**» kurslari skidka (narxni arzonlashtirish) usuli bo'yicha kotirovka qilingan (diskont, deport) yoki mukofotli (ak-tsiya report) oddiy shoshilinch-tezkor ravishda tuziladigan bitim-dagi valyutalar kurslaridir. Bu bitimda qo'llaniladigan skidka va mukofot (forvard differentsiallari) «svop stavkalari» yoki «svop-kurs» deb yuritiladi. Kotirovka differentsiallari «spot» kurslari va forvard kurslaridan farqli o'laroq «autrayt» kurslarining uzoq muddat davom etadigan nisbiy barqarorligiga asoslangan.

**Shoshilinch-tezkor valyuta bitimi shunday aniqlanadi.**

\* Bitim tuzilayotgan paytda bozordagi talab va taklifning nisbati;

\* Ayrim valyutalar bo'yicha o'rtadagi farqning foiz (%) stav-kalari.

Forvard valyuta bitimlari import va eksport qiluvchilarga bitim kalkulyatsiyasi uchun ishonchli poydevor qo'yish imkonini beradi, chunki bitim tuzilib, to'lovlarni to'lash paytidagi valyuta-lar kurslari nisbatidan qat'i nazar belgilangan summaning kelib tushishiga ishonch hosil qilinadi.

Bitimlar tijorat banklari tomonidan e'lon qilingan for-ward kurslari kassa kursiga nisbati (-) deport yoki (+) reportga nisbati bilan birgalikda amalga oshiriladi.

AQSh dollarining Daniya kroniga nisbatan kursi 3·3574 – 3·3593

Uch oy uchun depozit 31-32

Shoshilinch-tezkor kurs 3,3543 - 3·3574

Bu erda kassa kursi bo'yicha marja 19 birlik, shoshilinch-tezkor kurs bo'yicha 28 birlikni tashkil qiladi.

Valyuta bozorining tijorat banklari va boshqa qatnashchilari orasida valyuta kurslarining ko'tarilishi yoki pasayishida rol o'ynaydigan dilerlar bor. Bulardan birinchisi «xo'kizlar» ikkin-chisi «ayiqalar» deb ataladi.

**Option valyuta**-kelishib olingan bir vaqtda yoki kelishilgan muddat ichida ma'lum miqdordagi fiksirlangan kurs bo'yicha sotib olish yoki sotib boshqa valyutaga almashtirish huquqini sotib oluv-chiga berishni, sotuvchi uchun majburiyat yuklashni bildiradi. Bu operatsiyani o'tkazish:

\* option put-valyutani sotishda potentsial qadrsizlanishini himoya qilish uchun huquq beradi.

\* option kol-valyutani sotib olishda kursning potentsial o'sishidan himoya qilish huquqini beradi.

\* option bitim narxi mukofot hisoblanadi: option kurs narxi option valyutani sotib olish va sotilishi narxi bilan aniqlanadi.



Valyuta opsiyon bitimlari savdosi Chikago opsiyon birjasi Avstriyaning Vena shahridagi shoshilinch-tezkor opsiyon birjasi, Amsterdamdagi Evropa opsiyon birjasida amalga oshirildi.

Moliyaviy f'yucherslar birja bitimlariga kiradi. F'yuchers bitimlari moliya sohasida birinchi marta 1972 yilda amalga oshirilgan. Chikago tijorat birjasi f'yuchers savdosini o'tkazish uchun xalqaro valyuta birjasi savdosini uyushtirdi. Chet el valyuta-talari f'yuchers bitimlari Chikago tijorat birjasini o'z ichiga olgan valyuta birjasi orqali amalga oshirildi. Opsiyon birjasi (mazkur f'yuchers birjasining bo'linmasi) opsiyonlarni f'yuchers bitimlari bo'yicha chet el valyutasiga sotadi. F'yuchers bitimlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha: standart bitimlar asosida hamma shartlar reglamentatsiya qilingan summa, muddati, hisob-kitob usuli aniqlab olingan savdo. Bu bitimlarning 99% shartnoma bitimlari bo'yicha amalga oshiriladi. Har bir f'yuchers bitimining samaradorligi quyidagi an'anaga asoslangan: «arzon-ga sotib olish, qimmatga sotish». F'yuchers qatnashchilarining yutug'i yoki yutqazishi marja deb yuritiladi va savdodan keyin aniqlanadi va quyidagi formula bilan chiqariladi.

$$M = Rk(S - S_m)$$

M-marja, yutuqda ijobiy, yutqazishda salbiy

K-shartnoma miqdori

S-bitim narxi (bitim tuzilayotgan valyuta kursi)

S<sub>m</sub>-barcha savdo bitimlarining o'rtacha kursi

R=1 savdoda, R=1 sotib olishda.

Sotuvchi kotirovka kursidan qimmatroq sotsa yutadi, arzonroq sotsa yutqazadi.

F'yuchers bozori tovar etkazib berishning markazlashgan bozori bo'lib, bu bozorda raqobat asosida f'yuchers bitimlari sotiladi va sotib olinadi. Har bir shartnoma aniq bir tovar uchun standart qilib belgilangan bo'lib, unda tovarning ma'lum miqdori va sifa-ti ko'rsatiladi va bu tovar kelishilgan vaqtda, qat'iy belgilab qo'yilgan kunda etqazib berilishi shart. Faqat tovarning savdo uyida belgilanadigan narxi ustida munozara yuritish mumkin.

F'yuchers bozorlari quyidagilarga xizmat qiladi:

narxni aniq belgilab olish uchun;

sug'urtalash uchun sharoit yaratadi.

F'yuchers shartnomalarini sotish bo'yicha Chikago tovar birjasi, N'yuyork, London, Singapur, Tsyurix, Parij tovar birjalari etakchilik qiladi.

## 5. To'lov balansi

Mamlakatning ma'lum vaqtdagi barcha xalqaro iqtisodiy faoliyati, shu jumladan, tashqi savdo, kapital va ishchi kuchi migratsiyasi ham to'lov balansida o'z aksini topadi. Har qanday tashqi iqtisodiy bitim valyuta ayirboshlash yoki valyuta operatsiyalari orqali amalga oshiriladigan oldi-sotdi bitimi hisob-lanar ekan, demak, mamlakatning jahon bozoridagi faoliyatining natijalari, pirovardida, xorijiy valyuta tushumlari va xarajatlarida ifodalanadi. Shuning uchun ham to'lov balansi bu –bir tomonida chetdan keladigan barcha tushumlar, ikkinchi to-mondan esa mamlakat chetga chiqaradigan barcha to'lovlari ko'rsa-tilagan hujjatdir. Tushum (kredit) faqat eksport yordamida ta'minlanishi mumkin, aksincha, xorijiy mahsulotlarni sotib olish (yoki import) to'lovlar va xorijiy valyuta xarajatlari bilan (debit) bog'liq bo'ladi. Bunda tovar deganda ayirbosh-lanadigan har qanday narsa tushuniladi, ya'ni u moddiy ne'mat, xizmat, ishchi kuchi, kapital va valyuta bo'lishi mumkin.

### *To'lov balansining tarkibiy tuzilishi*

Barcha tashqi iqtisodiy bitimlar ikkita katta guruhga bo'-linadi; joriy operatsiyalar va kapital harakati bilan bog'liq operatsiyalar (4-jadval).

Joriy operatsiyalarning asosiy moddasi tovarlar eksporti va importi hisoblanadi, ularning farqi tashqi savdo balan-sining qoldig'i deb yuritiladi. Bizning misolda bu balans sal-biydir, ya'ni mamlakat tovarlarni chetga olib chiqishdan ko'ra ko'proq olib keladi (—80).

**Mamlakat to'lov balansining taxminiy ko'rinishi**  
(raqamlar shartli)

Moddalar nomi	Kredit (+) yoki eksport hisobiga tushumlar	Debit (-) yoki import natijasidagi xarajatlar	Sof kredit yoki sof debit
I Joriy operatsiyalar schyoti			
1 Tovarlar	+125	-205	-80
2 Tashqi savdo balansiningqoldig'i			-80
3 Xizmatlar	+35	-37	-2
4 Investitsiyalardan daromadlar (foizlar va dividendlar)	+17	-10	+7
5 Pul o'tkazishlar	+1	-8	-7
6 Joriy operatsiyalar bo'yicha balansning qoldig'i			-82
II Kapital harakatining schyoti			
7 Investitsiyalar va boshqa o'rta va uzoq muddatli kapital	+90	-37	+53
8 Kapital harakati balansining qoldig'i			+53
9 Joriy operatsiyalar va kapital harakati bo'yicha balansning qoldig'i			-29
III Rasmiy rezervlar (oltin, SDR, XVF dagi rezervlar)	+29		+29

Joriy operatsiyalarning keyingi bosqichi xizmatlar eksporti va importidir. Ularga transport, sug'urta, sayyohlik xizmatlari va boshqalar kiradi. Tovarlar bilan operatsiyalardagi kabi xizmatlar bilan operatsiyalarda ham mamlakat xorijiy xizmatlarni ko'proq oladi, ya'ni mamlakatda yashovchilar xorijga chetdan sayyohlarga nisbatan ko'proq boradilar, shuningdek, mamlakatdagi tadbirkorlarga xorijiy transport va sug'urta xizmatlari ko'rsatish hajmi, xorijiy tadbirkorlarga mamlakatda transport va sug'urta kompaniyalari ko'rsatadigan xizmatlar hajmiga qaraganda yuqoriroq. Bu operatsiya ham balansning salbiy qoldig'iga ega (—2).

Investitsiyalardan daromadlar foizlar va dividendlar bo'yicha to'lovlarni o'z ichiga oladi. Agar xorijga qo'yilgan mil-liy kapitalga chet elliklarning amalga oshiradigan bunday to'-lovlaridan tushumlar, mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy kapitaldan bunday to'lovlar miqdoridan ko'p bo'lsa, unda sof daromad ijobiy bo'ladi (+7).

Pul o'tkazishlar shu mamlakatlarning xorijda yashayotgan fuqarolariga to'lanadigan nafaqalarni, muhojirlarning xorij-dagi o'z qarindoshlariga pul o'tkazishlari, turli ko'rinishdagi hukumat yordamlarini (insonparvarlik) o'z ichiga oladi. Jadval-dan ko'rinib turibdiki, xorijga jo'natilayotgan pul o'tkazishlar miqdori olinayotganga nisbatan yuqori, ya'ni bu operatsiyalar mamlakatdagi xorijiy valyuta zaxiralarini kamaytiradi (—7).

Joriy hisoblar bo'yicha barcha operatsiyalar yig'indisi joriy operatsiyalar to'lov balansini tashkil etadi. Bizning misol-da u salbiy (—82), bu esa shuni anglatadiki, mamlakatda import operatsiyalari natijasida xorijiy valyutaga bo'lgan talab uning eksport operatsiyalari ta'minlaydigan taklifidan ortiq bo'ldi. yoki boshqacha aytganda, ushbu holda mamlakat joriy operatsiyalar bo'yicha taqchilikka ega. Uni qoplash uchun mamlakat yo qarz oladi (uzoq va qisqa muddatli kreditlar), yo o'z ko'chmas mulkini (er, bino) va moliyaviy aktivlarini (aktsiya va obligatsiyalar) sotadi.

Biroq mamlakat joriy to'lov balansining ijobiy qoldig'iga ega bo'lishi mumkin. Agar uning eksport operatsiyalari import operatsiyalaridan ortiq bo'lsa, shunday hol yuz beradi. Bunda mamlakat chet elda ko'chmas mulk sotib olish yoki boshqa mamlakatlarga qarz berishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan xorijiy valyuta ortiqchaligiga duch keladi. Investitsiyalash va kreditlash bilan bog'liq operatsiyalar to'lov balansining keyingi bo'limida, ya'ni kapitallar harakati hisobida aks ettiriladi. Bu erda mod-diy va moliyaviy aktivlarni (korxonalar, er, uylar, qimmatbaho qog'ozlar, aktsiyalar, xazina majburiyatlari va boshqalar) oldi-sotdi bilan bog'liq kapitallar oqimini aks ettiradi. Agar bu aktivlar sotilsa yoki eksport qilinsa, unda bu xorijiy valyutani mamlakatga kelishini, tushumini ko'paytiradi (+90). Biroq kapi-talni olib kelish bilan bir vaqtda uni olib chiqish bilan bog'-liq operatsiyalar ham amalga oshiriladi. Bunda mamlakat tadbir-korlari xorijdan aktsiyalar sotib oladi, xorijliklarga kredit-lar beradi va shu asosda, ular xorijiy valyuta zaxiralarini sarf-laydi. Bu operatsiyalar debit ko'rinishida aks ettiriladi (—37). Kapital harakati

balansining qoldig'i—bu uni olib kelish va olib chiqish o'rtasidagi farq (+53) hisoblanadi.

Avval aytib o'tilganidek, joriy operatsiyalar bo'yicha balans va kapital harakati balansi o'zaro chambarchas bog'langan. Bizning misolda birinchisining taqchilligi (−82) kapitalning sof oqib kelishi hisobiga (+53) moliyalashtiriladi. Va aksincha, agar joriy operatsiyalar bo'yicha balans aktivga ega bo'lsa, u holda bir vaqtda kapitallar harakati balansi bo'yicha kapitallarning sof kelib chiqishi amalga oshirilgan bo'lardi.

Shunday qilib, balansning bu ikki bo'limi bir-birini teng-lashtirib boradi va aslida ham bir-biriga teng bo'lishi kerak, biroq amalda doimo taqchillik yoki ortiqchalik yuzaga keladi. Shuning uchun turli mamlakatlarning Markaziy banklari ras-miy rezervlar deb ataluvchi xorijiy valyuta zaxiralariga ega. Bu rezervlar joriy operatsiyalar bo'yicha balans va kapital harakati balansi nomutanosibligini bartaraf etishda qo'llaniladi. Bizning misolda bu nomutanosiblik yoki qoldiq (−29) ni tashkil etadi va u rasmiy rezervlardan tushumlar hisobiga tartibga solin-gan. Rezervlardan tushumlar kredit (+) ustunida aks ettirilgan, chunki mamlakatda xorijiy valyuta taklifini ko'paytirish boshqa har qanday eksport operatsiyasiga xosdir. Natijada, to'lov balan-sining qoldig'i umuman «0» ga keltirilgan.

### ***To'lov balansining nomutanosibligini tartiblash usullari***

Bu erda shuni ta'kidlash lozimki, «to'lov balansi taqchilligi» yoki to'lov balansi aktiv ifodalari joriy operatsiyalar va kapital harakati bo'yicha balansning ijobiy yoki salbiy qoldig'i miq-dorini bildiradi. Rasmiy rezervlarning qisqarishi (+) bu taqchillik miqdorini ifodalaydi, rasmiy rezervlarning o'si-shi (−) esa to'lov balansining aktiv qoldig'i miqdorini ko'rsa-tadi. Pirovardida, uning barcha uch bo'limining summasi «0»ni tashkil etishi lozim. Bu esa xorijiy valyuta taklifi va unga mamlakatda bo'lgan talab baravarligini bildiradi.

Davlatlar rasmiy rezervlar va qarzar hisobiga qoplash qobiliyatiga ega bo'lmagan to'lov balansining katta doimiy taqchilligi bo'lgan hollarda o'z valyutalari devalvatsiyasini amal-ga oshirishlari mumkin. Bu importning fizik hajmi qis-qarishiga, eksportning fizik hajmi ko'payishiga va oqibatda mamlakatda xorijiy valyuta tushumini o'sishi hamda taqchillikni bartaraf etishga olib keladi.

### *O'zbekistonda to'lov balansini ishlab chiqish tajribasi*

Ochiq iqtisodiyotli ko'plab mamlakatlar o'z to'lov balans-larini XVF tavsiya etgan tarx bo'yicha ishlab chiqadilar. Bu tarx rivojlangan bozor munosabatlari sharoitida amalga oshirila-digan barcha iqtisodiy operatsiyalarni aks ettiradi. To'lov balan-sining ma'lumotlari muntazam chop etiladi va davlatning kredit qobiliyati haqidagi guvohnoma sifatida xalqaro tashkilotlar, boshqa mamlakatlarning hukumatlari va tadbirkorlari tomoni-dan kreditlash va moliyalashtirish, moliyaviy, texnik va moddiy yordam ko'rsatish masalalarini hal etishda qo'llaniladi.

O'zbekistonda to'lov balansini faqat respublika mustaqillikka erishib bozor munosabatlariga o'tilgandan keyin tuzila boshla-di. Jahon bozorida teng huquqli hamkorlik respublikani xal-qaro iqtisodiy munosabatlar sub'ekti sifatida ifodalovchi aniq ma'lumotlarni talab etadi, shuning uchun respublika to'lov balansini XVF tavsiyalariga juda yaqinlashtirilgan tarx asosi-da tuzilgan.

Dunyo mamlakatlari to'lov balanslarining tasnifi jadvalda keltirilgan.



## Xalqaro ayirboshlash tasnifi (mln. AQSh dollarida)

	1993	1994	1995	1996	1997	1998	1999
<b>Joriy hisob (sof)</b>	<b>-60,6</b>	<b>-32,4</b>	<b>-27,3</b>	<b>-15,3</b>	<b>35,3</b>	<b>-43,7</b>	<b>-127,2</b>
Tovarlar	67,1	97,5	117,1	100,6	120,3	78,8	44,3
<i>Eksport</i>	3730,5	4232,6	5086,6	5335,6	5543,5	5429,4	5594,3
<i>Import</i>	3663,4	4135,1	4969,5	5234,9	5423,2	5350,6	5550,0
Xizmatlar	-18,9	-4,2	-16,9	-8,2	2,3	-1,2	-15,4
<i>Eksport Kredit</i>	995,6	1080,4	1227,3	1309,9	1357,9	1372,0	1382,5
<i>Import Debet</i>	1014,5	1084,6	1244,3	1318,1	1355,6	1373,3	1397,9
Daromad	-64,9	-70,7	-79,1	-75,7	-62,3	-96,5	-124,5
<i>Eksport Kredit</i>	919,1	922,3	1110,6	1175,3	1234,4	1319,4	1325,7
<i>Import Debet</i>	984,0	993,1	1189,7	1251,0	1296,8	1415,9	1450,2
Joriy o'tkazmalar	-43,9	-55,0	-48,3	-32,1	-25,0	-24,8	-31,6
<i>Kredit</i>	292,4	294,5	322,1	367,3	359,7	375,9	377,6
<i>Debet</i>	336,3	349,5	370,4	399,4	384,7	400,7	409,2
<b>Kapital hisobi (sof)</b>	<b>19,0</b>	<b>21,7</b>	<b>17,5</b>	<b>1,9</b>	<b>,1</b>	<b>-13,6</b>	<b>-18,8</b>
<b>Moliya hisobi (sof)</b>	<b>99,7</b>	<b>73,4</b>	<b>109,6</b>	<b>137,4</b>	<b>149,0</b>	<b>69,7</b>	<b>121,6</b>
Bevosita investitsiyalar	-7,1	-20,1	-10,8	5,0	18,0	-2,9	64,3
<i>chet elga</i>	225,2	-262,1	-333,9	-366,4	-440,0	-676,9	-846,9
	218,2	242,0	323,1	371,4	458,0	674,1	911,2
Portfelli investitsiyalar	214,9	87,1	217,0	269,7	285,0	-44,4	274,5
<i>Aktivlar</i>	-534,5	-335,3	-407,6	-647,0	-733,3	-1038,2	-1357,8
<i>Passivlar</i>	749,4	422,4	624,6	916,7	1018,3	993,8	1632,4
Moliyaviy o'tkazmalar	-5,6	1,3	-10,5	-11,6	-5,5	-7,7	25,6
<i>Aktivlar</i>	-5	3,1	41,2	27,4	38,6	78,0	104,7
<i>Passivlar</i>	-5,2	-1,8	-51,7	-39,0	-44,1	-85,7	-79,1
Boshqa investitsiyalar	-5,3	110,2	98,5	62,6	-59,6	168,2	-89,2
<i>Aktivlar</i>	-431,5	-266,3	-673,8	-759,2	-1328,0	-309,5	-471,6
<i>Passivlar</i>	426,2	376,5	772,4	821,8	1268,4	477,7	382,5
Rezervlar	-97,1	-105,1	-184,6	-188,3	-89,0	-43,5	-153,7
<b>Sof xatoliklar va yo'qotishlar</b>	<b>-58,1</b>	<b>-62,6</b>	<b>-99,8</b>	<b>-124,0</b>	<b>-184,4</b>	<b>-12,5</b>	<b>24,4</b>

Manba: Balans of Payments Statistics Yearbook. INTERNATIONAL MONETARY FUND. 2000

## 6. O'zbekistonda xorijiy valyutalar bozorining liberallashtirishi

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning bosh yo'nalishlaridan biri iqtisodning hamma sohalarini, shu jumladan, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish hisoblanadi. O'zbekiston respublikasi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek: «Valyuta siyosatini liberallashtirish jarayonida iqtisodni liberallashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqilgan».

Bu joriy xalqaro operatsiyalarda so'mning konvertatsiyalashni ta'minlashni taqozo etadi. Bu masalaning echilishi asosiy bosh maqsad qilib qo'yilgan islohotlarni muvaffaqiyatli o'tkazishda birinchi darajali ahamiyatga ega. Chunki islohotlardan ko'zda tutilgan maqsad jamiyatning turmush darajasini yaxshilash edi. Bu mavjud resurslarni taqsimlash va ulardan samarali foydalanish, mamlakatning eksport imkoniyatlarini oshirish, chet el investitsiyasi oqimini kuchaytirish uchun rag'batlantirish, jahon iqtisodiy integratsiya-sini tezlashtirish bilan bog'liq bo'lgan juda ulkan jarayon hisoblanadi.

1996 yillar oxirlarida O'zbekistonda iqtisodiyotni tarkibiy tuzilishini qayta qurishni jadallashtirish maqsadida xorijiy valyutani cheklash tartibi joriy etildi. Bu tadbirni amalga oshirilishi import hajmi va tarkibini nazorat qilish imkonini berdi va natijada umumiy import hajmida investitsiya tovarlarining ulushi oshdi.

Valyuta tartibini cheklashdan ko'zlangan asosiy maqsad milliy valyutaning ayirboshlash kursini oshirish va valyuta bozorida uni boshqa valyutalar bilan parallel ravishda muomalada bo'lishini ta'minlash edi. Lekin, bunday siyosat muayyan shart-sharoitlardagina qisqa muddatli ijobiy samara berishi mumkin. Masalan, valyutani cheklashning asosiy shartlarida biri valyutani ayirboshlash kursidan eksport egiluvchanligi ko'effitsientining past bo'lishidir. Buni eksport hajmida xom ashyo, birinchi navbatda, qishloq xo'jalik mahsulotlari ulushi asosiy qismini tashkil etganligi bilan izohlash mumkin edi. Bunday vaziyatda chet el valyutasini ma'muriy yo'l bilan taqsimlanishi import hajmiga va strukturasi ta'sir eta-di. Qisqa va uzoq muddatli istiqbolda valyuta kursiga nisbatan eksport egiluvchanligi albatta o'zib ketadi. Ayirboshlashning oshirilgan kursi eksportni qisqartirishga olib keldi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy o'sish sur'atiga va investitsiya resurslar importiga salbiy ta'sir etadi.

90 - yillar oxirlarida iqtisodiyotda ro'y bergan o'zgarishlar so'mni devalvatsiya qilish va valyuta bozorini erkinlashtirishni ta-qozo etdi. Valyuta bozorini erkinlashtirish quyidagilarga asosla-nadi:

- eksport hajmini ko'paytirish va eksportga mo'ljallangan ish-lab chiqarishni kengaytirishga;
- narxlar nisbiyligi strukturasi takomillashtirishga;
- parallel valyuta bozorini, import qiluvchilarning foyda bermayotgan rentalari bartaraf etish yoki salmoqli qisqartirishni amalga oshirish;
- makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlashga;
- chet el investitsiyalar oqimini ko'paytirishga;
- moliyaviy siyosatni mustahkamlashga.

Chet el valyuta bozorini liberallashtirish jarayoni 2000 yil-ning may oyidan boshlandi. 2000 yilning may oyidan boshlab amalda va turli xil valyuta operatsiyalarini o'tkazishda qo'llanib kelingan birja va birjadan tashqari ayirboshlash kurslari unifikatsiya-lashtirildi. Bunday chora birja kursi so'mning devalvatsiyasini birjadan tashqari darajaga etkazishga asoslangan edi. Hamma ope-ratsiyalar uchun MB ning yagona kursi ishlatila boshladi.

2000 yil 1 iyulga kelib chet el valyuta bozori birja va birjadan tashqari bozorlarga bo'lindi. So'mning konvertatsiyasi, ya'ni chet el valyutasiga almashtirish operatsiyalari birjadan tashqari bozorda o'tkazila boshlandi. Ilgari bunday operatsiyalar O'zbekiston Respub-likasi valyuta birjasida o'tkazilardi.

Birjadan tashqari valyuta bozorida so'mning kursi devalvatsiya qilindi, parallel bozordagi almashinuv kursi darajasida qayd etildi. Chet el valyutalarini birjadan tashqari valyuta bozorida sotish quyidagi operatsiyalar bo'yicha amalga oshirilgan:

- davlat tomonidan kafolatlanmagan chet el kreditlarini, chet el valyutasidagi vakolatli bank kreditlarini, shuningdek, davlat tomo-nidan kafolatlangan kreditlarni;
- MB litsenziyaga ega bo'lgan korxonalarining import iste'mol tovarlarini realizatsiya qilinishi natijasida tushgan pulni so'm-dagi konvertatsiyasi;
- ishlab chiqarish texnikasi uchun belgilangan mahsulotlar, to-varlar, xizmatlar importi;
- investitsiya loyihasi asosida ishlab chiqarilgan asbob uskuna-lar va yangi texnologiyalar importi;
- lizing beruvchilar mablag'larini tiklash;

- dividend va daromadlarning ma'lum qismi reportatsiyasi;
- ayirboshlash shoxobchalari orqali mavjud chet el valyutalari-ni sotish;
- vakolatli banklar orqali banklararo bitim tuzish.

Shu bilan birga, O'zbekistonda eksport hajmini oshirish va chet el valyuta tushumini ko'paytirishni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 2000 yil iyundagi Farmoniga asosan tadbirkorlar o'zlari ish-lab chiqargan mahsulotlari eksportidan kelgan daromadning soliq-qa tortilishdan ozod qilinganligi, shuningdek, ishlab chiqargan tovarlarida eksport ulushi 25% dan 50% gacha bo'lgan taqdirda soliq stavkasi 50 foizga (%) kamaytirilganligi, eksport hajmi 50 foiz va undan oshib ketganda esa mol-mulk solig'i olinmasligi kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga asosiy turtki bo'ldi.

1999-2001 yillarda ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida so'm kursini ayirboshlashda ma'lum darajada devalvatsiya bo'ldi (MB kursi 5 marta, birjadan tashqari bozorda 3,5 marta). Shu davr ichida iste'mol baholari 26 marta, YaMM esa 3 marta oshdi. Bu-so'mning haqiqiy ayirboshlash kursi pasayganini va mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligi oshganini ko'rsatadi. Markaziy bank va parallel bozorning almashtirish kurslarini teng-lashtirish va milliy valyutani mustahkamlash yo'lida ko'rilgan chora-tadbirlar etarli bo'lmadi. Bu – 2002 yilning birinchi yarim yilligi uchun iqtisodiy va moliyaviy siyosat sohasida Memorandum ishlab chiqilishiga va XV F tomonidan imzolanishiga sabab bo'ldi. Bu Memorandumda tashqi iqtisodiy faoliyatni va valyuta rejimini erkin-lashtirish, joriy operatsiyalarda milliy valyutaning konvertatsiya-sini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish masalalari ko'rib chiqildi. Bu sohada qo'yilgan navbatdagi qadam O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Valyuta bozorini yanada erkinlashtirish va ayirboshlash kurslarini unifikatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2003 yil 11 iyunda qabul qilgan qarori bo'ldi. Bu qarorning qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 12 iyuldagi «Birja-dan tashqari valyuta bozorini yanada rivojlantirish tadbirlari to'g'risida»gi qarori o'z kuchini yo'qotdi. Yangi qabul qilingan qarordan ko'zda tutilgan **eng asosiy maqsad–ichki valyuta bozorida almashinuv kurslarini unifikatsiyalash batamom oxiriga etka-zildi.**

Keyingi yillarda naqd chet el valyutasi bilan operatsiyalar o'tkaziladigan bozorlarni erkinlashtirish, valyuta almashtirish operatsiyalarini

kengaytirish yuzasidan bir qator ishlar qilindi. Hozir-gi kunda O'zbekiston hududda mingdan ortiq ayirboshlash shoxobcha-lari va 26 ta vakolatli banklar faoliyat ko'rsatib turibdi. Jismo-niy shaxslar – rezidentlar tomonidan naqd chet el valyutalarining sotilishi bilan birga vakolatli banklar obro'li chet el banklari hamda chet el moliya institutlari tomonidan chiqarilgan emitetli yo'l cheklarini sotish yo'lga qo'yigan.

Oxir oqibatda joriy xalqaro operatsiyalarda qatnashiriladi-gan O'zbekiston respublikasining Milliy valyutasining konverta-tsiyasi ta'minlandi. Hozirgi vaqtda bu tamoyillarni yuridik jihat-dan mustahkamlash haqida gap borar ekan, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'rsatilgan tamoyillar XVF nizomini VIII moddasi talablariga to'la-to'kis mos kelishini aytib o'tish lozim.

## Tayanch so'z va iboralar

1. **Jahon valyuta tizimi** – turli mamlakatlar o'rtasidagi valyuta-kredit munosabatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi tizim.
2. **Oltin standart** – pulning asosiy shakli oltin hisoblangan o'zaro aloqalar amaliyoti.
3. **Erkin konvertirlanadigan valyuta** - har qanday xorijiy valyutaga erkin va cheklanmagan miqdorda ayirboshlanadigan valyuta.
4. **Qisman konvertirlanadigan valyuta**–xorijiy valyuta-larning ma'lum bir qismigagina ayirboshlanadigan, xorijiy valyuta-tani sotib olishda va sotishda cheklashlar mavjud bo'lgan valyuta.
5. **Konvertirlanmaydigan valyuta**–xorijiy valyutalarga ayirboshlanmaydigan va ichki to'lov oborotiga xizmat qiladigan valyuta.
6. **SDR (SDR)** – Xalqaro valyuta fondining maxsus pul birligi.
7. **Valyuta kursi** – bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligidagi bahosi.
8. **Kotirovkalash** – valyuta kursini o'rnatish.
9. **To'g'ri kotirovkalash**–xorijiy valyuta birligiga to'g'ri keladigan milliy valyuta miqdorini o'rnatish.
10. **Teskari kotirovkalash**–milliy valyuta birligiga to'g'ri keladigan xorijiy valyuta miqdorini o'rnatish.
11. **Devalvatsiya**–milliy valyuta kursini kamaytirilishiga qaratilgan tadbir.
12. **Revalvatsiya**–milliy valyuta kursini oshirishga qaratilgan tadbir.
13. **Nominal valyuta kursi**–bir birlik milliy valyutaga to'g'ri keladigan xorijiy valyutaning qiymati.
14. **Real valyuta kursi**–milliy tovar birligiga va xizmatlarga to'g'ri keladigan xorijiy tovar va xizmatlar qiymati.
15. **Valyuta operatsiyalari**–xorijiy valyutani oldi-sotdisi bo'yicha operatsiyalar.
16. **To'lov balansi**–mamlakatga chet eldan keladigan barcha tushumlar va mamlakat chetga chiqaradigan barcha to'lovlar ko'rsatiladigan hujjat.



## Nazorat savollari

1. Oltin standartga asoslangan milliy valyuta tizimi xususiyat-lari nimadan iborat?

2. Agarda AQSh xazinasini oltinining 1 untsiyasini 35 dollarga, Buyuk Britaniya xazinasini esa 12,5 funt sterlingga sotib olsa, bu valyutalarning oltin pariteti nimaga teng bo'ladi?

3. Jahon valyuta tizimi shakllanishining asosiy shart-sharoit-larini ayting.

4. Bretton-Vuds valyuta tizimining xususiyatlari nimadan ibo-rat?

5. Hozirgi zamon jahon valyuta tizimining xususiyatlari qanday?

6. Jahon valyuta tizimining qaysi belgilarini ajratish mumkin?

7. Xalqaro ayirboshlashda foydalaniladigan asosiy to'lov kredit vositalarining tavsifini bering.

8. Qaysi valyutalar rezerv valyuta sifatida qo'llaniladi?

9. Valyutaning konvertirlanishi nima va u qanday ko'rinishlarda mavjud bo'ladi? O'zbek so'mi valyutalarni qaysi turiga kiradi?

Javobingizni asoslang.

10. Valyuta kursi va kotirovka deganda nimalar tushuniladi?

11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 1995 yil 25 iyun-dan boshlab hisob va bojxona to'lovlari uchun xorijiy valyuta-larning so'mga nisbatan quyidagi qiymatini belgiladi:

1 Angliya funt sterlingi – 47,79

1 AQSh dollari – 29,70

1 Kanada dollari – 21,53

1 Frantsiya franki – 6,12

1 Shveysariya franki – 25,96

1 EKYu – 39,56

12. AQSh dollarining kursi o'zbek valyutasiga nisbatan 1242 so'm, Rossiya rubliga nisbatan 26 rubl bo'lsa, o'zbek so'mini Rossiya rubliga bo'lgan kross-kursini aniqlang.

13. Qaysi valyuta kurslari erkin suzib yuruvchi, cheklangan dara-jada suzib yuruvchi va qayd etilgan valyuta kurslari deb ataladi?

14. O'zbek so'mini Rossiya rubliga bo'lgan nisbatining doimo o'sishini faraz qilsak, bu holatda o'zbek tadbirkorlariga nima manfaatliroq: o'z mahsulotini Rossiyaga olib chiqishmi yoki Rossiya tovarlarini olib kelishmi?

15. Valyuta devalvatsiyasi nima va u valyutaning oddiy qardr-sizlanishidan qanday farqlanadi?

16. Agarda nominal valyuta kursi 5, ikki mamlakatdagi baholar darajasidagi nisbat esa 0,4 ga teng bo'lsa, real valyuta kursi nimaga teng?
17. Valyuta bozori deganda nima tushuniladi va u qanday funktsiya-larni bajaradi?
18. Valyuta operatsiyalarining qanday ko'rinishlari mavjud?
19. Agar o'zbek korxonasi frantsuz firmasi bilan bitim tuzib, unga joriy valyuta kursi bo'yicha keyingi haq to'lansa, bu operatsiya naqd (spot) yoki muddatli hisoblanadimi?
20. Xalqaro iqtisodiy faoliyatning turlari to'lov balansida qanday aks ettiriladi?
21. Joriy operatsiyalar schyoti va kapital harakati schyoti bir-biri bilan qanday bog'langan?
22. Joriy operatsiyalar bo'yicha balans qoldig'i 60, kapital harakati balansi qoldig'i esa +50. Rasmiy rezervlardan tushumlar qanday bo'lishi lozim va u qaysi qatorida aks ettiriladi. Kredit (+) qatoridami yoki debet (-) qatoridami?
23. To'lov balansi taqchilligini bartaraf etish maqsadida davlat qanday chora-tadbirlarni amalga oshirishi mumkin?

## **VI bob. KAPITALNING XALQARO HARAKATI VA SSUDA BOZORLARI**

1. Kapital chiqarish mohiyati, asosiy shakllari va zamonaviy xususiyatlari
2. Xalqaro kredit mohiyati va asosiy turlari
3. Xalqaro kapital bozorlari
4. O'zbekistonda chet el investitsiyalari

## 1. Kapital chiqarish mohiyati, asosiy shakllari va zamonaviy xususiyatlari

Chetga kapital chiqarish yoki kapital eksporti deganda muayyan mamlakatning milliy aylanmasidagi kapitaldan bir qismi yoki to-var ko'rinishida yoki pul shaklida boshqa bir mamlakatning ishlab chi-qarish jarayoniga jalb etilishi tushuniladi, ya'ni boshqa mamlakat muomalasiga ko'chirilishidir. Chetga kapital chiqarish dastlab ayrim sanoati rivojlangan mamlakatlardan tomonidan amalga oshirildi. Ja-hon xo'jaligi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bu jarayonning geografiasini yanada kengaytirdi. Hozirgi paytda kapi-tal chiqarish iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan har bir mamlakatga xos bo'lib qoldi.

**Kapital chiqarishning asosiy sababi** muayyan bir mamlakatga nisbatan kapitalning ortiqchaligi ko'proq jamg'arilishi va uning ortiqcha qismidan tadbirkorlik foydasiga yoki foiz olish maqsadida chet mamlakatlarga ko'chirilishi hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, chetga kapital chiqarishga quyidagilar ham sabab bo'ladi:

- jahon xo'jaligining turli bo'g'inlarida kapitalga bo'lgan ta-lab va taklifning bir-biriga mos tushmasligi;
- mahalliy bozorni monopollashuvining mavjudligi imko-niyatini;
- arzonroq ishchi kuchiga va xom ashyoga ega mamlakatlarning mavjudligi;
- kapital qabul qiluvchi mamlakatda qulay investitsion muhit-ni yaratilganligi.

Kapital eksporti quyidagi omillar bilan rag'batlantiriladi:

- milliy iqtisodiyotlarning o'zaro aloqalari va o'zaro bog'liq-liklarini o'sib borayotganligi.
- xalqaro sanoat kooperatsiyasi, TMKlarning rivojlanishi.
- sanoati rivojlangan mamlakatlarning ichki iqtisodiy siyosati.
- rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy hулq-atvori;
- ekologik omillarning ta'siri.

**Chetga kapital chiqarish shakllarini** ularning xususiyatlariga hisobga olgan holda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

**Eksport qilinayotgan kapital:**

- ishlar chiqaruvchi kapitaliga;
- ssuda (moliyaviy) kapitaliga.

**Kapital berish muddati qarab:**

- qisqa muddatli kapitalga;
- uzoq muddatli kapitalga.

**To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalashda** sarmoya egasi qaysi mamlakat korxonalariga kapital kiritgan bo'lsa, o'sha korxonaga (aktiv) ustidan nazorat qilish huquqiga ega bo'ladi. Hozirgi paytda «to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari» degan tushuncha tor ma'noda emas, kengroq ma'noda tushunilmoqda, ya'ni bu degani investor sarmoyasini uzoq muddatli manfaatdorligi sarmoya kiritgan korxonani boshqarishda sezilarli ta'sir o'tkazishidir.

«To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari» tushunchasi o'z ichiga quyidagi qismlarni oladi:

- aksionerlik kapitali, bunda chet el investori tomonidan xorijiy firmaning ulushini bevosita sotib olinishi ko'zda tutilishi;
- firma ichki zayomlari va qarzlari bo'yicha bitimlar—bunda qisqa muddatli va uzoq muddatli zayomlar hamda bosh kompaniyalari va ularning chet el filiallari o'rtasida resurslarni o'zaro qarz olib turish tushuniladi;
- qayta investitsiyalashgan foydalar.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalashda investitsiya kiritgan shaxs naqat dividendlar olish huquqiga, balki korxonaga ko'radigan foydaning ma'lum qismini o'zlashtirishga ham haqli.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalash turli xil amalga oshiriladi:

- chet elda filiallar barpo etish, yangi korxonalar qurish, kompaniyalar tuzish, chet el korxonalarini sotib olish; bevosita xorijiy investitsiyalash firmalarning xalqaro qo'shilishi va sotib olish yo'li bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

- Chet el korxonalarini aksionerlik kapitalining 25% va undan ko'proq qismini tashkil etuvchi nazorat aksiyalari paketini sotib olish;

- Yirik banklar tomonidan xorijiy filiallari va bo'limlar tarmoqlarini barpo etish. Bu holda chet el investitsiyalari kapitalni olib chiqib ketuvchi kompaniyalarning to'liq mulkiga aylanadi.

Kapital qo'yilish ob'ektiga ko'ra **kapital resurslari** va no-moddiy aktivlarga bo'linadi:

**Kapital resurslari** o'z ichiga aksiya ko'rinishidagi kapitalni, qayta investitsiyalangan foydani, firmalararo uzoq muddatli bitimlarni oladi.

**Nomoddiy aktivlar** o'z ichiga noishlab chiqarish va nomoliyaviy resurslarni, mulkchilik huquqini (patentlar, savdo belgisidan foydalanish huquqi, sanoat dizayni va h.k.), shuningdek nashr etish, ishlab chiqarish asl va ko'chirma nusxalardan foydalanish huquqini beruvchi litsenziya bitimlari asosida bu aktivlardan foydalanish.

XX asrning 90-yillarning oxirida bevosita xorijiy investi-tsiyalashni jadallashuvining sabablari:

- Korxonalarining ustunligi tufayli kapital bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar nafliligi;

- Tufayli turli mamlakatlarda soliq stavkalari va imtiyozlarni har xilligiga yuqori soliqqa tortilishdan intilish.

Portfelli investitsiyalarini to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiya-laridan farqi shundaki, bunda qochishga chet el korxonalariga kapi-tal qo'ygan shaxs korxonalar ustidan nazorat qilib turish huquqiga ega bo'lmaydi. Portfel investitsiyasini qabul qilib olgan mam-lakatda investorning shaxsan o'zi bo'lishi ham shart emas. Portfel investitsiyalar o'z xususiyatiga ko'ra, chayqov kapitali bo'lib, mam-lakatlar o'rtasida fan stavkasi farq qilganda tez olib chiqib keti-ladi.

Xorijiy portfelli investitsiyalar aktsiya, obligatsiya moliyaviy instrumentlarini o'z ichiga oladi. Xalqaro valyuta fondi yoki ikki-lamchi moliya vositalar opsiyonlar, forvard kontraktlari va «svop» bitimlarini ham portfel investitsiyalar tarkibiga qo'shadi.

Portfel investitsiyalari bo'yicha qo'yilgan mablag'lar egasigina shaxs dividend olish huquqiga ega.

Bunda investor sifatida kompaniyalar, tijorat banklari, trast investitsiya fondlari, pensiya fondlari, xedjir fondlari, qo'shma fondlar, ijtimoiy va hududiy fondlar investor sifatida bo'lishi mumkin.

Portfel investitsiyalarni amalga oshirishning asosiy sababi xavflarni foyda olish va kapitalni portfel diversifikatsiya aso-sida yuzaga keladigan kamaytirish hisoblanadi. Portfel investi-tsiyalari hajmi bo'yicha xalqaro kapital oqimining asosiy shakli bo'lib hisoblanadi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab xorijiy portfel inves-titsiyalarining o'sishi kuzatildi. Buning sababi quyidagilar bilan belgilanadi:

- Moliya bozorlarini globalashuvi va erkinlashtirilishi—bu moliya kapitallarini erkin ko'chib yurishi va kamchiqimlilik bilan bog'liq;

- Ko'plab rivojlanayotgan bozorlarda makroiqtisodiy vaziyat-ning yaxshilanishi;

- Institutsional jamg'armalar va aktivlar malakali boshqaruvi-ning o'sishi (qo'shma fondlar, xedjer fondlari va h.k.) – bu moliyaviy bitimlarda tijorat banklar ko'rsatkichlariga nisbatan operatsiya xarajatlarini kamayishiga olib keldi;

- Kommunikatsiya va axborot texnologiyalari sohasidagi taraqqiyoti xorijiy mamlakatlar va kompaniyalarga katta hajmdagi axbo-rotlarni operativ etkazib berish imkoniyat berdi.

To'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalar o'rtasida chegarani aniqlash juda murakkab. Bu har ikki tur investitsiyalar orasidagi farqlar quyidagilardan iborat:

- Investorga qo'ygan kapitali ustidan nazorat qilish huquqi-ning berilishiga qarab;

- Operatsiyalarni bajarish muddatiga qarab; bevosita investitsiyalar uzoq muddatli mablag' qo'yish, portfelli investitsiyalar qisqa muddatli va ko'proq likvidli bo'ladi;

- Moliyalashtirish manbalariga ko'ra; bevosita investitsiyalar firmalarning ichki aloqalari hisobidan moliyalashtiriladi, pul massasi takliflarining o'sishiga, narxlar darajasining ko'tarilishiga yordam beruvchi portfel investitsiyalarni milliy kompaniyalar va banklar taqdim etadi;

- Investitsiyani qabul qilgan mamlakatning iqtisodiyotiga tur-licha ta'sir: bevosita investitsiyalar iqtisodiyotning mikrodarajasi, ayniqsa, katta ta'sir ko'rsatadi, yangi texnologiyalarni olib kelishga rag'batlantiradi, ishlab chiqarish tuzilishi-strukturasini o'zgartirishga ta'sir qiladi. Portfel investitsiya ko'proq makroiqtisodiy parametrlariga ta'siri ko'p;

- Investitsiya qo'yish haqida qaror qabul qilinishiga ta'sir etuvchi omillar: portfel investitsiyalarini qo'yish asosan tashqi omillarni baholash bilan bog'liq bo'lsa, bevosita investitsiyalarni qo'yish makroiqtisodiy omillarni baholash bilan bog'liq bo'ladi;

- Bevosita kapital qo'yish uni qabul qilib olgan mamlakat iqtisodiyotini destabilizatsiya qilishga unchalik ta'sir ko'rsatmaydi, bevosita chet el kapitalini kiritish investitsiyani qabul qilib olgan mamlakat to'lov balansidagi difitsitini ko'paytirib yuborishi mumkin;

- Investitsiyani oluvchi mamlakatlar uchun investitsiyaning turli xil darajadagi engilliklari mavjud.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashqi savdo bilan o'zaro aloqador. Ular xalqaro iqtisodiy munosabatlarning o'zaro to'ldiruvchi va bir-biriga o'zaro bog'langan ikki xil ko'rinishidir. Bevosita chet el investitsiyalarining tashqi savdodan asosiy farqi shundaki, qaysi mamlakatning qaysi bir korxonasiga investitsiya kiritilgan bo'lsa, investorning mulkdorlik huquqi saqlanadi va u qo'yilgan kapital hisobidan foyda olib turadi. Bu erda yana shuni aytib o'tish kerakki, bevosita chet el investitsiyalari moliyaviy va tovar shakli ko'rinishida qo'yilishi mumkin. Bevosita chet el investitsiyalari mamlakati iqtisodiyotini rivojlantirish uchun mablag'ni qabul qilib olayotgan tomon oldidagi investorning uzoq muddatli majburiyati hisoblanadi. Shuningdek,



iqtisodiyotini rivojlantirish uchun investitsiya olayotgan tomon ham investor qo'yilmasini kafolatlashi kerak bo'ladi.

O'zaro to'ldiruvchilar quyidagilar:

- Tovarlarini eksport qilish ikki yo'nalishda bo'ladi. Bevosita eksport asosida va chet eldagi ishlab chiqarishga bevosita chet el investitsiyalarini qo'yish asosida.

- Umumiy omillar, eksport operatsiyalar zarurligi.
- O'zaro bir-birini rag'batlantirish.
- Savdo-sotiqqa nisbatan davlat siyosati to'g'ri investitsiya oqimiga kuchli ta'sir qiladi.

- Chet el investitsiyalari va tashqi savdo eksportining etakchi sub'ektlari transmilliy korporatsiyalar hisoblanadi. (Bevosita umumiy chet el investitsiyalarining deyarli 95 foizi ularning his-sasiga to'g'ri keladi).

**Ssuda kapitali yoki moliyaviy kapital** uning egasiga foydani foiz shaklida olib keladi va o'z ichiga xalqaro zayom va kreditlarni, moliyaviy yordam, «rivojlantirishning rasmiy yordam» doirasidagi grantlarni, qimmatli qog'ozlar xalqaro operatsiyalarni oladi. «Rivojlantirishning rasmiy yordami» o'z ichiga 25% subsidiyalarni olishi kerak.

Ssuda kapitali chetga chiqarilish muddatiga qarab quyidagi shakllarda berilishi mumkin:

- qisqa muddatli xalqaro kredit shaklida – 1 yil muddat bilan.
- o'rta muddatli xalqaro kredit shaklida – 1 yildan 3 yilgacha muddat bilan.
- uzoq muddatli xalqaro kredit shaklida – 3-5 yildan yuqori muddat bilan.

Xalqaro uzoq muddatli kreditlar asosan xalqaro zayomlar shaklida beriladi. Dunyodagi yirik tijorat banklari tomonidan beriladigan bu zayomlar ularning o'z resurslari hisobidan bo'ladi. Shu bilan birga, banklar yirik davlatlarning ko'p sonli omonatchilari («tashqi emissiya») qo'yilmalari mablag'laridan obligatsiya zayomlari vositasi sifatida foydalaniladi: investitsion banklar o'z mamlatlarining xususiy chet el kompaniyalari hamda davlat tashkilotlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni (obligatsiyalarni), pul bozoriga joylashtirishni (sotish uchun) o'z bo'yniga oladi. Ushbu holda kreditorlar bo'lib etakchi g'arb mamlakatlari chiqadi va qimmatli qog'ozlarning ko'chib yurishida teskari harakat hosil bo'ladi va kapital chiqarilgan tomonga yo'naladi. Bunda bank konsortsiumlari tizimi orqali hukmronlik qilishni o'z qo'lida saqlab kelayotgan AQShning investitsiya banklari etakchilik qilib kelmoqda. Bank konsortsiumlari deyilganda chet el zayomlarini joylashtirish

bo'yicha bitimlar tuzishda vositachilik qiluvchi hamda bu ishni eng yirik, namoyandasi tushuniladi. Bank konsortsiumi qat-nashchisi chet el obligatsiyasida hamda faoliyati doirasida kvota ola-di. Banklar monopoliyasi ularga yuqori foyda olishni kafolatlaydi. Banklar komission mukofotlari bilan taqdirlanadilar, emission foyda, kafolatlangan foyda (zayomni joylashtirishning kafolatlanishi) va zayomlarga to'lanadigan foizdan (o'zida qoldirilgan juda likvidlik qimmatbaho qog'oz) foyda oladi. Bu erda davlat ko'proq xususiy zayomlarni kafolatlovchi bo'lib chiqadi foizlarini to'lashni va zayomlarni uzishni ta'minlaydi.

Boshqa bir davlatning, ya'ni iqtisodiy jihatdan uncha rivojlanmagan davlatning kafolatlangan zayomlaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etdi. Chunki zayomdan tushgan tushumning bir qismi qarzlarni uzishni ta'minlasa, qolgan qismi byudjetga tushdi. Keyingi 10 yilliklarda xalqaro zayomlarning bu shaklidan kamdan kam foydalanilmoqda. Monopoliya xalqaro munosabatlarda birinchi navbatda bevosita kreditor mamlakatlardan foydalanishni afzal ko'rmoqda.

Xalqaro zayomlar o'z vazifasiga ko'ra quyidagi shakllarda berilishi mumkin:

- Iqtisodiyotni rivojlantirishda ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan zayomlar yoki kreditlar;
- Noishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan, ya'ni qurollanish, urush harakatlari olib borish, huquq-tartibot organlari ta'minoti va h.k. uchun olingan eski zayomlarning foiz (%) larini to'lash maqsadidagi zayom va kreditlar.

Qisqa muddatli ssuda kapitalini chetga chiqarish quyidagi shaklda amalga oshiriladi.

- tijorat va bank kreditlari bo'yicha;
- chet el banklaridagi joriy hisob bo'yicha.

Xalqaro savdoda eksportyorlar oborot kapitalini aylanishini tezlashtirish va foyda olish miqdorini oshirish maqsadida qisqa muddatli tijorat va bank kreditlaridan keng foydalaniladi.

Bu xil kreditlarning berilish hajmi xalqaro bozorda mahsulotlarning o'tishi muammosi, berilgan kreditning proporsional tengma-teng holda qaytishi bilan bog'liq bo'ladi.

Bank kreditlari bir necha oy muddatga beriladi, tijorat kreditlarida esa to'lov muddatlarini cho'zish, uzaytirish mumkin.

Chet el banklari joriy hisoblari kompaniya va banklarga boshqa mamlakatlarning bo'sh pul mablag'larini jalb qilishni ruxsat beradi;

shuningdek, kompaniyani qaysi mamlakat bozori ko'proq qiziq-tirgan bo'lsa, shu mamlakat bankida ham scheti bo'ladi.

Hozirgi vaqtda investitsiya oqimlarining uchinchi guruhi-«boshqa investitsiya» ko'rinishi mavjud. Bu investitsiya o'z ichiga qisqa muddatli va boshqa xalqaro tashkilotlarning zayomlari, qisqa muddatli depozitlari, chet el valyutalari bilan bitimlar.

Chet el investitsiyasi (bu investitsiyani olgan) mamlakatning iqtisodiyotiga ikki tomonlama ta'sir etadi. Bevosita chet el investitsiyasi oqimining afzallik tomonlari shundaki, agar ular:

- Barqaror moliyalashtirish manbalar bo'lib xizmat qilsa;
  - Texnologiyalarni olib kelishga, boshqarish malakalarini oshirishga, savdo markalariga, patent va litsenziyalarga xizmat qilsa;
  - Eksport diversifikatsiya imkoniyatlarini ta'minlansa;
  - Tashqi bozorlar bilan aloqalarni kengaytirishga;
  - Investitsiya olgan mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishga;
  - Malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirishni rag'batlan-tirishga
- xizmat qilsa, ana o'shandagina bevosita chet el investitsiya-sining afzalligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bevosita chet el investitsiyasi salbiy oqibatlarga olib kelishi ham mumkin. Bulardan biri ichki kapital qo'yish (ajratish) chet el investitsiyasi tomonidan siqib chiqarilishi, shuningdek, chet el kompaniyalari bilan raqobatda bemalol bellasha oladigan mahalliy firmalar, milliy kompaniyalarning siqib chiqarilishidir. Natija-da, milliy kompaniyalar milliy ishlab chiqarish ustidan nazorat qilishdan, shuningdek, milliy rivojlanishning ishlab chiqilgan strategiyasidan mahrum bo'lib qoladi. Agar ishlab chiqarish bo'lin-malari (filiallari) ta'minotining ko'p qismi importga qaram bo'lsa, balans to'lovlari holatiga ham salbiy ta'sir etadi. Investitsiya qancha uzoq muddatga cho'zilsa, davlat uchun, korxonalar uchun shuncha qimmatga tushishi mumkin. Kapital qo'yishning muddati qanchalik uzoq bo'lsa, repartirlashgan va «royalti» foyda summasi shuncha ko'p bo'ladi, bu –«investitsiya qarishi»ni keltirib chiqaradi, boshqacha qilib aytganda, chetga chiqarilgan kapital hajmidan sarflangan mablag' hajmi oshib ketadi.

## **Portfel investitsiyalarining iqtisodiyotga ikki tomonlama ta'siri**

Portfel investitsiyalarining ijobiy ta'siri quyidagi hollar-da namoyon bo'ladi:

- Mavjud resurslarning hajmini ko'paytirish orqali raqobatbardoshlikni rag'batlantirishda;
- Kapital qo'yishni moliyalashtirishni bevosita venchur kapi-tali orqali o'tkazishda, milliy va xalqaro bozorlardagi birlamchi aktsiyalarda, korporativ obligatsiyalarda;
- Ichki ikkilamchi bozordan chet elning qimmat baho qog'ozlari-ni, davlat obligatsiyalarini sotib olish orqali mamlakat iqtisodiy ahvoriga ancha samarali ta'sir ko'rsatish bilan iste'molning o'sishi-ga ta'sir ko'rsatishida;
- Aktivlarning o'sishi hisobiga mamlakatning umumiy iqti-sodiyoti holatiga ta'sirida va buning natijasida moddiy boyliklar iste'molining o'sishiga yordam berishida;
- Banklarning likvidligini rag'batlantirishda hamda rezident-lar portfel aktivlarini sotib olish orqali kreditlash hajmini kengaytirishda, shu yo'l bilan milliy bozor likvidligini o'stirish-ga erishishda;
- Portfel investitsiyasi qabul qilgan mamlakatning iqtiso-diyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;
- Bu shunday hollarda ro'y beradi;
- Moliyalashtirish chiqim-xarajatlari olinayotgan foydadan us-tunlik qilsa;
- Kapital qo'yilmalarning bunday turidan bebarqarorlik yuqori bo'lgan bir holatda tavakkal qilib foydalanilganda.

Chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun mamlakatda qulay sharoit yaratilgan bo'lishi kerak.

Bevosita chet el investitsiyalarini mamlakatga jalb qilishning omillari asosida J.Don tomonidan ishlab chiqilgan OLI kontsep-tsiyasi yotadi. Kontseptsiya quyidagilardan iborat:

- Mulkka egalik qilish huquqi sohasida qiyosiy ustunlikning mavjudligi, chunonchi, o'z texnologiyasi yoki boshqarish bilan bog'liq bo'lgan ustunligi.
- Mamlakatdagi mahalliy ustunlikning mavjudligi, misol uchun, ichki bozorning kattaligi, ishlab chiqarish xarajatlarining pastligi, infratuzilmaning yuqori darajada rivojlanganligi, ishchilar malakasining darajasi va ishchi kuchi qiymati.

- Ichki aloqalardagi maksimal ustunlikning mavjudligi, mus-taqil investorlar va retsientlar o'rtasida raqobat .

Mamlakatga investitsiyani jalb qilishning ikkinchi sharti mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini batafsil ta'riflab berishdan, birinchi va uchinchi shartlari firmalarning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatib berishdan iborat.

Mamlakat o'rtasida milliy iqtisodiy va siyosiy farqlarga qarab investitsiyalarni jalb qilish keng doiradagi kriteriyalarini o'z ichiga qarab oladi. Bularga makroiqtisodiy omillar, tartibga solish turishning huquqiy rejimi, xilma-xil resurslarning mavjudligi kiradi. Muhim makroiqtisodiy omillarga yalpi milliy mahsulot (YaMM)ning hajmini, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni xarakterlab beruvchi ichki bozorning sig'imi kiradi. Shuningdek, ishchi kuchi malakasi qanday darajada ekanligi, infratuzilma texnologiyalarni o'zlashtirishi hisobga oladi.

Milliy iqtisodiyotning to'g'ri chet el investitsiyasini o'ziga jalb etishi, o'ziga tortib turishi ko'p jihatdan mamlakatdagi siyosiy bar-qarorlikka, qulay huquqiy va soliq rejimiga ham bog'liq.

Portfel investitsiyalari uchun investitsiyani qabul qiluvchi mamlakatda qanday jozibadorlik, qanday xususiyatlar bo'lishi ke-rak? Dastavval, umumiy tadbirkorlik muhiti bo'lishi kerak. Shu-ningdek, investorning o'zi ishlab chiqqan strategiyasi bo'lishi zarur. Shu bilan birga, investitsiyani qabul qiluvchi mamlakat iqti-sodiyotining umumiy ahvoli-makroiqtisodiy omillari va omillar-ning indikatorlari, ya'ni iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur'-atlari, milliy bank tizimining ahvoli, obligatsiya va aktsiya bozori-ning likvidlik darajasi, foiz stavkalari darajasi investorning nazarida bo'ladi.

Aktsioner kapitalga mablag' qo'yuvchi portfel investorlar uchun aktsiya bozorning likvidligi va o'sish sur'atining yuqoriligi muhim ahamiyat kasb etadi. Obligatsiya bozorining likvidlilik darajasi hamda foiz (%) stavkalarining darajasi investorni qo'yiladigan kapitalidan ko'zlangan (fiksirlangan) daromad olishga bo'lgan qi-ziqishini oshiradi.

## 2. Xalqaro kredit mohiyati va asosiy turlari

Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlarga xizmat ko'rsatuvchi ssuda kapitali harakatining shakli hisoblanadi.

Xalqaro kredit sohasidagi operatsiyalar hajmiga va uning intensivligiga quyidagi omillar ta'sir qiladi: to'lov balansi mod-dalarini ahvoli, foiz stavkasi miqdori, kredit valyutasi, kredit operatsiyalarining rentabellik darajasi, valyuta kursi va h.k. Xalqaro kreditning hozirgi bosqichdagi rivojlanishining xususiyatlari shundan iboratki, u o'sish sur'atlari bo'yicha nafaqat tashqi iqtisodiy aylanmaning o'sish sur'atlaridan, hattoki sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlaridan ham o'zib ketdi.

Kredit operatsiyalariga xos bo'lgan umumiy belgilar – uning qaytaruvchanligi, shoshilinchligi, to'lovga qobiliyatligidan iboratdir. Uning bir xususiyati xalqaro moliya mexanizmini faoliyat yuritishi bilan bog'liq bo'lgan kredit quyidagilar, ya'ni valyutalar, kreditlarning bir-biriga to'g'ri valyutasini va kredit to'lovi valyutasining muvofiq kelmasligi, valyuta xatarlari, valyuta kurslarining o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlar va h.k. hisoblanadi.

### **Xalqaro kredit funksiyalari:**

- ssuda kapitalini mamlakatlar o'rtasida qayta taqsimlash; milliy daromadni o'rtacha daromadga tenglashtirish va uning massasini o'sishiga yordam berish;
- Xalqaro hisob-kitoblar sohasida muomala xarajatlarini tejash;
- Jahon xo'jaligi doirasida kapital jamg'arish jarayoni tezlashtirishga yordam berish;
- Takror ishlab chiqarish jarayonlari miqyosini kengaytirish bilan bir vaqtda jahon xo'jaligi doirasida tovarlar, xizmatlar, intellektual mulklar savdosini tezlashtirish.

Xalqaro munosabatlar sohasida kreditning turli shakl va usullaridan foydalaniladi. Xalqaro kreditni quyidagi guruhlarga ajratiladi.

Muddat bo'yicha:

- qisqa muddatli - 1 yilgacha bo'lgan muddatga beriladigan kredit.
- o'rta muddatli - 1 yildan 5 yilgacha bo'lgan muddatga beriladigan kredit.
- uzoq muddatli – 5 yildan yuqori muddatga beriladigan kredit.

Tashqi iqtisodiy bitim turlari bo'yicha hisobi:

- tijorat kreditlari savdo va xizmatlar sohasiga xizmat ko'rsatuvchi;



- moliyaviy kreditlar to'g'ridan-to'g'ri kapital kiritishda, ob'ektlar qurilishida, qimmatli qog'ozlarni sotib olishda, tashqi qarzlarni to'lash-da, valyuta intervensiyasini o'tkazishda foydalaniladigan;

- oraliq kreditlar chetga kapital chiqarishning aralash shakl-lariga, tovar va xizmatlarga xizmat ko'rsatuvchi;

Taqdim etiladigan mablag'larning turlariga bog'liq holda:

- tovar kreditlari eksport qiluvchilar tomonidan o'z xaridor-lariga beriladigan kreditlar;

- valyutali kreditlar banklar tomonidan pul mablag'lari shak-lida beriladigan kredit.

Valyutaga bog'liq holda beriladigan zayom:

- qarz oluvchi mamlakat valyutasida chiqaruvchi mamlakatning yoki qarz beruvchi mamlakat valyutasida;

- uchinchi bir mamlakat valyutasida;

- xalqaro hisob pul birligida.

Xalqaro kreditni taqdim qilish texnikasiga ko'ra:

- qarzdorning hisobiga yozilgan va uning ixtiyorida bo'lgan naqd kredit;

- aktseptli-*aktsepta tratta* importer yoki bank tomonidan beriladigan kredit;

- depozit sertifikatlari;

- obligatsiya zayomlari;

- konsortsium banklari tomonidan taqdim etiladigan konsor-tsiyal kreditlar.

Ta'minlashiga ko'ra farqlari:

- ta'minlangan kreditlar - qimmatli qog'ozlar, veksellar, ko'ch-mas mulk, tovarlar va tovarlar hujjatlari, rasmiy oltin zaxira-lari ta'minlovchi sifatida xizmat qiladi

- blankli kreditlar, qarzdorning majburiyati asosida beriladi (solo-veksel).

Bu kreditning bir turi bo'lib xizmat qiladigan **overdraft** kre-diti, mijozning joriy schetidagi qoldiq bo'yicha emas, balki qol-diqdand tashqari beriladigan kredit, bunda bank mijozining scheti-dagi mablag' qoldig'idan ortiqcha qismi chiqarib tashlanadi, boshqacha qilib aytganda, bu mijozning schetidagi salbiy balansi bo'lib, banklar, firmalar, kredit statusining ba'zi bir holatlaridan kre-dit olishni bildiradi.

Xalqaro kredit sub'ektlari sifatida xususiy monopoliyalar, banklar, firmalar, hukumat va davlat tashkilotlari, xalqaro va hu-dudiy valyuta-kredit va moliya muassasalari ham chiqadilar.



Xalqaro kredit faoliyatining o'ziga xos tomonlari kredit berishdan uning shartlari, valyuta-moliya talablarini aniqlab olish zaruriyatidan kelib chiqadi: valyutali zayom, to'lov valyutasi, kredit miqdori, kredit muddati, qarzlarni to'lash shartlari, kredit qiy-mati, kreditni berishda tavakkalchilikni sug'urtalash uslublari.

Kreditlashning optimal variantini tanlab olish asosida kreditning turli xil sharoitlarda bergan samarasi natijalarini taqqoslash, qiyoslab ko'rish va xulosa chiqarish yotadi. Kreditning eng asosiy ko'rsatkichi **o'rta muddat va grant elementi** hisoblanadi.

Kreditning o'rtacha muddati shunday hisobot davriki, bu davr mobaynida kredit olgan shaxs kreditning hamma summasidan foydalanadi.

Kreditdan to'g'ri foydalangan taqdirda va to'lashda u quyidagicha aniqlanadi:

$$T_{o'm} = 1/2 T_{foy-sh} + T_{imtiyoz} + 1/2 T_{to'lash}$$

Quyidagi tenglama kredit olgan shaxs kreditorga qancha foiz (%) miqdorida summa berishi kerakligini hisoblab chiqarishga yordam beradi:

$$\sum \% = K_{limit} \times P \times T_{o'm}$$

$\sum \%$  - kredit olgan shaxsning kreditorga to'laydigan foiz miqdori;

$K_{limit}$  - kreditning limiti;

P - foiz stavkasi;

Grant-element yoki imtiyozlar elementi, subsidiyalar va kredit-larning bozordagi shartlarga qaraganda imtiyozli ravishda berilishi kreditlarning shartli yo'qotishlarini aks ettiradi. Bir yillik bozor foiz stavkasi 10%ni tashkil qiladi, deb hisoblash qabul qilingan. Grant-element quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\sum = 1 - \sum_{i=1}^n \frac{tBi}{1 + iA(1+n)}, \times 100$$

E - grant element;

V - I yilda schetdagi qarzni uzish bo'yicha haqiqiy to'langan to'lov;

A - kredit summasi;

n - bozor foiz stavkasi, birlik ulushlarda;

t - kredit muddati.

Moliya kredit - bu pul kredit, qaytaruvchanlik, tezlik, to'lov shartlari asosida banklar tomonidan beriladi. Bu kredit turidan ko'pgina mamlakatlar eksportni kreditlash va eksport kreditlarini sug'urtalash

tizimini yaratishda foydalanib, o'zlarining banklar-kreditorlari va firmalari-eksport qiluvchilarini moliyaviy to-mondan qo'llab-quvvatlab turadilar. Bu kredit istalgan bozordan tovarlar va xizmatlarni manfaatli shartlar asosida sotib olish, kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish va konkurslar asosida sotib olish huquqini beradi. Ko'pincha tashqi qarzlarni to'lash, valyuta kursini qo'llab-quvvatlab turish, avuarlar schetini chet el valyutasi-da to'lash uchun foydalaniladi.

Ikki va undan ortiq kreditorlar tomonidan, boshqacha qilib aytganda, sindikatlarning (konsortsiumlar) bank tomonidan qarz oluvchiga beriladigan krediti, ya'ni sinditsirlangan kreditni tak-lif qilish uchun bir guruh banklar-kreditorlar o'zlarining bo'sh yot-gan, muomalada qatnashmayotgan mablag'larini vaqtincha birlashtira-dilar).

Uzoq muddatli kreditning zayom va emissiya qimmatli qog'ozlar shaklidagi turlari banklar va firmalar (kompaniyalar, korporatsiya-lar) tomonidan qo'llanishi mumkin. Zayomlar savdo operatsiyalari va kapital qurilishni moliyalashtirish uchun beriladi. Jahon va mil-liy ssuda kapitali bozorlarida zayomli mablag'larni ssuda kapitali jahon va milliy bozorlaridan o'z hisobidagi uzoq muddatli majbu-riyatlarini hisobiga oladi. Qimmatli qog'ozlar emissiyasi ko'rinishi-dagi kreditlar chet el va xalqaro obligatsiya zayomlari ko'rinishida chiqariladi.

**Xalqaro savdoni kreditlash** xalqaro kreditning asosiy tur-laridan biri hisoblanib, eksport va import operatsiyalarini kre-ditlash shaklida namoyon bo'ladi. Tijorat va bank krediti shaklida kreditlanadi.

Mahalliy tijorat krediti sotilgan tovar uchun to'lov mudda-tini uzaytirish va eksportni kreditlashning an'anaviy shakli hi-soblanadi. Tijorat kreditining muddati jahon bozorlari kon'yunk-turasining holati, tovarlar turi va boshqalar bilan aniqlanadi. Odatda u 2 yildan 7 yilgacha veksellik shaklida rasmiylashtiriladi yoki ochiq scheti bo'yicha beriladi. Mahalliy (tijorat) kredit ko'rinishla-ridan biri **xaridor avansi** bo'lib, chet ellik ta'minotchiga kont-raktga imzo chekilgandan keyin tovar buyurtmasi qiymatining 10-15 foizi miqdorida haq to'lanadi.

Tijorat kreditining afzallik va kamchiliklari mavjud.

Afzalliklari:

- eksportni kreditlashda butunlay mustaqilligi tijorat bi-timlariga davlat tashkilotlarining deyarli aralashmasligi;
- Tijorat shartnomalari tuzishda bevosita kontragentlar bilan kredit qiymatini belgilab olishdagi katta imkoniyatlari borligi;
- Mahalliy kreditning kamchiliklari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin;

- Ta'minotchi-firmaning mablag'lari hamda moliyaviy ahvoli-dan qat'i nazar kreditlash muddatlari va miqdorining cheklangan-ligi;
- Xaridorning muayyan bir ta'minotchi bilan bog'liqligi;
- Naqd pulga sotib olinadigan tovarning shu holdagi tovarga nisbatan narxining yuqoriligi.

Import operatsiyalarni kreditlash ochiq schet veksel kreditidan foydalaniladi.

Veksel krediti yuborilgan vekselni (shoshilinch tratta) impor-terga ko'rsatish yo'li bilan rasmiylashtiriladi. Import qiluvchi veksel kreditini olishi bilan tovarni jo'natish ilova qog'ozi va to'lov hujjatlarini aktseptalaydi. Eksport qiluvchi tovarni yuklab importer nomiga shoshilinch tratt yozadi va tovarni jo'natish huj-jatlari bilan o'z bankiga topshiradi. Import qiluvchi o'z bankidan hujjatlarni faqat trattani aktseptalagandan keyingina oladi. Bir yil muddatgacha yozilgan veksellar import qiluvchi bankida qoladi: undan ko'proq muddatga yozilgan veksellar esa eksport qiluvchi bankiga beriladi. Kreditning muddati tovarning turiga bog'liq.

Uchyot krediti ham veksellar bilan bog'liq bo'lib, veksel egasi-ning vekseliga to'lov to'lanishi muddati tugamasdan oldin bank tomonidan sotib olib, so'ng bank tomonidan kredit sifatida taqdim etiladi. Bunday vekselni sotib olish veksel indesmanti bilan birga kechadi. Natijada, vekselning o'ziga va unga to'lanadigan to'lov haqi-ni talab qilish huquqi butunlay veksel egasidan bank ixtiyoriga o'ta-di. Bank uchetiga taqdim etilgan vekselga o'sha onning o'zida haqi to'-lanadi. Boshqacha qilib aytganda, veksel egasi bankdan kredit oladi.

Veksel uchyotidagi pulni avansirlash uchun bank tomonidan olinadigan haq uchyot (hisob) foizi deyiladi.

Bu foiz (%) vekselning nominal bahosi bilan bank tomonidan sotib olinish paytida bankka to'langan summa o'rtasidagi farq bilan aniqlanadi. Banklar veksellar bilan operatsiyalarni amalga oshirib, bir paytning o'zida bir nechta uchyot stavkalarini qo'llashi mumkin. Bu uchyot stavkalari shaxsiy uchyot stavkalari deb ataladi.

Markaziy bank tomonidan kredit muassasalari bilan o'tkaziladigan operatsiyalarda qo'llanadigan uchyot stavkasi rasmiy stavka bo'-lib, uning darajasi, odatda, shaxsiy uchyot darajasidan past yuradi.

Banklar foizli (%) va aktseptli to'lovlar tushumini ko'paytirish uchun uchyotga olishga taqdim etilgan veksellarning nominal qiymatdan tavakkalchilik mukofoti olishi mumkin. (bu erda veksel-ni xavf-xatardan saqlab qolishda beriladigan mukofot ko'zda tutilgan).

Eksport va importni bank kreditlash tovarlar va tovar hujjat-lari, veksellar, tratt uchyotlarni garovga qo'yish shaklida namoyon bo'luvchi ssuda hisoblanadi. Alohida holatlarda banklar yirik fir-malar-eksport qiluvchilarga hech qanday rasmiyatchiliksiz bank kre-ditlarini beradi. Xalqaro savdoda bank kreditlari mahalliy kre-ditlardan ustun turadi. Bu kreditni oluvchi undan erkin ravishda foydalanish-tovarlar sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

14-jadval

### Kapital harakatining shakllari

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra	Kim tomonidan amalga shirilishiga ko'ra	Ko'rinishi bo'yicha	Muddatiga ko'ra
Ssuda kapitali	Xususiy davlat	Pul ko'rinishida	Qisqa muddatli
Tadbirkorlik kapitali	Xalqaro tashkilotlar kapitali	Tovar ko'rinishida	Uzoq muddatli

Ssuda kapitalini olib chiqish bu bir mamlakatdagi qarz beruv-chining boshqa mamlakatdagi qarz oluvchiga ma'lum muddatda qay-tarib berish va foizlarni to'lash sharti bilan kredit berishidir.

Agar kapital foizlari shaklida foyda olish maqsadida beril-masdan, balki xorijdagi korxonalarini, shu jumladan qo'shma korxo-nalarni yaratishga sarflansa, u holda bu tadbirkorlik kapitalni olib chiqish yoki xorijga investitsiya chiqarish deb ataladi.

## Kapital harakati

Ssuda kapitali	Qarzlar va kreditlar bank depozitlari va boshqa moliyaviy institutlar hisobidagi mablag'lar
Tadbirkorlik kapitali	Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) investitsiyalar, portfel investitsiyalar

Fort-feyting bu–import qiluvchi tomonidan to'lashga rozilik bildirilgan veksellarni eksport qiluvchidan sotib olish shaklidagi tashqi iqtisodiy operatsiyalarni kreditlashdir. Bunda to'lov majburiyatlari bo'yicha barcha xavf-xatarlar ham veksellarni sotib oluvchi-siga (forfeyterga) o'tadi. Shuning uchun xaridor import qilayotgan mamlakat bankining kafolat berishini talab qiladi. Kreditning bu shakli o'rta muddatli, ya'ni etti yilgacha bo'ladi. Bu kreditning aso-sida kredit beruvchi eksport qiluvchi, import qiluvchiga bo'lgan talablarini boshqalarga o'tkazib, o'zining moliyaviy balansini yaxlit-lashga imkon yaratadi.

Veksel bu-qat'iy belgilangan shakldagi yozma qarz majburiyati bo'lib, veksel egasiga muddat tugashi bilan (rasmiy 1 yil, haqiqatda 1-3 oy) qarzdordan ko'rsatilgan pul miqdorini to'lashni talab etish huquqini beradi.

Veksel oddiy va o'tkaziladigan veksellarga ajratiladi. Oddiy veksel qarzdor tomonidan beriladi va imzolanadi. O'tkaziladigan veksel (tratta) kredit beruvchi tomonidan (trassant) beriladi va imzolanadi va ko'rsatilgan muddatda belgilangan miqdorini uchinchi shaxsga (reamitentga) to'lash haqidagi buyruqni aks ettiradi.

O'tkaziladigan veksel bo'yicha rozilik berish (aktsept) bu–to'lovchi tomonidan vekselda ko'rsatilgan muddat kelishi bilan uni to'lash majburiyatini olishdir. Bu vekselning old tomonida to'lovchi qo'ygan oddiy imzo bo'lishi mumkin. Veksel ham cheklar, banknotlar kabi kredit pullari deb ataladi. Agar bank vekseli tovar bitimi bilan mustahkamlangan bo'lsa, unda veksel qimmatbaho qog'oz, ya'ni aktsiya va obligatsiya kabi qo'llanishi mumkin.

Obligatsiya qarz berish haqidagi guvohnoma bo'lib, uning egasi har yili belgilangan daromadni olish huquqiga ega, ya'ni u qat'iy foiz keltiradi. Aktsiyadan farqli ravishda u boshqarishda ovoz berish huquqini bermaydi, faqat belgilangan daromad keltiradi va ma'lum muddat o'tgandan so'ng sotib olinishi lozim bo'ladi.

Faktoring - bu vositachi kompaniya tomonidan qarzdorning to'lov majburiyatlarini to'lovga qabul qilib, uni tezda yoki belgilangan

muddatlarda mol egasiga to'lash. Kreditlashning bu shakli ustunligi shundaki, faktoring kompaniyasiga (vositachiga hisob-kitob hamda bozorga funktsiyalarning ma'lum qismi ham o'tadi. Kreditning bu shaklidan iste'mol mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, eks-port oboroti katta bo'lmagan firmalar ko'proq foydalanadi.

Faktoring kompaniyalari tijorat banklari faoliyati bilan cham-barchas bog'langan bo'lib, ulardan kredit yordami va xaridorlarning kredit qobiliyati haqidagi ma'lumotni oladi. Shuningdek, fakto-ring kompaniyalari o'zaro xalqaro guruhlarini, assotsiatsiyalarni tash-kil etadilar. Bu kompaniyalar eksport qiluvchilarni kredit xavf-xa-tarlaridan va kreditni sug'urta qilish xarajatlaridan ozod qiladi.

Xaridor krediti eksport qiluvchi banki tomonidan bevosita import qiluvchiga yoki unga xizmat ko'rsatuvchi bankka beriladi. U shartnoma bahosining 80-85 foizigacha qamrab oladi, qolganini im-port qiluvchi qo'shimcha manbalar hisobiga moliyalashtiradi. Kelish-gan miqdor chegarasida u kredit beruvchi mamlakat, ba'zan esa boshqa mamlakatlarning ham har qanday firmasiga mol etkazib berish haqi-ni to'lashi mumkin. Bu firmalarni tanlashda kredit berayotgan bank muhim rol o'ynaydi. Eksport qiluvchilar uchun bunday kreditlar doirasida mol etkazib berish naqd to'lovlarni bildiradi.

Kapital o'sishini ta'minlovchi bank krediti yoki bank investi-tsiyalari bu- bank resurslarini foizlar yoki dividendlar ko'rinishi-da foyda olish maqsadida uzoq muddatga qo'yilishi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlariga, asosan, sanoatga yo'naltirilishidir.

Hukumat kreditlari yoki hukumatlararo va davlat zayomlari huku-mat kredit muassasalari tomonidan beriladi. Masalan, AQSh Yapo-niyaning eksport-import banklari tomonidan, Frantsiyaning tashqi savdo banki va eksportni uzoq muddatga kreditlash, qayta moliya-lashtirish, xususiy banklarning sug'urta kreditlarini kafolatlash bilan shug'ullanayotgan boshqa banklari tomonidan beriladi. Bu kre-ditlarning xususiyati ularning imtiyozli va maqsadli ekanligidir.



### 3. Kapitalning xalqaro bozorlari

Jahon moliya oqimlari o'z shakli va o'rnining birligi bilan xarakterlanadi. Jahon kredit va moliya bozorlari rivojlanishi-ning ob'ektiv asosida kapitalning doiraviy aylanishi qonuniyatlarini yotadi. Jahon kredit va moliya bozorlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

- ko'lamining kengligi, ya'ni moliyaviy oqimlar tovarlar oqimi hajmidan birmuncha ko'pligi bilan;
- geografik chegaralarni bilmasligi bilan;
- moliyaviy operatsiyalarning tunu-kun birday o'tkazib turilishi bilan;
- etakchi mamlakatlarning valyutalaridan, qisman SDR, pul birliklaridan foydalanishi bilan;
- moliyaviy operatsiyalari yuqori reytingi ega bo'lgan moliyaviy institutlarning qatnashishi bilan;
- bu bozorlarga asosan qimmatli qog'ozlari, ishonchli kafolatlangan oliy toifadagi zayomchilar kira oladilar.
- moliyaviy xizmat sohasida inqilobiy o'zgarishlar yuz bergan sharoitda bozor segmentlari va bitimlar qurollari (instrumentlari) diversifikatsiyalashganligi;

- spetsifik-xalqaro foiz (%) stavkalari.

- standartlash va eng yangi EHMlarni qo'llash bilan qog'ozsiz operatsiyalar o'tkazishning axborot texnologiyalari darajasining yuqoriligi.

XX asrning oxiridagi jahon kapital bozorlari o'zlarining keng qamrovliligi va erkinlashtirilganligi (liberalizatsiya) bilan xarakterlanadi. Jahon kapital bozorlarining erkinlashtirili-shidan maqsad cheklovlarni bartaraf etish yoki qisqartirish, chet el investitsiyalarning to'g'ridan-to'g'ri kirib kelishi uchun rasm-rusumlarni engillashtirish, erkinlashtirish ko'zda tutilgan edi.

Lekin investitsion siyosatni erkinlashtirish chet el mol-mulk-lari, ayniqsa, moliya, telekommunikatsiya, transport, energetika sohasida bozordagi ulushini butunlay cheklab qo'yishga olib kelmaydi.

YuNKTAD ma'lumotlariga qaraganda, 90– yillarning oxirida 57– mamlakat erkinlashtirish, rag'batlantirishning yangi shakllarini joriy etish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar, investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantiruvchi davlat tashkilotlarining tashkil etilishi natijasida chet el investitsiyalarini olib kirishga erishdi. Erkinlashtirish tadbirlari o'z ichiga:

- bevosita chet el investitsiyalarni kiritish rasm-rusumlari shartlarini engillashtirish.

- Chet el investorlari faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlarni engillashtirish.

- To'xtatib qo'yilgan tarmoqlar, jumladan, telekommunikatsiya sohasidagi tarmoqlarni qayta tiklash. Keyingi to'rt 10 yilliklar ichida ko'pgina mamlakatlarda chet el investitsiyalari to'g'risida max-sus qonunlar qabul qilindi. Hozir 143 mamlakatda bunday qonunlar amal qilmoqda. Buning sababi- investitsiya kiritilayotgan mamlakat-lar hududiga chet el investorlarining qo'yilishi va ularning faoli-yati ustidan davlat nazoratini saqlab qolish zaruriyatidan kelib chiqadi. Bu holat ikkita sabab bilan tushuntiriladi:

1. Xalqaro miqyosidagi vaziyatning tartibga solinmaganligi;

2. Milliy iqtisodiyotni chet el investitsiyalarining salbiy ta'-siridan himoyalash chora-tadbirlarini ko'rish zarurati;

1. bevosita chet el investitsiyalari kiritishni rivojlantirish-ning hozirgi zamon jahon bozorlaridagi asosiy tendentsiyalari.

Keyingi chorak asr davomida dunyo bo'yicha YaMM ishlab chiqarish-ga to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari ulushi asta-sekin o'smoqda va 1,5-2,0 % ni tashkil etmoqda. (YaMMning eksport hajmi 10% dan 19% ga ko'tarildi). Bu holat bir-biri bilan o'zaro bog'liq omillar bilan tushuntirilmoqda:

- qo'llanilayotgan texnologiyalarning tez o'zgartirilayotganligi.
- savdo va investitsiya tartiblari milliy, hududiy va global darajada liberalizatsiyalashuvi.

- xususiylashtirish dasturlarining amalga oshirilishi;
- milliy iqtisodiyotni qayta tartiblash;
- monopoliyadan chiqarish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini kengaytirish. Milliy firmalar-ni chet el investorlariga sotishni rag'batlantirish.

To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning eksporti harakati 1990-2003 yillarda va import so'nggi yillarda jadal sur'atlar bilan rivoj-lanmoqda. Olib chiqish investitsiya hajmi 1990-2003 yillarda 4,5 martaga, olib kirilgan investitsiya hajmi esa 2,7 martaga oshdi, yoki olib chiqilgan investitsiyalarning jahon YaIM nisbatan ulushi 9%da 22,8% gacha o'sdi. Bu to'g'ridan-to'g'ri investitsiyaning o'sish sur'ati jahon savdosi va YaIMning o'sish sur'atiga qaraganda yuqori ekanli-gini bildiradi.

**To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning xalqaro harakati**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>1990</b>	<b>2003</b>
Olib chiqilgan investitsiya (mlrd. doll.)	1954	8245
Olib kelingan to'g'ridan investitsiya (mlrd. doll.)	209	560
Olib chiqilgan investitsiyalarning (Ya.I.M. nisbat, %da)	9	22,8
Olib kelingan investitsiyalarning		
- YaIM nisbatan, % da	1	1,5
- Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarga nisbatan %.	4,3	7,7

Manba: Xalqaro sarmoyalar haqida bayonnoma, 2004 YuNKTAD, Nyu-York.

Kapitalning asosiy eksportchi va importchilari sanoati rivojlangan mamlakatlar hisoblanib, ular hissasiga eksportning va importning mos ravishda 92% va 72%i to'g'ri keladi.

Kapitalning xalqaro harakat ko'lami, dinamikasi va yo'nalishlari to'g'risida quyidagi jadval ma'lumotlari bo'yicha fikr yuritish mumkin.

**Kapitalning xalqaro harakati, (mlrd. doll.)**

	<b>1990 y</b>		<b>2000 y.</b>	
	Olib kelish	Olib chiqish	Olib kelish	Olib chiqish
Sanoati rivojlangan mamlakatlar				
Mamlakatlar:				
To'g'ridan - to'g'ri investitsiyalar	169,6	224,4	1241,5	1279,3
Portfelli investitsiyalar	213,6	169,1	1403,0	1195,6
Rivojlanayotgan mamlakatlar:				
To'g'ridan -to'g'ri investitsiyalar	31,6	10,9	248,3	96,3
Portfelli investitsiyalar	22,5	17,3	83,3	92,6

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalarining asosiy oqimlari sanoati rivojlangan mamlakatlari o'rtasida kechmoqda. Bu, avvalo, jahon iqtisodiyoti-dagi strukturaviy siljishlar bilan izohlanadi. Strukturaviy siljishlar esa, ma'lumki, Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishga ilg'or texnologiyalarini joriy etilishi, ishchilar malakasiga talab kuchayishi, xalqaro ixtisoslashuv va korporatsiyalashuvning kuchayishi natijasida ro'y beradi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlardan kapitalni olib chiqish ham jadal sur'atlarda rivojlanmoqda.

So'nggi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlar va iqtisodiyoti o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda xorijiy investitsiyalar ulushi ancha ortdi.

Bevosita chet el investitsiyasini amalga oshiruvchi, import qiluvchi birinchi o'nlikka kiruvchi mamlakatlar: AQSh (\$193,4 mlrd.); Buyuk

Britaniya (63,1), Xitoy (45,5), Niderlandiya (31,9), Braziliya (28,7), Frantsiya (28,0), Belgiya-Lyuksemburg (21,0), Germaniya (19,8), Shvetsiya (19,4), Kanada (16,5).

Kapital bir guruh mamlakatlarda kontsentratsiyalangan (yig'ilgan).

- Dunyodagi sanoati rivojlangan barcha mamlakatlar qo'lidagi chet el bevosita investitsiyalarining uchdan ikki qismi AQSh, Evropa Ittifoqi va Yaponiya hissasiga to'g'ri keladi.

- Kapital kiritishning tarmoq tuzilishi (struktura) ham o'z-gardi, 70-80 yillarda kapital kiritish asosan konchilik tarmog'iga yo'naltirilgan bo'lsa, keyinchalik, xizmat sohasiga yo'naltirildi, bunga investitsiya hajmining deyarli yarmi jalb etildi.

Kapital oqimning geografik yo'nalishi o'zgartirildi. 60-70 yil-larda kapital oqimi sanoati rivojlangan mamlakatlardan rivoj-lanib kelayotgan davlatlarga qarab bo'lgan bo'lsa, 80-90 yillarda ka-pital oqimi esa sanoati rivojlangan mamlakatlardan sanoati ri-vojlangan mamlakatga qarab oqdi.

Bevosita chet el investitsiyasini amalga oshiruvchi-eksport qiluv-chi birinchi o'nlikka kiruvchi mamlakatlar: AQSh (\$132,8 mlrd), Buyuk Britaniya (114,2), Germaniya (87,6), Frantsiya (40,6), Niderlandiya (38,3), Kanada (26,6), Yaponiya (24,2), Belgiya-Lyuksemburg (23,1), Shve-tsiya (22,5), Finlyandiya (19,8).

- Eksport va import sarmoyasi alohida davlatlar guruhi uchun o'ziga xos xususiyatlarga ega. XX asrning 90–yillarida sarmoya eks-porti va importi bo'yicha Buyuk Britaniya va AQSh etakchilik rolini o'ynagan edi. OESR mamlakatlariga qilingan investitsiyalar ekspor-ting 38%i va importining 45%i ular ulushiga to'g'ri kelgan edi. Sarmoya kiritish bo'yicha eng katta donor va retsipient Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlar hisoblanadi. Ularning importi 230,0 mlrd. dollar, eksporti 386,2 mlrd. dollarni Evropa Ittifoqining asosiy investori bo'lib AQSh chiqadi. Amerika ulushiga chet elda to'plangan bevosita chet el sarmoyalarining 50%dan ko'prog'i to'g'ri keladi. Shuningdek, Evropa Ittifoqining yirik tashqi investor-lari qatoriga Yaponiya ham kiradi (30%). Evropa Ittifoqi mamlakat-larida o'zaro kapital oqimi tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda; shuningdek, transhegaraning qo'shilishi va kompaniyalarning muvaf-faqiyatlari xarakterlidir. Evropa ittifoqi mamlakatlarida bevo-sita investitsiyalar importchilari - Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Frantsiya tomonidan, Eksportchilar Buyuk Britaniya, Germaniya, Fran-tsiya tomonidan ajratiladi. Dunyoda eksport bo'yicha (\$193 mlrd.) va import bo'yicha (\$133 mlrd.) AQSh birinchi o'rinni egallaydi. AQSh netto

eksportchidir. Bevosita investitsiyalar bo'yicha Yaponiya ham netto eksportchi hisoblanadi.

18-jadval

**To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni eksport va import qiluvchi etakchi davlatlar (2003 y. mlrd AQSh dol.)**

Eksport		Import	
mamlakatlar	investitsiyalar	mamlakatlar	investitsiyalar
AQSh	151,1	Lyuksemburg	87,6
Lyuksemburg	96	Xitoy	53,5
Frantsiya	57,3	Frantsiya	47
Buyuk Britaniya	55,1	AQSh	29,8
Belgiya	36,6	Belgiya	29,5
Gollandiya	36,1	Ispaniya	25,6
Yaponiya	28,8	Irlandiya	25,5
Ispaniya	23,4	Gollandiyal	19,7
Kanada	21,5	Italiya	16,4
Shvetsiya	17,4	Buyuk Britaniya	14,5

**Rivojlanayotgan mamlakatlar.** Rivojlangan mamlakatlarning bevosita kapital chiqarishlari, eksport va importining o'sish sur'atlari va dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarga qaraganda rivojlanayotgan mamlakatlarda bevosita chet elga investitsiyalar chiqarish-ning eksport va import o'sish sur'atlari darajasi yuqori. Rivojlanayotgan mamlakatlar ana shu xususiyatlari bilan ajralib turibdi. Kapitalni qabul qiladigan va chetga chiqaradigan asosiy mamlakatlar Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlaridir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning dunyo kapital bozorida muvaffaqiyatga erishishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar investitsiya rejimining erkinlashtirish (Xitoy, Meksika, Argentina, Braziliya) va keng qamrovli xususiylashtirish olib borilganligi deb ko'rsatish mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bevosita kapital oqimining o'ziga xos xususiyati: rivojlanayotgan mamlakatlarda o'rtasida kapital oqimining o'sib borayotganligi va u bir guruh yirik va badavlat mamlakatlarda konsentratsiyalanayotganligi, ya'ni to'lanayotganligidir.

Asosiy importchilar Argentina, Braziliya, Meksika, Saudiya Arabistoni, Xitoy, Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand, Syangan mamlakatlari bo'lib, ular hissasi rivojlangan mamlakatlar umumiy kapital oqimining 60%i to'g'ri keladi. Eksportchi-mamlakatlar Syangan, Tayvan, Singapur, Xitoy, Malayziya, Quvayt, Chili va Braziliya hisoblanadi.

**Ssuda kapitalining jahon bozori.** Ssuda kapitali bozori-ning bir qismi bo'lib, bu erda uning mamlakatlararo harakati amal-ga oshiriladi va unga bo'lgan talab va taklif shakllantiriladi.

Chet el mamlakatlari yuridik va jismoniy shaxslariga ssuda si-fatida berilgan kapital bitim ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Jahon kapital bozorining rivojlanishi ssuda kapitalining uzoq muddatli harakati tendentsiyalari sharti bilan bog'liq; bu harakatni nazorat qilib turuvchi davlat-huquqiy me'yorlarining erkinlashuvi-(libe-ralizatsiyasi); qimmatli qog'ozlar ta'sir doirasining kengaytiri-lishi; jahon iqtisodiyotidagi kuchli integratsion jarayonlar; kapi-tal kontsentratsiyasi; banklararo telekommunikatsiyaning rivojla-nishi.

Hozirgi paytda 13 ta xalqaro moliya markazlari juda muhim ahamiyat kasb etgan. Bular orasida: Nyu-York, Panama, London, Tsyurix, Lyuksemburg, Frankfurt-na-Mayn, Tokio, Bagota orollari, Singapur, Bahrayn va hokazolar. Bu Markaziy banklarning chet el-larda 800 dan ortiq filiallari mavjud.

Bu bozorlarning asosiy ta'minotchilari TMK (TNK), hukumat-lar, xalqaro valyuta-kredit va moliyaviy tashkilotlardir. Shunisi ham borki, evro kreditlar faqat oliy toifadagi zayomchilarga be-riladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning chet el zayomlarini bozor narxida olish imkoniyatlari cheklangan. Shuning uchun ular bevosita investitsiyalardan, xalqaro tashkilotlarning zayomlaridan ko'proq foydalanadilar. Valyuta-kredit operatsiyalarining xususiyatiga qa-rab, jahon ssuda kapitali bozorini quyidagi sektorlarga bo'lish mumkin.

**Jahon pul bozori** asosan banklararo qisqa muddatli bitim-larni ro'yobga chiqaradi. Bozorda amalga oshirilgan operatsiyalarning 70% ular hissasiga to'g'ri keladi. Kredit muddati bir kundan to bir yilgacha belgilanadi. Operatsiyalar chet el valyutasida amalga oshi-riladi. Asosiy kreditorlar tijorat banklari, zayom taklif etuvchi-lar-firmalar, kredit moliya institutlari va davlatlaridir.

**Evro valyuta bozori.** Bu bozorda mamlakat tashqarisida naqd pul to'lamay o'tkaziladigan depozit hisob (schyot) operatsiyalari chet el valyutasida amalga oshiriladi.

Valyutalar bilan bir qatorda qimmatli qog'ozlar bilan ham yi-rik kredit operatsiyalari o'tkaziladi.

**Evro kredit bozori.** O'rta va uzoq muddatli, ya'ni 1 yildan 10 yilgacha va undan ham ko'proq muddatga kredit operatsiyalarini o'tka-zadi. Kreditning bu shakli qatnashchilari-banklar, maxsus kredit institutlari, firmalar, davlatlar va xalqaro tashkilotlar bo'ladi. Kredit



evrovalyutada beriladi. Bunda mijozni kreditning qaytara olishga qudrati etish yoki etmasligi tahlil qilib ko'riladi. Shart-noma shartlari yozma ravishda xat bilan rasmiylashtiriladi. O'rta va ko'p muddatli kreditlar suzuvchi foiz stavkalar bo'yicha va «stend bay» sharti bilan Evro kreditlarning asosiy qismini dunyoning turli mamlakatlarida 40 dan ortiq kredit institutlari bo'lgan xalqaro konsortsium banklari beradi. Jahon Moliya bozori-7-15 yil muddat bilan emissiyalar va qimmatli qog'ozlarni joylashtirishni amalga oshiruvchi moliya bozordir. Shu bozor doirasida chet el obli-gatsiyalari bozori va evro obligatsiya bozori faoliyat ko'rsatadi. Dav-latlar evro obligatsiya zayomlarini davlat byudjetidagi etishmov-chilikni to'ldirish va eski zayomlarni qaytadan moliyalashtirish uchun ishlatadi. Evro obligatsiya bozori uzoq muddatli zayomlarni evroval-yutaga ayirboshlash olib boriladi va zayyom egasining obligatsiyasi sifatida rasmiylashtiriladi.

Evro-obligatsiyalarni tarqatishdan maqsad bir necha davlatlar bozorida joylashtirish ko'zda tutilganligidir.

Ssuda kapitali jahon bozorida kreditning qiymati kredit uchun foiz miqdorini aniqlashni va vositachilik hajmini ko'zda tu-tadi.

Jahon bozoridagi foiz (%) stavkalari milliy stavkalarga qa-raganda ma'lum darajada erkin suzib yuradi.

Jahon bozorlarida milliy (%) stavkalari ustiga qo'shimcha stavkalar qo'llaniladi, bu stavkalar o'z ichiga banklararo taklif stavkalarini ham oladi. Kredit (kredit liniyasini ) limitini ochish, evroobligatsiya zayomlari konsortsial kreditlari taqdim etish paytida maxsus xalqaro foiz (%) stavkalari olinadi. Milliy foiz stavkalari ustiga qo'shimcha stavkalar ba'zi bir banklararo taklif stavkalari (depozit stavkalari)ni o'zgartiruvchi sifatida kiritila-di. Ssuda kapitali jahon bozorida suzib yuruvchi foiz (%) stavkalari ustunlik qiladi

Tan olingan xalqaro moliya markazlarida xalqaro kredit be-rishning o'zaro ishlab chiqqan banklararo taklif stavkalari qo'lla-niladi. Masalan, Londondagi Evropa valyuta bozorida foiz stavka-larining tebranishi (chastota)ni o'zgartirib turuvchi LIBOR yoki London banklararo taklif stavkasi qo'llaniladi, bu stavka o'z xususiyatiga ko'ra depozit stavkasi hisoblanadi. Bu stavka 1/8 mod-dasiga ko'ra omonat qo'yish stavkasidan yuqori va 1/2 moddasiga ko'ra so'ng zayom egasi krediti bo'yicha past: foiz stavkalarining doimiy elementi sifatida LIBORga qo'shimcha ravishda «Spred» yoki bank xizmati mukofoti ishlatiladi. Bu holda mukofot marja ko'rini-shini oladi, marja miqdori 3/4 dan 3 foiz atrofida bo'lib turadi.

Bunday stavkalar: Singapurda–SIBO, Frankt–na–Maynda–FI-BOR, Parijda-LIBOR, Bahraynda-BIBOR va h.k.larda mavjud.

Asosiy foiz stavkasidan tashqari yana maxsus foiz stavkasi: kredit summasi va muddati, bir yo'la kredit summasi va muddati hisobga olinmaydigan, bank vositachiligi stavkalaridir. O'rta va uzoq muddatli kreditlardan ssuda berishda vositachilik majburiyati uchun va jamg'armalar zaxirasi uchun, odatda, yillik 0,2%-0,75%. Kredit operatsiyalari o'tkazishda bank konsortsiumlariga zayom egasi bir yo'la bank boshqaruvchisi-menejerga vositachilik uchun (kredit summasidan 0,5% gacha), munozara olib borish, shuningdek, bu operatsiyada ishtirok etgan banklarga (0,2%-0,5%) foiz stavkalari to'lanadi.

Jahon bozorlarida operatsiya o'tkazish asosiy qurollari sifa-tida veksel (oddiy, ko'chirma, tijorat, xazina, bank) depozitni sertifikat, banklar aktsentlari, aktsiyalar, obligatsiyalar, akkredi-tiv, evronotlar ishlatiladi.

## 4. O'zbekistonda chet el investitsiyalari

O'zbekiston jahon hamjamiyatida mustaqil ravishda o'zining iqtisodiy siyosatini olib boryapti. Hozirgi zamonda birorta mamlakat o'z qobig'iga o'ralib olib milliy iqtisodiyotini rivojlantira ol-maydi, aholisining turmush darajasini ko'tara olmaydi. Hozirgi za-mon ilmiy-texnika taraqqiyoti insonlar turmush sharoitiga shunday katta ta'sir ko'rsatayaptiki, natijada ishlab chiqarish, savdo, mada-niy-maishiy, xizmat ko'rsatish, aloqa sohalaridagi talab va taklif-larda ham jiddiy sifat o'zgarishlari yuzaga kelyapti. Bu, o'z navbati-da, iqtisodni isloh qilib borishni, zamon talablariga moslab olib borishni taqozo qilyapti.

Er yuzida ijobiy tomonga qarab katta o'zgarishlar yuz berayotgan bir davrda O'zbekiston xalqaro maydonda siyosiy jihatdan mustaqil-likka erishdi. Lekin uning oldida iqtisodiy jihatdan ham mustaqillikka erishish, buning uchun mamlakat iqtisodini jadal rivoj-lantirishdek g'oyatda ulkan vazifalar ko'ndalang bo'lib turadi. To'g'ri, O'zbekistonda yirik-yirik sanoat korxonalari ishlab turgan, qish-loq xo'jaligidagi ishlar ketayotgan bo'lsa ham, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy qilib, jahon standartlariga mos, raqobat-bardosh mahsulotlar ishlab chiqarmasdan turib, olg'a qadam tashlab bo'lmas edi. Zero, O'zbekiston Respublikasining bosh qomusida inson manfaatlari birinchi o'ringa qo'yilgan edi. Bu-iqtisodiyotni rivoj-lantirish faqat mana shu tuproq, mana shu zaminda yashayotgan xalq-ning tub manfaatlariga mos kelishini ko'zlab olib borishni taqozo etar edi.

Respublikada tabiiy xom ashyo resurslari ko'p bo'lgani, bunday resurslarga O'zbekiston boy bo'lgani bilan ularni qayta ishlaydigan yangi zamonaviy texnologiyalar etishmas edi. Buning ustiga, sobiq Ittifoq tarkibidagi respublikalar bilan iqtisodiy aloqalardagi uzilishlar natijasida korxonalarda butlovchi qismlarning etish-masligi kelib chiqqan, bu, o'z navbatida, ishlab chiqarish samara-dorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, edi.

Mamlakat iqtisodiy tizimining bir me'yorda ishlashi izdan chiqqan edi. Yangining joniga eski aro kirar, deganlaridek mavjud korxonalarining ishlab turishini ta'minlash (shunda ham sifatli mahsulot chiqarishini) bilan bir qatorda rekonstruksiyalash ishla-rini, ya'ni yangi texnologiyalar bilan jihozlash ishlarini olib borish kerak edi. Bunday texnologiyalar jahon bozorida topilardi. Lekin bu texnologiyalarni sotib olish uchun qo'l qisqalik qilib turardi, ya'ni mablag' etishmas edi. Respublika aholisining o'sish darajasi iqtisodiy ahvolni tezroq o'nglab olishni ham talab qilib turgan edi. Bularning hammasi bevosita sarmoya mablag'lari bilan bog'liq

edi. Sarmoya mablag'larining birinchisi ichki imkoniyat hiso-biga, ikkinchisi tashqi, aniqroq qilib aytganda, chet mamlakatlardan yordam (kredit sifatida) olish hisobiga bo'lishi mumkin edi. Ichki sarmoyaga kelsak, O'zbekiston qanchalik tabiiy boylikka ega bo'lma-sin, sarmoya jamg'arishning barcha ichki manbalari ishga solinmagan edi. Shuning uchun davlat byudjeti etishmovchiliklardan qiynalmoq-da edi. Barcha investitsion ehtiyojlarning qo'llanmayotganligi shun-dan kelib chiqayotgan edi.

Ko'p korxonalar va aholining asosiy qismi qiyin ahvolda qol-gan edi. Bunday holatda sarmoya masalasida ichki imkoniyatga ko'z ti-kib bo'lmas edi. Buni xususiylashtirish jarayonlarining borishi ham yaqqol ko'rsatib turadi. Tijorat sohasidan sarmoya qidirishga bo'lgan umidlar ham o'zini oqlamayotgan edi, tijoratchilar mablag'larini ish-lab chiqarish sohasidan ko'ra ko'proq qisqa muddatli va yuqori foyda keltiruvchi vositachilik operatsiyalariga sarflanishni afzal ko'rgan edilar.

Endi faqat sarmoya topishning ikki yo'li qolgan edi. Bu yo'l iqtisodiy rivojlanishni moliyalashtirishning tashqi manbalari edi. Bu juda dolzarb ahamiyatga ega edi. Chet el sarmoyasi jalb qilishning ham ikki turi bor edi. **Birinchi turi**-jahon bozorida raqobatbar-dosh tarmoqlarni rivojlantirish uchun olinadigan qarz bo'lsa, sar-moya kiritishning **ikkinchi turi**-mamlakat ichida chet ellik sarmoya-dor bilan birgalikda qo'shma korxonalar tashkil etish uchun ichki bo-zorni ochib berish yo'li edi.

O'zbekiston uchun sarmoya kiritishning birinchi turi istiqbol-li emas edi. Shunday yo'lni tutib qarzdorlik «botqog'iga» botib qolgan mamlakatlar (Lotin Amerikasi va Sharqiy Evropaning ko'p-gina davlatlari)ning tajribasi O'zbekiston uchun bir saboq maktabi bo'ldi. Respublika tomonidan davlat miqyosida yangi ko'lamli zayom-larni olish muammolari, tashqi qarzdorlik, zayom mablag'laridan foydalanish samaradorligining pastligi va shu kabi tomonlari ham bor edi.

Endi mamlakatga sarmoya kiritishning ikkinchi turi qolgan edi. Bu yo'l – «Yangi sanoatlashgan mamlakatlar» (YaSM) deb nom olgan mamlakatlarning ko'pchiligi tutgan yo'l edi. Bu umuman, tadbir-korlikni har tomonlama rag'batlantirish va iqtisodiyotning istiq-bolli tarmoqlarida chet el investorlari uchun foydali shart-sharoit-lar yaratish yo'li edi. Bu yo'lda hech qanday muammolar uchramaydi, deb bo'lmaydi. Biroq ulardagi iqtisodiy o'sishning muhim va barqaror yuksak sur'atlari bu yo'lning umidbaxshligidan dalolat berardi. Shunday qilib O'zbekistonga investitsiya kiritishning o'ziga xos yo'li tanlandi, faqat gap uning huquqiy asoslarini yaratish va qo-nunlashtirishda qolgan edi. Bu muhim ish ham

ado etildi, respub-likaga investitsiya kiritishning huquqiy asoslari va imtiyoz-larining keng qamrovli tizimi ishlab chiqildi, bu huquqiy asoslar va imtiyozlarda investitsiya olib kelishning istiqbollari va uzoq muddatli tashqi iqtisodiy aloqalarning mohiyati o'z ifodasini topdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan chet el investitsiyalarini jalb qilishni rag'batlantirishga qaratilgan qonun-lar qabul qilindi. Bu qonunlar sirasiga «O'zbekiston respublika-sining tashqi iqtisodiy faoliyati» to'g'risida; «Chet el investitsiya-lari to'g'risida», «Investitsion faoliyat to'g'risida», «Chet el investitorlarining kafolatlari va ularning huquqlarini himoya qilish choralari to'g'risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonunlarni kiritish mumkin.

1996 yilning o'rtasida qabul qilingan «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi Qonun shu toifadagi zonalarga investitsiya-lashning asosiy huquqiy doirasini shakllantirdi. «Kontseptsiyalar to'g'risida»gi Qonun esa O'zbekiston Respublikasi hududida xo'jalik sub'ektlari, shu jumladan, xorijiy xo'jalik sub'ektlari kontses-siyasi faoliyatining huquqiy asosini belgilab berdi. Bu qoidalar qo'shma tadbirkorlikni va xorijiy sarmoyani mamlakatimizga jalb etish jarayonlarini tezlashtirishda olg'a tomon qo'yilgan qadam bo'ldi.

1996 yil noyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalariga beriladigan qo'shimcha omillar va imtiyozlar to'g'risida»gi Farmonda «Chet el investitsiyasi bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari» deb nomlanib, preferentsional rejim berilgan korxonalarining maxsus toifasi belgilandi.

Prezidentning 1998 yil 27 martdagi Farmoniga muvofiq quyi-dagi mezonlarga javob beruvchi chet el, sho''ba va qo'shma korxonalar chet el investitsiyasi bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari sirasiga kirishi belgilab qo'yildi: nizom jamg'armasi 150 ming AQSh dol-laridan kam bo'lmagan korxonalar; korxonalar ishtirokchilaridan biri, albatta, chet el yuridik jahon hisoblangan; korxonaning ustav faoliyatida o'z ishlab chiqarishi va (yoki) ishlab chiqarilayotgan mahsulotning servis xizmat hissasiga xo'jalik faoliyatidan tushumlar umumiy hajmining 60% dan ko'prog'i to'g'ri keladigan korxonalar.

1997 yil 1 yanvardan boshlab Respublika investitsion dasturiga kiritilgan loyihalarni investitsiyalovchi, chet el investitsiyasi bo'lgan korxonalarining hammasi etti yilga korxonalar foydasidan olinadigan soliqlar to'lashdan ozod qilinadi. Nizom jamg'armasida xorij sarmoyasining hissasi 50% va undan ko'proqni tashkil etuvchi bo'lgan korxonalardan

nizom jamg'armasining miqdoriga qarab pasaytiril-gan stavkalar bo'yicha soliq undiriladigan bo'ldi.

Ana shu qoidalar asosida chet el investitsiyalarining kafolatlanishini yaqqol bilib olish mumkin:

- Favqulodda hollardan (tabiiy ofat, avariya, epidemiya) tashqari natsionalizatsiya va musodara (Rekvizitsiya) qilmaslik kafolatlari.

- Daromadni repatreatsiyalash huquqi.

- Mudofaani va milliy xavfsizlikni ta'minlash jamiyat tar-kibi va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini istisno qil-gan holda O'zbekiston Respublikasining keyingi qonunlari inves-titsiyalashni yomonlashtiruvchi shart-sharoitlarni vujudga keltirsa, u holda chet el investitsiyalariga nisbatan o'n yil mobaynida inves-titsiyani amalga oshirish davrida amalda bo'lgan qonun qo'llanadi.

- Nizolar chiqqan taqdirda hakamlar sudiga murojaat qilish huquqi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qi-lingan qonunlar, hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar chet el investitsiyalari kiritilgan korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy me'yoriy asoslarni yaratdi.

O'zbekiston respublikasi hukumati tomonidan valyuta bozor-larini erkinlashtirish (liberalizatsiya), eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish, tashqi savdo faoliyatini tartib-ga solishni takomillashtirish va bojxona sohasiga qaratilgan bir qator qarorlar qabul qilindi. Shuningdek, mulkni davlat tasarru-fidan chiqarish, xususiylashtirish, o'rta va kichik biznesni rivoj-lantirishga qaratilgan investitsiyalar jalb qilishni faollashtirish haqidagi qarorlar ham qabul qilindi.

Respublika iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb qilish-ni rag'batlantirish maqsadida, xususan, chet el investitsiya hisobiga korxonalar yaratish haqida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomo-nidan investorlarga qo'shimcha imtiyozlar va referentsiya beruvchi bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Respublikada olib borilayotgan investitsiya siyosati strategik masalalarni hal qilishga qaratilgan. O'zbekistonda olib borilayot-gan investitsion siyosatining asosiy qurollaridan biri **davlat investitsion dasturidir**. Bu dastur Respublikada investitsion lo-yihalarni amalga oshirish niyatida bo'lgan, qiziqqan investorlar manfaatini uyg'unlashtiradi.

O'zbekistonda xorijiy investorlar uchun qulay investitsi iqlim yaratilgan.



O'zbekistonda islohot yillari davomida 14 milliard dollar miqdorida chet el investitsiyalari va kreditlari o'zlashtirildi. Investitsiyalar yirik ob'ektlar bilan bir qatorda tog' qazilmalari sanoatiga tobora jadalroq kirib bormoqda, mahalliy zaxiralarni qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga talay mablag'-lar jalb qilinmoqda. Shu bilan bir qatorda, engil sanoat, oziq-ovqat, go'sht-sut va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlariga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidlash mumkin. 2003 yil natijalari bo'yicha chet el investitsiyalari va kreditlarini o'zlashtirish 2002 yilga nisbatan 34,5 foizga ko'paydi. Ushbu ko'rsatkich kelgusida qat'iy tartibda o'sib boradi, chunki, mamlakati-mizda chet el investitsiyalari uchun keng imkoniyatlar maydoni va ul-kan zaxiralar bazasi mavjud.

Resurs bazalari ko'rsatkichlari aniqlab olinishi bilan investitsion loyihalarni ishlab chiqish boshlanadi va tashkil qilinadigan ishlab chiqarishning ixtisosi va uning faoliyat sohasi belgilanadi.

O'zbekiston foydali qazilmalarning katta zaxiralari ega mamlakat bo'lib, hozirda 100 turga yaqin mineral xom ashyolardan 60 tasi ishlab chiqarishga jalb qilingan. Ayni paytda 900 dan ziyod konlar o'rganilgan bo'lib, tasdiqlangan zaxiralar hajmi 970 mlrd. AQSh dollari hisobida baholanmoqda. Umumiy mineral xom ashyo sa-lohiyati 3,3 trln. AQSh dollaridan ko'proqni tashkil etishi qayd qilinmoqda.

O'zbekiston mineral xom ashyo manbalari va strategik materiallar zaxiralari hajmi bo'yicha dunyoning boy davlatlari qatori-ga kiradi. Ya'ni oltin va uran zaxiralari bo'yicha birinchi beshtalikda, oltin, uran va mis qazib olish bo'yicha; oltin zaxiralari bashorati va umumiy manbalar salohiyati bo'yicha dunyoda etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Respublikada mis, qo'rg'oshin, rux, re-niy, volfram va boshqa shu kabi rangli metallarning yirik manbalari ham mavjud.

Respublikada marmarning 33 ta, granit va gabbroning 18 ta koni topilgan. Ko'pgina manzarali noyob tosh konlari esa, Evro-Osiyo hududidagi eng yirik konlar hisoblanadi, O'zbekistonda fosforit konlari, kaliy tuzlarining yirik, tosh tuzlarining boy konlari mavjud.

O'zbekistonda ko'plab neft va gaz konlari bo'lib, umumiy hududning 60 foizga yaqinida ularni qazib olish istiqbolli hisoblanadi. Masalan, Markaziy Osiyo gaz kondensatining - 74 foizi, 30 foiz - neft, 40 foiz - tabiiy gaz, 55 foiz - ko'mir to'g'ri keladi. Shu bilan birga, neft va gaz ishlab chiqarish zaxirasi 30-32 foizni, ko'mir manbalari 2 mlrd. tonnadan ko'proqni tashkil etadi. O'zbekiston neft-kimyo, bazaviy kimyo, kimyofarmatsevtika, zargarlik elektrotexnika tarmoqlari sanoatini rivojlantirish,

yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda ham katta imkoniyatlarga ega.

Qishloq xo'jaligida nodavlat sektor ulushi 99 foizni tashkil etadi. Agrosanoat majmuasida esa, mamlakat aholisining mehnatga layoqatli qismining 44 foizdan ko'prog'i band. Qishloq xo'jaligi sektori O'zbekiston aholisi uchun zarur bo'lgan 90 foiz oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish imkonini beradi. Respublika hukumati qishloq xo'jaligiga ko'proq chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratmoqda.

O'zbekistonda yiliga 3-3,3 million tonna paxta xom ashyosi tayyorlanadi, shundan 0,96-1,7 million tonna paxta tolasi qayta ishlanadi. Keyingi uch yil davomida sanoat mahsulotlari umumiy hajmida to'qimachilik sanoati mahsulotlarining ulushi 21 foizgacha o's-di, respublika engil sanoati korxonalaridan 24 foiz hajm-dagi paxta tolasi qayta ishlanadi. Bu ko'rsatkich 2000 yilga borib 50%gacha etkazilishi mo'ljallangan. Respublikada ipak sanoati ham yuqori darajada rivojlanmoqda. So'nggi yillar davomida ipak xom ashyosini eksport qilish 7,6 martaga, ipak kalavasi esa, 4,9 martaga oshdi. Mamlakatimiz aholi jon boshiga hisoblaganda pilla ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni, pilla ishlab chiqarish hajmi bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi

Turli xil iqlim sharoitlari, cho'llar va subtropiklardan iborat tog' yonbag'ri va tog' oldi hududlarining mutanosibligi O'zbekistonda ko'plab turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishga imkon beradi. Mamlakatimizda etishtirilayotgan meva, sabzavot, uzum va poliz mahsulotlarining juda shirin mazasi va yuqori sifatlilikligi butun dunyoga ma'lum va mashhurdir. Afsuski, ushbu sohada eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun ularni dunyo andozalari darajasida qayta tayyorlash, qadoqlash, saqlash va dunyoning istalgan joyiga etkazish, tez buziladigan mahsulotni transportirovka qilish ishlari, korxonalar tashkil etish zarur.

### **O'zbekistonning sanoat salohiyati ham yuqori.**

Bu boradagi imkoniyatlarni qisqacha va ishonarli tarzda shunday ta'riflash mumkin: ya'ni, zamonaviy transformatorlar, liftlar, gidronasoslar va boshqa murakkab texnologiyalar ishlab chiqarish quvvatlari mavjud. Hozirgi kunda samolyot, traktor, avtomobillarni faqat yuqori rivojlangan mamlakatlarga ishlab chiqara oladi, xolos.

Mamlakatimizda yuqori malakali xodimlar tayyorlashda oliy va o'rta maxsus ta'limga ega mutaxassislar xizmat qiladi. Talay qismi eksport qilinadigan, murakkab mashinalar, uskunalar va buyumlar ishlab chiqarishda ular milliy sanoat rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim dargohlariga jamlangan ilmiy salohiyati bo'yicha etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Mam-lakatimizda quyosh fizikasi, inshootlarning seysmik mustahkam-ligi bo'yicha, mashinasozlikda, paxtachilik va chorvachilikda, ayniq-sa, qorako'l terisi genetikasi bo'yicha va ularni navlarga ajratish-da, o'simliklarni kimyoviy himoya qilishda va boshqalarda, lazerdan foydalanish sohalarida ulkan muvaffaqiyatlarga erishilgan.

Respublikada ta'lim tizimining eshiklari hamma uchun ochiq, ya'ni: 9700 ta umumta'lim maktablari, 533 ta professional kollej-lar va 55 ta akademik litseylar o'qish va bilim olishni istaganlar uchun xizmat qilmoqda. o'quv tarmog'ining asosiy qismi zamonaviy o'quv vositalari va internetga chiqish imkoniyatiga ega kompyuterlar bilan ta'minlangan. O'zbekiston Respublikasi aholisining yoppasi-ga savodxonligi bilan ajralib turadi.

Aholining ko'pgina qismi tsivilizatsiyaning ne'matlaridan foydalanish huquqiga ega: ya'ni, markaziy isitish, issiq va sovuq suv, tabiiy gazdan, turli maishiy texnikalarni ishlatishda elektr ener-giyasidan foydalanish kabi omillarning etarliligi kir yuvishda, ovqat tayyorlashda, uylarni tozalashda vaqtini iqtisod qilish imkoni-ni beradi, ya'ni, insonning farovon turmush tarzini yaratib berishga xizmat qiladi. Uy sharoitidagi mehnat vaqtini qisqartirish inson-ga madaniy hordiq olish uchun sharoit yaratadi, televizor va matbuot nashrlari orqali esa, barcha hamma yangiliklardan voqif bo'ladi, bu esa, o'zini-o'zi takomillashtirish imkonini beradi. o'zining ijti-moiy tadqiqotlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan mustaqil Pyu Ri-serch Senter (AQSh) Markazining "Ijtimoiy monitoring, UNICEF, 2003", "Dunyo taraqqiyoti haqida doklad. Jahon banki 2002" xalqaro hisobot ma'lumotlarida O'zbekiston inson salohiyati rivojlanishi darajasi bo'yicha MDH mamlakatlari orasida etakchi o'rinlardan birini egallashi ta'kidlanadi.

Qulay geografik vaziyat va rivojlangan transport infratuzil-masi bilan Markaziy Osiyo, MDH va Yaqin Sharq mamlakatlarining savdo-sotiq bozorlariga chiqish yo'llariga ega. Ya'ni, mamlakatimiz chegaralaridan hamma turdagi transportlar yordamida tashqi dunyoga chiqish tarmog'i tashkil etilgan. O'zbekiston Markaziy Osiyoda eng yuqori darajadagi temir yo'llari va avtomobil yo'llariga ega bo'lib, Janubdan-Shimolga va G'arbdan-Sharqqa qarab yo'naluvchi 10 ta trans-port yo'lasi va tranzit yo'nalishlaridan foydalanadi. Ular mamla-katning barcha hududlarining kompleks rivojlanishida, foydali qa-zilmalar va tabiiy zaxiralarni

o'rganishda katta ahamiyatga egadir. Qamchiq dovonida tonnel, yangi avtomobil yo'llari qurilishi va ta'mirlanishi hisobiga barcha mintaqalar birlashtirilgan, bu esa, respublika viloyatlari va tumanlari iqtisodiyotini kompleks ri-vojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochib beradi.

**Investitsiya jarayonini qo'llab-quvvatlashda bozor infratu-zilmasi institutlarining zamonavii tarmog'i shakllanmoqda.**

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq, tovar xom ashyo birja-lari, Respublika fond birjasi va ko'chmas mulk birjasi, Respublika tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, Biznes-fond, Respublika "Madad" sug'urta agentligi, "O'zprivat-bank", tadbirkor-larga xizmat ko'rsatuvchi "Tadbirkorbank", er egalari uchun xizmat ko'rsatuvchi "Paxtabank" va "Zamin" banklari tashkil etildi. Ular bilan bir qatorda, investitsiya bo'yicha Agentlik, "Konsauditin-form" Milliy agentligi, "O'zulgurjibirjasavdo" va boshqalar fao-liyat yurita boshladi. Ushbu institutlarning barchasi mintaqalarda o'zining hududiy bo'linmalariga ega. So'nggi besh yil davomida ular-ning mintaqaviy bo'linmalari bilan modem, Internet tarmog'i aloqalari o'rnatildi. Hamma birjalarda belgilangan aniq vaqt tartibiga rioya qilingan holda, elektron savdolar o'tkaziladi.

**Xorijiy davlatlarning etakchi banklari bilan tijorat aloqalariga ega, tijorat banklarining keng tarmog'i-O'zbekis-tonning iqtisodiy hamkorlaridir.**

Bank tizimida islohotlarni chuqurlashtirish ishlari nafaqat banklar sonini ko'paytirish, balki ularda xususiy banklar ulushini o'stirish, lekin, eng asosiysi, tijorat banklari mustahkamligi va likvidligi oshishiga qaratildi. Banklar sohasida islohotlar dastu-rini amalga oshirish doirasida respublika banklarini xususiylash-tirish ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, xususiylashtirish dasturida O'zbekistonning yirik banklari bo'lgan "Asaka bank" va TIF Milliy banklari aktsiyalarining davlat ulushini sotish ko'zda tutilmoqda. Bank tizimini rivojlantirish iqtisodiyotning mustahkam faoliyat yuritishiga, mamlakatda samarali investitsiya va ish-bilarmonlik muhiti shakllanishiga shart-sharoitlar yaratib beril-di.

Hamma tijorat banklari zamonaviy texnikalarga, ya'ni, bir-biri bilan birlashtirilgan yagona aloqa tizimiga ega kompyuterlar tizimi mamlakatimiz yirik tijorat banklari bilan hamkor chet el davlatlari etakchi banklari o'rtasida muxbirlik aloqalari o'rnatil-gan.

**Global jahon tarmog'i va internetga chiqish orqali telekom-munikatsiyalarning ishonchli tarmog'i ustuvor yo'nalish hisob-lanadi.**

Mamlakatimiz istiqlol yillari davomida telekommunikatsiya va axborot texnologiyalari sektorining rivojlanishiga erishdi, ya'ni axborot va

kommunikatsiya texnologiyalari sohasida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Mamlakatning istalgan nuqtasida operativ va ishonchli telefon aloqasini ta'minlovchi kommunikatsiyaning ko'p tarmoqli tizimi tashkil etildi. Hozirgi kunda respublika shahar-larini raqamli telefon tarmoqlari bilan ta'minlash darajasi 86 foizdan oshdi.

Axborot xizmati darajasining yanada o'sishi xalqaro Internet tarmog'iga keng miqyosda ulanishga tayanadi. 2003 yil davomida Internetdan foydalanuvchilar soni qariyb ikki barobarga oshdi va ushbu axborot xizmati turidan yarim million kishi foydalanmoqda. Internet-klub va kafelar soni ikki barobarga ko'paydi.

Internet va multimedianing samarali faoliyat yuritishiga, axborot texnologiyalarini tezkor rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Respublika telekommunikatsiya sektoridagi islohotlar o'tkazilishida asosiy yo'nalish bo'lib, ushbu tarmoq ob'ektlarini xu-susiylashtirish, telekommunikatsiya xizmatlari hisobi va turlarini kengaytirish nazarda tutiladi.

O'zbekiston hududi uchun releflarning turli-tumanligi bilan, ya'ni tekislikdan to yassi tog' va tog' oldi hududlarigacha o'ziga xos-dir. U respublikaning turli mintaqalaridagi cho'l hududlaridan to subtropik hududlarigacha turli-tuman iqlim sharoitini keltirib chiqaradi. Iqlim boyligiga ega O'zbekistonda vatani turli mamla-katlar va hatto, qit'alardagi mahsulotlarni etishtirish mamlakat-ning qishloq xo'jalik va turizm salohiyatini anchagina oshiradi.

Butun dunyoga mashhur qadim Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlarning tarixiy – arxitektura yodgorliklari dunyo ahlida katta qiziqish uyg'otishi tabiiy hol, albatta. O'zbekistonda zamonaviy sayyohlik infratuzilmalari tashkil etilgan bo'lib, uning kelgusida rivojlanishiga, katta salohiyatga ega bo'lishiga shakl – shubha yo'q. Mamlakatimiz o'zining xushmanzara tog' tizimlari, cho'llar, dashtlar, boy o'simlik dunyosi va hayvonot olamiga ega. Unumdor vohalari esa, turli-tuman landshaftlarni qamrab olgan, bu esa, hamma turdagi ekologik sayyohlik va dam olish turlarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratadi. Mutaxassislarning baholashlariga ko'ra, O'zbekiston sayyohlik infratuzilmasi bo'yicha yiliga 1,5 mln. kishidan ko'proq mehmonlarni jalb qilishga qodir.

### **Xullas, O'zbekistonda faoliyat uchun keng imkoniyatlar mavjud.**

Sanab o'tilgan barcha resurslar chet el investorlariga faoliyat yo'nalishlari sohasini tanlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Musta-qillik yillari davomida investitsiyalar hajmi 14 mlrd. AQSh dollaridan oshgan



bo'lsa ham, O'zbekiston bozori jalb qiluvchanligi bi-lan erishilgan darajadan bir necha barobarga ko'pdir. Xalqaro eks-pertlar baholariga ko'ra, u yiliga 2 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi. Bashoratlar bo'yicha O'zbekiston yuqori iqtisodiy faollik bosqichiga kirmoqda va yaqin yillar ichida o'zining turli-tuman yuqo-ri qo'shimcha qiymatli mahsulotlari bilan ishlab chiqarish sektorida investitsion faollikning katta o'zgarishlari amalga oshirilishi kutilmokda.

Hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan izchil iqtisodiy siyo-sat tufayli, chet el investitsiyalariga ega korxonalarining faoliyat sohasi tuzilmalari o'zgarib bormoqda. Agar 1998 yilda chet el inves-titsiyasiga ega 56,4 foiz korxonalar asosan, savdo-vositachilikka ixti-soslashgan bo'lib, faqat 21 foiz korxonalariga ishlab chiqarish fao-liyati bilan shug'ullangan bo'lsa, 2002 yilda mahsulot ishlab chiqa-ruvchi korxonalar soni 1,5 martaga, 2003 yilda 1,4 martaga ko'paydi.

Hozirgi kunda esa, 80 foiz qo'shma korxonalar ishlab chiqarish faoliyati bilan band. Shu bilan birga, chet ellik hamkorlar, ya'ni: Bersel (Turkiya), Marubeni (Yaponiya), BRI (AQSh), Goldteks, Vima-teks (Shveytsariya), Djaminolla (Italiya to'qimachilik va ipakchilik sanoati), Knauf (Germaniya), Semar Interneyshnl (Italiya qurilish mollari), "BiEsAy Industriz Ink", "ABB Lummus Global", Beyker Xyuz (AQSh), Lukoyl, Gazprom (Rossiya), Sofregaz (Frantsiya qidi-rish va uglevodorod qazib olish), Nyumond Mayning (AQSh), Oksus (Buyuk Britaniya), Multiplek (Avstraliya), Beytman (Isroil oltin rudasi qazilmalarini ishlab chiqarish), Lyuftganza (Germaniya havo kemalarini ta'mirlash bo'yicha xizmat ko'rsatish), Nestle (Shveytsa-riya), Nutritek, Vimbeldann, Manzini (Italiya oziq-ovqat sanoati), "Keys Nyu Xolland" (AQSh mashinasozligi)lar bilan birgalikda faoliyat yuritilyapti.

Istiqbolli iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalarni diversi-fikatsiyalashni barqarorlashtirish maqsadida hukumatimiz tomoni-dan qabul qilingan investitsiyalar dasturi doirasida


2003 yilda 2 mlrd. AQSh dollari hisobidagi loyihalar amalga oshirildi. Shu bilan birga, o'tgan yilga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jalb qilish umumiy hajmi 2 martaga ko'paydi. 2004 yilda esa, 2,2 mlrd. AQSh dollari hisobidagi loyihalarni amalga oshirish bashorat qilinmoqda, shundan 80 foiz loyihalashtirish ishlarini to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish shartlarida jalb qilina-digan investitsion mablag'larga to'g'ri keladi.



## Ko'p ukladli iqtisodiyot shakllantirilishida chet el investitsiyalarining roli

Ko'p ukladli iqtisodiyot tadrijiy rivojlanishning tarixiy si-novlaridan o'tgan bo'lib, mulkchilik shaklining turli-tumanligi, ular tuzilmalarini turli shakllarda tashkil etish, har bir insonga o'zining intellektual va mehnat salohiyatini ochishga imkon beradi. Shuning uchun, ko'p ukladli iqtisodiyotni tashkil etilishi bilan iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishning "ochqich" yo'nalishlaridan biri hamda O'zbekiston Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan mam-lakatimizning bozor munosabatlariga o'tishning milliy modelining tarkibiy qismi yaratilishiga asos bo'ldi. Iqtisodiy islohotlar xil-ma-xil xo'jalik faoliyatining barcha ko'rinishlariga aynan mos kela-digan ko'pukladli iqtisodiyotni shakllantirishi kerak. Xo'jalik yuritishning har bir shakli uchun amaliy tajriba asosida samarali u yoki bu tashkiliy-huquqiy shakllar yaratildi. Ularning barchasi ja-hon xo'jalik ishlari yuritilishining ko'p asrlik tajribasidan ke-lib chiqib, hayotga tatbiq qilinishining turli iqtisodiy va huquqiy vaziyatlardagi isbotini va O'zbekiston Respublikasi fuqarolik ko-deksida o'z aksini topdi.

O'zbekiston Respublikasida ko'pukladli iqtisodiyotni tashkil etish davlat mulkini xususiylashtirish ishlarining izchil olib borilishiga yordam



berdi, natijada so'nggi 10 yil davomida 130 ming davlat korxonalari mulkchilik shakllarini o'zgartirdi. Mulchilik shakllarini o'zgartirish uchun asos, ya'ni davlat monopoliyasidan qutilishda "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'-risida"gi nodavlat korxonalarining faoliyat masalalari "Kichik biznes va xususiylashtirishni rivojlantirishni rag'batlan-tirish to'g'-risida"gi qonun orqali belgilab olindi.

Mulkchilik turlarini keng miqyosda qayta shakllantirish uchun ko'zga ko'rinarli hajmda tashqi investitsiyalar kerak edi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini ochish,

ya'ni investorlarga keng faoliyat maydonini taklif etish va ularning vositalarini mamlakatimiz rivojlanishiga jalb qilish uchun barcha shart-sharoitlar yaratish lozim edi. Chet ellik investorlar nodavlat korxonalar bilan ish olib borishni afzal ko'r-ganliklari bois, hukumat qaroriga muvofiq, 2003-2004 yillarda xususiylashtirish, dasturiga kiritilgan, foiz korxonalar 3,5 mingdan ortiq ob'ektlar xususiylashtirishga aylantiriladi. Umumiy xususiylashtirish natijasida, ushbu ishlab chiqarish sektorining iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati beqiyos darajada ortadi. Shu bilan birga, xususiylashtirilgan ob'ektlarda ishlab chiqarishni investitsiyaviy rivojlantirish salohiyati ham ortadi.

Tovar ishlab chiqarishni ko'paytirish, yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish, yangi texnologik ishlab chiqarishni tatbiq qilish bir vaqtning o'zida ijtimoiy xarakterdagi masalalarni ham echishni ta'minlaydi. Unga aholi bandligini oshirish, kommunikatsiya, infra-tuzilmalarni rivojlantirish, tovarlar va xizmatlar sifatini yaxshilash va boshqalar kiradi.

2003 yilda iqtisodiyotning muhim strategik tarmoqlarida yirik loyihalar amalga oshirildi "Sho'rtangaz" kondensati konida gazni siqib chiqaruvchi kompressor stantsiyasi qurildi, Farg'ona "Azot" ishlab chiqarish birlashmasi, "Shimoliy O'rta-buloq" konlarida yangi zamonaviy qurilmalar ishga tushirildi. "Muruntov"da tog' qazilma ishlarini jadallashtirish loyihalari tugatildi, Samarqand shahridagi "Prezident-Otel" mehmonxonasining qurilishi, Toshkent shahridagi 4 ta mehmonxonani ta'mirlash va foydalanishga topshirish ishlari yakunlandi, "O'zDEUavto" korxonasi yangi modeldagi avtomobillar ishlab chiqarish boshlandi.

Qo'qon shahridagi superfosfat zavodini ta'mirlash, "YademTeks-til", "Surxontekstil" QKlarini tashkil etish, ipak va aralash kalavalar bilan birga ipakdan iborat tayyor trikotaj buyumlar ishlab chiqarish bo'yicha "Ishonch" AJ, "Velay-silk" O'klarini qayta texnik jihozlash ishlari tugatildi, ip-gazlama kalavalar va gazlamalar ishlab chiqarish bo'yicha "Besteks" QK, "Baliqchi" QK, "Aim Tekstil" QKlari kabi yangi korxonalar ishga tushirildi.

2002-2003 yillar davomida qayta ixtisoslashtirish Dasturi ishtirokchilari tomonidan yangi 78 turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi va buning hisobiga yiliga 170 mln. AQSh dollari hisobida iqtisodiy samaraga erishilmoqda 2004-2005 yillar davomida esa, ushbu Dastur doirasida 158 ta loyihani amalga oshirish ko'zda tutilmoqda va buning natijasida 145 turdagi mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi va bundan keladigan samarani 2006 yilga borib, 488,3 mln. AQSh dollariga etkazish ko'zda tutilmoqda.


## **Chet el investorlariga qulaylik yaratish**

Chet el investorlari va investitsiyalariga teng huquqli kafolat, ularni doimiy ravishda muntazam himoyalash va xavfsizligini ta'minlash xizmatlari ko'rsatiladi. Chet el investitsiyalari uchun yara-tilgan huquqiy tartiblar O'zbekiston Respublikasining huquqiy va jismoniy shaxslariga yaratilayotgan shart-sharoitlardan kam bo'lmas-ligi ko'zda tutilgan. Shuni inobatga olish lozimki, eng asosiy jihatlardan biri bo'lgan va huquqiy ma'noda mamlakat qonunchiligi-dagi o'zgarishlardan investorlarni himoya qiluvchi kafolatlar o'ziga xos bo'lishi kerak.

Ular shundan iboratki, agar ularni bajarish davomida chet el investorlari yoki investitsiyalariga ziyon etish xavfi tug'lsa, qonunchilik hujjatlari ular manfaatlarini himoya qiladi. Mabodo, O'zbekiston Respublikasining keyingi qonunchilik tartiblari tufayli, bu jihat investitsiyalash sharoitlarini yomonlashtirgan taqdirda chet el investitsiyalariga o'n yil davomida investitsiyalash davrida harakatda bo'lgan qonunchilik tartiblari qo'llaniladi. Qabul qilingan tartibga ko'ra, chet ellik investorlar yangi qonunchilikdagi o'z manfaatlariga xizmat qiluvchi, investitsiyalash sharoitlarini yaxshilovchi qoidalarni qo'llashga haqlidir.

Chet el investorlariga qulaylik yaratish qonunchilik tomonidan va me'yoriy-huquqiy tartibda mustahkamlangan O'zbekistonda investitsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlash uchun rivojlangan institutsional infratuzilmalar tashkil etilgan bo'lib, bular - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi islohotlashtirish va investitsiyalar bo'yicha tashkilotlararo Kengash, Vazirlar Mahkamasidagi investitsion dasturlar Departamentidan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat hokimiyatlari va Toshkent shahrida chet el investitsiyalari kiritilgan korxonalarini tashkil etish va faoliyatini koordinatsiyalash bo'yicha doimiy harakatdagi ishchi guruhlari tashkil etilgan. Yiliga qabul qilinadigan Davlat investitsion dasturlari-da respublikada amalga oshirilayotgan investitsion siyosat talablari har taraflama hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 205-sonli "To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini huquqiy himoya-lashni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori buning yorqin namunasi.



### Tayanch so'z va iboralar

1. Kapitalning xalqaro harakati – kapitalning yuqoriroq foyda olish maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chishidir.

2. Ssuda kapitali - qaytarib berish va fondlarni to'lash sharti bo'yicha beriladigan kapital.

3. Tadbirkorlik kapitali – xorijda korxonalar yaratish maqsadida beriladigan kapital.

4. Bevosita investitsiyalar – investorga xorijiy korxonalar ustidan nazoratni ta'minlash huquqini beruvchi investitsiyalar.

5. Portfelli investitsiyalar – investor xorijiy korxonani bevosita boshqarishda qatnasha olmaydigan va faqat aktsiyalardan divi-dendlar olib turishga yo'naltirilgan investitsiyalar.

6. Firma yoki tijorat krediti – bir firma tomonidan boshqasiga to'lov muddatini cho'zish sharti bilan tovarlarni sotish ko'rinishida beriladigan kredit.

7. Bank krediti – kredit bitimlarining yo'nalishi, muddati bilan chegaralanmagan kredit turi.

8. Forfeytning – import qiluvchi tomonidan to'lashga rozilik bildirilgan veksellarni eksport qiluvchidan sotib olish shaklidagi kreditlash.

9. Faktoring – vositachi kompaniya tomonidan qarzdorning to'lov majburiyatlarini to'lovga qabul qilib, uni tezda yoki o'rnatilgan muddatlarda mol egasiga to'lash.

10. Moliyaviy kredit – kreditlash maqsadlari aniqlanmasdan, pulvalyuta ko'rinishida mablag'larni berish.

11. Bog'liq kreditlar – ma'lum maqsadlar uchun beriladigan kredit.

12. Xalqaro ssuda kapitali bozori – bo'sh turgan pul kapital-larning to'planishi va mamlakatlar o'rtasida qayta taqsimlanishi bo'yicha munosabatlar majmuasi.

13. Pul bozori – xalqaro savdoga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq qisqa muddatli operatsiyalar bozori.

14. Kapitallar bozori - uzoq muddatli operatsiyalar bozori.

### **Nazorat savollari**

1. Kapital harakatining mohiyati nimadan iborat?
2. Ssuda kapitali va tadbirkorlik kapitali o'rtasidagi farqni ayting.
3. To'g'ri va portfel investitsiyalar deganda nimani tushuni-ladi?
4. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda kapital harakati ahami-yatining o'sishini nima bildiradi?
5. Zamonaviy sharoitlarda kapital harakati yo'nalishlarining o'zgarishi qanday?
6. Firma krediti nima va u qaysi hollarda ishlatiladi?
7. Bank kreditining xususiyatlari va o'ziga xos shakllari nima-dan iborat?
8. Moliyaviy kredit bog'liq kreditdan qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi.
9. Xalqaro kredit milliy iqtisodiyot va jahon xo'jaligi rivoj-lanishida qanday rol o'ynaydi?
10. Xalqaro ssuda kapitali bozori deganda nima tushuniladi? U o'z ichiga qaysi bozorlarni oladi?
11. Kredit qiymatining qanday tarkibiy qismlari mavjud?
12. Kreditning to'la va o'rta muddatlari o'z ichiga nimalarni oladi?
13. Chet el investitsiyalarining milliy iqtisodiyotdagi roli qanday?
14. O'zbekistonda chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qan-day sharoitlar yaratilgan?

## VII bob. ISHCHI KUChLARINING XALQARO MIGRATSIYASI

1. Ishchi kuchlari migratsiyasining mohiyati, sabablari va shakl-lari
2. Iqtisodiy nazariyalar va mehnat migratsiyasining samarador-ligi
3. Ishchi kuchlari migratsiyasining zamonaviy xalqaro markazlari
4. Migratsiya oqimini davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tartibga solinishi
5. O'zbekiston xalqaro migratsiya jarayoni tizimida



## **1. Ishchi kuchlari migratsiyasining mohiyati, sabablari va shakllari**

Ishchi kuchlarining xalqaro migratsiyasi mehnatga layoqatli aholining ish qidirib bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga ko'chib yurishidir. Siyosiy-iqtisodiy nuqtai nazardan qaraganda mehnatning harakati iqtisodiy sektorda kapital oqimini ham keltirib chiqa-radi. Mehnat imgratsiyasi oqimi mamlakatlardagi turmush daraja-sidan kelib chiqadi.

YaIMning aholi jon boshiga to'g'ri kelish nisbati AQSh bilan Meksikada 6:1, Germaniya bilan Polshada 11:1. Bu nisbatdan ko'ri-nib turibdiki, Amerikada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM Meksikaga qaraganda 6 baravar ko'p, Germaniyada Polshaga qaraganda 11 marta ko'p. Ishchi kuchlarini qabul qilib olayotgan ko'pgina mamlakatlarda aholi jon boshiga YaIM ishlab chiqarish ko'rsatkichi 7 ming AQSh dollariga to'g'ri keladi. Lekin, iqtisodiy kategoriya bi-lan birga ishchi kuchi migratsiyasi milliy, ijtimoiy, siyosiy urf-odat bilan ham bog'liq. Emigrantlarning ko'chishi o'z mamlakatidagi turmush darajasi bilan ko'chib bormoqchi bo'lgan mamlakatdagi aholi turmush darajasini taqqoslab ko'rilganda sodir bo'ladi.

Hozirgi zamon xalqaro migratsiyasi asosan har bir mamlakatning rivojlanish darajasi hamda jahon xo'jaligining shu mamlakat iq-tisodiga mos kelishiga bog'liq. Hozirgi paytda ishchi kuchlarini eksport qilish aksariyat mamlakatlarning tashqi iqtisodiy faoliya-tidagi keltiruvchi sohalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchi va moliyaviy kapital hajmi-ning mamlakatlar bo'ylab ko'rishi tez o'sib borayotgan sharoitda ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lgan mehnat resurslarining global bozorini shakllantirish jarayoni ancha sekin kechmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, aynan aholi migratsiyasi tufayli jahon globa-lizatsiyasi vujudga keldi.

Globalizatsiya davrining kirib kelishi bozor rivojlanishining ijtimoiy yo'nalishi rivojlangan mamlakatlarda odatiy hol bo'lib qoldi. Mamlakat hukumatlari ijtimoiy ko'rsatkichlar – ishsizlik darajasi, ish haqi dinamikasi, sog'liqni saqlash va ta'lim holati, millatlararo o'zaro munosabatlar va boshqalarni o'z siyosati va umuman jamiyatning rivojlanishini baholashda ustuvor sifat deb qaramoqdalar. Tabiiyki, har qanday mamlakatlar mehnat bozoriga bunday yondashuvda chet elliklarning kirishi uchun ochiqlik va qulay-lik oldingi asrning 70-80 yillaridagi kabi bo'lmay qoldi.

Ishchi kuchining migratsion oqimi rivojlanayotgan jahon aholi-si hisobiga shakllandi va shakllanmoqda. Buning asosiy sababi–mehnatga haq to’lash darajasidagi farqdir. Bu farq donor-mamlakat-lar va qabul qiluvchi mamlakatlarda bir necha o’n martagacha etadi. Uchinchi dunyo mamlakatlaridan immigrantrlarning ommaviy oqimi, bir tomondan, rivojlangan mamlakatlar milliy iqtisodiyotining past mavqeli sohalarida arzon ishchi kuchining etishmasligi muammo-sini hal etishga imkon berdi, boshqa tomondan ko’plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirdi.

19-jadval

### **Rivojlangan mamlakatlarga aholi va ishchi kuchi xalqaro immigratsiyaning ko’rsatkichlari**

	Xorijiy fuqarolar				Xorijiy ishga kuchlari ishchi kuchining umumiy soniga nisbatan %	
	ming kishi		umumiy aholi soniga nisbatan %			
	1990 y.	2000 y.	1990 y.	2000 y.	1990 y.	2000 y.
Avstriya	456	758	5,9	9,3	7,4	10,5
Belgiya	905	862	9,1	8,4	7,1	8,9
Daniya	161	259	3,1	4,8	2,4	3,4
Finlyandiya	26	91	0,5	1,8		1,5
Frantsiya	3597	3263	6,3	5,6	6,2	6,0
Germaniya	5343	7297	8,4	8,9		8,8
Irlandiya	80	127	2,3	3,3	2,6	3,7
Italiya	781	1137	1,4	2,4	1,3	3,6
Yaponiya	1075	1686	0,9	1,3	0,1	0,2
Lyuksemburg	113	165	29,4	37,3	45,2	57,3
Gollandiya	692	668	4,6	4,2	3,1	3,4
Norvegiya	143	184	3,4	4,1	2,3	4,9
Portugaliya	108	208	1,1	2,1	1,0	2,0
Ispaniya	279	896	0,7	2,2	0,6	1,2
Shvetsiya	484	477	5,6	5,4	5,4	5,0
Shveysariya	1100	1384	16,3	19,3	18,9	18,3
Buyuk Britaniya	1723	2342	3,2	4,0	3,3	4,4

Xalqaro Migratsiya Tashkilotining ma’lumotlariga ko’ra, jahon-da 120 mln. kishi o’zga mamlakatlarda yashab ishlamoqdalar va o’z

mamlakatiga har yili o'rtacha 2 mingdan 80 ming AQSh dollargacha xorijiy valyuta olib kirishi aniqlangan. Agar ishchi kuchlari eks-portidan keladigan daromad haqiqiy hisob-kitob qilinsa, rasmiy deklaratsiyada ko'rsatilganidan ikki baravar ko'proqdir. Undan tash-qari migrantlar vatanlariga qaytayotganlarida o'zlari bilan turli qimmatbaho buyumlarni, pul jamg'armalarini, zamonaviy texnolo-giyalar va asbob-uskunalarni ham olib kelishlari mumkin.

Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda xorijdan shaxsiy pul o'tkazmalar hajmi mamlakat tovar eksporti hajmidan 30-40% ga ko'p-roq. 90-yillar boshlarida bunday mamlakatlarga Bangladesh, Burki-na-Faso, Misr, Marokash, Pokiston, Svizilend, Sudan, Yamanni ki-ritish mumkin edi.

Jahon bankining 2004 yil uchun "Global rivojlanishni moliya-lashtirish" yillik hisoboti ma'lumotlariga muvofiq, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga xususiy kapitalni oqib kelishi 2002 yildagi 155 mlrd. dollardan 2003 yilda 200 mlrd. dollargacha o'sdi. Biroq bu o'sish asosan bir qator muvaffaqiyatga erishayotgan mamlakatlar hisobiga bo'ldi, bu vaqtda qashshoq mamlakatlarga rasmiy ravishda berilgan yordamning o'sishi sezilarsiz bo'ldi.

Xususiy kapital oqimlari juda notekis taqsimlangan, qashshoq mamlakatlarga yordam hajmi o'z miqdori bo'yicha juda sezilarsiz bo'lgan sharoitda, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xalqaro mehnat migratsiyasi hisobiga chetga chiqqanlarning pul o'tkazmalari kabi moliyaviy tushum manbalari katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

1998 yildan boshlab bu o'tkazmalar muntazam o'smoqda va 2003 yilda 93 mlrd. dollarga etdi. Bu 2001 yildagiga qaraganda 20 foizga ko'proqdir. Ular o'z ahamiyati jihatdan rivojlanayotgan mamlakat uchun bevosita xorijiy investitsiyalardan keyingi o'rinda turuvchi moliyaviy oqim hisob-lanadi. Amalda ularning qiymati rasmiy ravishda berilayotgan yordam ko'rinishdagi miqdordan 2 marta ko'proqdir. 1992-2001 yillarda yirik pul o'tkazmalarini oluvchi mamlakatlardan 7 tasi IHTT mamlakat-lari bo'ldi.

### Pul o'tkazmalari jo'natuvchi va qabul qiluvchi mamlakatlar

Jo'natuvchi mamlakatlar	mlrd. dollar	Qabul qiluvchi mamlakatlar	mlrd. dollar
AQSh	20,7	Hindiston	7,7
Saudiya Arabiston	15,4	Frantsiya	6,9
Germaniya	8,8	Meksika	5,7
Shveysariya	8,1	Filippin	5,0
Frantsiya	4,9	Germaniya	4,1
Italiya	2,2	Portugaliya	3,8
Isroil	2,1	Misr	3,8
Belgiya / Lyuksemburg	1,8	Turkiya	3,7
Quvayt	1,4	Ispaniya	3,0
Iordaniya	1,4	Gretsiya	2,7

Chetda ishlovchi migrantlarning pul o'tkazmalari Mag'rib, Bangladesh, Kolumbiya, Ekvador, Meksika, Pokiston, Hindistonning alo-hida hududlarida jamiyat rivojlanishida muhim rolo'ynaydi. Ko'p-lab eksport qiluvchi mamlakatlar uchun o'tkazmalar eksport, import va hattoki milliy daromadning sezilarli qismini tashkil etadi. Hindiston va Meksika chet elda ishlovchi migrantlar o'tkazmalarini eng yirik oluvchilari bo'lib, har biri 10 mlrd. dollardan ko'proq oladi. Keyingi o'rinlarni – Filippin – 6,4 mlrd. dollar, Marokash, Misr va Turkiya har biri 3 mlrd. doll., Livan, Bangladesh, Iordaniya, Dominika Respublikasi, Salvador va Kolumbiya 2 mlrd. dollarga yaqin – egallaydi.

Rasmiy o'tkazmalardan tashqari norasmiy o'tkazmalar ham mav-jud. Ba'zi bir baholashlarga ko'ra, norasmiy o'tkazmalar 16 mlrd. AQSh dollarini tashkil etish mumkin. BMT ma'lumotlariga muvo-fiq, chet elda ishlovchi migrantlar o'tkazmalari jahon hajmining 40% dan ko'prog'i norasmiy ravishda amalga oshirilmoqda.

Mehnat resurslari eksportidan milliardlab dollar ishlayotgan mamlakatlar asosan ishchi kuchlari eksportiga ixtisoslashishni qo'l-lab-quvvatlashga harakat qilmoqdalar. Sababi, bu mamlakatlar ishchi kuchlarini eksport qilish uchun valyuta tushumining yaxshigina man-bai bo'lib xizmat qilishidan tashqari, davlat sarf-xarajatlarisiz ijtimoiy barqarorlikni saqlab turish, milliy valyutalarini mus-tahkamlashning ta'sirchan usuli ham bo'lib hisoblanadi. Masalan, Turkiya bilan Sobiq Yugoslaviyani olsak, ularning to'lov balansida valyuta tushumlari xorijda ishlayotganlar tarafidan mamlakatlari-dagi o'tkazib turiladigan mablag'lari hisobiga to'ldirib borilar edi. Shu sababli ular milliy valyutalarini konvertirlashtirishga erishdilar.

Ma'lumki, aholi va ishchi kuchlari migratsiyasi qadimdan mavjud. Lekin, XV-XVII asrlarda buyuk geografik kashfiyotlar yangi qit'a-larni, dengiz yo'llarini ochilishi ular salmog'ini yanada oshirdi. Ayniqsa, XVIII asrda oxirlarida Amerika mintaqasini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan aholi ko'chishining yangi oqimini vujudga keli-shi. Amerika bu oqiminining bir necha «portlash» yoki «bum» bosqich-lari, XIX asrning 40–yillarida Irlandiyada «kartoshka ocharchi-ligi» natijasida vujudga kelgan migratsiya oqimi, XIX asrning 80–yillari boshlarida Italiya va Sharqiy Evropa mamlakatlarida Evropa bug'doyiga narxning tushib ketganligi sababli, yuzaga kelgan migratsiya oqimlarini eslatib o'tish joiz. Ishchi kuchlari xalqaro migratsiyasi oqimini salmoqli bo'lishiga urush harakatlari bilan bog'liq qiyinchiliklar ham sabab bo'ldi. Jumladan, XX asrning 20–yillaridagi kuchli migratsiya oqimi birinchi jahon turushidan keyingi yillardagi qo'shimcha qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, Ikkinchi jahon urushidan so'ng AQShda ishchi kuchlari mig-ratsiyasining uchta yangi oqimi yuz bergan:

- «intellekt oqimi» yuqori malakali mutaxassislarning o'z oilalari bilan ko'chishi.

- 1956 yildan keyin Vengriyani tark etgan, Vetnam urushidan keyin o'z vatanlarini tark etgan, 1980 yildan keyin Kubani tark etgan qochoqlar oqimi.

- Meksika, Karib havzasi va Osiyo mamlakatlari (o'tgan asrning 90 yillarida immigrantlarning 84% shu mamlakatlar hisobiga bo'l-gan)dan ishchi kuchlarining zo'r oqimi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Evropa mamlakatlarida iqtisodiyotni tiklash va rivojlantirishda mehnat migratsiyasidan sama-rali foydalanildi. Ishchi kuchlari oqimi asosan Turkiya, Sobiq Yugoslaviya, Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya mamlakatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy adabiyotlarda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab vujudga kelgan ishchi kuchlarining xalqaro migratsiyasi 2 ta asosiy oqim ajratib ko'rsatiladi:

- Rivojlanayotgan va (yoki) boy bo'lmagan mamlakatlardagi unchalik malakaga ega bo'lmagan ishchilarning rivojlanayotgan va (yoki) boy mamlakatlarga ko'chishi;

- «oq yoqaliklar» ning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chishi.

XX asrning oxirlaridan boshlab dunyodagi siyosiy vaziyatning o'zgarishi tufayli yangi oqim. Sobiq sotsialistik mamlakatlarning yuqori

malakali mutaxassislarini jahonning rivojlangan mamlakatlariga ommaviy ko'chib o'tishlari oqimi vujudga keldi.

Mamlakatlarning iqtisodiy ahvoli nuqtai nazaridan, mehnat migratsiyasining quyidagi oqimlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga;
- rivojlangan mamlakatlar o'rtasida;
- rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida;
- tashqi mehnat migratsiyasini huquqiy maqomi nuqtai nazaridan ikkita asosiy shaklga ega.

- tashkillashtirilgan-bunda ko'chib ketayotganlar soni belgilangan va ish joyi aniq bo'ladi.

- tashkillashtirilmagan yoki «nolegal», ommaviy ko'chish. Bunda ish joyi bo'lmaydi, qanday ish bilan shug'ullanish noma'lum.

Tashqi migratsiyasining intensivligi mamlakat iqtisodiy rivojlanishida yuksalish yoki pasayish holatlarini tug'dirishi mumkin. Bunday holat ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlarga ham, import qiluvchi mamlakatlarga ham taalluqlidir.

Jahon tovar va mehnat bozorlaridagi qiyosiy tahlil natijasida qarama qarshi oqimlar mavjudligi aniqlandi:

- ishchi kuchlarini rivojlangan mamlakatlar tomon oqishi;
- eksport qiluvchi rivojlangan mamlakatlardan ishchi kuchlarini mamlakatlar tomon tovarlar oqimi.



## 2. Iqtisodiy nazariyalar va mehnat migratsiyasining samaradorligi


Ikki mamlakat ishchi kuchlari bozoriga migratsiya ta'sirining ikki tomonlama modelini ko'rib chiqaylik. U o'z ichiga turmush dara-jasi past mamlakat (A) va turmush darajasi yuqori mamlakat (V)ni oladi. Dastlab, A nuqtasiga muvofiq ikki sxema bo'yicha (1 rasm) migratsiyaga ruxsat berilmagan holatni ko'rib chiqaylik. Bu nuqtada V mamlakat ishchilari soatiga 4,5 dollar ish haqi olsa, A mamlakat-ning bir xil malakaga ega bo'lgan ishchilari 1,25 dollar ish haqi olishadi. Agar migratsiyadagi rasmiyatchilik to'siqlari olib tashlan-sa, turmush darajasi past bo'lgan mamlakatlardan turmush darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarga ishchi kuchlari oqib o'tib, mehnat bozo-rida raqobatlashar edilar. Migratsiya intensivligi bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'chib o'tishdagi moliyaviy va ijtimoiy va ru-hiy holatlarga bog'liq.

Endi migratsiya uchun ruxsat berilgan vaziyatni ko'rib chiqaylik. Agar ko'chib yurishlar ko'p chiqim-xarajatlar talab qilmaganda va uning og'irlik tomonlari bo'lmaganda migratsiyaning ko'lami kengayib ketar edi. Bu jarayon V mamlakatdagi pasayib borayotgan ish haqi to A mamlakatdagi o'sib borayotgan ish haqiga tenglashmaguncha davom etaverar edi. Boshqacha qilib aytganda, ishchi kuchlarining ko'chib yurishi rivojlangan mamlakatlardagi ish haqi darajasi emigrant – mamlakatlardagi ish haqi darajasi bilan tenglashguncha davom etadi.

Bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'chib o'tish migrantlar-dan, bir tomondan, moddiy-iqtisodiy chiqim talab qilsa, ikkinchi tomondan, ruhiy holatni ham talab qiladi. Ular o'zlarini o'rtoqlaridan va qarindoshlaridan ajralib qolayotgandek sezishadi. Notanish mamlakat hayotiga ishonchsiz ravishda qarashadi. Balkim, ma-halliy xalqning o'ziga dushmanlik nazari bilan qarashini his etar. Ko'chib yurishning to'la-to'kis yuridik asoslari bo'lgan, ish haqlari orasidagi farqlar katta bo'lgan taqdirda ham bu masalalarning ham-masi katta ahamiyatga ega.

Shunday qilib, migrantlarning ozroq qismigina (ko'rsatilgan model bo'yicha million kishi) ish haqidan yutib (ko'chib borgan erida soatiga 2,4 dollardan ish haqi oladi) qilgan xarajatlarini qop-laydi. Ishchi kuchlari migratsiya oqimi V mamlakatning V nuqtasi-dagi soatbay ish haqining 4 dollarga tushirib qo'ydi, A nuqtasidagi ishchi kuchlarining chet elga ketgan ishchilar hisobiga kamayishi natijasida soatbay ish haqi 1,6 dollarga ko'tariladi. V nuqtasida yuzaga kelgan yangi muvozanat shuni bildiradiki, V mamlakatdagi soatbay ish haqining 4 dollariga tenglashib

qolishi A mamlakatdagi ishchilar talabiga muvofiq keladi. Soatiga 4 dollarlik ish haqi uchun ishlashga rozi bo'lgan ishchilar yangi mamlakatga ko'chib o'tadilar, vaholanki, o'z mamlakatlari – (yashab turgan joylari)da ish haqi uchun soatiga 1,5 dollar olar edilar. Ish haqlari o'rtasidagi bu farq ko'-chib o'tishdagi har xil yo'l xarajatlari va chet elda yashab, ishlash xarajatlarini qoplashga etadi. Migratsiyaning sof foydasini aniqlash (o'lchash) uchun migrantlar mehnatiga bo'lgan egri talabning eski va yangi joylardagi ish haqlari o'rtasidagi farqni o'lchash lozim bo'la-di: 1,25 dollar va 1,6 dollar soatbay ish haqi «d» va «ue» oralig'ida bo'ladi.



A mamlakatda qolgan ishchilar (mehnat egriligi-S) ning yutug'i shundaki, mamlakat mehnat bozoridagi raqobatning pasayishi nati-jasida ish haqi soatbay stavkasi 1,26 dollardan, 1,6 dollargacha ko'-tariladi. Shunday qilib, ishchilar foydasi yuza ekvivalenti «S»ni tashkil etadi. Bu holda korxonaga egasi ish haqi oshishidan zarar ko'ra-di. «A» mamlakatda tadbirkorlarning zarari (yo'qotish) (s+d) orali-g'ini tashkil etadi. «V» mamlakat tadbirkorlari ishchi kuchlari tak-lifining ortiqigidan kelib chiqib, ish haqi to'lash stavkasini ka-maytirish hisobiga yutadi. Soatbay ish haqi stavkasini 4,5 dollar-dan 4,0 dollarga tushirish (a+v) oralig'ida qo'shimcha daromad olib ke-ladi. «V» mamlakat ishchilari «a» oralig'ida yo'qotadilar, chunki ularning ish haqi pasaytirilgan bo'ladi. Bu holatni tahlil qilish ishchi kuchlarining erkin harakati «muqim» yashovchi aholi uchun ba'zi bir oqibatlarini keltirib chiqarishini ko'rsatadi. «V» mamlakatda umuman olganda, iqtisodiy o'lchov atamalarida ko'rib

o'tilganidek, tadbirlarning (barcha iste'molchilar hamda uning mahsulotlardan sotib oluvchilarning birgalikdagi) ishchilarning yutug'ini yo'qotish-dan yuqori bo'lsa, «a» oraliqdan ko'ra (a+v) oraliq past bo'lmasa yutuqqa olib keladi. Immigratsiyani cheklash haqidagi g'oyani mamla-katga keltiradigan sof iqtisodiy zarar bilan asoslab bo'lmaydi. Emigratsiya qilgan mamlakat (A) migrantlar ko'chib kelishi bilan ma'lum ma'noda zarar ko'radi. Tadbirkorlar zarari (s+d) ishchilar yutug'iga «S» qaraganda kam bo'lmasligi mumkin. Umuman olganda ish-chi kuchlarini qabul qilib oluvchi mamlakat va migrantlar bu ja-rayonlar orqasida foyda ko'rayotgandek bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin emigratsiya qilgan mamlakat zarar ko'radi. Butun dunyo miqyosida olib qaraladigan bo'lsa, ishchi kuchlarining migratsiyasi foydasi katta. Chunki migratsiya erkinligi kishilarning u mamlakatdan bu mamla-katga ko'chib yurishiga, qadami etgan mamlakat ishlab chiqarish ri-vojiga o'zining hissasini qo'shishga imkon beradi.

Shunday qilib ishchi kuchini qabul qilib oluvchi mamlakat umu-man olganda mehnat unumdorligining o'sishi hisobiga yutadi, iste'molchilar yutadi, ishlab chiqarishning o'sishi natijasida tadbirkor-lar mahsulotlariga talabni oshiradi.

Ishchi kuchlarini mamlakat tashqarisiga chiqib ketishiga yo'l qo'yib bergan mamlakat umuman olganda zarar ko'radi. Chunki chet elga chiqib ketgan ishchilarning ishlab chiqaradigan mahsulotlaridan o'z yurti tadbirkorlari va iste'molchilarning bebahra qolishi eng katta yutqizishning o'zginasi.

Jahon xo'jaligi ishchi kuchlarining ko'chib o'tishidan faqat yutadi.

O'tkazilgan ko'pgina tadqiqotlar xalqaro migrantlar ko'chib ketishidan oldin o'z yurtidagi daromadi o'rtamiyona bo'lganini ko'rsat-di. Lekin ular odatda jamiyatning kambag'al guruhlari qatlamiga mansub emas.

Tashqi migratsiya qabul qiluvchi mamlakatga uni aholisining alo-hida bir qatlamlarga turli xil ta'sir ko'rsatadi.

1. Aholining alohida bir qatlamiga migratsiya ta'siri quyida-gicha bo'ladi.

- Etarli malakaga ega mamlakatda yashovchi, lekin aholi tashqi migratsiya tufayli vujudga kelgan raqobat natijasida daromadlari-ning bir qismini yo'qotadi.

- mahalliy tadbirkorlar, er egalari va boshqa ish beruvchilar xorijliklar mehnatidan foydalanib yutadilar, ularni qabul qiluv-chi mamlakatlarda

yashash uchun turar joyga, har xil mahsulot va xiz-matlarga bo'lgan talab ortadi.

- qabul qiluvchi mamlakatlarning doimiy rezidentlari immigrantrlardan ma'lum darajada yutadilar.

- immigrantlar ham ma'lum darajada yutadilar.

2. Migratsiya ikki tomonning moliyaviy mablag'lariga katta ta'sir ko'rsatadi:

- Migrantlar o'z mamlakatlarida soliq to'lashdan ozod bo'lsalar-da, lekin ularni qabul qiluvchi mamlakatda turli soliqlarni to'laydilar (daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, mulk solig'i ijtimoiy sug'urta va boshqa to'lovlar);

- migrantlar boshqa mamlakat ijtimoiy ne'matlaridan bahramand jamoa bo'ldilar (milliy mudofaa, huquq-tartibot tizimi, at-rof muhim tozaligi, davlat ta'limi) va o'z yurtlaridan bunday xiz-matlardan bahramand bo'lmaydi;

- migrantlar transfert to'lovlaridan foydalanish huquqiga ega bo'ladilar (ishsizlik sug'urtasi, ijtimoiy sug'urta va kambag'allik nafaqalari to'lanishi).

- Emigrant tub eri o'zining mamlakatda olib turadigan pensiya va ijtimoiy sug'urta ta'minoti haqidagi hujjatlarini yangi yashash joyi (mamlakat)ga ko'chib kelishi bilanoq tegishli tashkilotga taqdim etmasa, bu huquqlardan mahrum bo'lib qolishi mumkin.

- Boy mamlakatlarga ko'chib o'tish jamiyatga foyda olib keladi.

Muhajirlarni qabul qiluvchi mamlakat yangi ishchi kuchlaridan foydalanib, ancha foyda oladilar. Xorijiy ishchilar oqimi mamlakat iqtisodiy tizimidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan ko'pincha muammolarni echish, bo'sh turgan, hammani ham o'ziga tortmaydigan ishchi o'rinlarini to'ldirish imkonini beradi. Muhajirlar ichki bozorda iste'mol tovarlari va xizmatlarga bo'lgan talablarni oshiribgina qolmay, balki ichki tovar bozorini kengayishiga ham ta'sir etadi. Mahalliy banklarda mablag'larning yig'ilishi mamlakat ichka-risida investitsiyaning qo'shimcha manbalari ko'payishi va investitsiya hajmining oshishiga olib keladi. Muhajirlar ishlab topgan mablag'larining bir qismini o'z yurtlariga o'tkazishlari eksport mamlakat aholisining mahsulot sotib olishga bo'lgan talab-qobiliyatini oshiradi hamda ishchi kuchlarini import qilgan mamlakatda iste'mol mahsulotlariga qo'shimcha talabni yuzaga keltiradi.

Shu bilan immigratsiya:

- Byudjetdan qo'shimcha xarajatlar: kambag'allik nafaqasi, jamoa maktablarining to'lib ketishi, jamiyatda tartib o'rnatib turish xarajatlarining oshib ketishi sodir bo'ladi. Lekin byudjetga og'irliklari

tushishiga qaraganda soliqlar ko'rinishidagi to'lov-larni to'lash bilan ko'proq foyda keltiradilar. XMT ma'lumot-lariga ko'ra 90-yillar o'rtasida AQSh da 11 million ishsizlar to-monidan 240 mlrd. dollar ishlab olingan, shundan 90 mlrd. dollari soliq sifatida byudjetga qaytarilgan, migrantlar ijtimoiy sug'ur-tasi uchun sarflangani 5 mlrd. tashkil qilgan.

- Immigratsiyaning hayot fasliga qarab samarasi: yoshlik paytida o'z mamlakatida bilim olib qolishi kerak. So'ng xohlagan mamla-katiga borib ishlab va o'sha mamlakat qonun-qoidalari asosida so-liqlar to'lashi mumkin. Qabul qilib oluvchi mamlakatda hamma QQS, ish haqi summasidan aktsiz solig'i, mulk solig'i, ijtimoiy sug'urta, foydaga ajratmalar to'laydi, o'sib boruvchi uy-joy ijara haqi.

- Muhojirlar harbiy xizmatni o'tashga majbur bo'lishi mumkin.

Ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakat uchun migratsiya ichki bozorda ishchi kuchiga talabni pasaytiradi, ijtimoiy tanglikni yum-shatadi. Ishchi migrantlarning o'z uylariga pul o'tkazishlari mam-lakatga qo'shimcha ravishda valyuta kelib tushishini ta'minlaydi. Xo-rijda ishlovchilar malakasini oshirishga yordam beradi.

Ishchi kuchi migratsiyasi tub mamlakatda qiyinchiliklarni kel-tirib chiqarishi ham mumkin. Bu katta xarajatlar evaziga tayyorlan-gan kadrlarning yo'qotilishi, «aql egalari»ning o'zga yurtlarga chiqib ketishi bilan bog'liq. Muhojirlar tug'ilib-o'sgan mamlakat-larida bilim oladilar va boshqa boyliklardan bahramand bo'ladi-lar. Bularning hammasi o'z yurtlari soliq to'lovchilari hisobiga bo'ladi, albatta. Lekin o'z yurtlariga foyda keltirish, soliq to'lash muddati etib kelganda boshqa bir yurtda ishlab yuradilar. Lekin kelajakda ular hisobidan olinadigan soliqlardan ko'riladigan foydaga qaraganda davlat boshqa tomondan, ya'ni chetga chiqib ketgan ishchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar, sharoitlar yaratib berish uchun sarflanadigan xarajatlarning qisqartirilganligidan ko'proq foy-da ko'radi. Davlat byudjeti tomonidan moliyalashtiriladigan ko'pgina tovarlar va xizmatlar «jamoatovari» hisoblanib, ulardan hamma bir xilda foydalanadi.

Migratsiya, shuningdek, mehnat bozori chetda-tashqarida chiqim-larga ham, yaxshi foyda qilishga ham olib kelishi mumkin. Bu quyida-gilarda ko'zga tashlanishi mumkin:

- Olingan bilimlarning xalqaro ko'chib yurishi.
- Aholining ko'payib ketishi natijasida nizolarning, jinoyat-chilikning va boshqa shunga o'xshash salbiy oqibatlarining kelib chi-qishi.
- Yashash sharoiti bilan bog'liq milliy va etnik ijtimoiy nizo-larning kelib chiqishi, bu masalani hal etish migratsiya parametr-larini miqdor va

sifat jihatidan aniqlab, qaysi migratsiyani qancha miqdorda kiritish, tarkib topgan ruhiy holatni o'zgartirish maqsadida «tarbiyaviy ishlar»ni olib borish bilan bog'liq bo'ladi.



### 3. Ishchi kuchlari migratsiyasining xalqaro markazlari AQSh, Kanada, Avstraliya

AQSh dunyodagi eng rivojlangan mamlakat sifatida dunyoning turli burchaklaridan yuqori malakali, malakaga ega bo'lmagan ishchi kuchlarini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Har yili AQShga keluvchi muhojirlar soni dunyoning boshqa mamlakatlariga keluvchi migrant-larning umumiy sonidan ko'plik qiladi. 90-yillarning o'rtalarida AQSh va Kanadaga keluvchi muhojirlar soni yiliga 900 ming kishi-ni tashkil etdi. Shundan, AQShga har yili qonuniy ravishda 740 ming muhojir keladi, Xorijiy ishchilarning ko'pchiligi soni qish-loq xo'jaligi ishlariga jalb qilinadi. AQShda har doir yuqori ma-lakaga ega bo'lgan mutaxassislariga, ishchilarga, menejer, tibbiyot xodimlariga, boshlang'ich fan sohasi olimlariga talab katta bo'lgan.

Avstraliyaning immigratsion siyosati immigrantlarning asimilyatsiyasi asoslangan. 50-60-yillarda Osiyo va Markaziy Evropa, birinchi navbatda Italiya, Gretsiya, Yugoslaviyadan muhojirlar jalb qilingan. 70-yillarda asosan, Osiyo va Janubiy Osiyo mamlakat-lariga yo'naltirildi. 80-yillar boshlariga kelib esa migratsiya siyo-sati Avstraliya iqtisodiyotiga investitsiya qiluvchi biznesmenlarni rag'batlantirish orqali jalb qilishga qaratilgan edi.

**G'arbiy Evropa** Evropadagi rivojlangan mamlakatlarga mehnat migratsiyasi oqimi arab mamlakatlaridan, Shimoliy Afrika va yaqin Sharq, sharqiy Evropa mamlakatlari va MDH mamlakatlariga yo'nal-tirilgan. Faqatgina Evropa Ittifoqining o'zida immigrant va ular oila a'zolarining soni 13 mln. kishini tashkil qiladi. Belgiya va Niderlandiyada chet ellardan kelgan ishchilarning eng ko'p qismi tabiiy boyliklarni qazib olish va ularni qayta ishlash tarmoq-larida ishlaydi. Daniya va Germaniyada ishlab chiqarishga, Frantsiya va Lyuksemburgda qurilish, Buyuk Britaniyada xizmat ko'rsatish sohasiga jalb qilingan. Yaqin vaqtlargacha chet eldan kelgan ishchilar asosan qo'l mehnati talab qiladigan (qurilish, xizmat sohalari) tarmoq-larida, shuningdek, inson hayoti uchun xavfli hisoblangan tarmoqlar, qora ishlar yoki mahalliy ishchilarning or qiladigan ishlarga jalb qilinadi. Ana shunday ishlarda ishlayotgan ishchilarning 70%ni asosan chet ellardan kelgan ishchilar tashkil etgan. 1993 yili ES mamlakatlarining yagona bozori tashkil etilishi bilan migratsiya siyosatida o'zgarishlar yuz berdi. Ular prognozlashtirgan iqtisodiy yuksalish yangi ishchi o'rinlarini yaratish imkonini berishga asos-langan edi. Bu holda yangi migratsiya «60–yillardagi migratsiya»ga o'x-shash bo'lmasligi, uchinchi mamlakatdan keladigan oqimni qisqarti-rish edi. Barcha yangi

ishchi o'rinlarining 40% Buyuk Britaniya, Ger-maniyada vujudga keltirilish kerak edi, yangi tashkil etilgan ishchi o'rinlarining 25 foizi sanoat sohasida va 50% savdo, transport, qurilish sohalarida tashkil etilishi kerak edi. Bu mamlakatlarda asosiy e'tibor mehnatini tejash texnologiyasiga va ayollar mehna-tiga qaratilgan edi. Yaxshi malakaga ega bo'lgan ishchilarning yomon tashkil etilgan ommaviy migratsiyasi o'z o'rnini maqsad sari yo'nal-tirilgan jamoa shartnomasi asosida yondoshiga bo'shatib berishi kerak edi; bu – yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilishning yagona yo'li edi. Xizmat ko'rsatishdagi bosh yo'nalish, ishchi va muta-xassislarni qayta taqsimlashda ham shu yo'l tutiladi.

**Yaqin Sharq.** Bu mintaqadan neft qazib oluvchi mamlakatlarda kam ish haqi to'lanadigan og'ir ishlarga arzon ishchi kuchlari jalb etiladi. Saudiya Arabistonida 7 mln. xorijiy ishchilar ishlaydi. Bular-Pokiston, Hindiston, Indoneziya, Misrdan kelishgan bo'lib, har yili ular tomonidan o'z uylariga 17 milliard AQSh dollari jo'-natilmoqda. Bu mamlakatlarda ishchilarning asosiy qismini chet ellardan kelgan ishchilar tashkil qiladi. Masalan, bu ishchilar BAAda 97%ni, Katarda 95%ni, Quvaytda 86%ni Saudiya Arabistoni va Bahraynda 40%ni tashkil etadi. Bu mamlakatda ishlovchilarning asosiy qismi Misr, Iroq, Livan, Suriya, Iordaniya, Falastin, Po-kiston, Hindiston, Bangladesh, Janubiy Koreya, Filippin kabi dav-latlardan kelishgan. Keyingi yillarda immigratsiya asosan Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu mamla-katlarning mehnat bozoriga neft bozori kon'yunkturasidagi kabi chet el ishchilarini to'xtatib turuvchi va shu yo'l orqali mamlakat aholsining o'zining faolligini oshirish hisobiga ishchi kuchlari safini to'ldirish bilan tabiiy yuksalish sur'atlarini oshirishga ta'sir etuvchi omillar hukmini o'tkazib turibdi. Bir qator arab mamlakatlari malakasi past kadrlarni eksport qilib, yuqori mala-kali ishchi va mutaxassislarni (asosan Iordaniya, Yamandan) import qiladi.

Ishchi kuchi sonining mintaqalar, alohida mamlakatlar doirasi-da o'zgarishini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

**Ishchi kuchlari oqimining mintaqalar, alohida mamlakatlar bo'yicha taqsimlanishi**

Mintaqalar mamlakatlar	1980 yil	1990 yil	O'sish sur'ati (foizda)
Butun dunyo	1.957374	2363547	120.7
Rivojlangan mamlakatlar:			
Shimoliy Amerika	121721	135367	111.2
G'arbiy Evropa	150080	159579	106.3
Avstraliya, Yangi Zelandiya	8077	9533	118.0
Yaponiya	57097	62202	108.9
Turkiya	19090	23697	121.1
Isroil	1446	1906	124.2
Janubiy Afrika Respublikasi	9449	12434	131.6
Rivojlangan mamlakatlar:			
Sharqiy Evropa	7566	71785	106.3
MDH	36934	146634	107.1

Aholishunos mutaxassislarining taxminlariga ko'ra asrimizning so'nggi yillarida vujudga kelgan er yuzi aholisining o'sish tenden-tsiyasi XXI asrning boshlarida ham saqlanib qoladi. Jahon aholisi 2025 yilgacha 3.26 mlrd kishiga ko'payishi kutilmoqda. Bu asosan «uchinchi dunyo» mamlakatlari hisobiga bo'ladi. Ya'ni «uchinchi dunyo» mamlakatlarining Evropa mamlakatlariga va AQShga «demografik tazyiqi» 2000 yillarning o'rtalarigacha saqlanib qolishi mumkin.

**Jahon mamlakatlaridagi mehnat taklifi**

Mamlakatlar	Mehnat resurslari, 1995y.			
	15-64 yoshdagi ishchilar, ming kishi		O'rtacha yillik o'sish, foiz	
	Erkak	Ayol	1965-1995-2025-1993	
<b>Janubi-sharqiy Osiyo</b>				
Vetnam	19299	16996	2,53	2,05
Indoneziya	52766	24161	2,48	1,50
Xitoy	406660	316623	2,60	0,41
Malayziya	5365	3004	349	2,01
Myanma	12529	6983	2,33	1,90
Tailand	16542	13084	2,66	0,63
Filippin	17426	7644	2,85	1,91
<b>Evropa va Markaziy Osiyo</b>				
Ozarbayjon	1670	1278	2,23	
Armaniston	387	754	2,71	
Belarus	2671	2551	1,42	
Bolgariya	2225	2007	0,00	-0,07
Vengriya	2878	2398	0,34	-0,15
Gruziya	1381	1179	1,13	
Qozog'iston	4192	3608	2,30	

Latviya	962	827	2,41	
Qirg'iziston	660	631	0,62	0,02
Litva	953	888	0,87	0,20
Moldova	1081	1025	1,13	
Polsha	10583	36613	0,88	0,34
Rossiya	39212	9081	1,04	
Ruminiya	6112	5373	0,43	0,42
Tojikiston	1082	792	2,70	
Turkmaniston	816	663	2,95	
Turkiya	17067	8856	2,36	1,65
O'zbekiston	4240	3644	2,83	
Ukraina	13060	12496	0,66	
Estoniya	394	372	0,76	
<b>Lotin Amerikasi:</b>				
Argentina	8472	3442	1,25	1,28
Braziliya	41470	16551	2,90	1,31
Kolumbiya	8788	2553	2,72	1,52
Meksika	23132	8937	3,58	1,83
Venesuela	5351	2154	3,73	1,75
<b>Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika:</b>				
Jazoir	5926	676	3,06	3,32
Misr	14430	1687,	2,70	2,35
Eron	15765	3737	3,86	3,74
Marokash	7100	1893	3,39	2,52
Suriya	2911	634	3,69	4,46
<b>IXTTga a'zo Mamlakatlar:</b>				
Buyuk Britaniya	17290	10941	0,45	-0,04
Germaniya	24381	15493	0,52	-0,31
Ispaniya	10741	3527	0,84	0,08
Italiya	15653	7469	0,45	-0,41
Kanada	8353	5607	2,24	0,65
AQSh	73443	52242	1,70	0,44
Frantsiya	15641	10721	0,95	-0,07
Yaponiya	36799	23025	0,83	-0,35
<b>Janubiy Osiyo:</b>				
Bangladesh	31458	2723	2,57	2,75
Xindiston	260802	83502	2,09	1,61
Pokiston	34008	5344	0,29	3,21
<b>Afrika:</b>				
Jazoir	5530	5128	2,45	3,54
Nigeriya	26686	13993	2,73	3,19
Sudan	6630	2045	2,87	3,42
Efiopiya	13425	7777	2,17	2,86
Janubiy Afrika Respublikasi	9275	5250	2,56	2,40

Ayrim mamlakatlardagi siyosiy vaziyatning barqaror emasligi, ularning iqtisodiy ahvoriga salbiy ta'sir etib, mamlakat ishchi kuchini chetga oqimini keskin kuchaytiradi. Masalan, siyosiy omil sobiq sotsialistik mamlakatlarda ro'y bergan keng ko'lamli aholi migratsiyasini

aniqlovchi sabablardan biri bo'ldi. Agarda bu mam-lakatlarda aholi migratsiyasi 90-yillarning boshlarigacha ma'muriy chora-tadbirlar natijasida to'xtatib turilgan bo'lsa, islohotlarning boshlanishi va barcha ma'muriy to'siqlar olib tashlanishi bilan mu-hojirlar oqimi keskin ortdi, oqibatda, bu jarayon jahon mehnat bo-zoridagi vaziyatga, ayniqsa, uning Evropa qismiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Dastlab Yugoslaviya, so'ngra Vengriya, Polsha yirik miq-dorda ishchi kuchini eksport qiluvchi davlatlarga aylanadilar. Ke-yingi paytda bu mamlakatlarga sobiq Ittifoq respublikalari ham qo'shiladilar.

Mutaxassislarning taxminlariga ko'ra, yaqin yillar ichida sobiq Ittifoqdan 250 mingga yaqin kishi, G'arb mutaxassislarning hi-soblari bo'yicha esa 500 mingga yaqin kishi Evropa mamlakatlariga ishlash va yashash uchun ko'chib ketishi mumkin. Shunday qilib, iqti-sodiy, demografik va siyosiy omillarning umumiy ta'siri jahon mehnat bozoridagi ahvolni, uning miqyosini, tarkibini va rivojla-nish sur'atlarini belgilab beradi.

Dunyoning rivojlanayotgan va sanoatlashgan mamlakatlarining ishchi kuchlari tarkibida bir qancha demografik o'zgarishlar oldindan kuzatilyapti. Jami ishchi kuchlarning soni jahonda 2000 yilga kelib dunyo bo'yicha 500 mln.ga o'sadi va uning 90% i rivojlanayotgan mam-lakatlarga to'g'ri keladi. Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, 500 mln yangi ish o'rinlari yaratilishi kerak. Bunga qo'shimcha ravish-da, 820 mln yaqin ishsizlar yoki qisman ishsizlarni ham doimiy ish bilan ta'minlash zarur. Ma'lumki, ishsizlik muammosi odam sog'-lig'iga va uning ishlash qobiliyatiga, mamlakat iqtisodiyotiga uzoq davom etuvchi ta'sirga ega salbiy muammo hisoblanadi.

Hozirgi paytda, Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar hamda Xalqaro ekish muammolar bilan shug'ullanuvchi ekspertlarni fikricha, bunday miqdordagi ishchi kuchlarini ishga joylash bilan ta'minlashda yago-na, eng to'g'ri yo'l kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali keng hajmdagi ish o'rinlarini yaratishdir. Bundan tashqari, ishchi kuchining malakasi va ma'lumot darajasi ham katta muammo hisoblanadi, masalan, mehnatga layoqatli hisoblangan, aho-lining taxminan 960 mln.ga yaqinida savodsizlik darajasi dunyo bo'yicha 39% dir. Shundan 95% dan ortiqrog'i dunyoning rivojla-nayotgan mamlakatlarida yashaydi. Kadrlarning bilimdonlik daraja-si Afrika va Osiyoning bir qancha sekin rivojlanayotgan mamlakat-lariga qaramasdan 2000 yilga kelib 72% ga o'sdi.

**Osiyo Tinch okeani hududidagi mamlakatlar.** Bu hududga janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari bo'lmish Yaponiya, Janubiy Koreya va Malayziya mamlakatlari kiradi. Ishchi kuchlarini eksport qiluvchi asosiy mamlakatlar Indoneziya, Filippin, Tailand mamlakatlari hisoblanadi. Immigratsiyaning asosiy qismi Tailandga (90%) to'g'ri kelib, Osiyo mamlakatlariga yo'naltirilgan. Migratsiyaning ko'pchilik qismini noqonuniy, ya'ni yashirin yo'l bilan ketuvchilar tashkil qiladi, ularning o'sish sur'ati o'tgan asrning 90-yillarga to'g'ri kelgan, qabul qiluvchi mamlakatlarning iqtisodiy faol qismiga nisbatan muhojirlar kamchilikni tashkil etadi. Jumladan, Yapo-niyada aholining 1% ini tashkil qiladi.



#### **4. Migratsiya oqimini davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tartibga solinishi**

Hozirgi sharoitda tashqi migratsiyasi mehnat oqimini davlat tomonidan tartibga solib turish ko'p qirrali bo'lib, bu sohada ko'ri- layotgan chora-tadbirlarni shartli ravishda ikkiga bo'lish mumkin: Bu – birinchidan, ishchi kuchlari eksport ishchi kuchlari importi hiso-biga tashqi mehnat migratsiyasida keladigan foydani ko'paytirish bo'lsa, ikkinchi, ishchi kuchlarini mamlakatga olib kirish va uni chetga chiqarishda jarayonida keladigan ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirish hisoblandi.

Davlat emigratsiya siyosatining asosini emigratsiya davrining uch bosqichini tartibga solishdan iborat, ya'ni xorijga borib ishlov-chini mamlakatdan chiqib ketishi, xorijda bo'lishi va o'z vataniga qaytib kelishini tartibga solish. Bu siyosat ta'minlashga qaratil-gan:

- fuqarolarni mamlakatlar bo'ylab erkin ko'chib yurishlarini va ularda ishga joylashishlarini kafolatlash;
- migrantlarni o'z vatanlariga qaytib kelishlarini kafolat-lash;
- muhojir ishchilarni o'z vatanlari valyuta o'tkazmalari barqa-rorligini va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash;
- iqtisodiyotning ishchi kuchiga bo'lgan talab qondirilmayotgan sohalarida ishlab turgan ishchilarni chiqib ketishini cheklab qo'yish;
- mamlakat mehnat bozorida kam talabga ega bo'lgan mehnatqash-larni xorijga chiqib ketishlari hisobiga mamlakatdagi ishsizlik muammosini hal etish;
- chet elda ishlab malakalarini orttirib kelganlar hisobiga ich-ki mehnat bozorini sog'lomlashtirish.
- muhojir-mehnatkashlarni ijtimoiy kafolatlar berish.

Mehnat migratsiyasini tartiblashning huquqiy-me'yoriy asosi mamlakat Konstitutsiyasining migratsiyaga tegishli moddasini mil-liy migratsiya qonunchiligini va shu sohadagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro kelishuvlarni o'z ichiga oladi.

Davlatning tashqi mehnat migratsiyasi asosiy vazifasi muam-molarni echishga qaratilgan qarorlariga mos keladigan muhitni shakllantirishdan iborat. Bu, birinchi navbatda, tashqi mehnat mig-ratsiyasining o'ziga xos infratuzilmasini rivojlantirish uchun sha-roit yaratib berish va rag'batlantirish (bevosita ta'sir etish) chora-tadbirlarini ko'rish bilan yoki iqtisodiy agentlarning faoliyatini to'xtatib qo'yish bilan bog'liq. Bunday choralar quyidagilar:

- fuqarolarga milliy banklarda chet el valyutasida hisob ra-qamlarini ochish huquqini berish;

- emigrantlar mablag'larini jalb qilish uchun ularga valyuta jo'natmalari qilishlarida imtiyozli pochta va telegraf tariflarini taqdim etish, depozitlari bo'yicha yuqori foiz belgilash, omonatlar-ni soliqdan ozod qilish, omonatlarni o'z vaqtida bemaol olishni ta'minlash;

- muayyan mamlakatda ishchilarning ko'pchilik qismi yashaydigan hududda emigratsiya mamlakati banki bo'limini ochish yoki o'z mamlakati hududidagi emigrantlarga xizmat ko'rsatish uchun chet el bank-lari faoliyatini rag'batlantirish;

- o'z mablag'larini jamg'armalarini qimmatli qog'ozlarga, xusu-san davlat tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga qo'yishni xohlovchilarga moliyaviy imtiyozlar berish;

- mahalliy banklar tomonidan bank valyuta schyotiga ega bo'lgan shaxslarga birinchi navbatda kredit berish to'g'risida nizom va instruktsiya ishlab chiqmoqda;

- repatriatlarga shaxsiy qurilish uchun sanoat ob'ektlari qurish va infratuzilma uchun er uchastkalari berish;

- jamg'armalarini xususiy tadbirkorlikka yo'naltirganlarni soliq to'lashdan ozod qilish;

- qaytib keluvchi ishchi-migrantlarga soliq imtiyozlarini be-rish;

- yangi geografik hududga xizmat ko'rsatuvchi agentlarning fao-liyatini taqdirlash;

- chet elga ishga boruvchilar qaysi mamlakatga ishga yuboriladigan bo'lsa, ularni o'sha mamlakat hisobidan tayyorlash va qayta tayyorlash;

- chet elda ishga joylashtirish to'lovlari.

Defitsit ishchi mutaxassislarni ko'chib ketishini qisqartirish maqsadida davlat tomonidan quyidagi choralar ko'riladi:

- chet el pasportlarini berishni limitlash;

- chet elga ko'chib ketayotgan ma'lum mutaxassislik bo'yicha kvota-lar o'rnatish;

- Davlat tomonidan o'qitib tayyorlangandan so'ng ish joyiga joy-lashish muddatini belgilash;

- Migrantning o'z mamlakatiga o'tkazadigan valyuta jo'natmasiga differentsial stavka o'rnatish.

- Muhojirlarga nisbatan qo'llaniladigan siyosat ikkita muhim vazifani echishga qaratilgan:

- ish bilan bandlik muammolarining keskinlashib, ayrim ra-yonlarda aholining haddan tashqari ko'payib ketishiga yo'l qo'y-maslik maqsadida

nazorat qilib bo'lmaydigan ishchi-migrantlar oqimidan ichki milliy mehnat bozorini himoyalash.

- Chet el ishchilaridan ratsional foydalanishni ta'minlash orqali migratsiya hisobidan ko'p muammolarni xal etish.

Mamlakat ichki mehnat bozorini himoya qilish ma'muriy, tashki-liy-huquqiy va iqtisodiy xarakterdagi usullarni o'z ichiga oladi. Restriktiv taqiqlangan, shuningdek, selektiv xususiyatga ega bo'lgan printsiplar bu usullarning ta'sirchanligiga asos qilib olinishi mumkin.

Ishchi kuchlari importini tartibga solib turish yana shunday bir usul-to'g'ri kvota usuli qo'llaniladi. To'g'ri kvotalar ishchi kuchlari-ni qabul qilib oluvchi mamlakat korxonalarida mahalliy ishchilar bilan chet el ishchilari o'rtasidagi nisbatni tartibga solib turadi. Bu usul barcha mamlakatlar milliy iqtisodiyoti uchun yagona bo'lishi yoki iqtisodiyotning differentsiyalangan sektorlari hamda faoliyat turlari bo'yicha bo'lishi mumkin. Kvotalar foizlar nisbatida o'rnatiladi: ishlab chiqarishda band bo'lgan umumiy ishchilarning qancha foizi chet eldan kelgan ishchilar ekanligi yoki mahalliy va chet ellik ishchilar nisbati bilan belgilanadi.

Iqtisodiy mezonlar asosida tartibga solib turish yuridik va jismoniy shaxslar uchun ish haqi minimal tizimiga bog'liq qilib qo'yiladi: joriy ishchilarni qabul qilish firmaning oladigan foy-dasi va moliyaviy mablag'lari hajmi, biznes-imigrantlar uchun imti-yozlarga, chet el ishchilarining qabul qilgan mamlakat iqtisodiyotiga ma'lum miqdordagi summa-pul mablag'larini qo'shishiga: oddiy muho-jirlar uchun ishga joylashish uchun to'lanadigan haqqa bog'liq qilib qo'yiladi. Shuningdek, hujjatlarni rasmiylashtirish yoki mehnat kontraktining muddati bo'yicha differentsiyalashgan soliq olinadi.

Yana davlat tomonidan chet el ishchilarini qabul qilayotgan mamlakatda turadigan muddatlari belgilanishi, alohida mutaxassisliklar bo'yicha ishchi o'rinlarini band etishligi taqiqlanishi mumkin.

Hamma davlatlarda shunday davlat tashkilotlari borki, ular zimmasiga tashqi mehnat immigratsiyasi bilan bog'liq masalalarni echish yuklatilgan. Ular maxsus immigratsiya xizmati, mehnat sohasi tashkiloti, ochiq ishlar vazirligi, jamoat tartibini saqlash, xavf-sizlikni ta'minlash, tashqi ishlar vazirligi, sog'liqni saqlash, maorif sohalarining birgalikda faoliyat ko'rsatishini ta'minlashlari kerak.

Dunyodagi barcha mamlakatlarning oldida aholi migratsiyasi bilan bog'liq masalalardan biri yashirincha migratsiya muammosidir. Bunday migratsiya oqimini to'xtatib qolish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, qonunni buzuvchilarga jarima solishdan tashqari hatto qamoq

jazosi ham qo'llanadi. Bunday cheklash va taqiqlab qo'-yish jismoniy va yuridik shaxslar uchun ham birday qo'llaniladi. (Yashirincha o'tib kelgan ishchilar mehnatidan foydalanuvchi firma-lar, vositalik qiluvchi nolegal firmalar uchun).

Ishlab chiqarishning pasayishi, ishchi o'rinlarining qisqartirishi, ichki mehnat bozorida tanglik yuz bergan hollarda davlat tomonidan immigrantlar oqimini to'xtatishni rag'batlantirishga qaratilgan tadbirlar belgilanadi. Bu tadbirlar mehnat faoliyatini muddatidan oldin to'xtatganligi uchun to'lovlarni, chetga chiqaruvchi migrantlarni maxsus mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlashni tashkil etish, emigratsiya mamlakatining iqtisodiy rivojlanishiga yordamla-shish, boshqa hududlarda ishchi o'rinlarini tashkil etish, o'z uylarida xususiy korxonalar ochish xohishi bo'lgan ishchi migrantlarga kredit ajratishlarni o'z ichiga oladi.

Aholi migratsiyasi bilan bog'liq bo'lgan munozarali masalalar hamda nizolar xalqaro tashkilot - Mehnatni tashkil etish xalqaro tashkiloti (XMT) tomonidan ko'rib chiqilib, xalqaro etiladi. Bu tashkilot 1919 yilda Versal shartnomasi asosida milliy Liga bilan birga tashkil topgan, 25 yildan so'ng Filodelfiya deklaratsiyasi XMT tamoyili va markazlarini kengaytirdi. 1946 yilda esa BTM-ning ixtisoslashtirilgan birinchi muassasasi bo'ldi. XMTning boshqa xalqaro tashkilotlardan ajratib turuvchi noyob jihati shundaki, bu tashkilotning siyosiy yo'nalishini va faoliyati dasturini ishlab chiqishda davlatlarning vakillari bilan tadbirkorlar va mehnat-kashlarning vakillari teng huquqli ravishda qatnashdilar.

XMTning qadimiy va eng asosiy funktsiyasi xalqaro mehnat konferentsiyasining konvensiyasi va tavsiyanomalarini uch tomonlama (hukumatlarning vakillari, tadbirkorlar, mehnatkashlar bilan) qabul qilish bo'lib, bu aktlarni amalga oshirish XMTga a'zo davlatlar o'z zimmlariga oldilar. Tavsiyanomalar siyosat sohasini boshqarishga, qonunchilik va qonunlarni amalga oshirishga xizmat qildi.

Konvensiya va tavsiyanomalar inson huquqlari bilan bog'liq bo'lgan mehnat sohasidagi juda keng masalalar, ya'ni mehnatni tartibga solish, mehnat munosabatlari, mehnat bilan bandlik sohasidagi siyosat, mehnat sharoiti, ijtimoiy ta'minot, tozalik, xotin-qizlarning bandligi, voyaga etmagan bolalar hamda mehnatkashlarning alohida olingan kategoriyalari, shu bilan birga, migratsiya masalalarini o'z ichiga qamrab oladi.

XMTga a'zo mamlakatlar Konferentsiya tomonidan qabul qilingan barcha konvensiya va tavsiyanomalarni kompetentli milliy tashkilotlarga berishi shart. Ratifikatsiya qilingan konvensiyalar-ning mamlakatlar

qonunchiligida va amaliyotda qo'llanilishini ta'minlash uchun MXT nazorat qilish protsedurasini o'rnatdi.

MXT, shuningdek, quyidagilarni amalga oshiradi:

–insonlarning asosiy huquqlarini himoya qilishga, mehnat sharo-itlari va mehnatkashlarning turmushini yaxshilashga hamda ish bilan bandligini imkon qadar amalga oshirishga qaratilgan xalqaro siyosat dasturini ishlab chiqish;

–xalqaro mehnat me'yorlarini yaratish. Bu milliy tashkilotlar faoliyatining asosi bo'lib, ana shunga mos siyosat olib borishlariga imkon beradi.

–texnik hamkorlik qilishning keng qamrovli dasturini ishlab chiqish. Bundan ko'zda tutilgan maqsad ana shu siyosatni amalga oshi-rishda davlatlarga yordam berish;

–kasb-hunar o'rgatish, bilim berish, ilmiy tadqiqot va noshirlik kabi sohalar faoliyatini yaxshilash.

## 5. O'zbekiston xalqaro migratsiya jarayoni tizimida

Keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni o'tkazish ishlab chiqarish sur'atlarini pasaytirgan holda iqtisodiyotning tarmoqlar tuzili-shini qayta qurish, ishlab chiqaruvchilar faoliyatini bozor iqtisodi-yoti tizimiga solish, shu yo'l bilan iqtisodiy o'sishga erishishdan iborat. Ishchi kuchlari migratsiyasi yuqoridagi masalani echish yo'lla-ridan biri hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, ishchi kuchlari mig-ratsiyasidan respublikadagi mehnat resurslari ortiqchaligi muam-mosini hal etishning eng ta'sirchan va samarali yo'li sifatida foy-dalanish mumkin. Respublikada ishchi kuchlarning yillik o'sish miq-dori 210-220 ming kishini tashkil etadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda xalqaro mehnat bozoriga kirish uchun dastlabki qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bunday shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatning erkinlashtirilishi, shuning-dek, mehnat migratsiyasining huquqiy-me'yoriy asoslari ishlab chi-qilganligi; bir qator xalqaro tashkilotlarda, ayniqsa, XMTda teng huquqli vakil sifatida qatnashayotganligi;

- milliy iqtisodda tub qayta qurish o'tkazilayotganligi: insti-tutsion asosdagi strukturadan, tarmoq va ishlab chiqarishning hudu-diy strukturasi o'tkazilgan qayta ko'rish;

- demografik holatning o'ziga xosligi;

- mehnat bozori qatnashchilarining etarli ravishda umumta'lim-ga hamda yuqori malakaga ega ekanligi.

Respublikaning demografik o'ziga xosligi aholi sonining tez o'sib borayotganligi bilan belgilanadi, aholisi tarkibining ham, ishga yaroqli aholisining ham asosiy qismini (25-30 yoshli) yoshlar tashkil etadi. Qishloq aholisi umumiy sonining ham asosiy qismi yoshlardan iborat. Ishchi kuchlari absolyut va nisbiy o'sish sur'atlari qishloq joylarga to'g'ri keladi. Umumiy aholi soniga nisbatan 15-19 yoshlilar 11%ni, ishga yaroqlilar soni 24% ni tashkil etadi. Respub-lika aholisining 23%ni 24-39 yoshda bo'lganlar tashkil qilsa, yarmi-dan ko'p qismini, ya'ni 53%ni mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilar tashkil etadi. Respublika aholisining 62% qishloqlarda yashaydi. Mehnat resurslarining 54% qishloq joylarda to'plangan.

Vujudga kelgan demografik vaziyat ish bilan bandlikda qo'shimcha zichlikni keltirib chiqaradi, mehnat bozorida tanglikni yuzaga kel-tiradi. Ish bilan bandlik muammosini xal etish yo'nalishlaridan biri migratsiya jarayonini rivojlantirishga qaratilgan.



Mamlakat ichki mehnat migratsiyasi ishlab chiqarishning deyarli hamma sohasiga bir tekisda joylashtirilishiga va hamma regionlar-ning rivojlantirilishiga qaratiladi. Tashqi migratsiya ichki mehnat bozoriga bo'lgan bosimni pasaytirish maqsadida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bilan bog'liq bo'ladi.

Migratsiya aholining harakatchan hamda mehnatga layoqatli qismi hisobidan tashkil etiladi.

Hozirgi paytda O'zbekiston respublikasi aholisi migratsiyasi juda past darajada ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu, ayniqsa, qishloq joylarga xos bo'lib, bu holatni tub aholining urf-odatlarini, an'analari, tug'ilib o'sgan eriga qattiq bog'lanib qolganligi bilan izohlash mumkin. Bunday xol milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga to'siq bo'luvchi ishchi kuchlarini regional miqyosda qattiq taq-simlash imkoniyatini cheklab qo'yadi.

Vaqtinchalik ish bilan ta'minlashga qaratilgan tashqi migratsiyada buning tamoman aksini ko'rish mumkin, Respublikaning juda ko'p fuqarolari bunday qadam qo'yishni jon-jon deb kutib oladilar. Bu erda chetga chiqish uchun to'siq bo'lib turgan omillar bor: Chet elga ishlash uchun borishning yo'l-yo'riqlari haqida to'liq ma'lumot-larning yo'qligi muammosi, til bilmasslik, ma'muriy strukturalar-ning ruxsat olish sohasidagi uquvsizligi (davlat yoki litsenziyaga ega bo'lgan shaxslar), yarim legallarning mavjudligi (litsenziyasi bo'l-magan) va ular tomonidan «pul ishlab» kelish xohishi bo'lgan kishi-lar chet elga ishga yuborilishi. Bunda ular ko'chmanchilarga o'z mutaxassisliklari bo'yicha ish taklif qilmaydilar.

Noqonuniy (nolegal) mehnat migratsiyasi deb ataluvchi bu yo'l MDH mamlakatlari oldida turgan asosiy muammolardan hisoblanadi. Fuqarolarning ma'lum bir qismi ijozatnoma bilan chet elga borganda (ayniqsa, turistik agentligi orqali) noqonuniy mehnat bilan shug'ullanadilar. Vaholanki, chet elga borish uchun berilgan ruxsatnoma bunday noqonuniy ish bilan shug'ullanish huquqini bermaydi. O'zbekiston respublikasi mehnat va ijtimoiy himoyalash vazirligining tashqi mehnat migratsiya masalalari bilan shug'ullanuvchi Respublika agentligining bergan ma'lumotlariga qaragan-da, hozirgi kunda 10 mingga yaqin O'zbekiston fuqarolari noqonuniy ravishda Koreya Respublikasida, O'zbekistonliklardan 4 ming kishi AQShda, 2 mingga yaqini Italiyada ishlamoqda. Noqonuniy ravishda chet ellarda ishlayotgan bu fuqarolar huquqiy va ijtimoiy himoyadan mahrum bo'lib, o'zlarining mutaxassisliklariga, malakalariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni bajarishadi.

Shuningdek, mehnat haqlari ular bajarayotgan ishlarni bajaruvchi mahalliy ishchilarning oladigan ish haqlaridan ancha past.

O'zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasi 2 asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi.

- MDH mamlakatlarida yagona mehnat makonini yaratish
- uzoq xorijiy mamlakatlar – Janubiy Koreya, Turkiya, AQSh, Isroil, Evropa mamlakatlari, Yaqin Sharq, Arab mamlakatlari yo'nalishi

O'zbekiston Respublikasi va boshqa mamlakatlardagi kabi MDH mamlakatlarida tarkib topayotgan chet el mehnat migratsiyasi namu-nasi ishchi kuchlarini eksport qiluvchi kam rivojlangan mamlakatlar uchun xarakterlidir. Bunga quyidagi xususiyatlar xosdir.

- iqtisodiy omillar moslashuvining mutaxassislik, kasb-hunar dan ustun emasligi;
- Chet elda ishlayotgan fuqarolarning asosiy qismi o'z mutaxassisligi bo'yicha emas, balki og'ir, sog'liq uchun xavfli, kam ish haqi to'lanadigan ishlarga jalb etilgan;
- mahalliy ishchilarga qaraganda ish haqining ancha kamligi;
- ijtimoiy himoya nihoyatda past darajada ekanligi yoki umuman yo'qligi;
- noqonuniy migratsiya ko'lamining kengayib borayotganligi;
- xorijga oliy yuqori malakali ishchilarning, mutaxassislar-ning ko'chib ketishi («aql egalari»)
- xorijdagi (asosiy bir yillik shartnoma) ish beruvchilar bilan qisqa muddatli shartnoma tuzilishi;
- bizning fuqarolarga ish joylari chegaralanganligi.

Respublikamizda tashqi mehnat migratsiyasi huquqiy va tashkillashtirilgan ta'minotni oladi. Aholini xorijda ish joyi bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qabul qilingan «Aholining bandligi haqida»gi qonuni asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi tizimida ish-chi-migrantlar ishi bo'yicha Respublika agentligi tuzildi.

Bu agentlik O'zbekiston fuqarolarini tashkiliy ravishda chetga ishlash uchun yuborishni amalga oshiradi. Uning funksiyasiga fuqarolarga litsenziya olib berishda yordamlashish hamda O'zbekiston fuqarolarining chet elda, chet el fuqarolarining O'zbekistonda o'z muta-xassisliklari bo'yicha faoliyat ko'rsatishlarini nazorat qilib turish kiradi. Mehnat migratsiyasi tashkiliy ravishda davlatlararo tuzilgan shartnomaga ko'ra shartnoma asosida rasmiylashtiriladi. Bitimda talab qilingan ro'yxat bo'yicha kvotalar, ixtisosi va kasb-hunari aniq ko'rsatiladi.

1995-2000 yillar davomida respublikamizning 7 mingdan ortiq fuqarosi agentlik yordamida o'qitilib, Janubiy Koreya Respublikasida ishlab keldi. Mutaxassislar AQSh, Yaponiya, Malayziya, BAAGA ishlash uchun yuborildilar. Xorijiy ish beruvchilar doirasini kengaytirish maqsadida tegishli shartnomalar tuzilmoqda.

O'zbekistonning xalqaro mehnat bozorida teng huquqli va raqobatbardosh faoliyat ko'rsatishida xalqaro mezon (norma)larga va XMT qoidalariga mos ravishda ishchi kuchlarini chetga chiqarish va jalb etishning Respublika mehnat qonunchiligi ma'muriy-huquqiy norma-larini asta sekin qo'llashni talab qiladi. Chet el mehnat migratsiyasi iqtisodiy tomonidan foyda olib kelishi bilan (yuqori oylik ish haqi, xar tomonlama maishiy sharoit) birga mutaxassis o'zining bu-tun kuch va mahoratini ishga solishi ham demakdir. Tashqi bandlik hozirgi jarayonda O'zbekiston uchun quyidagilarni hal etishga yordam beradi:

- Ishsizlik darajasini kamaytirishga, ma'lum ma'noda respublikadagi ijtimoiy tanglikni yumshatishga;

- Mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlarini tejashga;

- ishlab chiqarish strukturasi va texnologiyani kam chiqim bilan qayta qurishni olib borishga ketadigan xarajatlarni kamaytirishga;

- mamlakatga chet el valyutasining qo'shimcha oqimini ta'minlashga;

- xorijda ishlovchi shaxslarning pul o'tkazmalaridan byudjetga kelib tushadigan mablag'ni ko'paytirishga;

- qarindoshlarga moddiy-moliyaviy yordam berish bilan ularning ham, uyi ichidagilarning ham turmush darajasini yaxshilashga, xarid qilish qobiliyatini oshirishga hissa qo'shibgina qolmasdan tovarlar va xizmatlarga bo'lgan qo'shimcha talabni ham vujudga kel-tirishga;

- xorijda ishlovchilarga o'z mamlakatida shaxsiy korxonalar ochish uchun boshlang'ich kapitalni jamg'arib kelib, korxonalarini ochish-lari va bu bilan tadbirkorlikni rivojlantirishga hissa qo'shish-lariga;

- xorijda ishlash yangi bilimlar, ish mahorati va usullarini o'zlashtirish demakdir.

O'zbekistonning xalqaro mehnat bozorida qatnashuvi nafaqat ishchi kuchini eksport qilish, balki uni jalb qilish imkonini ham beradi.

Bu oxirgisi xorijiy investitsiyalarni respublikaga jalb qilish bilan bog'liq. Respublika uchun eng ahamiyatli tomoni shundaki, chet elga ishga boradiganlarning rivojlangan mamlakatlarda o'qi-tilishidir. Bu

zamonaviy bilimlarni olgan yuqori malakali muta-xassislar tayyorlash va qayta tayyorlashga yordam beradi.

O'zbekistonda ishchi kuchlarning eksporti istiqbolga ega. Buni aholining tashqi bandlikka bo'lgan talabi ortib borayotganligi tasdiqlab turibdi. Mamlakatda bu xil mehnat bilan shug'ullanish ko'nikmasi hosil bo'layotganligi, demografik vaziyat va uning ichki mehnat bozoriga ortib borayotgan bosimi kuchi, chet tillarni biladigan yoshlarning soni oshib borayotganligi hamda zamonaviy kommunikatsiya vositalarining mavjudligi, shuningdek, yosh avlodning harakatchanligini ko'rsatib o'tish kifoya.

O'zbekiston aholisining tashqi bandlik kontsepsiyasi tashqi bandlikka aloqador xizmatlarni kengaytirishning hozirgi jarayonida bozor mexanizmini shakllantirish hamda respublika fuqarolarini chet elda ishlashini qonuniy ravishda tashkil etish vositachilik faoliyatni erkinlashtirishni ko'rib chiqish talab etiladi.

## **Tayanch so'z va iboralar**

1. Ishchi kuchi -16 yosh va undan katta yoshdagi ishlayotgan yoki ishsiz shaxslarning umumiy soni. (Maxsus davlat muassasalarida aqli zaiflar va axloq tuzatish muassasalarida bo'lganlar bundan mustasno).
2. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi – mehnatga layoqatli aholi-ning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chishi.
3. Xalqaro mehnat bozori – milliy va hududiy ishchi kuchi bozorlarini o'zida birlashtirib, milliy chegaralarni kesib o'tuvchi mehnat resurslarini turli yo'nalishlaridagi oqimlarni qamrab oladi.
- 4 . Turmush tarzi (yashash darajasi) – mamlakatning iqtisodiy rivojlanishdagi erishgan darajasiga mos keluvchi mamlakat aholisi turmush sharoitlarini umumiyliigi bo'lib, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasida asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.
5. Ishchi kuchi importi – xorijdan mamlakatga ishchi kuchi keli-shidir.
6. Ishchi kuchi eksporti – mamlakatdagi ishchi kuchini xorijga chi-qarishdir.
7. Ishchi kuchi va eksporti va importining afzalliklari – eksport va import qiluvchi mamlakatlarning oladigan foydalaridir.
8. Jahon mehnat bozorining markazi – ishchi kuchi jalb etuvchi hudud yoki joydir.
9. Noklassik nazariya – ishchi kuchi migratsiyasini tor ma'noda tushuntirishga asoslangan nazariyadir.
- 10 . Assimetriya nazariyasi - ishchi kuchi migratsiyasi natijasida yuzaga keladigan oqibatlarni kengroq baholashga asoslangan nazariyadir.
11. Xalqaro mehnat tashkiloti - xalqaro doirada ishchi kuchi migratsiyasini tartibga soluvchi tashkilotdir.

## Nazorat savollari

1. Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Xalqaro mehnat bozori nima?
3. Nima sababdan O'zbekistonni ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlar qatoriga qo'yish mumkin?
4. Jahon mehnat bozorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omil-larini sanab o'ting.
5. 80-90 yillarda butun dunyo va ayrim mamlakatlarda ishchi kuchining o'sishi qanday bo'lgan?
6. Ishchi kuchi xalqaro migratsiyasining «balans» va «assimetriya» nazariyasini tushuntirib bering.
7. Ishchi kuchi eksportidan davlatlar qanday manfaat ko'radilar?
8. Ishchi kuchini import qiluvchi mamlakatlar undan qanday sama-ra oladilar?
9. Jahonning ayrim mamlakatlardagi, xorijiy ishchi kuchining salmog'i to'g'risida qisqacha axborot bering.
10. Ishchi kuchi jahon bozorining to'rt yirik markazini ta'rif-lab bering.
11. Ishchi kuchining jahon bo'ylab erkin harakatiga qanday to'siq-lar halaqit beradi va ulardan qaysi biriga davlat nazorati o'rnatiladi va bartaraf etiladi?
12. Xalqaro Mehnat Tashkiloti va uning ishchi kuchi migratsiya-sini tartibga solishdagi roli.
13. O'zbekistonda ishchi kuchi chetga chiqarish va chetdan olib kelish tartibi qanday va me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi?
14. Tashqi mehnat migratsiyasi sohasida davlat siyosatining aso-siy vazifalari nimalardan iborat?



## **VIII bob. HOZIRGI ZAMON XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLARDA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR**

1. Transmilliy korporatsiyalar tushunchasi va ularni jahon iqtisodiyotidagi roli
2. TMKning raqobat va integratsiya bo'yicha strategiyalari
3. TMK va chetga kapital chiqarish
4. TMKlar va davlatlar o'rtasidagi munosabat
5. O'zbekistonda TMKlar faoliyati

## 1. Transmilliy korporatsiyalar (TMK) tushunchasi va ularni jahon iqtisodiyotidagi roli

Xalqaro korporatsiyalar XX asrning so'nggi choragidagi jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining muhim elementi va xalqaro iqtisodiy aloqalarning bevosita ish-tirokchilari bo'lib hisoblanadi. Xalqaro korporatsiyalar, bir tomon-dan, tez rivojlanayotgan xalqaro iqtisodiyot munosabatlarning mah-suli bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning o'zi xalqaro munosabatlarga ta'sir etuvchi qudratli kuch hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini jahon miqyosida rivojlanishi asosida eng muhim omil bo'lib tashqi iqtisodiy operatsiyalar-tovar, xizmat-lar eksporti va importi, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik qilish yotadi.

Hozirgi kunda tadbirkorlik kapitalining mamlakatlararo harakatiga asoslangan xo'jalik birlashmalarini yaratish jahon iqtisodiyotining asosiy omili bo'lib qolmoqda. Kapitalning harakati mo-liyaviy oqimlarning kreditorlar va debitorlar, mulkdorlar va ularning firmalari o'rtasidagi harakati ko'rinishida yuz beradi.

Kapitalning xalqaro harakatidan ko'riladigan samara tashqi savdo yoki ishchi kuchi migratsiyasidan farq qilmaydi. Qaerda investitsion loyihalarning qaytimi ta'minlansa, kapital oqimlari o'sha erda mujassamlashadi.

Hozirgi vaqtda kapitalning xalqaro harakatida transmilliy korporatsiyalarning o'rni tobora ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy globallashuv jarayonini xarakatlantiruvchi kuchi sifatida TMKlar vujudga keldi. Ichki korporativ mehnat taqsi-moti asosida davlatlararo an'anaviy mehnat taqsimoti yotadi. TMK nazorati ostidagi xalqaro ishlab chiqarish (bosh firma va filial-lar) jahon ishlab chiqarishining 25% ini tashkil qiladi.

Xalqaro bo'linish jarayonidagi tub o'zgarish TMK tarkibiga qay-ta ishlash sanoati kompaniyalarini jalb qilishga olib keldi.

Tovarlarni yaratish va ularni sotish sohasida funktsiyalarga bo'-linish jarayonlari va bu funktsiyalarning jahon bo'yicha birlashuvi TMKning bir qator xalqaro strategiyalarini yiriklashtirish aso-sida xalqaro ishlab chiqarishning integratsiyalashgan tizimini yara-tishga olib keldi.

TMKlarni vujudga kelishining asosiy sababi ishlab chiqaruvchi kuchlarni milliy chegaralar osha rivojlanishi asosida ishlab chiqa-rishni va kapitalni xalqarolashuvidan iborat edi. TMKlar doira-sini kengayishining

yana bir sababi uning iqtisodiy jihatdan yuqori samaradorligi bo'lib, ishlab chiqarish tarmoqlarda katta hajm-dagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni qisqa muddatlarda yo'lga qo'ya olishi bilan belgilanadi. Raqobat bardoshlikni ta'minlash ham ishlab chiqarishni va kapitalni xalqaro miqyosda kontsentratsiyalash zaruriyatini keltirib chiqardi. Bu esa kompaniyalarga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va yuqori daromad olish imkoniyatini yaratdi.

Ilmiy taraqqiyot va axborot texnologiyalari TMKlar uchun o'zlarining barcha imkoniyatlarni yuzaga chiqarish va dunyoning turli mamlakatlarida joylashtirilgan ishlab chiqarishlarini muvaf-faqiyatli koordinatsiyalash imkonini yaratdi. Pirovard natijada olingan tayyor mahsulot ko'pgina joylarda ishlab chiqarilgan boshlang'ich materiallarning majmui bo'lib hisoblanadi. Agar bunday mahsulotlarga ilgari davlatlararo munosabatlarda taqqoslab ko'rish asosida ustunlik belgisi sifatida qaralgan bo'lsa, endilikda TMK-ning ustunligini belgilab beruvchi asosiy rolni raqobat o'ynayapti, deb qaralyapti.

Hozirgi kunda TMKlar tushunchasi haqida umumiy bir ta'rif yo'q. Xalqaro monopoliyaning talqin qilishicha, bu tushuncha turli xil mamlakatlarga tegishli xususiy monopol kapitallar birligi doirasida birlashtirilishi printsipi asosida kelib chiqqan. Bunga misol qilib anglo-golland Royel-Datch Shell va Yupiter mono-poliyalarini keltirish mumkin.

Hozirgi zamon xalqaro monopoliyalarning farqli tomoni shun-daki, uning xalqaroligi kapitalning qaerdan kelib chiqqanligiga emas, balki faoliyatni qaerdan boshlanganligiga qarab belgilanadi. «Trans milliy korporatsiya» termini YuNKTAD hujjatlarida kiritilgan. TMK asosan kapitalning milliyliigi, faoliyat sohasida esa xalqaroligi bilan ajralib turadi. mamlakatlar kapitallarini bir kompaniya doirasida birlashuvi qiyinchiligi haligacha milliy kompaniyaning yuridik maqomi yo'qligidandir. TMKning rasmiy o'lchov belgisi yo'qligi o'tgan asrning 70-yillari o'rtasida BTMning TMK bo'yicha komissiyasi tuzilgandan keyin dolzarb muammoga aylanadi. Komissiya «TMKning xulq-atvor Kodeksi»ni komissiya ishlab chiqarishga kirishdi. TMK o'sha davrda jahon iqtisodiyotida hukmronlik rolini o'ynayotgan, hatto mamlakatlarga o'z kapitalini kiritish uchun iqtisodiy va siyosiy tazyiq o'tkazayotgan edi. Lekin bu ko-deks qabul qilinmadi. TMK BMT komissiyasi YuNKTADning bo'limiga aylantirildi.

TMKlarni mulkchilikni shakllariga ko'ra quyidagi 4 guruhga ajratish mumkin: oilaviy, davlat, industrial va «birja» oilaviy TMK aksionerlik kapitalida mazkur kompaniyalar aktivlarini asosiy egalari yoki

asoschilarining oilalari etakchi ulushni egallovchi korporatsiyalarni o'zida ifodalaydi. Bunday TMKlarga amerikaning Ford, Italiyaning FIAT, Frantsiyaning PCA, Germaniyaning BMW, Yaponiyaning Toyota kompaniyalarini misol qilish mumkin.

Davlat TMKlarining Ikkinchi jahon urushidan keyin, yirik xususiy kompaniyalarni milliylashtirishdagi ulushi muntazam ra-vishda qisqarib borayotgan bo'lsa-da, biroq haligacha etakchi hisoblanadi. Bu kompaniyalarning direktorlar kengashida davlat vakil-lari qatnashadilar va korporatsiyalarning rivojlanish strategiyasiga xal qiluvchi ta'sir ko'rsatadilar.

Industrial TMK da esa aksionerlik kapitalida mazkur TMK-larning iqtisodiy faoliyatini nazorat qiluvchi boshqa korpora-tsiyaning roli o'z ifodasini topadi. Hozirgi vaqtda bu mulkchilik-ning, ayniqsa, mashinasozlik sohasida eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Mulkchilikning «birja» ko'rinishi eng yirik mustaqil TMKlar uchun xosdir.

Bunda TMK institutsional investorlar (banklar, sug'urta kompaniyalari, boshqariluvchi investitsion fondlar) boshqaruvida bo'li-shini ko'zda tutadi.

## Transmilliy kompaniyalarning aksionerlik kapitalida institutsional investorlarning ulushi (foizda) 2002 y.

Kompaniya	Bosh kompaniya chiqqan mamlakat	Jami	Banklar	Boshqaruvchi investitsion fondlar	Sug'urta kompaniyalari	Pension fondlar	Boshqa invest orlar
General Motors	AQSh	59,29	16,94	37,21	0,36	4,00	0,78
Honda	Yaponiya	45,48	25,81	6,27	12,77	0,50	0,13
Ford	AQSh	39,81	4,07	31,28	0,42	3,77	0,27
Toyota	Yaponiya	39,25	29,22	3,11	6,58	0,27	0,06
Suzuki	Yaponiya	37,28	16,39	11,38	9,02	0,26	0,22
Mazda	Yaponiya	29,26	13,35	2,33	9,66	0,03	3,88
DaimlerChrysler	Germaniya/AQSh	28,39	12,29	15,60	0,11	0,32	0,07
PSA	Frantsiya	26,64	6,76	18,47	0,73	0,58	0,11
Fuji Heavy Subaru	Yaponiya	25,35	16,09	4,57	4,62		0,07
Nissan	Yaponiya	23,20	12,20	3,77	5,04	2,09	0,11
Renault	Frantsiya	20,74	3,63	15,92	0,20	0,92	0,08
BMW	Germaniya	20,27	5,21	14,58	0,13	0,27	0,07
Volkswagen	Germaniya	18,58	0,33	17,75	0,21	0,27	0,03
Mitsubishi	Yaponiya	12,18	8,47	0,98	2,59		0,13
Isuzu	Yaponiya	12,13	5,27	0,66	6,15		0,05
FIAT	Italiya	11,28	0,10	8,60	2,32	0,18	0,08

**Manba:** LEPERS Shareworld, 2003

Unga quyidagi aniqliklar kiritildi.

«Transmilliy korporatsiya» - bu aksionerlik yoki xususiy kompaniya bo'lib, o'z ichiga bosh kompaniyani va uning bo'limlarini olgan kompaniyadir. Bu holda bosh (materin) kompaniya aksiyadorlik kompaniyaning ma'lum bir qismiga egalik qilish bilan aktivlarni yoki mamlakatdan tashqarida joylashgan boshqa birliklarni nazorat qi-lib turadi. Aksiyadorlik kapitalidagi ulushi oddiy aksiyalar bo'yi-cha yoki aksiyadorlik kompaniyalarida ovoz berish bo'yicha yoki bular-ning

xususi kompaniyalardagi ekvivalenti 10 foiz yoki undan oshiq-roqni tashkil etmasa, aktivlar ustidan nazorat o'rnatish uchun kam hisoblanadi.

XX asr oxirida TMKlar soni 63 mingtani va ularning chet el-lardagi filiallari soni 700 mingtani tashkil qildi.

TMKlar xalqaro bozorlarni tovar va xizmatlar bilan ta'min-lovchi asosiy kanal bo'lib qoldi. TMK filiallari orqali sotish hajmi XX asr oxiriga kelib, 14 trln. dollarni tashkil qildi. Xal-qaro tovarlar va xizmatlar eksportida bu miqdor 7 trln. dollarni tashkil qildi. YuNITAD ma'lumotlariga asosan, TMKning xalqaro savdodagi ulushi 2/3 qismni tashkil qilib, buning 1/3 qismi esa ichki forma savdosiga to'g'ri keldi.

22-jadval

### Transmilliy kompaniyalarining (TMK) xorijiy filiallari

	1990	2003
Umumiy aktivlari mlrd.doll.	5899	30362
Xodimlar soni, mlrd.doll	24,3	54,2
Sotish hajmi, mlrd.doll.	5675	17580
Yalpi mahsulot; -mlrd.doll.		
Umumjahon YaIMga nisbatan%da	1458	3760
-Tovarlar va xizmatlar eksporti;	6,7	10,4
-mlrd.doll	1197	3077
-umumjahon eksportiga nisbatan % da	27,8	33,3

**Manba:** Doklad o mirovix investitsiyax 2004 YuNKTAD. Nyu-York.

TMK bevosita chet el investitsiyasi shaklida kapital kiritish-ning asosiy sub'ekti hisoblanadi. Uning 1980 yildagi umumjahon investitsiya jamg'armalari (chetga chiqarish) 500 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, asr oxiriga kelib 4,8 trillion dollarga etdi. Investitsiya jamg'armalarining ko'p qismi rivojlangan mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelib, xizmat ko'rsatish sohalariga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa sanoatning qayta ishlash sohalariga jalb etilgan.

TMK ilg'or texnologiyalarning hozirgi zamon raqobatida ustun turuvchi asosiy generator hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarga sarflangan xarajatlarning deyarli 90 foizi iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo rivojlangan mamlakatlar to'g'ri kela-di hamda shu xarajatlarning asosiy qismi 7 ta rivojlangan mam-lakatlarga, shunday faqat AQShning hissasiga 40 foiz to'g'ri keladi. TMK investitsion faollik ko'rsatkichlari – patentlar, litsenziyalar va royaltlar to'lovlari bo'yicha ilg'or sanaladi. XX asr oxirida umumjahon bo'yicha to'lovlarning 88%



hamda royalti ko'rinishdagi va litsenziyalar uchun to'lov tushunchalarining 98%i 7 ta rivojlangan mamlakat hissasiga to'g'ri keldi.

22-jadval

### Dunyoning eng yirik sanoat korporatsiyalari

O'rin	Korporatsiya nomi	Mamlakat	Sotish hajmi, million \$	Hissadorlik kapitali mln. \$	Ishlovchilar soni kishi
1	General Motors	AQSh	133621,9	5597,5	710800
2	Ford Motor	AQSh	108521,0	15574,0	322200
3	Exxon	AQSh	97825,0	34792,0	91000
4	Royal Dutch Shell	Buyuk Britaniya	95134,4	51505,6	117000
5	Noyota Motor	Niderlandiya	85283,2	44593,1	109279
6	Hitachi	Yaponiya	68581,8	28898,1	330637
7	Intl.Business Machines	AQSh	62716,0	19738,0	267196
8	Matsushita	Yaponiya	61384,5	32118,6	254059
9	General Electric	AQSh	60823,0	25824,0	222000
10	Daimler-Benz	Germaniya	59102,0	10108,7	366736
11	Mobil	AQSh	56576,0	16474,0	61900

AQShning 10 ta yirik korporatsiyalarining ilmiy tadqiqotlarga sarflagan xarajatlari Buyuk Britaniya va Frantsiya birgalikda sarf-lagan xarajatlaridan ko'pdir. Jahon iqtisodiyotida etakchi o'rinni egallab kelayotgan 100 ta TMKlar mavjud. Ular hissasiga jahon bo'yicha ishlab chiqarilayotgan YaMMning 4-7% to'g'ri keladi. Ular ulkan konglomeratlar bo'lib, faoliyati jahon iqtisodiyotining ko'plab tarmoqlarini va jahonning deyarli barcha mintaqalarini qamrab olgan. TMKlarning moliyaviy aktivlari summasi XX asr oxirida 2,1 trillion dollarni, ularning chet ellardagi aktivlari 13,3 milliard dollarni tashkil etgan edi. TMKda 6 million kishi ish bilan band bo'lgan edi. 100 ta eng yirik ana shu TMKga chet el aktivlarining 15%, savdoning 22% va ish bilan bandligining 19% to'g'ri keladi. TMKlarning kelib chiqishining asosiy vatani bo'lib Evropa it-tifoqi davlatlari, AQSh, Yaponiyadir. Ularning faoliyati asosan avtomobil, elektronika va neft, ximiya, farmatsevtika sanoatlari mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan.

BMTning tashkiloti YuNKTAD tomonidan 1990 yildan boshlab TMKlarning faoliyatlarni baholash maqsadida «transmilliylik in-deksi» deb ataluvchi ko'rsatkichlari joriy etildi. Iqtisodi yuksak Gollandiya, Belgiya kabi rivojlangan, lekin nisbatan kichik mamlakatlar, shuningdek Kanada ancha yuqori indeksga ega.

Bu mamlakatlar TMKlarining «Transmilliylik indeksi» oʻrta-cha 92-98 foizni tashkil etgan boʻlsa, Evropa Ittifoqi davlatlarida 63 foizga teng boʻldi.

Iqtisodiyot tarmoqlari ichida «transmilliylik indeksi» koʻr-satkichi yuqori boʻlgan tarmoqlarga axborot olish vositalari, oziq-ovqat va ichimliklar, qurilish, ximiya, farmatsevtika, elektronika va elektron qurilmalari tarmoqlari kiradi.

YuNKTAD maʼlumotlari boʻyicha 50 ta yirik kompaniyalar rivojlangan mamlakatlarda joylashgan. Bulardan ikkitasi Petroleos de Venezuela va DEU korporeyshn jahonning 100 ta yirik TMKlari roʻyxatiga kiritilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda joylashgan TMKlarning chet el aktivlarining oʻrtacha miqdori 1,3 milliard dollarni tashkil etadi. Bularning joylashgan erlari Janubiy Koreya, Xitoy, Venesuela, Meksika, Braziliya mamlakatlardir. Mazkur mamlakatlar chet el aktivlarining 80 foizi bu guruh kompaniyalariga toʻgʻri keladi. Diversifikatsiyalashgan kompaniyalarning tarmoqlar ayirmalarida oziq-ovqat, ichimliklar, neft sanoati va qurilish ustunlik qiladi.

Oʻtish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan mamlakatlar joylashgan TMK ish bilan bandlik darajasi juda past, oʻrtacha 12 %ni tashkil etadi. Oʻrtacha «transmilliy indeks»i bu guruh kompaniyalar uchun 14% qilib belgilangan. Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlarida joylashgan. Tarmoqlar ayirmalarida transport, himoya va farmatsevtika, togʻ-kon sanoati, neftni qayta ishlash asosiy oʻrin tutadi.

## 2. TMKning raqobat va integratsiya bo'yicha strategiyalari

TMKlar o'zlarining raqobat strategiyalarini firmalarning ra-qobatdagi ustunligi asosida tuzib chiqadilar. Raqobatda ustunlikka erishishning ikkita asosiy turi mavjud: bular raqobatchilarga qa-raganda kam xarajatlarga bilan mahsulot ishlab chiqarish hamda raqobatchisiga qaraganda iste'mol qiymati yuqori bo'lgan tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashish, ya'ni tovar differentsiatsiyasi.

- kam chiqim xarajatlarning kam bo'lishi firmaning raqobat-chisi tovarlariga o'xshash tovarlarni ishlab chiqarishning kam chiqim yo'llarini topish va ishlab chiqarish hamda kam chiqim bilan sotish qobiliyati borligini bildiradi;

- differentsiya – bu iste'molchilar didiga mos hamda ishlatish uchun qulay bo'lgan tovarning kamdan kam uchraydigan noyob va qim-matbaho turini yaratish. Bunda firma har bir mahsulot birligidan raqobatchisiga qaraganda ko'proq daromad oladi;

- xorijdagi bandlik darajasini juda pastligi o'rta 12%;

- o'tish davri instituti mamlakatlari TMKlar uchun xosdir. Bu guruh kompaniyalar uchun o'rta transmilliylashni indeksi 14% dara-jasida belgilangan.

Bunda har qanday ta'sirchan strategiya raqobatining har ikki turida qaysi biri afzalligini hisobga oladi. TMK bunday fir-malarning raqobatbardoshlik xususiyatlaridan foydalanib, lokal hamda xalqaro bozorlarda raqobatlashib kelmoqda. Keltiriladigan jadvalda firmaning raqobatda ustun kelish yo'llari ko'rib chiqil-gan.

Hozirgi vaqtda har qanday firmaning raqobatda ustun kelishi-ning asosiy usuli – bu o'zining texnologiyasiga ega bo'lishidadir. Texnologiyaning doimiy takomillashtirib borishi va olingan nati-jani jadal sur'atda ishlab chiqarishga joriy qilinishi transmil-liy kompaniyalarni rag'batlantirishga ta'sir etadi.

Raqobatda ustunlikka erishishning nisbatan Yangi usuli iqtiso-diy aglomeratsiya hisoblanadi. Bu tushuncha 90-yillar oxirida kiri-tilgan.

Bu usul TMKning turdosh firmalar yoki ixtisoslashtirilgan yordamcha tarmoqlari to'plangan «klaster» mintaqalari ilm-fan bi-lan bog'liq sohalariga investitsiya kiritish bilan amalga oshiriladi. Ilgarigi klasterlar (bir guruh firmalar) bir geografik makonda to'plangan va milliylik xususiyatiga (Shveytsariya soatsozlik sano-ati) ega edi. Yangi klasterlar (ilmiy va texnologik parklar, ilmiy-tadqiqot korsortsiumlar, yordamicha xizmat ko'rsatish markazlari) «tashqi» omillar iqtisodiga yo'naltirilgan.

Bundan ko'zlangan maqsad shunday markazlarning imkoniyatlaridan foydalanish, klas-terlar qaerda joylashgan bo'lsa, firmalarni o'sha erga mablag' kiri-tishga yo'naltirish edi. Bu, o'z navbatida, TMKni mazkur tadbirlarda faol ishtirok etish zaruratini tug'dirar edi. Firmalarning pirovard ish natijalaridagi muayyan ustunligidan foydalanib «bunyod-korlikmi yoki sotib olish bilanmi» degan masalani echish kerak edi. Hozirgi vaqtda bu ikki yo'ldan qaysi birini tanlab olishning eng samarali usuli «internalizatsiyalashtirish» kontseptsiyasidir. (Bu kontseptsiyani amerikalik olimlardan Bakli va Kesson 70-yillarning oxiri va 80-yillarning boshida ishlab chiqqan). Bu kontseptsiya firmalarnng o'z mulklarini Yangi bozorlarga chiqarishni kengay-tirishga, xom ashyolarning Yangi manbalarini va ishlab chiqarish ja-rayonlarining Yangi bosqichlarini topishga qaratilgan edi. «Inter-nalizatsiyalash»ning gorizonta va vertikal integratsiyalashdan farq qiladigan tomonlari shundan iborat.

- asosiy e'tibor strategik tanlov - boshlang'ich materiallarni sotib olish yoki boshqa firmalarga sotish;

- u vertikal va gorizonta integratsiyasi chegarasi doirasidan chiqib, bitimlar tuzish doirasini kengaytirishni o'z ichiga oladi.

Firmalar o'z tasarruflarida bo'lgan xususiy aktivlari imkoniyatlaridan «internalizatsiya» qilish yo'li bilan agar firma yangi tur operatsiyalarni sotib olish yoki bunyod etishdan foydasi tavak-kalchilik oqibatida kelib chiqadigan xarajatlardan yuqori bo'lishi kutilgan taqdirda foydalanishi mumkin.

XX asrning 80–yillaridan boshlab qarama-qarshi jarayon «eks-ternalizatsiya»vujudga keldi. U foyda keltirmaydigan alohida bir korporatsiya faoliyatini ajratib tashlash fikrini ilgari surgan edi. Ko'pgina TMKlar xavf-xatar kuchayib borayotgan bir sharoitda o'z faoliyatlarini murakkab tomonga qaratdilar. Yarim fabrikatlar ta'-minotini va boshqa tur xizmatlarni tashqi mustaqil firmalarga topshirdilar.

TMKning raqobatbardoshlik strategiyasining shakllanishiga «narx-lar zanjiri» kontseptsiyasi katta ta'sir ko'rsatdi. Bu kontseptsiya Garvard biznes maktabining professori M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, 1985 yili chop etilgan «Raqobat afzalliklari» kitobida yoritib berilgan.

**Xalqaro korxonalarining raqobatda ustunlikka erishi usullari**

<b>Afzalliklar</b>	<b>Xarakteristika</b>
I. Umumiy tartibdagi raqobatbardosh	
O'z texnologiyasiga ega bo'lish	Firmaga tegishli bo'lgan nou-xaular yoki mah-sulot ishlab chiqarish texnologiyasi, boshqaruv usul-lari
Savdo belgisi yoki markasiga asoslangan ustunlik «gudvill»	Sifat, xizmat ko'rsatishda erishilgan mavqei
Ishlab chiqarish ko'lamini hisobidan iqtisod qilish Shu jumladan	Ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish hisobiga maxsulot birlamchi ketadigan sarf-xarajatlarni kamaytirish
Xarid qilishdan	Katta hajmda sotib olish hisobga yarimfabrikat va xom ashyo narxini pasaytirish
Moliyalashtirishga	Yirik firmalar uchun kichik stavkalarda moliya-lashtirishni amalga oshirish
Keltirib berishga	Katta hajmdagi xom ashyo va mahsulotlarni yuklab berish mahsulot birligi narxini pasaytiruvchi
Reklama	Bir nechta bozorlarda sotish uchun imkon beradigan «xalqaro» ixtisoslashgani reklamasi beruvchi
Davlat tomonidan ta'minlanish	Davlat tomonidan tartibga solib turuvchi bozorga erkin yoki preferentsial kirish
Ishlovchilarning menejmenti	Ish bilan band kishilarni guruhi bilan rag'batlantirish va mehnat unumdorligini optimal-lashtirish
II. Multinatsionalizatsiya bilan bog'liq raqobatbardosh afzalliklari	
Marketingni multinatsional imkoniyatlari	Bir nechta bozorlarni bilish va unga kirib borish
Multimilliy ta'minlash mablag'lari	Yangi bir manbaga qaraganda chiqimlarni kamaytirishga yordam beradigan bir necha mamlakatlar xom ashyo, yarimfabrikat va boshqa manbalariga ishonchli kirib borish
Multimilliy diverfikatsiya	Bir nechta mamlakatda operatsiya o'tkazish biznes tavakkalchilik va «mamlakat tavakkalchiligi»ni kamaytirish
Bir necha mamlakatlardagi menejment tajribasi	Bir necha mamlakatda operatsiyalar o'tkazish davrida hosil qilgan ko'nikmalari tajribasi raqobatchilardan ustunligini ta'minlashi
Aglomeratsiya iqtisodi	Iqtisodiy ishlab chiqarish faoliyati aglomeratsiyalash natijasida boshqa firmalar bilan hududiy ishlab chiqarish korporatsiyalariga birlashishi

**Oddiy integratsiya.** Bunda filiallar qoidaga ko'ra (bosh kom-paniya tomonidan olingan texnologiya asosida) firmaga faoliyat tur-lari doirasida

ishlab chiqarishda qo'llaniladigan, raqobat ustun-ligini ta'minlash xususiyatiga ega bo'lgan maxsus komponentlarni etkazib beradilar. Bu bosh firma bilan filiallar (bo'limlari) o'r-tasida katta hajmdagi axborotlar va faoliyatlaridagi boshqa nati-jalarni almashlab turishni amalga oshirish imkonini beradi.

**Integratsion strategiya kompleksi.** TMK xalqaro miqyosda o'z faoliyatini erkinlashtirish, axborot texnologiyasini tarqatish, ra-qobatning keskinlashuvi ostida xalqaro miqyosda o'zining aktiv-larini qayta tashkil etishga kirishadi. TMK o'zining geografik tarqoq bo'limlarini va ishlab chiqarishning bo'laklarga bo'lingan tizimini global yoki mintaqaviy integratsiyalashgan ishlab chiqarish va sotish tarmoqlariga aylantirdi.

TMK ishlab chiqarishni global kontsentratsiyalashga mahsulot assortimentini aniqlash uchun mintaqaviy bozorlarni shakllanti-rish orqali moslashib boradi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi firmalarning bozorga kirib borishi engil-lashdi. Bu yo'ldagi to'siqlarning kamayishi va firmalarning ishlab chiqarishda murakkab texnologiyalar qo'llanishining o'sib borishi hisobiga amalga oshirildi. Bu, o'z navbatida, ko'pchilik tarmoqlarda xalqaro raqobatni intensivlashishiga olib keldi. Ikkinchi tomon-dan esa ko'p turdagi standart mahsulotlarni milliy va hududiy didlarga moslashtirish kerak.

Vujudga kelgan vaziyat TMKni raqobatda ustunlikni ushlab tu-rishning yangi yo'llarini izlab topish va ularning «qiymat zan-jiri»dagi alohida elementlarini koordinatsiyalash, raqobatdagi us-tunligini ishlab chiqarish, marketing, dizayn, mahsulotni etkazib berish, mahsulot xaridorgirligini ko'rsatish uchun qilingan xizmat-lar bilan belgilaydi. Shu munosabat bilan firmaning raqobatdagi ustunligi manbalari tahlilini qilish uchun firma faoliyatining barcha turlarini hamda bu turlarning o'zaro aloqalarini doimiy ravishda tahlil qilib borish zarur. M.Porterning «qiymat zan-jiri» bunday tahlil qilishning asosiy quroli (instrumenti) bo'lib hisoblanadi. Bu yo'l bilan qay holatda ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'yilganligini, imkoniyatlar va mavjud imkoniyatlar manba-larining differentsiiallashuvi qaerda sodir bo'lganligini aniqlash maqsadida firma faoliyati muhim strategik elementlarga bo'lib o'rganiladi. Firma o'z faoliyatida ana shu strategiyani amalga oshir-gan taqdirdagina raqibidan ustunlikka erishadi.

Firmaning «qiymat zanjiri» keng ma'noga ega bo'lgan «qiymat tizimi»ga kiradi. Ta'minotchilarning «qiymat zanjiri» bo'lib, ana shu zanjirda firma tomonidan ishlatiladigan materiallarning o'z «qiymat zanjiri» bo'ladi. Ishlab chiqaruvchilarning tayyor mahsu-lotini sotishda



ham o'z «qiymat zanjiri» mavjud. Oxirgi bosqichda firma mahsulotlari iste'molchi «qiymat zanjiri»ning bir qismiga aylanadi. Raqobatda qo'lga kiritilgan va ushlab turilgan ustunlik faqat «qiymat zanjiri» tushunchasining o'zi bilan emas, balki mu-ayyan firmaning umumiy «qiymat tizimi» bilan ham belgilanadi.

TMKlar raqobat ustunliklaridan foydalanish maqsadida o'z-larining raqobat ustunligidan oladigan foydalari va sarflarini baholovchi raqobat strategiyalarini ishlab chiqadilar.

Raqobat strategiyasi firmaning butun harakati, raqobatda ku-rashida nafaqat juda yuqori ustunlikka erishishga qaratilmasdan, balki undan ham muhimroq bo'lgan firmaning har bir ustunlik-larini to'g'ri baholash va eng maqbulini tanlab olishga qaratilishi lozim.

Bugungi kunga kelib global bozor va innovatsiya ta'sirida, yangi korporativ strategiyalar paydo bo'ldi. Ishlab chiqarishdagi kamchi-qimlilik o'rniga sifat, dizayn hamda tovarlarni sotishdan oldin-dan va sotishdan keyingi bo'lgan munosabatlar yordamida raqobat ustunliklarini tabaqalashtirishga ko'proq urg'u berilmoqda.

Innovatsion ustunliklarni qidirish o'z ko'lami jihatidan yangi tarmoqlar sonini qo'shib hisoblanadigan bo'lsa, yanada global tus olmoqda. Firmalar o'zlarining axborot bazalarini kengaytirishga ko'proq e'tibor qaratmoqdalar. Bu maqsadda keng kommunikatsiyalar tarmog'ini yaratmoqdalar.

Shuningdek, TMK turli mamlakatlarda joylashtirilgan aktiv-larini tashkil etish va boshqarishning yanada samarali usullarini qidirmoqda. Korporativ darajadagi kompleks integratsiya «qiymat zanjiri»ni alohida funktsiyalarga bo'lishni va ularni barcha firma-larning manfaatlarini ifodalaydigan mamlakatlar va mintaqalarga joylashtirishni ko'zda tutadi.

Bosh kompaniya va uning filiallari o'rtasidagi farq yo'qolib borayotganligi shundaki, TMK umumiy tizimdagi alohida zvenolar ichki korporativ mehnat taqsimotining aniq belgilab berilgan qis-mi funktsiyalarini o'z zimmalariga olayotganligidir.

Bo'layotgan o'zgarishlar firmaning ierarxik strukturasi yo'q qilib, tarmoq strukturasi keltirib chiqaradi. U boshqa korpora-tiv tarmoqlar bilan o'zaro aloqa qilgan holda ko'pincha aloqa vosi-talari orqali xususiy mollarni etkazib berishdan tortib to litsenziyali kelishuv-gacha konsortsi-um va strategik alyans hujjat-larini etkazib beradi. Bunday ichki tarmoqlar va firmalar o'rtasi-dagi tarmoqlararo munosabatlar kompleks integratsiyalash strategiya-sining ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Strategik alyans firmalararo aloqa tizimida alohida o'ringa ega. Bu alyans aniq bir maqsad yo'lida faoliyat ko'rsatayotgan yirik va boshqa sohalarda raqobatlasha oladigan firmalarni birlashtiradi. Hozirgi kunda firmalararo aloqalarning bunday shakli keng tarqalgan. Ko'plab firmalarning strategiyasida strategik alyans markaziy o'rinda turibdi. Alyanslar ko'pchilik tarmoqlarga xosdir. Lekin ular, ayniqsa, axborot texnologiyasi, biotexnologiya, avtomo-bil ishlab chiqarish va yangi materiallar ishlab chiqarishda muhim o'ringa ega. Biroq odatda bunday tarmoqlar shunday tarmoqlar hisoblanadiki, ular uchun bozorga kirib borish, keng ko'lamli iqtisodiyot va texnologiyalarni tez o'zlashtirib turish va operatsiya tavadkalchiliklarining yuqoriligi xos bo'lib, bu ularning «eng katta nuqson»idir. Ammo bu degani ular aksiyadorlik kapitalida qatnashmaydi, degan gap emas. Bu, eng avvalo, qo'shimcha aktivlardan birgalikda foydalanib, har xil ko'rinishdagi ustunliklarga erishishni bildiradi.

Hozirgi kunda korporativ strategiya va kompaniya tashkil etish turlaridan biri integratsion strategiya kompleks ko'rinishidagi turidir. Uning xarakterli belgilari:

- hamma individual birliklar korporativ tizimni birlashtiruvchi yagona strategiyaga bo'ysinishi;
- hamma korporatsiyalarning ichki funktsiyalari uchun eng yaxshi samara beradigan kooperativ strategiya, ya'ni korporatsiya bo'yicha qaysi tuzilma (gorizontal yoki vertikal) ko'p daromad keltiradigan bo'lsa, ana shuni tanlab olinishi;
- shuningdek, har bir funktsiyaning geografik «qamrovi» korporatsiyaning umumiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda (ba'zi bir funktsiyalari moliyaviy) global integratsiyalashgan, boshqa biri hududiy (ishlab chiqarish) funktsiyalarning bir qismi (kadrlar tayyorlash – lokal bo'lgan) aniqlanishidir.

### 3. TMK va chetga kapital chiqarish

TMK strategiyasining o'zgarishiga kapital kiritishning to'g'ri-dan-to'g'ri xorijiy investitsiyasi (TXI) shakli ko'proq ta'sir etadi. XX asrning 90–yillarida bunday shakldagi kapital kiritish boshqa xalqaro iqtisodiy munosabatlar shakliga qaraganda juda tez sur'at-lar bilan o'sib bordi. TXIni o'sish darajasi xalqaro savdoning o'sish darajasidan o'zib ketdi. TMKning global strategiyasida muayyan loyihaga muvofiq ikkidan birini yo savdo-sotiq yoki bo'lmasa kapital chiqarishni tanlab olish masalasi ko'ndalang bo'lib qoldi.

Tanlovning nazariy asoslanishi Dj. Doni TMKga oid adabiyot-larda keng qo'llaniladigan «Elektik paradigma» degan OLI kontsep-tsiyani shakllantirdi. U o'z ichiga firma va mamlakatning o'ziga xos afzalliklarini oladi (mana shuning uchun ham u «elektik» deb nom olgan).

TXI faqat 3 ta determinant yig'imi bo'lgandagina bajariladi.

Xalqaro ishlab chiqarish bilan bog'liq moliyaviy oqimlar bunyodkorlik ishlari, chet eldagi filiallarni sotib olish va kengay-tirish, resurslarni o'z ichiga oladi. Bunda TMK bevosita inves-titsiyalar bilan birga xalqaro kapital bozoridagi, chet eldagi fi-liallari, ular tomonidan o'zlashtiriladigan resurslardan ham foydalanishi mumkin. Bu – TMK xarajatlarining bevosita inves-titsiyalar shaklidagi resurslar hajmidan oshib ketishiga olib kela-di.

1979 yili «Rivojlanayotgan mamlakatlarning multimilliy korxo-nalari» (Gonolulu shah.) konferentsiyasida Danni tomonidan quyidagi qoida ilgari surildi: Har bir mamlakatning kapitalini olib kirish va chetga chiqarishi shu mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq. Keyinchalik bu kontsepsiya «Investitsion rivojlanish traek-toriyasi» degan nom oldi. Kontsepsiya bo'yicha har bir mamlakat 5 ta investitsion rivojlanish bosqichini bosib o'tadi. Bu bosqichlar mam-lakatlarning bevosita investitsiyani qay darajada import qilish, qay darajada eksport qilish qobiliyatiga qarab turkumlashtiriladi (klassifikatsiya). Bu bosqichlar o'z navbatida mamlakatning bu qo-biliyati OLI kontsepsiyasidagi ko'rsatilgan nisbatga bog'liq.

1-bosqich: mamlakatning qiyosiy ustunligi, tabiiy resurslarga investitsiyani hisobga olmaganida, TXIni jalb qilishi uchun etarli emas (ichki bozorlarning torligi, davlat iqtisodiy siyosatining qoniqarli darajada emasligi, infratuzilma va kommunikatsiyalar-ning rivojlanmaganligi, ichki kuchlarning yaxshi tayyorlanmaganligi). Davlat bozordagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun sharoit yaratishda qatnashadi.

Bu bosqichning xarakterli tomonlari proteksionizm, eksport subsidiyalari choralarini tashkil etadi. Davlat juda cheklangan do-irada innovatsion imkoniyatlarni vujudga keltirish va ishchi kuch-larining malakasini oshirishda qatnashadi.

2-bosqich: Kapital importi o'sib borayotgan bir paytda TXI eksporti juda past darajada qolib ketayotganligi bilan izohlanadi. Ichki bozor o'sadi. Bu investitsiyalar, birinchidan, import o'rnini bosuvchi vazifani bajarib turadi. Qoida bo'yicha, import kapitali vertikal integratsiya asosidagi engil sanoat, ko'p mehnat talab qi-luvchi past texnologiyali ishlab chiqarish yoki tabiiy resurslar va to-var xom ashyolari hisobidan vujudga keladi. Kapital eksporti inves-titsiyaning shunday ko'rinish oladiki, bunda u rivojlangan mamlakat-larning strategik aktivlarini sotib olish uchun yoki aniq hududiy savdoga yoki bozorning bir qismini egallab olishga qaratilgan investitsiya shaklida bo'ladi. Sof holda «kapital kiritish indeksi» (NOI-NETTO Outward investment) yomonlasha boradi.

3-bosqich: kapital importi o'sish sur'atini asta-sekin pasayti-rib, kapital eksporti sur'atini ko'tarib borish.

«NON indeksi» o'sadi. Mamlakatning texnologik resurslari o'sish darajasi standart mahsulot ishlab chiqarishga qaratiladi. Ko'p mehnat talab tarmoqlarda ish haqining ko'tarilib borishi natija-sida mamlakatning nisbiy ustunligi yomonlashadi va chetga kapital chiqarish rivojlanishning eng past bosqichlarida turgan mamlakat-larga yo'naltiriladi. Xorijiy firmalar o'zlarining raqobat ustun-liklarini takomillashtirishga majbur bo'ladilar. Ular «jamoalarga foydasiga» degan qoidaga amal qiladi. Xorijiy firmalar bu ustun-liklarni bozor orqali emas, balki baynalminallashtirish (internalizatsiya) orqali foydalanadilar. Qabul qiluvchi mamlakatlarning bozor sig'imi va eng yaxshi milliy innovatsion bazaga ega ekanligi jihatidan ustunligi oshib boradi.

Rivojlanishning eng past bosqichida turgan mamlakatga ham, yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarga ham kapital kiritila-veradi. Davlatning roli o'zgaradi. Davlat firmalarning raqobat us-tunligi zaif bo'lgan tarmoqlarga kapital kiritishga va shu yo'l bi-lan ustuvorligini ta'minlashga harakat qiladi. Shuningdek, ko'-rinishdan ustunlikka ega bo'lsa ham boshqa davlatlar firmalari bilan qiyoslab ko'rilgan zaifligi bilinib qoladigan firmalarga kapital kiritishni rag'batlantiradi.

4-bosqich: Mamlakatning xorijda jamg'arilgan investitsiyalari mamlakat ichkarisidagi xorijiy investitsiyalarga teng yoki ko'proq bo'ladi. Mahalliy firmalar nafaqat o'z ichki bozoridagi xorijiy firmalar bilan muvaffaqiyatli raqobatlasha oladi, balki ular tashqi bozorlarga kirib borish

imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Mam-lakatning qiyosiy ustunligi «yaratilgan aktivlarga» (texnologiyaga) to'liq asoslanadi. Eksport mahsulotlari o'rnini bosa oladigan kapi-tal chiqarish o'sadi. Firmalar o'zlarining raqobatdagi ustunlik-laridan foydalanib, bozorlarni «xalqarolashuviga» harakat qiladi. Chunki barcha firmalarning raqobatda ustunlikka erishish yo'llari bir xil: avval ichki tarmoqlararo ishlab chiqarishni nisbatan o'stirish, keyin tarmoqlararo savdoga qaratiladi. Shunga qarab dav-latning roli o'zgaradi, u o'z e'tiborini bozorning erkin ravishda ishlab turishi ta'minlanishiga qarata boshlaydi.

5-bosqich: «NOI indeksi» nolga yaqinlashayotgan bir paytda har ikki yo'nalish bo'yicha o'sish sur'ati orta boshlaydi. Bu jarayonning ikkita farq qiluvchi tomoni bor. Birinchidan, kapitalning ko'chib yurishi bilan bog'liq, chegaradan tashqarida tuziladigan bitimlar borgan sari baynalminallashadi (kompaniyaning o'z doirasida amalga oshadi). Bu bosqichda birorta mamlakat «aktivlarni yaratish bo'yicha ustunlikka erisholmaydi». Ikkinchidan, firmalar faoliyatining globallashuvi natijasida ko'rinishidagi milliylik ham asta-sekin so'na boradi. TMK o'zi joylashib turgan mamlakat manfaatlaridan kelib chiqqan holda operatsiyalar o'tkazmay qo'yadi. TMK faoliyati faqat o'zining korporativ manfaatlariga qaratiladi. Firmalarning raqobatdagi nisbiy ustunligi va mamlakatlarning qiyosiy ustunligi doimiy ravishda o'zgarib turadi. Davlatlarning mikrotashkilot strategiyasini shakllantirishdagi roli oshadi. Bu bosqichlar kontsep-tsiya avtorlari tomonidan 90-yillarda joriy etilgan.

#### 4. TMKlar va davlatlar o'rtasidagi munosabatlar

XX asrning 70-yillarida hukumatlararo va xalqaro monopoliya-lar o'rtasida ziddiyatlar chiqa boshladi. Bu ziddiyatlar aktivlarni natsionalizatsiya yoki ekspropriatsiya qilinishida, ayniqsa, tomonlar manfaatlari o'rtasidagi ayirmalarda o'z ifodasini topdi. Hukumat-lar oldida TMKlarning qaysi iqtisodiy faoliyat turidan, qaysi harakatidan qay darajada manfaat ko'rishlari va ular faoliyatidan keladigan daromad qanday taqsimlanadi degan asosiy masalani xal qilish ko'ndalang bo'lib turardi.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlardagi, shuningdek, BMT tizimi-dagi hujjatlarda TMKlarning texnologik sirlarni muhofaza qi-lish, bozordagi monopol hukmronliklari to'g'risidagi, atrof-muhit-ga ta'sirlari, transfert narxlari hisobiga soliqdan qochish va boshqa shunga o'xshash masalalar o'z ifodasini topgan. Axborot olish-dagi inqilobiy o'zgarishlar asosida jahon iqtisodiyotida yuz bergan siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar davlatlar bilan TMKlar o'rtasida yangicha munosabatlarni vujudga keltirdi. XX asrning 80–yillardan boshlab o'zaro munosabatlardagi qarama-qarshilik o'rnini hamkorlik qilish egalladi. Iqtisodiy faoliyat globallashuvi kuchaydi. Buning asosiy sabablaridan biri milliy hukumatlarning TMKga nisbatan siyosatining o'zgarishi bo'ldi. XX asrni 90–yillarida hukumatlar o'zlarining ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlariga erishish yo'lida TMKlarga faoliyat ko'rsatishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishga harakat qila boshladilar, ularning hech bo'lmaganda raqib-lari qatori ichki bozorlariga, ishlab chiqarishlariga kirib borish-lari uchun yo'l ochib berishlari kerak edi. Davlatlar faqat TMKlar faoliyati orqasida ko'riladigan foydadan olinadigan ulushlarini ko'paytirishga harakat qilmasdan o'z ichki bozorlarida qo'shimcha qiymatni qo'shish bo'yicha TMKlar faoliyat strukturasi o'zgarishga e'tibor berishlari kerak. O'zaro munosabatlardagi bunday o'zgarish-larning belgisi to'g'ri xorijiy investitsiya rejimining umumiy erkinlashuvi bo'ldi.

Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini uzoq muddat ushlab turish, ko'tarish uchun integratsiyalashgan va kompleks yondashuvdan foydalanadi. Bunda raqobatchi mamlakat tomonidan qo'llaniladigan chora-tadbirlar hamda mamlakat ichidagi va chet eldagi TMKlarning o'tkazadigan ta'sir kuchlari hisobga olinadi. G'arb mamlakatlarining ko'pchilik hukuma-ti 90–yillar oxiriga kelib kapital harakati o'zlarining iqtiso-diyotlarida ham muhim rolo'ynashini anglab etadilar va bu sohada olib borayotgan siyosatlariga



boshqa mamlakatlarning munosabat-larini bilishga ko'proq e'tibor bera boshladilar.

Xalqaro ishlab chiqarishda investitsiyani qabul qiluvchi mamlakatning qatnashuv darajasi transmilliy indeksdir. Bu indeks ahamiyat jihatidan o'rtacha munosabatlarning to'rtta ko'rsatkichini ko'zda tutadi. Oxirgi uch yil ichida asosiy kapitalning yalpi qo'yilmalariga to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini, YaMMga to'g'ri xorijiy investitsiyalarni olib kelish hajmi, YaMMga nisbatan xorijiy filiallarga to'g'ri keladigan sof mahsulotning hajmi; ishlovchi-larning umumiy soniga nisbatan xorijiy filiallarida ishlov-chilar soni ko'rsatkichlaridan iborat.

Rivojlangan mamlakatlar ichida transmilliy indeksi eng yuqori darajasi Yangi Zelandiyaga (32 foizga yaqin), eng past darajasi Yaponiyaga (1 foizdan kam) to'g'ri keladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida Janubiy Koreya, Trinidad va Tobago 2% va 50% nisbatida.

MDH doirasida transmilliy korporatsiyalar va transmilliy moliya sanoat guruhlarining (TMSG) tashkil etilishi integratsiya jarayonlarini rag'batlantirishning qo'shimcha omillari bo'lishi mumkin. Hozirgi zamon TMKlari o'zlarining milliy chegaralaridan chiq-qan holda xalqaro ishlab chiqarish tarmoqlarini tuzadilar. Bozor mexanizmlarini rag'batlantirish ta'siri ostida xalqaro aloqalar-ning kengayishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga hamda resurslarni joylashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga olib keldi.

MDHning Davlatlararo iqtisodiy komiteti 1997 yilda TMK to'g'risidagi konvensiya loyahasini ishlab chiqdi. Bu konvensiyada TMKning vazifalari aniqlab berildi:

korporatsiyani tashkil etish va ro'yxatdan o'tkazish qoidalari;

TMKlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va ular faoliyatini rag'batlantirib turish;

TMK faoliyatida ishtirok etuvchilarning javobgarligi, hisobot va faoliyati yuzasidan nazorat o'rnatish;

ishlab chiqarilgan mahsulot va daromadga egalik qilish huqu-qini belgilash.

Hozirgi paytda MDH mamlakatlarida institutsional qayta-qurish va xususiy mulk konsentratsiyasi jarayonlari davom etmoqda. Buning natijasida TMKlarning moddiy va moliyaviy resurslari birlashtirilmogda, korporatsiyalarning imkoniyatlari kengayib bor-mogda. Ayniqsa, bu jarayon Rossiya Federatsiyasida jadal tus olgan.

So'nggi yillarda MDX hududida bir necha o'n TMSGlar faoliyat olib bormogda. Hamdo'stlik mamlakatlari moliyaviy va sanoat poten-tsialining

20% ga yaqini 70 ta TMSGlar qo'lida to'plangan. Ular to-monidan faol ravishda yonilg'i-energetik komplekslari yaratilmoqda. Ularning soni 30dan ziyodroq bo'lib, Belorussiya, Qozog'iston, Rossiya, Ukrainada faoliyat olib bormoqda. TMK larni tashkil etishda Rossiyaning «Lukoil», «Gazprom», «Rosneft», Qozog'istonning «Mu-naygaz», TMK «Ukrgezprom» (Ukraina), Ozarbayjon davlat neft kompaniyasi, «Gruzenergo» (Gruziya) kabi kompaniyalar ishtirok et-moqda.

Hamdo'stlik mamlakatlarida TMKlarni tashkil etish va rivojlantirishda mone'lik qilayotgan asosiy omil milliy qonunchilikda bir-biriga to'g'ri kelmaydigan masalalarning hal etilmaganligidir. Agarda Rossiya va Ukrainada Moliya-sanoat guruhleri (MSG) to'g'ri-sida qonun qabul qilingan bo'lsa, Belarus, Qozog'iston va O'zbekis-tonda Prezident Farmoni amal qilmoqda.

## 5. O'zbekistonda TMKlar faoliyati

So'nggi yillarda mamlakatimiz tomonidan tashqi savdo faoliyatini yanada kengaytirish, mamlakat eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan strategik siyosatning amalga oshirilishi, res-publika tashqi savdo balansida ijobiy saldoni ta'minlash mud-dati uzaytirilgan tashqi qarzdorlikni kamaytirish imkonini ber-di. 2000 yilga kelib respublika tashqi savdo oborotining hajmi 1991 yilga nisbatan qariyb 12 barobarga o'sdi va bunday natijaga O'zbekiston eksporti nomenklaturasi tarkibiga kiruvchi xom ashyo tovarlariga nisbatan jahon baholarining qariyb 20-40 foizga pasayib ketishi hisobiga erishildi.

2005 yil ma'lumotlariga qaraganda, respublika tashqi savdo-sida uzoq xorijiy mamlakatlarning ulushi 63 foizni, tovarlar va xizmatlar eksportida esa 64,1 foizni tashkil etdi. Mamlakatimizda 900 turdagi yangi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish orqali eksport tarkibi bosqichma-bosqich kengaytirildi, 2005 yilning yakuniy natijalariga ko'ra, tashqi iqtisodiy faoliyatda ish-tirok etuvchi korxonalarining umumiy soni 5000 tani, xorijiy mamlakatlarda tashkil etilgan savdo uylari, vakolatxonalari va qo'shma korxonalar soni esa 200 tani tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvi hamda yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan yangi turdagi tashqi iqtisodiy aloqalarning yo'lga qo'yilganligi nafaqat yangi turdagi korxonalarni tashkil etish, balki mavjud ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta qurollantirish, shuningdek, yuqori qo'shilgan qiymat ulushiga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarilishini ta'minlovchi yangi zamonaviy, ilg'or korxonalarni tashkil etishga qaratilgan. Raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish korxonalarining samarali ishlashi va tez sur'atlar bilan rivojlanishining zaruriy sharti bo'lib qolmoqda. Barcha turdagi yangi tovarlar sanoat korxonalarini tarmoqlari, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalarining, xususiy korxonalar, kichik va o'rta biznes korxonalarini tomonidan o'zlashtirib borilmoqda. Turli faoliyat sohalari bo'yicha yangi korxonalarining tashkil etilishi, yangi sanoat tarmoqlari, xususan, avtomobilsozlikning rivojlantirilishi pi-rovard natijada O'zbekiston tovar oboroti eksport va import tarkibi o'z ifodasini topmoqda. Xususan, Respublika sanoat tarmoqlari bo'yicha turli mashinalar va jihozlar eksporti 2000 yilda 8,3 foizga o'sdi. O'zbekiston ishlab chiqarilgan avtomobillar ko'proq yaqin xorij mamlakatlariga jo'natilmoqda. 2000 yilda eksport 1,3 barobarga ortdi. Xususan, «UzDaewoo-Auto», «Sam Kochauto» qo'shma korxonalarida ishlab

chiqarilgan avtomobillar MDH mamlakatlari bozorida o'z xaridorlariga ega bo'lib, ular xarid narxining nisbatan pastligi, mustahkamligi va sifat ko'rsatkichlarining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Biroq, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan avtomobillar va avtobuslar eksportining uzoq xorijiy mamlakat-larga to'g'ri keladigan hissasi hozircha unchalik katta miqdorni tash-kil etmaydi.

Bizningcha, O'zbekiston avtomobilsozlik mahsulotlari eksporti-ni kengaytirish strategiyasi rivojlangan uzoq xorijiy mamlakat-larga emas, balki rivojlanayotgan uzoq xorijiy mamlakatlar tomon qaratilmog'i lozim. Chunki, rivojlangan xorijiy mamlakatlar bo-zorlari segmentining katta qismi dunyo avtomobilsozlik sanoati bo'-yicha shuhrat qozongan trans milliy korporatsiyalar tomonidan zabt etilgan bo'lib, ushbu holat O'zbekistonda ishlab chiqarilgan avto-mashinalarning mazkur bozorda ayirbosh qilish imkonini chegaralab qo'yadi yoki xarid narxining tushishiga sababchi bo'ladi. Respublikada ishlab chiqarilgan avtomobillar va avtobuslar xarid narxlarining nisbatan pastligi rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlari uchun ayni muddaodir. Qolaversa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqa-rilayotgan turdosh mahsulotlar sifati unchalik yuqori darajada emasligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamla-katlar iqtisodiy jihatdan taraqqiy etmagan bo'lib, ular rivoj-langan mamlakatlarda zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqa-rilgan sifatli, biroq narxi qimmat avtomashinalarni sotib olish imkoniyatlariga ega emaslar. Ayni paytda, O'zbekistonda ishlab chiqa-rilayotgan avtomashinalar eksportini rivojlanayotgan mamlakatlar tomon kengaytirib borish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi davrda mamlakatimizda yirik transmilliy korporatsiya-lar faoliyat yuritishmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotining tayanch ustunlaridan biri «UzDaewoo-Auto» qo'shma korxonasi. Korxonani tarixi bilan tanishib chiqarkanmiz, quyidagilarni bilib olamiz:

«UzDaewoo-Auto» qo'shma korxonasi Markaziy Osiyodagi birinchi avtomobil ishlab chiqaruvchi korxonasi bo'lib, eng ilg'or texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan.

Ehtiyot qismlarining ba'zilarini ishlab chiqarish mahalliy ishlab chiqaruvchi «UzAutoSanoat» assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda olib borilmoqda.

Eng so'nggi texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan korxonani yiliga 200 mingdan ortiq mashina ishlab chiqarish quvvatiga ega. Ulardan: 100 mingtasi o'rta mashinalar, 50 mingtasi miniavtobuslar va 50 mingtasi kichik avtomobillar.

Mashina yig'uvchi zavodda (ayniqsa motor) ishchi xodimlarning malakasini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda, umumzavod hisobida 3750ta ishchi va xodimlar Koreya va jahondagi boshqa yirik avtomobil kompaniyalarida malaka oshirib qaytdi.

Yaqinda «UzAutoSanoat» Xalqaro motor transport ishlab chiqaruvchilar tashkilotining tarixiy kitobiga kiritildi.

2000 yil ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda transport eksporti 1197,4 ming AQSh dollarini tashkil etgan. Umumiy eksport-dagi ulushi 0,8 foizni tashkil etgan.

Bulardan tashqari yana nechta transmilliy korporatsiyalar mamlakatimizda faoliyat yuritmoqda.

TMKlar tomonidan ajratilgan investitsiyalar hajmi o'sish sur'atlarining asosiy sabablaridan biri - ularning o'zi bilan mablag', menejment, nou-xau kabi yaqqol ajralib turadigan va sezil-maydigan juda ko'p aktivlar, shuningdek, jahon bozorlarida ishlab tajribalarini va ko'nikmalarini olib kirishi bilan izohlanadi. Natijada keyingi yillarda nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar-ning, balki rivojlangan mamlakat hukumatlarining ham investor-lar uchun qulay muhitni shakllantirishga intilishi ortmoqda.

Umuman, xorijiy mablag'larning iqtisodiyotimizga jalb etilishi TMKlarning ichki bozordagi holat hisobiga homiylik qilishi uchun emas, muayyan oqilona iqtisodiy tamoyillarga asoslangan, milliy iqtisodiyot ravnaqi ko'zlangan holda amalga oshirilishi darkor.

## Tayanch so'z va iboralar

1. **Transmilliy korporatsiyalar** – bu aksionerlik yoki xususiy kompaniya bo'lib, uning tarkibiga muayyan bir mamlakatda tashkil topgan Bosh kompaniya va ishlab chiqarishi dunyo-ning turli mamlakatlarda joylashgan shu kompaniyaning filiallari kiradi.

2. **Tovar differentsiallasuvi** – iste'molchi didiga mos keluvchi tovar ishlab chiqarishni tashkil qilish.

3. **Internalizatsiya** – bu firmalarning o'z ishlab chiqarishlarini yangi bozorlar va xom ashyo manbalari qidirib topishga qaratgan harakatlari.

4. **Eksternalizatsiya** – korporatsiyalarning foyda keltirmaydigan tarmoqlarini ajratib tashlash.

5. **Qiymat zanjiri** – TMK xarajatlarini tahlil qilish usuli.

6. **Strategik alyans** – bir maqsad yo'lida raqobatlasha oladigan yirik firmalarning birlashuvi.

7. **Investitsion rivojlanish traektoriyasi** – bu nazariya-da har bir mamlakat 5 ta investitsion rivojlanish bosqichini bosib o'tadi.



## Nazorat savollari

1. TMKga tavsif berish, ularning zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'ri va ahamiyati.
2. TMKlarning rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish davri iqtisodidagi mamlakatlardagi faoliyatlarining farqli jihatlarini yoritish.
3. «Transmilliy kompaniyalar indeksi» TMK faoliyatini ifoda-lovchi ko'rsatkichlardan biri sifatida.
4. Raqobatli ustunlik shaklidagi «aglomerativ iqtisodiyot»ning mohiyati.
5. «Internalizatsiya» kontsepsiyasi va uni raqobatda ustunlikka erishishdagi ahamiyati.
6. M.Porterning «tannarx zanjiri» kontsepsiyasi mohiyati va maz-muni.
7. Raqobatda ustunlikka erishish usullarini yozing.
8. TMKning raqobatbardosh strategiyalari mohiyati va rivojlanish bosqichlari
9. Firmalararo strategik alyanslar mohiyati va zamonaviy maz-muni.
10. Savdo yoki kapital chiqarish tanlovini xarakterlovchi nazariy asoslar keltiring.
11. «Investitsion rivojlanish traektoriyasi» bosqichlarini tavsiflang.
12. TMK va davlat aloqalaridagi umumiy o'xshashlik va qarama-qarshilikni tavsiflang.
13. TMK va TMKning MDH miqyosida rivoji va ahamiyatini tavsiflang.

## **IX bob. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA**

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ob'ektiv asoslari va mohiyati
2. Integratsiya jarayonlari evolyutsiyasi va mintaqaviy integratsiyaning asosiy shakllari
3. Valyuta sohasidagi integratsiya
4. Hududiy iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish jarayonlari
5. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi integratsiyasi

# 1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ob'ektiv asoslari va mohiyati

XX asrning II yarmidan boshlab xo'jalik aloqalarini internatsionallasuvi hozirgi zamon jahon iqtisodini rivojlanishi-ning muhim omillaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday holat alo-hida yoki bir guruh rivojlangan mamlakatlar ta'sir doirasiga ki-ruvchi iqtisodiy mintaqalarni paydo bo'lishida namoyon bo'lmoqda hamda bu davlatlar ular atrofida joylashgan mamlakatlar uchun o'ziga xos integratsion Markaz bo'lib qolmoqdalar. Shu bilan birga, iqtisodiy integratsiya, bu jarayonda qatnashuvchi davlatlar o'rtasida ishlab chiqarish va kapital integratsiyasining tezlashuviga sharoit yaratmoqda.

Aytish joizki, to hozirga qadar iqtisodiyot fanida integratsiya haqida shakllangan nazariya mavjud emas. Integratsiyalashayotgan mam-lakatlar uchun xalqaro iqtisodiy integratsiyani (XII) foydalari va aniq ustunliklari haqidagi savolga hali to'liq javob berilmagan bo'lsa-da, xalqaro iqtisodiy integratsiyaga turli xil nazariy yonda-shuvlar mavjud. Klassik iqtisodiy nazariya vakillari (A. Smit, S. Mill, D. Rikardo, J.Sey va ularning izdoshlaridan hozirgi zamon iqtisodchilari – S. Xarris, E.Xeksher, F.Perts, G.Mordel, B.Olin, P.Samuelson, S.Linder, V. Leontev, J.Porterlar) xalqaro inte-gratsiyani xalqaro mehnat taqsimotidan kelib chiqqan holda baholaydilar. Ma'lumki, xalqaro mehnat taqsimoti, unda qatnashuvchi mamlakatlar uchun ma'lum darajada iqtisodiy manfaat ko'rishga olib keladi, mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlarni te-jaydi. Klassik nazariyaga ko'ra, ayirboshlashdagi ustunlik mam-lakatlar o'rtasidagi mehnat taqsimoti natijasida kelib chiqadi. Hozirgi sharoitda esa, aynan tex-nologiyalardagi ustunlik (S.Lin-der), raqobat ustunligi (M.Porter) jahon xo'jaligi aloqalarida ayirboshlashdagi ustunlikni shakl-lantiradi, uning ko'lamini ken-gaytirishga, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashga, xalqaro iqti-sodiy munosabatlarning yanada yuqoriroq darajada rivojlanishiga yordam beradi. Bu jarayonda sherik-mamlakatlarning iqtisodiy dara-jasi va strukturasi yaqinligi, texnologiyalaridagi o'xshashlik-lar muhim ahamiyat kasb etadi va tashqi bozorga kirib borish bilan qatnashuvchi mamlakatlar qo'shimcha oladigan ustunliklarida namoyon bo'ladi.

Hozirgi paytda aksariyat tadqiqotchilar qo'shimcha ustunlikni Bojxona Ittifoqi doirasida yaratib berilgan iqtisodiy shart-sharoitlardan kelib chiqadi, deb izohlaydilar. Bunday yondashuvga binoan integratsiya jarayonida yangi tovarlar oqimi yaratiladi, bu esa integratsiyada

qatnashuvchi mamlakatlarda serxarajat ishlab chiqarishlarni bartaraf etish, so'ngra, integratsiya doirasida ishlab chiqarilayotgan tovarlar, uchinchi mamlakatlardan import qilinadigan tovarlar o'rnini bosadi. Natijada, integratsiyada qatnashuvchi har bir mamlakatda ishlab chiqarish samaradorligini oshishiga olib ke-ladi.

Boshqa bir ilmiy qarashlarda mamlakatlarning integratsiyaga intilishlari omillar cheklanganligini bartaraf etishga qaratil-ganligidir.

Umumiy tushunchaga ko'ra, «mintaqaviy iqtisodiy integratsiya» bir qator mamlakatlarning xo'jalik yuritishda asta-sekin birlashish jarayonidir. Ana shu birlashish natijasida yaxlit xo'jalik organizmi-Xalqaro Mintaqaviy Kompleks shakllanadi. Aslini ol-ganda, integratsiya jarayoni tovarlar, xizmatlar, kapitallar harakat-dagi cheklashlarni bartaraf etish, o'zaro savdoni erkinlashtirish (liberalizatsiyalash) dan boshlanadi. Ana shularga mos ravishda she-rik-mamlakatlarning manfaatdorligi bo'yicha iqtisodiy, huquqiy, mintaqa miqyosida axborotlar olishning yagona makoni asta-sekin shakllanadi. Shuningdek, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda yangi sifat o'zgarishlari vujudga kela boshlaydi. Bu erda «mintaqa-viy»lik tushunchasi faqat chegaralarning geografik birligini emas, balki tarixiy jihatdan qaror topgan mintaqaviy birlikni ham bildiradi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning o'zaro iqtisodiy hamkorlik shakllaridan farqlaydigan asosiy belgilari quyidagilardan ibo-rat:

- Xalqaro iqtisodiy integratsiyada qatnashuvchi mamlakatlarning iqtisodiy siyosatni olib borishdagi kelishuvi.

- Milliy qonunchilik, uning normalari, standartlarining yaqinla-shuvi.

- Milliy ishlab chiqarish jarayonlarining birlashib ketishi, mintaqa doirasida ishlab chiqarish jarayonlarida yagona texnologiyaga amal qilishni shakllantirish;

- Ishlab chiqarishda, ilm-fan va texnika sohasida xalqaro ixtisoslashish va kooperatsiyalashni rivojlantirish ko'lamini ken-gaytirish;

- Integratsiya jarayonlarini maqsadga muvofiq tartibga solish;

Integratsiya jarayonlari umumiy tizimidagi alohida bo'g'inlar harakati quyidagilardan iborat:

1. Tashqi savdoni erkinlashtirish va «yuzaki» yoki «yumshoq» deb ataluvchi trans chegara oqimlarining o'sishi tufayli integratsiya jarayoni silliq o'tadi;

2. Haqiqiy ishlab chiqarish – chuqur integratsiyasi (deep integra-tion) qiyin kechadi;

3. Qarorlar qabul qilish sohalari – firmalar, tadbirkorlik bi-lan shug’ullanuvchilar ittifoqi, milliy hukumat, xalqaro davlat-lararo hamda milliy darajada qabul qilinadigan hujjatlar.

Integratsiyadagi ziddiyat ko’p jihatdan tomonlar manfaatlarini bir-birlariga mos tushmasligi natijasida kelib chiqadi. Ishlab chi-qarish tizimining ba’zi bo’g’inlari integratsiyalash jarayonlarida bir xilda qobiliyatini ko’rsata olmaydi.

Integratsiya rivojining shart-sharoitlari

- Integratsiyalashayotgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasining bir-biriga yaqin va bozor iqtisodiyot yaxshi rivojlangan bo’lishi, xo’jalik mexanizmlarining birgalikda olib borilishi;

- Davlatlarning chegaralari hamda iqtisodiy munosabatlarning tarix jihatdan qanday tarkib topganligi.

- Bir qator mamlakatlarda yuzaga kelgan iqtisodiy muammolarni birgalikda sa’y-harakat qilib echish.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya mikro darajada (korxonalar, firmalar) va makro darajada (davlatlar, mintaqalar) shakllanadi. Shu munosabat bilan integratsiyalashda ikkita yo’l vujudga keladi;

1. Ko’p qiyinchiliklarni engib o’tishga yordam beradigan trans-milliy firmalarni tashkil etish va rivojlantirish yo’li.

2. Davlatlararo kelishilgan holda maqsad sari yo’naltirilgan jahon xo’jaligi bozori makonini yirik mintaqalarda joylashtirish.

Bu ikki yo’nalishni birga qo’shib olib borish xalqaro iqtisodiy integratsiyaga o’tishni ta’minlash xalqaro xo’jalik munosabatlarning eng yuqori samarali va istiqboli yo’li bo’lib hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning sub’ektlari bo’lib xalqaro ishlab chiqarishni amalga oshirayotgan va ilmiy-texnika tomondan hamkorlik qilayotgan hamda tovarlar va xizmatlar almashinuvini olib borayotgan tomonlar hisoblanadilar. Xalqaro iqtisodiy integratsiya iqtisodiy usullar tizimi, tashkiliy chora-tadbirlar va ins-titutlar ko’rinishidagi XII mexanizmlarini ishga solish bilan amalga oshiriladi.

Mintaqaviy integratsiyaning maqsadlari:

1. Bozorni kengaytirish imkoniyatlaridan foydalanish va ishlab chiqarish ko’lamini oshirish hisobiga ishlab chiqarishdagi sarf-xarajatlarni kamaytirishdan iborat.

2. Hamma yo’nalishlar bo’yicha mamlakatlar o’rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash.

3. XII qatnashuvi mamlakatlarning jahon bozoridagi mavqeini raqobatdagi mintaqaviy ustunligini ta’minlash.

Integratsiyaning afzalliklari, xom ashyolar, moliya, ishchi kuchiga, ilmiy resurslarga kirib borishning osonligi, bozorning hajmiga qarab mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytira olish imkoniyatlari borligi, ijtimoiy masalalarni hal etishdagi qulaylik tomonlari, mamlakatlar o'rtasidagi raqobatning o'sib borishi, savdoda juda qulay sharoitlar yaratib bera olishi, infratuzilmani yaxshilash bi-lan parallel ravishda savdoni kengaytira borish mumkinligi, yangi texnologiyalarni keng joriy etish tomonidan afzallikka ega.

Mintaqaviy xalqaro investitsiya noxush hollarni keltirib chi-qarishi ham mumkin: rivojlanishdan juda orqada qolib ketgan mam-lakatlardan resurslarning (ishlab chiqarish omillari) oqib chiqib ketishiga olib keladi, qayta taqsimlash o'zidan kuchli sherigi foy-dasiga hal bo'ladi. TMK lar bilan xalqaro mintaqaviy integratsiya qatnashchisi bo'lgan mamlakat o'rtasida oligonol til biriktirish natijasida narxning ko'tarilib ketishi, haddan tashqari kontsen-tratsiyalash orqasida ishlab chiqarish hajmini oshirishdan kelib chiqadigan yo'qotish.

XX asrning 90–yillarida xalqaro iqtisodiy munosabatlar so-hasida mintaqaviy keskin interfikatsiyalash – «mintaqaviy bum» ni keltirib chiqardi. Bu ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: Birinchidan, mintaqaviy kelishuvlarning yangi oqimi – miqdorining oshib keti-shi ilgari tuzilgan bitimlarning yangi sharoitga moslab qaytadan tuzilishi va hokazolar. Ikkinchidan, bitimlarning sifat o'zgarishi – bitimlar o'sishining chuqurlashuvi, integratsiyaning ko'proq rivoj-langani shakllarini kompleks qo'llash. Shuningdek, «Makrominta-qa»–Shimoliy Atlantik, Tinch okeani «Evrosiyo», Janubiy va boshqa integratsiyalash mintaqalarining vujudga kelishi hamda rivojlanib borayotganligi edi. Mintaqaviy integratsion birlashmalar kelishuv bitimlari tuzish tendentsiyasi mustahkamlanib bormoqda. (MERKOSUR – Evropa Ittifoqi bilan Lotin Amerikasining Janubiy Konus mamlakatlari Umumiy bozori o'rtasidagi bitim).

Mintaqaviy integratsiya va globalizatsiya. Mintaqaviy iqtisodiy komplekslarga globallashuv rivojining muhim elementlari sifati-da qarash kerak. Mintaqaviylashtirish qo'shimcha imkoniyatlarni, sav-doni erkinlashtirish, kapital harakati, xalqaro iqtisodiyotdagi ish-lab chiqarishning barcha shakllarini rag'batlantirish mexanizmlari-ni vujudga keltiradi. Mintaqaviylashtirish jamoa proteksioniz-mini mustahkamlab, ba'zi bir savdo-iqtisodiy guruhlarining kuchayishiga sabab bo'lsa, globallashuvning umumiy jarayoniga to'g'a-noq bo'lishi ham mumkin.



## 2. Integratsiya jarayonlari evolyutsiyasi va mintaqaviy integratsiyaning asosiy shakllari

Integratsiya jarayonlari o'zining rivojlanishi tarixida bir necha evolyutsion bosqichlarni bosib o'tdi. Har bir bosqichning iqtisodiy rivojlanish modeli bo'lib, o'ziga xos xususiyatlari, integratsiya intensivligi darajasining har xilligi qamrovi-miqyosi bilan ajralib turadi. Bunda shuni hisobga olish kerakki, umumiy tendentsiyalarning mavjudligi va mintaqaviy integratsiyaning rivojlanish qonuniyatlari, aniq integratsiya guruhlarining boshqa integratsiya guruhlaridan tubdan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlari borligini unutmaslik kerak.

Hozirgi vaqtda nazariy qoidalarni (amerikalik olim B.Balash) va to'plangan tajribalarni hisobga olib, integratsiya bitishuvining quyidagi asosiy tiplarini yoki integratsiyaning asosiy shakllarini ko'rsatish mumkin.

- Erkin savdo-sotiq zonasi – makoni (free trade zone)
- Bojxona birlashmasi (customs union)
- Umumiy bozor (common market)
- Iqtisodiy ittifoq (iqtisodiy va valyuta ittifoqining eng yuqori bosqichi shaklida)
- To'liq iqtisodiy (va siyosiy) integratsiya

24-jadval

Integratsion kelishuv tillari	Ittifoqning ichki erkin savdo-sotig'i	Uchinchi mamlakat bilan muomala qilinishda yagona narx va kvotalar	Ishlab chiqarish omillarining erkin harakati	Qatnashuvchi mamlakatlar iqtisodiy siyosatni kelishib olishi	Qatnashuvchi mamlakatlar ning yagona iqtisodiy siyosati
Erkin savdo-sotiq zonasi	+	-	-	-	-
Bojxona birlashmasi	+	+	-	-	-
Umumiy bozor	+	+	+	-	-
Iqtisodiy ittifoq	+	+	+	+	-
To'liq iqtisodiy integratsiya	+	+	+	+	+

Erkin savdo-sotiq zonasi (ESZ) iqtisodiy kelishuvning shunday turiki, bunda kelishuv qatnashchilari savdo sohasida bir-birlariga nisbatan bojxona va tovarlarga bo'lgan miqdor cheklovlarini bekor qiladilar. Har

ikki kelishuvchi tomon uchinchi mamlakatga nisbatan o'zining tashqi savdo siyosatini olib borish huquqiga ega. (EAST, NAFTA, ASEAN, MERKOSUR). ESZ tuzish haqidagi kelishuv, qoidaga binoan, boj to'lovini Standstil oshirishning o'zaro moratori tamoyiliga asoslanadi. ESZ ni tuzish birinchi navbatda sanoat tovarlari savdosini uyushtirishni ko'zda tutadi. Qishloq xo'jalik tovarlariga nisbatan erkin bozor cheklangan xarakterga ega, bojxona nomenklaturasida bo'lgan ba'zi bir pozitsiyalarni qamrab olishi mumkin. Buning ijobiy tomoni shundaki, erkin sado zonasi qatnash-chilari-mamlakatlarning savdo siyosati ancha barqaror xarakterga ega bo'ladi. ESZ ni tashkil etish alohida milliy struktura ustidan boshqaruvni shakllantirishni ko'zda tutmaydi. Barcha qarorlar qoida-ga muvofiq, qatnashchi – mamlakatlarning oliy darajadagi shaxslari tomonidan qabul qilinadi va qaror qabul qilingan kundan boshlab uni bajarish majburiy xarakter kasb etadi, bu - tomonlarning olgan majburiyatlari va bajaradigan ishlarini muvofiqlashtirish imko-nini beradi. ESZ ni tashkil etish va ishlab turishi bir qator kamchi-liklardan ham xoli emas. Ichki bozorda raqobatning keskinlashuvi har doim ham milliy sanoat tomonidan ishlab chiqarilgan mahsu-lotning sifatiga va texnik darajasiga ijobiy ta'sir etavermaydi. Importni erkinlashtirish milliy ishlab chiqarishni xavf ostida qoldiradi, bankrotlik holatiga tushirib qo'yish xavfi tug'iladi. Bu o'z navbatida milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish uchun davlatning aralashuviga olib keladi. Shuningdek, chet el kompaniya-lari «kirib kelgan mamlakatlari» sanoat tizimlarida mahkam o'rnashib olishlari xavfi ham tug'iladi.

Bojxona Ittifoqi - (BI) Davlatlarning bir-biriga nisbatan savdoda bojxona boji va kvota solig'ini bekor qilish hamda uchinchi bir mamlakatga nisbatan yagona tashqi savdo siyosatini o'tkazish haqidagi kelishuviga asoslangan. GATTning 24–moddasiga binoan, bojxona ittifoqi bir necha hududiy bojxonalarni umumiy bojxonaga birlashtirib, ittifoq ichida bojxona bojini butunlay bekor qilishni va yagona tashqi bojxona tarifini joriy etishni ko'zda tutuvchi tashkilotdir. Integratsiyaning bu shakli tovarlar oqimini tubdan o'zgartirishni, kelishuv qatnashchisi – mamlakat im-portga qarab ish tutish, ishlab chiqarishda hamda mahsulotlarni iste'molida o'zgarish qilishni ko'zda tutadi. Agar qandaydir bir tovarga tashqi chegaralarda o'rnatiladigan BI tashqi tarifi o'rtacha miqdordagiga nisbatan ortiq bo'lsa (mazkur tizim tashkil etilmasdan oldin mavjud bo'lgan tashkilot davridagiga), bu holda BIga a'zo mamlakatlar arzonga tushuvchi tashqi manbalar ta'minoti resurslaridan voz kechib, qimmat bo'lsa ham birlashmaning ichki resurslaridan (birlashma foydasiga

bo'ladigan) foydalanishga yuz tutadilar. Agar tashqi tarif past o'rnatilgudek bo'lsa, narxning qoniqtirilishi natijasida uchinchi mamlakat tashqi savdo bozoriga e'tiborni qaratdilar. Bunday tadbirlar tashqi va ichki ishlab chiqaruvchilar raqobatini kuchaytirishi uchun qo'llaniladi. B.B. birlashma tarkibida yirik davlatlarning bo'lishi katta ahamiyatga ega. B.B. faoliyati integratsion jarayonlarni boshqarishga bo'lgan muno-sabatlarni o'zgartirishni va milliy boshqarish ustidan tashkilot tuzishni ko'zlaydi.

Birinchiidan, yagona bojxona bojiga o'tish va muvofiqlashtirish (koordinatsiya) tadbirlarini birgalikda amalga oshirish, bu har bir mamlakat milliy iqtisodiyotining ko'p tarmoqlarini rivojlanti-rishni qayta ko'rib chiqishda jiddiy yondashuvni talab qiladi.

Ikkinchiidan, ayrim tarmoqlar rivojlanishini makroiqtisodiy darajada muvofiqlashtirishning zarurligi. Bu ham uning faoliya-tida xilma-xil yangi muammolarni keltirib chiqaradi.

Uchinchiidan, nafaqat bojxona tarifi bo'yicha kelishib olish uchun muzokara olib borish talab etiladi, balki umum manfaatidan kelib chiqib, ichki bozorni koordinatsiyalash va moslashtirish haqida ham kelishib olish kerak bo'ladi.

BI faoliyati ishlab chiqariladigan va iste'mol qilinadigan barcha tovarlar spektri uchun bojxona tarifi siyosatini unifikatsiya-lashni (bir xil qolonga tushirishni) ko'zda tutmaydi. Integratsiya va-lyuta-moliyaviy sohada ham yuz beradi, lekin bu bosqichda (inte-gratsiyalash) bunday hamkorlik xizmatini o'tash roolidan iborat bo'la-di, asosiy rol vazifasini o'tamaydi. Mudofaa sanoati, energetika va shunga o'xshash sohalar bojxona birlashmasi sohasi doirasiga kirmaydi.

**Umumiy bozor (UB).** Barcha ishlab chiqarish omillarining umu-miy bozor ishtirokchilari – mamlakatlari orasida ko'chib yurishi uchun to'siq bo'ladigan g'ovlarni to'laligicha bartaraf etishni ko'zda tutadi. (Bunday bosqichni Evropa Ittifoqi mamlakatlari bosib o't-gan). Bojxona Birlashmasining o'sib umumiy bozorga o'tish iqti-sodiy va siyosiy omillar bilan belgilanadi. Umumiy bozorni tash-kil etish uchun B.B. doirasida amalga oshirib bo'lmaydigan 6-7 ta majburiy yirik masalalarni hal etish talab qilinadi. Bir qator mamlakatlar muayyan integratsiya guruhlarida ichida ko'chib yuruvchi ishlab chiqarish omillari umumiy resurslaridan maqsadga muvofiq foydalanish, mehnat taqsimotini rivojlantirish, ishlab chiqarish-ni ixtisoslashtirish va ishlab chiqarish miqyosini kengaytirish bilan tejamkorlik omillaridan to'liq foydalanishga yordam beradi. Biroq mavjud bu jarayonlar umumiy bozorga kiruvchi davlatlar tomonidan olib

borilayotgan iqtisodiy siyosat har xilligi tufayli to'siqlarga uchramoqda. Bu umumiy bozorning integratsiya jarayon-lariga salbiy ta'sir etmoqda.

UBni shakllantirishda quyidagi vazifalar hal etilishi kerak:

- UBga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi bojxona bojini bekor qilish;
- Yagona savdo siyosatini ishlab chiqish;
- Ba'zi bir tarmoqlar va iqtisodiyot sektorlarini rivojlan-tirishning umumiy siyosatini ishlab chiqish;
- Kapital, ishchi kuchlari, xizmatlar, axborotlarning erkin harakatlanishi, tovarlarning to'siq-g'ovlarsiz ko'chib yurishi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratib berish;
- Ijtimoiy va mintaqaviy rivojlanishga yordamlashadigan umumiy jamg'arma (fond)ni shakllantirish – «aylanishi» («povorot») bevosita iste'molchining manfaatlariga va ehtiyojlariga, «joylar-dagi ehtiyojlar»ni qondirishga qaratilgan bo'lishi;
- Raqobatni tartibga solib turuvchi me'yorlarning buzilish hol-lari oldini olish chora-tadbirlar tizimini joriy etishga alohida ahamiyat berish.

**Iqtisodiy Ittifoq (II).** Iqtisodiy ittifoq doirasida bir qator masalalar ko'rib chiqiladi hamda qatnashchi-mamlakatlar tomonidan olib boriladigan yagona iqtisodiy siyosat kelishib olinadi. Bu ishlab chiqarish omillaridan unumli foydalanishda to'siq bo'la-digan barcha g'ovlarni olib tashlashga yordam beradi. Bu birlashmaga a'zo mamlakatlar iqtisodiyotida ulkan iqtisodiy o'zgarishlar yuz berishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha ana shunday xildagi yagona integratsiya guruhi bu – Evropa Ittifoqi hisoblanadi. (1993 yil 1-noyabrda tashkil etilgan). Evropa Ittifoqi doirasida qishloq xo'jaligi bo'yicha yagona siyosat olib boriladi, shuningdek, kelishib olingan sanoat, energetika, transport, ijtimoiy, ilmiy-texnik va mintaqaviy siyosat o'tkaziladi.

Integratsiyaning bu shakli juda murakkab va integratsiya munosabatlarining kompleks shakllari – iqtisodiy va valyuta birlashmalari asosida shakllanadi. Bunday birlashmaning xarakterli tomonlari:

- Milliy valyutalarning muvofiqlashgan holda suzib yurishi;
- O'zaro maslahatlashib olingan holda fiksirlashtirilgan valyutakursini joriy etish, bu kurs qatnashchi – mamlakatlar markaziy banklari tomonidan maqsadga yo'naltirilgan holda qo'llab-quvvatlab turiladi.
- Mintaqaviy yagona valyutani muomalaga kiritish;
- Mavjud xalqaro valyuta birligi emissiya markazi bo'lib hisoblanadigan yagona bankni tashkil etish;
- Makroiqtisodiy siyosat bilan muvofiqlashtirilgan yagona valyuta va kredit siyosatini kelishilgan holda vujudga keltirish ta'minlanadi.

Hozirgi paytda bu talablarga javob beradigan birdan-bir integratsion guruh Evropa Ittifoqi doirasida tashkil etilgan «Evrozona»dir (1999 yil 1-yanvarida tashkil etilgan). Bu birlashma 11 mamlakatni birlashtirgan.

To'liq iqtisodiy va siyosiy integratsiya unifikatsiyalashtirilgan (bir xil normaga solish) huquqiy baza asosida yagona iqtisodiy siyosatni olib borish ko'zda tutiladi (umumiy soliq tizimi, mavjud yagona standartlash, yagona konfederativ mamlakatni shakllantiradi).

### 3. Valyuta sohasidagi integratsiya

Valyuta munosabatlari – tashqi savdo, iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlik, xorijga kredit hamda qarzlarni berish va olish, valyuta va valyuta aktivlarini sotib olish bilan bog'liq bitimlarni amalga oshirishda ishtirok etadigan valyuta bilan bog'liq muno-sabatlardir.

Valyuta munosabatlarning ayrim elementlari – antik davrda qadimgi Gretsiya va Rimda qarzga pul to'lashga berilgan tilxat va pul almashtirish shaklida paydo bo'lgan. Keyingi bosqich, Yapon, Antverpen va G'arbiy Evropaning boshqa savdo markazlarida «vek-sel yarmarkalari» rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Bu davrda hi-sob-kitoblar valyuta yordamida amalga oshirilgan. Feodalizm dav-rida va kapitalistik ishlab chiqarish rivojlanishida xalqaro hi-sob-kitoblarni amalga oshirish tizimi banklar orqali rivojlandi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, jahon bozori tashkil qilinishi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, jahon xo'jaligining tarkibiy tuzilishi hamda xo'jalik munosabatlari natijasida xalqaro valyuta munosabatlari rivojlana bordi.

- Davlat (hukumat, markaziy va davlat banklari);
- Xalqaro tashkilotlar;
- Yuridik shaxslar va birjalar;
- Jismoniy shaxslar (brokerlar, chayqovchilar va sayyohlar)

Zamonaviy tashqi iqtisodiy aloqalarda, shu bilan birga, valyuta munosabatlarida siyosat va iqtisodiyot, diplomatiya va tijorat, sanoat, savdo uyg'unlashib borayotganligini ko'rish mumkin.

Xalqaro valyuta munosabatlarning davlat tomonidan shakllantirishning huquqiy – tashkiliy shakli **valyuta tizimi** deyiladi. Milliy, hududiy va jahon valyuta tizimlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

**Milliy valyuta tizimi deganda** muayyan davlatning boshqa davlatlar bilan hisob-kitob qilishdagi quroli (instrumenti) pul va milliy organlarining umumiy yig'indisi tushuniladi. Milliy valyuta tizimi nisbatan mustaqil va faoliyat doirasida milliy chegaralardan chiqsa-da, umumdavlat pul-kredit tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy va jahon valyuta tizimlari aloqasi va rivojlanishi ularning elementlarida namoyon bo'ladi.

**Hududiy valyuta tizimi** – milliy va jahon valyuta tizim-larining oraliq elementlari bo'lib, u mamlakatlar hududiy guruhi integratsiyasiga xizmat qiladi. Bunga misol qilib, Evropaning valyu-ta-iqtisodiy ittifoqini keltirish mumkin.



**Jahon valyuta tizimi** – bu alohida olingan milliy iqtiso-diyotni jahon xo'jaligi bilan bog'lovchi mexanizmdir.

<b>Milliy valyuta tizimi</b>	<b>Jahon valyuta tizimi</b>
Milliy valyuta. Milliy valyutaning konvertirlanishi. Milliy valyuta pariteti. Milliy valyuta kursining tartibi.	Xalqaro valyuta hisob-kitob birliklari valyuta zaxirasi. Valyutaning o'zaro konvertirlanish shartlari.
Valyutaviy chegaraning va nazoratining bor-yo'qligi. Mamlakatning xalqaro valyuta likvidligini tartibga solish	Valyuta paritetining birxillashtirish tartibi.
Xalqaro kredit ayirboshlash vositalaridan foydalanishni tartibga solish.	Valyuta kursi tartibining reglamentatsiyasi.
Mamlakatning xalqaro hisob-kitoblarini tartibga keltirish	Valyuta chegaralarini davlatlararo tartibga solish.
Milliy valyuta bozori va oltin bozorining tartibi.	Xalqaro valyuta likvidligini davlatlararo tartibga solish.
Mamlakatning valyuta munosabatlari.	Xalqaro kredit ayirboshlash vositalaridan foydalanish qoidalarini yaxlitlashtirish.
	Xalqaro hisob-kitoblarning asosiy shakllarini yaxlitlashtirish.
	Jahon valyuta bozori va oltin bozorining tartibi
	Davlatlararo valyutaviy tartibga solishni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar

Xalqaro kelishuvlar, ikkiyoqlama va ko'pyoqlama shartnomalar va aktlar, jahon valyuta tizimining huquqiy asosini tashkil etadi. Jahon valyuta tizimining asosiy maqsadi – eksport va import uchun to'lovlarni tovar, kapital, xizmatlar va boshqa faoliyat turlarini amalga oshirishda xalqaro hisob-kitoblarni tashkil etish orqali samarali vositachilik qilish, shuningdek, xalqaro mehnat taqsi-motini rivojlantirish uchun mamlakatlar o'rtasidagi munosabat-larda qulay muhitini yaratishdan iborat.

Jahon valyuta tizimi yordamida iqtisodiy resurslarning bir mamlakatdan boshqasiga ko'chishi yoki aksincha, ushbu jarayonlar chegara-lanishi, milliy iqtisodiyot mustaqilligi cheklanishi yoki kengayishi, iqtisodiy muammolar (masalan, ishsizlik, inflyatsiya) bir mamlakatdan boshqasiga «ko'chib o'tishi» mumkin.

Jahon valyuta tizimi faoliyat yuritish va tartibga solishning alohida mexanizmlariga ega va jahon xo'jaligining global maqsad-larini ko'zlasada, u milliy pul va hududiy valyuta tizimlari bilan chamcharchas bog'langan.

Jahon valyuta tizimi xalqaro pul munosabatlari tashkil topishining tarixiy shakli bo'lib, u davlatlararo shartnomalar or-qali mustahkamlangan.

Jahon hududiy va milliy valyuta tizimlari doirasida quyidagi moliyaviy operatsiyalar amalga oshiriladi:

1) **Valyuta konvertirlanishi** – milliy valyutani xorijiy valyutaga almashtirish:

2) Tijorat banklari va birjalarda valyuta oldi – sotdi operatsiyalari. Bu **valyuta dilingi** deyiladi. Hozirgi kunda operatsiyalarning asosiy qismi bir bankdan boshqasiga pul o'tkazish, vakillik schetlari orqali amalga oshiriladi. Banklararo amaliyotda LARO (siz bizda) va NOSTRO (biz siznikida) schetlari mavjud.

3) Tijorat banklarining depozit–kredit deb nomlanuvchi, valyuta mablag'larini jalb qilish va joylashtirish bilan bog'liq operatsiyalari. Bu operatsiyalar–o'zaro kreditlash, o'ziga jalb qilingan mablag'larni joylashtirish, kreditlarni taqdim etish, rasmiylashtirish va monitoring bilan bog'liq banklararo operatsiyalardir.

4) tashqi savdo operatsiyalarida, xalqaro amaliyotda qabul qilingan turli shakldagi hisob-kitoblarda bank xizmat ko'rsatish;

5) Oltin va fond qurollari (mulkchilik titullari, obligatsiyalar, ikkilamchi moliyaviy qurollar (instrument) va h.k.) sotish yoki sotib olish maqsadida moliya bozorida amalga oshiriladigan operatsiyalar. Bu operatsiyalarning barchasi investitsiya maqsadlarida, shuningdek, chayqovchilik yoki xejerlash (sug'urta) maqsadlarida amalga oshiriladi. Banklar ushbu operatsiyalarni o'z nomidan yoki mijoz topshirig'iga ko'ra amalga oshiradilar;

6) Kredit (debit) kartochkalarining egalariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq operatsiyalar;

7) Bank xalqaro transfertlari (dividend, foiz, pensiya to'lovi, aliment, hadyalar, sayyohlarga xizmat ko'rsatish va h.k.) amalga oshirishdan iborat.

## 4. Hududiy iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish jarayonlari

Haqiqatdan ham, integratsiya jarayonlari juda qiyin kechishini jahon tajribasi ko'rsatib turibdi. Buning sababi, mavjud integratsion guruhlar doirasida mamlakatlarning o'zaro aloqalari zami-rida yotgan ichki ziddiyatlar va manfaatlarning turli xil darajada ekanligidir. Integratsiyalashning yagona qat'iy qonuniyati yo'q yoki u bilan mintaqaviy integratsiya oraliq'ida o'tish avtomatizmi ham mavjud emas. Bular XIMning muayyan tarixiy sharoitiga, alohida olingan mamlakatlar va ularning iqtisodiy va siyosiy manfa-atlariga bog'liq. Buni jahonda mavjud bo'lgan integratsiya model-larining turli-tumanligi ko'rsatib turibdi. Bu modellar mamlakatlar, mintaqalar hamda submintaqaviy iqtisodiy tizimlar, takror ishlab chiqarish mexanizmlari va rivojlanishning boshqa parametrlari differentsiallashtirishida katta farqlar borligini ko'rsatdi.

Integratsiya o'z mohiyatiga ko'ra, davlatning u yoki bu darajada XIM faoliyatiga aralashib, tartibga solish jarayoni hisoblanadi. Buning sababi muayyan integratsiya guruhlari doirasida bir-biriga moslashayotgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan o'rtalaridagi farq-ayirmalarning kattaligidir.

Bozor munosabatlari yaxshi rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy integratsiya xususiy korporatsion (mikroiqtisodiy) integratsiya jarayonlarini davlatlararo (makroiqtisodiy) jarayonlar bilan birga olib borishni ko'zda tutadi. Davlatlararo komplekslarda qo'shib olib borish turlicha bo'ladi. G'arbiy Evropa mamlakatlarida integratsiya siyosiy-huquqiy tarmoqlar, davlatlararo va davlatlar ustidan tartibga solishning institutsional tizimlari ta'sirida o'tadi. Osiyo Tinch okean mintaqasida integratsiya slliq ko'rinishda kechadi. Shimoliy Amerika integratsiyasi trans milliy korporatsiya ta'siri ostida vujudga kelgan, bir necha o'n yildan beri amaliy jihatdan rasmiylashmagan.

Davlatlararo iqtisodiy birlashmalarning vujudga kelishiga, xususiy korporatsion integratsiya (mikro darajadagi) ning o'sib, davlatlararo (makro) darajaga ko'tarilishiga ko'p jihatdan sof siyosiy xarakterdagi omillarning ta'sir etishi deb qarash kerak. Bunga misol qilib G'arbiy Evropadagi davlatlararo integratsiyaning rivojlanishini ko'rsatish mumkin. Bu urushdan keyingi yillarda mintaqada vujudga kelgan siyosiy vaziyatga bog'liq bo'lgan jarayondir.

**Rivojlanayotgan mamlakatlar mintaqasi uchun.** Bu mintaqada mamlakatlarining o'zaro iqtisodiy aloqalari darajasi past. Bu munosabatlarni intensivlashtirish (kuchaytirish, rivojlantirish) qilish uchun

maqsad sari yo'naltirilgan shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi. Bu, o'z navbatida, integratsion jarayonlarda davlat oldida keng qamrovli iqtisodiy vazifa turganligini ko'rsatadi. Bu hol haqiqiy integratsiyani rivojlantirishga kirishishdan oldin shunga o'xshash yuzaki integratsiyani amalga oshirish qonuniy ekan-ligidan dalolat berib turadi. Bulardan biri ma'lum bir iqtisodiy guruhlarni va ularning siyosiy-huquqiy institutlarini tashkil etish bilan xarakterlanadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda esa mintaqaviy institutlarni rasmiylashtirish yuz bergan va milliy xo'jaliklarni yaxshigina integratsiyalashgan makroiqtisodiy daraja-sida ham davom ettirilmogda. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda integratsion birlashmalarni tashkil etish va faoliyat ko'rsatishida siyosiy omillarning ham o'ziga yarasha o'rni bor. Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy birlashmalarni tashkil etishda, ko'pincha, siyosiy omillar to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli iqtisodiy poydevor yaratish maqsadida dastlab siyosiy ittifoq tuzishga harakat qilish kerak. Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy integratsiyalashning zarurati shundan kelib chiqadiki, integratsiya sharofati bilan iqtisodiy rivojlanishdagi, birinchi navbatda, sanoatdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoni tug'i-ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy integratsiyasi oldida quyidagi maqsadlar turishi kerak.

- iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish;
- xo'jaliklarning eng qulay (optimal) tuzilmasini yaratish;
- ilgarigi metropoliya (hukmronlik) ga tobelikni bo'shashtirish;
- xalqaro mehnat taqsimoti tizimidagi qaramlik vaziyatini o'zgartirish.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy integratsiyasi rivoji sur'atiga bir qator omillar salbiy ta'sir etadi:

- har bir mamlakat ichki iqtisodiy holatini belgilab beruvchi omillar; o'zaro munosabatlarning xususiyatlari (moddiy bazasining kuchsizligi; infratuzilmasining etarli darajada rivojlanmagan-ligi; bir xil tipdagi xo'jalik va tarmoq tuzilmasi (struktura)ga ega integratsiyalashayotgan mamlakat iqtisodini to'ldirib turish daraja-sining pastligi; mintaqaviy qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarning kamligi).

- Tashqi tartib-intizom omillari (sanoati rivojlangan mamlakatlarning tashqi savdo va eksport ishlab chiqarishi ustidan TMKlar nazoratining ustunligi)

- Siyosiy barqarorlik

**Evropa mintaqasi.** Bu mintaqada integratsiya jarayonlari juda yaqqol ko'zga tashlanadi va uning o'ziga xos shakli namoyon bo'ldi. Bu mintaqada uch xil integratsiya guruhi faoliyat ko'rsatmoqda.

- Evropa birlashmasi – 1951/1957-1993/1999 yillar (EOUS/EES-ES/ «Evrozona») 15 davlatni birlashtirish asosida tashkil etilgan. Buyuk Britaniya (1973 y), Finlyandiya (1995 yilda), Shvetsiya (1995 y), Daniya (1973 y), Belgiya (1951 y), Niderlandiya (1951 y), Lyuksemburg (1951), Frantsiya (1951 y), Germaniya (1951 y), Italiya (1951), Avstriya (1995 y), Ispaniya (1986 y), Portugaliya (1986 y), Gretsiya (1981 y), Irlandiya (1973 y).

- Evropa erkin savdo assotsiatsiyasi – EAST-1960 yilda tuzilgan bo'lib, unga 4 mamlakat a'zo hisoblanadi: Norvegiya, Islandiya, Lix-tenshteyn, Shveytsariya.

- Markaziy Evropa erkin bozor makoni (zonasi) – (CEFTA yoki TsEI)- 1992 yilda tashkil etilgan. Uning tarkibiga 7 ta davlat kira-di: Vengriya (1992 y), Polsha (1992 y), Slovakiya (1992 y), Chexiya (1992 y), Sloveniya (1996 y), Ruminiya, Bolgariya.

Integratsion jarayonlar rivojining barcha bosqichlari 1951 yilda Evropa ko'mir va po'lat sanoati birlashmasi tuzilgach (EOUS), rivojlanib Evropa birlashmasiga aylanishi misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. G'arbiy Evropa integratsiyasi bir me'yorda kechmadi, u nisbatan ziddiyatlarni boshidan kechirdi. Shunday bo'lsa ham, EIB (EES), tashkil etilayotgan paytda qo'yilgan maqsad va vazifalarni izchil va muvaffaqiyatli amalga oshirib bordi. 1994 yildan boshlab Maastrixt shartnomasi asosida EES Evropa birlashmasi, deb atala boshlandi. Bu birlashma doirasida yagona ichki bozorni tashkil etish amalga oshirilmoqda. Bundan buyon ham, integratsion hamkorlikni davom ettirish maqsadlari e'lon qilindi. Bunga ko'ra evroga yagona valyuta emissiyasi huquqini berish bilan yagona Evropa banki tashkil etish ko'zda tutilgan edi. Shunday qilindi ham, ichki chegaralarsiz yagona G'arbiy Evropa makonini yaratish ham rejada bor. Hozirgi vaqtda Evropa birlashmasi mahsulot ishlab chiqarish va iste'mol qilish bo'yicha jahondagi eng yirik markazlardan biri bo'lib qoldi. Dunyo bo'yicha eksportning 57% va importning 55%i uning ulushiga to'g'ri keladi. Bu mintaqaholisi dunyoholisi umumiy sonining 7%ini tashkil etadi. YaMMning jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori, xarid qilish qobiliyati paritet bilan hisoblab ko'rilganda o'rtacha 17,3 ming EKYuni tashkil etadi.

### Evropa ittifoqining kengayish bosqichlari

Yillar	Ishtirokchilar	Aholi, mln.kishi	YaIM; EI- 100	Jon boshiga YaIM2, EI-100
1973	EI-6, Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya (3)	193,5 64,3	100,0 25,2	100 95,5
1981	Ei-9, Gretsiya (1)	263 9,7	100 0,2 (2,4)	100 64,5
1986	EI-10, Ispaniya, Portugaliya	274,8 48,5	100,0 8,5 (11,5)	100 65,0
1995	EI-12, Avstriya, Finlyandiya, Shvetsiya (3)	300,7 22,0	100 7,5 (6,5)	100,0 104,2
2004-07	EI-15, MShE-10 <sup>3</sup> Kipr, Malta (2)	377,9 107,2	100,0 (10,8)	100 38

1. Evropada hisoblangan, qavs ichida-xarid qobiliyati pariteti bo'yicha;
2. Bolgariya, Vengriya, Latviya, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya, Estoniya;
3. Barcha ma'lumotlar EI va nomzod davlatlar bo'yicha 2000 yil uchun.

Birinchi kengayish 1973 yilda Evropa hamjamiyatiga Buyuk Britaniya, Daniya va Irlandiya kirishi hisobiga yuz berdi. Bu kengayish Evropa iqtisodiy hamjamiyatida bojxona ittifoqini yaratish tuga-gandan va iqtisodiy hamda valyuta ittifoqini qurish haqidagi Qa-ror qabul qilingandan keyin yuz berdi. Ikkinchi va uchinchi kengayish mazkur integratsiyaga kirgan Gretsiya, Ispaniya va Portugaliya davlat-larining hamjamiyatini rivojlanish dasturini amalga oshirishga unchalik sezilarli ta'sir etmasa—da, bu mamlakatlarning rivojla-nishini demokratlashtirish hamjamiyatini uchun zarur edi.

To'rtinchi kengayish eng tabiiy, chekli va muomalasiz bo'ldi. Bu mamlakatlarning rivojlanish darajasi EIga a'zo mamlakatlar da-rajasi bilan bir xil edi.

Beshinchi kengayish avvalgilardan ham miqdoriy, ham sifat ko'rsatkichlari bo'yicha farq qiladi. Chunki bu integratsiyaga bir yil-da 12 mamlakat qo'shildi hamda bu EI aholisi sonini 100 mln. kishi-dan ortiqroq bo'lishiga olib keldi. Bu mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi avvalgi a'zo mamlakatlar daraja-sidan ancha pastdir.



**EIning beshinchi kengayishi**

Davlatlar	Axolisi mln. kishi	YaIM, mlrd. evro (XQP bo'yicha)	YaIM, aholi jon boshiga	
			XQP bo'yiga	EI – 15ga nisbatan %da
Vengriya	10.2	138.2	13600	57
Kipr	0.8	12.5	17400	72
Latviya	2.4	19.8	8500	35
Litva	3.5	32.6	9400	39
Malta	0.4	4.1	11700	
Polsha	38.6	365.6	9500	39
Slovakiya	5.4	61.1	11400	47
Sloveniya	2.0	35.4	17700	74
Chexiya	10.3	147.3	14400	60
Estoniya	1.4	13.6	10000	42
Bolgariya	8.4	46.7	5900	25
Ruminiya	22.4	131.9	5900	25

**Amerika mintaqasi.** Janubiy Amerika mamlakatlarining mil-liy iqtisodiyoti rivojiga tarixiy va geografik nuqtai nazardan ko'z yuritiladigan bo'lsa, dengiz qirg'oqlari zonasidagi rivojlanish us-tun turadi. Mintaqaviy ichki savdo uncha rivojlanmagan bo'lib, met-ropoliyaning talab ehtiyojlari ta'siri ostida shakllangan. Buning ustiga mintaqqa iqtisodiyoti asosan bir xil tovarlarni ishlab chiqa-rish va eksport qilishga yo'naltirilgan. Shuning uchun bir mamla-katda yo'q mahsulotni ikkinchisi tomonidan to'ldirib turish yoki ta'minlash imkoniyatlari etarli emas. Mintaqada joylashgan har bir mamlakatda va mamlakatlar o'rtasida transport kommunikatsiya-lari yaxshi rivoj topmaganligi oqibati hamdir. Shart-sharoitning bu holati, shuningdek, tabiiy omillar (tog'li hududlarning ko'pligi, ekvator o'rmonzorlari, er reliefi joylardan o'tishni qiyinlash-tirib qo'yishi) mintaqaviy integratsion jarayonlar rivojiga jiddiy to'siq bo'lib turadi. Lotin Amerikasi mamlakatlari minta-qaviy integratsiya haqida o'zlarining kontseptsiyalarini ishlab chiqqan va ilgari surgan edi. Bu kontseptsiya Lotin Amerikasini dunyoning bosh-qa mintaqalari bilan bog'lashni ta'minlash asosini yaratadigan omil -aloqani rivojlantirishga qaratilgan edi. Shu maqsadda dast-labki integratsiyalash uslubini o'zgartirish vazifasi qo'yildi, bu usulga ko'ra mintaqaviy bozor doirasida dastavval importning o'rnini al-mashtirish kerak edi, integratsiyalashning bu yangi modeli Lotin Amerikasi mamlakatlari rivojiga to'g'ri kelmas edi. Aniq, ochiq-oydin ifodalab berilgan «ochiq mintaqaviylik» deb nomlangan kontseptsiya rivojlanish uchun yo'l ochib berdi. Bu integratsiya boj-xonaning eng past-kam soliq solishiga asoslangan bo'lib, jahon bo-zoriga chiqish uchun

ancha engillik tug'dirardi. Mintaqada integratsion aloqalarning o'sish jarayonini tezlashtirishga quyidagilar ta'sir ko'rsatadi:

- NAFTAning tashkil etilishi va «Alyaskadan to Olovli ergacha» bo'lgan geografik kenglikda erkin bozor makoni (zonasi) vujudga keltirishni ko'zda tutgan Dj. Bushning «Amerika uchun tashabbuslar» g'oyasi bo'ldi.

- Savdoda kuchayib borayotgan raqobat, Yangi texnologiyalarni qo'llash natijasida daromadlarning o'sib borishi va investitsiyalar yirik va ochiq bozorlarni tashkil etish lozimligini taqozo etib qoldi.

- O'tgan asrning 80–yillarida Lotin Amerikasi mamlakatlari tomonidan tutilgan yo'l-tashqi savdoni erkinlashtirish yo'li o'z vazifasini o'tab bo'lgan edi, endi uning o'rnini imtiyozli tarif, yagona tarif yoki iqtisodiyotning ayrim sektorlari uchun tarif cheklashlarini bekor qilish egalladi.

- Integratsiya mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqildi: 1960 yilda Lotin Amerikasi erkin savdo assotsiatsiyasiga a'zo mamlakatlarni (LAST) o'z ichiga olgan erkin savdo makoni-zonasini vujudga keltirish haqida «Montevideo shartnomasi» imzolangan edi. Ana shu shartnomadan kelib chiqib, LAES (LAST) ga a'zo barcha mamlakatlar, hatto ularning sheriklari uchun ham juda qulay sharoitni yaratib berish ko'zda tutilgan holda qat'iy tarif tizimi yaratildi. Bu rejimdan kuzatilgan maqsadga erishilmadi. LAES ga a'zo mamlakatlarning milliy iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Aksincha, bundan raqobatda bo'lgan uchinchi mamlakat iqtisodi foyda ko'rdi. 80-yillarda bu shartnoma qayta ko'rib chiqildi va Yangi shartlar bo'yicha savdo-sotiq kelishuvlarni bitta mamlakat bilan emas, bir nechta mamlakat bilan amalga oshirishga ruxsat berildi.

- Janubiy Amerika mamlakatlarida demokratik jarayonlarning keng avj olib ketganligi bilan bog'liq siyosiy o'zgarishlar

#### **Mintaqalarda faoliyat ko'rsatayotgan savdo tashkilotlari:**

Shimoliy Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi – NAFTA – 1994 y. o'z ichiga uchta davlatni oladi: AQSh, Kanada, Meksika.

- Lotin Amerika integratsiyalash assotsiatsiyasi – LAI – 1960 y. (Lotin Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi – LAET – 1980 y, o'z ichiga 11 ta davlatni oladi).

- And guruhi (And ahdnomasi) – 1969 y, o'z ichiga 5 ta mamlakatni oladi: Boliviya, Venesuela, Kolumbiya, Peru, Ekvador.

- Karib hamjamiyati va karib umumiy bozori (KARIKOM)- 1973 y. o'z ichiga 14 ta davlatni oladi.

- Markaziy Amerika umumiy bozori – beshta mamlakatni o'z ichi-ga oladi: Gvatemala, Gonduras, Kosta-Rika, Nikaragua, Salvador.

- Janubiy Konus mamlakatlari umumiy bozori (MERKASUR) – 1991 y, to'rtta mamlakatni o'z ichiga oladi: Argentina, Braziliya, Pa-ragvay, Urugvay, Osiyo, Tinch okean mintaqasi. Bu mintaqada dunyo xo'jaligi mamlakatlarining juda jadal rivojlanayotgan zonasiga kiradi. Mintaqa milliy iqtisodiyoti haqida gap ketganda rivojlanish sur'ati darajasi yuqoriligini, yuqori texnologiyali tarmoqlari rivojlanish darajasi ustunligini, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari yuqori sifatligi bilan raqobatbardoshligi ko'rsatib o'tish kerak bo'ladi. Bularning hammasi osiyoliklar nafaqat birdamlik an'alarini saqlab qolganliklari, balki bu an'analarni rivojlantirib borayotganliklarining, umum Osiyo qadriyatlarini qidirib topishga harakat qilayotganlarining natijasidir. Mintaqada o'zaro ichki ta'sirlarni, eng avvalo, savdo sohasida, to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritishda, firmalararo sherikchilikda ko'rish mumkin. Mintaqaviy integratsiya o'ziga xos xususiyatlariga ega. Mintaqaviy integratsiyaning uchta asosiy yo'nalishi ASEAN bazasi va doirasida ishlab chiqilgan.

Birinchi yo'nalish - bozor yo'nalishi, o'zaro savdo-sotiqda tariflarni bosqichma-bosqich pasaytirib borish orqali erkin savdo makoni-zonasini yaratishni ko'zda tutgan. Bu tabiiy resurslardan unumli foydalanishga olib keladi. Ichki tarmoqlararo savdoni erkinlash-tirish /liberalizatsiya/, alohida kategoriyali tovarlar uchun tariflarni bosqichma-bosqich pasaytirib borish yoki bekor qilishga asoslanib olib boriladi. Singapur ana shu kontseptsiyaga amal qildi.

Ikkinchi yo'nalish – Bu bozor institutsional yo'nalish bo'lib, bu mamlakatlararo tartibga solib turishning ba'zi bir shakllarini qo'llashni savdoni erkinlashtirish-liberalizatsiyalashni oralatib o'tkazish qo'shib olib borilishi bilan xarakterlanadi. Integra-tsiyalashni rivojlantirishning bu yo'li industriya-sanoatni maqsadga muvofiq tartibga solish tarafdorlari tomonidan taklif etilgan. Bu kontseptsiya mintaqada bo'yicha sanoat sohasida hamkorlik qilishga asoslangan bo'lib, ASEAN ga a'zo davlatlarning xalqaro darajadagi kelishib olgan rivojlanish rejalariga muvofiq hamkorlikda ishlab chiqilgan loyihalarni amalga oshirishni, bunda ma'muriy va siyosiy yo'l-yo'riqlar bilan qo'llab-quvvatlab turish ko'zda tutilgan. Bu kontseptsiya Indoneziyada ishlab chiqilgan.

Uchinchi yo'nalish – xo'jalik yuritishning kompleks sxemasi tan olmaydi, mintaqada miqyosidagi ayrim loyihalarni amalga oshirishni tavisya etadi. Bu yo'nalish doirasi sof sektorga alohida e'tibor qaratilgan, ko'p millatli yirik kompaniyalarni o'sishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib

berish ko'zda tutilgan. Bu – mintaqaviy inte-gratsiyani joriy etishda aniq va ravshan nazariy yondashuv rejasining yo'qligidan dalolat beradi.

Bu mintaqqa iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining yuqoriligi, bir tomondan, chet elning investitsion va innovatsion ta'siri ostida bo'lsa, ikkinchidan Osiyo mamlakatlarida xom ashyo va ishchi kuchlari-ning ko'pligida bo'ldi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beruvchi bu ekstensiv omillarni mumkin qadar tugatib qo'y-maslik uchun mamlakatlar rivojlanishning ichki intensiv omil-larini qidirib topishga harakat qilmoqdalar. Bu mintaqaviy inte-gratsiyalashni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

- Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi /ASEAN/- 1967 y, o'z ichiga 10 ta davlatni oladi.

- Osiyo – Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik forumi /ATES/- 1989 y, o'z ichiga 21 ta davlatni oladi.

**Afrika mintaqasi.** Bu mintaqqa mamlakatlari ko'p jihatlari-tabiiy iqlimi, tarixiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi bilan ajralib turadi. Bu mintaqqa davlatlari jahon xo'jaligidagi eng kam taraqqiy qilgan mamlakatlar qatorida turadi. Bu - mintaqqa doi-rasidagi integratsiya jarayonlariga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qol-madi. XX asrning 60-yillarida integratsiyalash boshlangan edi. Bu jarayon rivoji hali hamon mintaqada o'z manfaatlarini saqlab qoli-shi uchun harakat qilayotgan ilgari metropoliya (monopolist-hukm-ron doiralar) kuchining ta'sirini sezib turibdi. 1960 yildan keyin mintaqada keng qamrovli integratsiyani rivojlantirish maqsadida 40 dan ortiq xalqaro iqtisodiy va moliyaviy yo'nalishdagi tash-kilotlar tuzildi. Dastlabki bosqichda mintaqadagi asosiy daryolar (Senegal, Gambiya, Katera va boshqa)ning tabiiy resurslarini o'zlash-tirishga, shuningdek, alohida monokultura (o'rmonlari, kakao, sholi-guruch va boshqalari) ga qaratilgan edi. Integratsiya jarayon-larining rivojiga tovarlar oqimining bozorga kelib tushishidan tortib sotib bo'linishigacha nazorat qilib turuvchi TMK lar ham sal-biy ta'sir ko'rsatdi. XX asrning 80-yillarida MEOning ri-vojlaniishi TMK larning hamkorlik qilishdagi ba'zi bir yondashuvlarini tartibga keltirishga imkon berdi.

**Jahon ishlab chiqarishida etakchi ishlab chiqaruvchi  
mamlakatlarning ulushi %**

	1999	2000	2002		1999	2000	2002
Raqamli fotoapparatlar							
Yaponiya		64	52			22	33
Tayvan		18	21			18	21
Xitoy		6	11			17	21
Raqamli videopleyerlar (DVD – pleyerlar)						8	15
Xitoy	17	30	54		36	42	1
Malayziya	18	20	17		18	15	
Yaponiya	53	20	10		5	14	
Janubiy Koreya	3	11	9				
Uyali telefon apparatlari			28				
Xitoy	10	10	27	Video magnitofonlar			
Evropa	36	40	18	Xitoy			
Janubiy Koreya	13	13	12	Indoneziya			
Yaponiya	17	13		Malayziya			
Kompyuterlar (Noutbuk)				Yaponiya			
Tayvan	47	55	48	Konditsionerlar			
Yaponiya	26	24	20	Xitoy			
Xitoy	0,1	0,1	12	Yaponiya			
Janubiy Koreya	1	4	7	Janubiy Koreya			
Kompyuterlar desk-top							
Xitoy		21	30				
Shimoliy Amerika		31	25				
Tayvan		18	17				
Yaponiya		5	2				
Rangli televizorlar							
Xitoy	27	26	26				
Malayziya	10	9	10				
Janubiy Koreya	8	8	8				
Yaponiya	2	1	1				

Prognoz. Nixon Seydzay simbui 13.08.2002 bo'yicha

Bir qator Lomay konventsiyalari Evrobirlashmaga a'zo mamlakatlarning rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik qilish shartlarini «ishlab chiqish» imkonini berdi. Bu, o'z navbatida, Af-rika mintaqasida integratsion jarayonlarning kechishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

G'arbiy Afrika mamlakatlari iqtisodiy hamjamiyati /EKOVARs/ 1976 y, o'z ichiga 16 ta mamlakatni olgan.

Sharqiy va janubiy Afrika umumiy bozori /KOMESA/- 1994 y, o'z ichiga 20 ta davlatni olgan.

Markaziy Afrika bojxona va iqtisodiy birlashmasi /YuDEAK/ 1966 y, o'z ichiga 6 ta davlatni olgan.

Janubiy Afrika taraqqiyoti hamjamiyati /SALK/- 1992 y, o'z ichiga 11 ta davlatni olgan.



## 5. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi doirasidagi integratsiya

MDH 1991 yil 8–dekabr kuni Minsk shahrida Rossiya Federatsiyasi, Belorusiya va Ukraina ishtirokida bo'lib o'tgan yig'ilish-dagi kelishuvga muvofiq tashkil etilgan 1991 yil 21 dekabrda MDH tuzish haqidagi Kelishuv protokoliga muvofiq, hamdo'stlik tarkibi-ga 8 ta davlat – Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldaviya, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston davlatlari a'zo bo'lib kirdi, 1993 yil dekabr oyida Gruziya ham hamdo'stlikka qo'shildi. Birinchi bosqich 1992-1993 yillarda hamdo'stlikning tash-kiliy strukturasi shakllantirildi: davlatlarning bosh Kengashi, hukumatlarning bosh Kengashi, MDH ning parlamentlararo assam-bleyasi tuzildi. Tashqi ishlar Ministrlar Kengashi, MDH davlat-lari mudofaa ministrlar Kengashi, tashqi iqtisodiy idoralar rahbarlari Kengashi, neft va gaz hamda boshqa sohalar bo'yicha davlatlararo Kengash tashkil etildi.

1993 yilda Iqtisodiy ittifoq tuzish haqida shartnoma imzolandi. Shartnomada integratsiyaning uzoq muddatga mo'ljallangan maqsadlar o'z ifodasini topdi. Shartnomaga ko'ra tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchlarining umumiy bozorini tashkil etish bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilandi. MDH mamlakatlarining umumiy bozoriga bosqichma-bosqich o'tib borish yo'llari aniqlandi: erkin savdo makonizonasini yaratish, bojxona, to'lovlar va valyuta birligiga o'tish. Bu muammoni hal etish jamoa tashkiloti bo'lmish davlatlararo iqtisodiy komitetga topshirildi. Umuman olganda, MDH doirasidagi integratsiya amaliy ko'rinishda emas, faqat qog'ozdagina qayd etilgan. Vaholanki, bunday integratsiya lozimligini va uni rivojlantirish kerakligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. MDH tuzilishi hali hamon o'zining haqiqiy vakolatiga ega emas. Davlatlararo munosabatlar asosan ikkita yoki bir nechta mamlakatlar bi-langina intensiv rivojlanib bormoqda, vaholanki, bu jarayon barcha MDH doirasida ko'p qirrali bo'lishi kerak edi. Hozirgi vaqtda MDH doirasida yangi submintaqaviy integratsiya jarayon jo'shqinlik bilan rivojlanib bormoqda. MDH mamlakatlari transmilliy korporatsiya-lari tomonidan o'zlashtirilgan uchinchi mamlakatlar bilan alternativ xo'jalik aloqalariga kirishmoqdalar. Hamdo'stlik mamlakatlari makonida o'zaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi daraja-siga qarama-qarshi kuchga ega bo'lgan ikkita yo'nalish o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bular–integratsiyalash tarafdorlari bo'lgan kuchlar va integratsiyaga qarshi turgan kuchlar. Bu kuchlarning ikkinchisi ob'ektiv muammolar va qiyinchiliklar bilan bog'liq.

\* ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining, iqtisodiy struk-turasining har xilligi

\* davlatlar boshidan kechirayotgan ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz-ning doimiyligi

\* o'tkazilayotgan islohotlar yo'nalishlari, sur'atlaridagi katta farqlar

\* tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy yo'nalishlar bo'yicha munosabatlardagi farqlar

\* davlatlar va millatlararo ziddiyatlar tartibga solinmagan-ligi

\* sheriklarni texnologik manfaatdorlikdan bir-birlariga bo'l-gan qiziqtirish, yagona ilmiy-texnik makonning yo'qligi

\* infrotuzilmaning zaif rivojlanganligi

\* bojxona va transport tariflarida milliy tizimning bir-biridan farq qilishi

\* MDH davlatlararo tuzilishidagi mo'rtlik

1995 yilda Belarus, Rossiya va Qozog'iston Bojxona birlashmasi tuzish haqidagi Kelishuvga imzo chekdi. Bu kelishuv davlatlarning iqtisodiy ittifoqi sifatida yagona bojxona hududiga shakllan-tirishga asoslangan edi. 1996 yil mart oyida bu Ittifoqqa Qir-g'iziston, 1999 yil fevral oyida Tojikiston qo'shildi. Bojxona Ittifoqini rivojlantirish maqsadida 1999 yil fevral oyida ham-korlikning bosh yo'nalishini belgilab beruvchi Bojxona Ittifoqi haqidagi shartnoma va yagona iqtisodiy makon hamda boshqa bir qancha shartnomalar qabul qilindi:

\* erkin savdo makonini shakllantirish;

\* Bojxona Ittifoqining uchinchi mamlakat bilan o'zaro munosa-bati;

\* yagona bojxona hududini tashkil etish;

\* xizmatlar va umumiy xizmat va mehnat bozorini tashkil etish;

\* umumiy agrar bozorini tashkil etish;

\* yagona ilmiy-texnik va axborot makonini shakllantirish

Bojxona Ittifoqini shakllantirish ham yuqorida ko'rsatib o'tilgan integratsiya omillarini to'xtatib qo'yilishiga sabab bo'lgan bir qator qiyinchiliklar natijasida jilovlab qo'yildi. Eng jid-diy muammolardan biri bir vaqtning o'zida umumiy tashqi bojxona tarifini kiritmasdan va umumiy bojxona chegarasini aniqlamasdan oldin bojxona chegarasini to'xtatish edi. Bu Ittifoqqa a'zo mam-lakatlarning ichki bozorlarini izdan chiqarib yuborishi mumkin edi.

2000 yil oktyabr oyida Bojxona Ittifoqi qayta tashkil etilib, Evro-Osiyo iqtisodiy uyushmasi nomini oldi. Bundan maqsad beshta davlat hududida yagona iqtisodiy makonni shakllantirish edi. Uyushma oldida quyidagi vazifalar qo'yildi:

\* uyushmaga a'zo mamlakatlar iqtisodiyotini struktura jihati-dan isloh qilishni kelishib olish;

\* yagona transport strukturasi va yagona transport bozorini tashkil etish;

\* yagona bojxona tarifni yo'lga qo'yish;

\* milliy qonunlarni bir-biriga yaqinlashtirish-uyg'unlashtirish;

\* umumiy siyosiy yo'nalishni ishlab chiqish;

\* xalqaro tashkilotlarga munosabat.

Integratsion komitet markaziy tashkiloti hisoblanadi. Ta'sis hujjatlarida birinchi marta davlatlararo strukturalarni moliya-lashtirishda har bir mamlakat kvotalari va ovozlarni taqsimlash aniq belgilab berildi. Ana shu hujjatda ko'rsatilishicha, Rossiya 40%, Qozog'iston va Belarus 20% dan, Qirg'iziston va Tojikiston 10% dan oladi. Qaror uchdan ikki ovoz olish bilan qabul qilinadi. Uyushma hamma mamlakat uchun ochiq, uyushmaga qo'shilishni istaganlar bema'lol unga a'zo bo'lishi mumkin.

1994 yil 30 aprel kuni Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi «Yagona iqtisodiy makon tuzish haqida shartnoma»ni imzoladi. 1998 yil 30 mart kuni shartnomaga Tojikiston ham qo'shildi. Bu hududiy birlashma Markaziy Osiyo iqtisodiy uyushmasi nomini oldi. Yagona iqtisodiy makon yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsad:

\* kapital va ishchi kuchlarining erkin harakatlanishi uchun huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy zarur shart-sharoitlarni yaratib berish;

\* transport va kommunikatsiya sohalarini rivojlantirish bo'yicha kelishilgan holda siyosat yurgizish, antimonopol mexanizmni ishga solgan holda halol raqobatlashish uchun sharoit yaratib berish;

\* o'zaro savdo-sotiqni olib borishda ichki bozorni integratsiya-lash hisobiga vujudga keladigan erkin /shartlashilgan/ narxni qo'llash va o'zining bozorlarida tariflar /xizmatlar/ni bir tomonlama cheklashga yo'l qo'ymaslik;

\* xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan to'g'ridan to'g'ri iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni ta'minlash va ishlab chiqarish korporatsiyalarini mustahkamlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

\* qo'shma korxonalarini, muhim tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish birlashmalarini, tijorat tarmoqlari va moliyaviy kredit muassasalari hamda tashkilotlarini tashkil etishga yordam berish;

\* o'zaro kapital investitsiyasi, chet el investitsiyalari va kreditlarini jalb qilishni hamda investorlarning huquqlarini va manfaatlarini himoya

qiluvchi mexanizmni yaratib berish bilan investi-tsiya siyosatini muvofiqlashtirish;

\* bojxona solig'ini bekor qilish va izchil ravishda soliqlarni, yig'implarni va boshqa cheklashlarni bekor qilish;

\* bojxona rasm-rusmlarini soddalashtirish;

\* bojxona qonunchiligini uyg'unlashtirish;

\* tranzit erkinligi hamda tarif va notarif mexanizmlarini tartibga solishga rioya qilgan holda yuklarni va yo'lovchilarni ta-shish tariflarini bosqichma-bosqich yaqinlashtirish.

Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikis-ton Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi «Markaziy Osiyo ham-korligi» tashkilotini tuzish haqida kelishilgan Shartnoma 2002 yilning aprel oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qa-rori bilan ratifikatsiya qilindi.

1997 yil oktyabr oyida Strasburg shahrida Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon va Moldaviya Prezidentlarining uchrashuvi chog'ida maz-kur davlatlardan tarkib topgan davlatlararo birlashma tashkil etish ma'qullandi. 1999 yil aprel oyida O'zbekiston ana shu birlashmaga qo'shilishini rasmiy ravishda e'lon qilindi. Bu birlashma /GUAM/ nafaqat iqtisodiy masalalarni, balki, shu bilan birga a'zo mamlakatlarning siyosiy masalalarini ham xal etishga qaratilgan: etnik chiqishlarga, separatizmga, diniy ekstremizmga, terrorizmga qarshi kurash, yaratuvchanlik mehnat faoliyati, Evropa-Kavkaz-Osiyo transport yo'lagini rivojlantirish, Evropacha struktura integ-ratsiyasi hamda NATO bilan «tinchlik uchun hamkorlik» dasturi doirasida hamkorlik qilish. 2002 yilda O'zbekiston GUAM tarki-bidan chiqib ketdi. Bunday qaror qabul qilinishining sababi bor edi. Chunki bu tashkilot to'rt yillik faoliyati davomida unga a'zo mamlakatlarning o'zaro munosabatlarida kutilgan mexanizm rolini bajara olmadi, integratsiya darajasi samaradorligini ta'minlashga qurbi etmadi. Shuning uchun O'zbekiston GUAM da ishtirok etishdan hech qanday foyda yo'q degan xulosaga keldi. O'zbekiston do'stlik va ikki tomonlama o'zaro foydali munosabatlarni Ukraina, Ozar-bayjon, Gruziya va Moldaviya bilan o'rnatishga qaratdi.

2002 yil oktyabr oyida Kishinyov shahrida Mustaqil davlatlar hamdo'stligi a'zolari davlatlari boshliqlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvdagi suhbatlar chog'ida hamdo'stlik doirasidagi ishlar bilan bog'liq masalalar, MDH faoliyati, bundan keyingi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hamkorlikni kengaytirish muhokama qilindi. Shunday masala ham o'rta tashlandi: «MDH mamlakatlari o'rtasida turli sohalar bo'yicha

zamon talablariga mos keladigan hamkorlik qilish strukturasi vazifasini uddalay oladimi?»

O'zbekiston Prezidenti I.Karimov bu savol yuzasidan bergan intervyusida quyidagilarni aytdi: «Keyingi vaqtlarga MDH faoliya-ti ancha zaiflashib ketdi. Agar ahvol bundan buyon shu zaylda davom etadigan bo'lsa, shunday savol tug'ilishi tabiiy: kelgusida bu strukturadan nimani kutish mumkin? Shunday ulkan bir hududda hamdo'stlik davlatlararo iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy aloqalarni, ayniqsa, iqtisodiyot sohasida hamkorlik qilishni kengaytirish, chu-qur ildiz ottiruvchi birdan bir yagona tashkilot. Shuning uchun MDH faoliyati samaradorligini oshirishning barcha imkoniyatlaridan foydalanish kerak».

Haqiqatan, har qanday xalqaro tashkilotlarning zarurligini unga a'zo mamlakatlarning manfaatiga xizmat qilgan taqdirdagina bilinadi. Keyingi vaqtlarda MDH doirasidagi ishlar etarli dara-jada olib borilmayotganligi tez-tez ko'rsatib o'tila boshlandi:

Kishinyov shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvda quyidagi masalalarga e'tibor qaratildi:

- erkin savdo makoni yaratish;
- hamdo'stlik tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- jinoyatchilikka qarshi birgalikda kurash olib borish;
- giyohvandlik moddalari bilan noqonuniy savdo-sotiqqa qarshi birgalikda kurash olib borish;
- MDH doirasida yagona axborot olish makonini yaratish.

Erkin savdo makoni /zonasi/ni yaratish doirasida har bir davlat bir qator tadbirlarini o'tkazishi ko'zda tutiladi. Erkin iqtisodiy makonda iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirib turuvchi mexa-nizmini ishlab chiqish belgilangan. Bu vazifani bajarish maqsadida erkin savdo makonda raqobatbardosh mahsulotlarning bemaolol hara-katlanishini ta'minlash bo'yicha 2015 yilgacha bo'lgan dasturni ish-lab chiqish kerakligi uqdirildi. Bunda transport xarajatlarini qisqartirish, MDH mamlakatlari iqtisodiyotining ishlab chiqarish tarmoqlaridagi eskirgan texnikalarni yangilash ko'rsatib o'tildi.

Prezidentlar giyohvandlik, ruhiyatga ta'sir qiluvchi moddalar bilan noqonuniy savdo qilishga qarshi, kashandalikka qarshi kurash Kontsepsiyasini tasdiqladilar.

Sammitda ko'rilgan masalalar doirasi keng bo'ldi. Lekin ko'-rilgan masalalarning asosiy qismi davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan. Prezidentlar iqtisodiyot sohasidagi muhim



masalalarni muhokama qilib, ularni amalga oshirishning 2010 yilgacha bo'lgan rejasini ishlab chiqdilar. Bu hujjat hamdo'stlik hududida erkin savdo makoni tashkil etish, shuningdek, yonilg'i-energetika majmuasidagi, transport va boshqa sohalardagi hamkorlikni faollashtirishni ko'zda tutgan.

Sammitda MDH tashkilotlari faoliyati haqidagi, sog'liqni saqlash, insonparvarlik haqidagi masalalar muhokama qilindi.

MDH ning Yalta shahrida bo'lib o'tgan navbatdagi Sammiti shu-nisi bilan ahamiyatli bo'ldiki, bunda asosiy e'tibor iqtisodiy hamkorlik masalalariga qaratildi.

2000 yilda Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan «Shanxay beshligi» sammitida (bunga a'zo mamlakatlar Qozog'iston, Xitoy, Qirg'i-ziston, Rossiya va Tojikiston) birinchi marta O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov kuzatuvchi sifatida qatnashdi. Kuchlarni bir-lashtirish orqali hududiy xavfsizlikni ta'minlash nuqtai nazaridan kelib chiqib, O'zbekiston bu tashkilot tuzilishini qo'llab-quvvatladi. Natijada 2001 yil 15 iyun kuni sammitda Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston va O'zbekiston boshliqlari Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) tuzish haqidagi Deklaratsiyani, shuningdek, terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish haqidagi Konventsiyani imzoladilar. Shanxay hamkorlik tashkiloti (TIVK)-(SMID)ga a'zo davlatlar tashqi ishlar vazirlar Kengashi ning 4-5 sentyabr kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan navbatdan tash-qari majlisi ShHTning doimiy amal qiladigan (faoliyat ko'rsatadigan) tizimi (strukturasi)ning tashkil topishida muhim bosqich bo'ladi. O'zbekiston prezidenti I.A. Karimov ShHTga a'zo mamlakatlarning tashqi ishlar vazirlari bilan uchrashuv vaqtida TIVK (SMID) majlisi ahamiyatiga to'xtalib, ShHTni shakllantirish jarayonini tezlashtirishga qaratilgan kun tartibidagi masala juda muhimligini ta'kidlab o'tdi.

Shanxay hamkorlik tashkilotining faol rivojlanayotganligi bu tashkilotga a'zo davlatlarning qarashlari va tutgan yo'llari mush-tarakligidan dalolat berib turibdi. Bu tashkilot o'z faoliyatini nafaqat xavfsizlik muammolarini echishga qaratish bilan cheklanib qolayotgani yo'q, shu bilan birga savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnika sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishning ko'p qirrali masalalarini ham hal etishga qaratilgan. ShHTning yaqin kelajakdagi rejasida integratsiyani yanada jipslashtirish turibdi, iqtisodiyot sohasida ham ana shu yo'nalish belgilangan. Sentyabr oyining birinchi yarmida Bishkek shahrida «OLTILAR» ning yig'ilishi bo'lib o'tdi, bu yig'ilish tashqi iqtisodiy faoliyat muammolariga bag'ishlandi, bu yig'ilishda tegishli vazirliklar va



idoralarning boshliqlari qatnashdi. Sankt-Peterburgda esa ShHT ga a'zo davlatlarning trans-port vazirlari uchrashdi.

### **O'zbekistonning Evroosiyo iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bilan iqtisodiy integratsiyasi**

2006 yil 25 yanvarda O'zbekiston Respublikasining Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga qo'shildi. Mazkur hamjamiyatni ta'xis etish shartnomasiga qo'shilish to'g'risidagi bayonnoma hamda mazkur shartnomaga muvofiqlashtiruvchi o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish haqidagi bayonnomani hamjamiyat a'zolari imzoladilar. Shu tarzda O'zbekiston Respublikasi Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga qo'shilishining siyosiy qismi yakunlandi va endi O'zbekiston to'laqonli ravishda hamjamiyat faoliyatida ishtirok etishi mumkin.

Markaziy Osiyo hamkorlik tashkilotining navbatdan tashqari majlisida Markaziy Osiyo hamkorlik tashkilotining Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga qo'shilishi haqida qaror qilingan edi. 2005 yil 7 oktyabrda qabul qilingan ushbu qaror O'zbekiston Respublikasining Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minladi. Biroq O'zbekistonni Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyatida mavjud xalqaro huquqiy hujjatlar qo'shilishini to'liq yakunlash uchun yana bir yil yoki undan ko'proq vaqt talab etadi. Hozirda 80 dan ortiq bunday bitimlar bor. O'zbekiston Respublikasi Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyatining xalqaro shartnomalariga Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyati davlatlararo kengashining 2006 yil 25 yanvardagi 263-sonli qaroriga muvofiq tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq qo'shiladi.

Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, bu faoliyati ko'p tomonlama xususiyatga ega bo'lgan va a'zo mamlakatlarning o'zaro harakatini shartnoma va bitimlar bilan tartibga soluvchi tashkilotdir.

Bunday hujjatlar ichida iqtisodiy, savdo munosabatlarini tartibga soluvchi shartnomalar muhim o'rin egallaydi va hamjamiyat faoliyatining asosini tashkil etadi. Shunday hujjatlarga Bojxona ittifoqi va Yagona iqtisodiy hudud to'g'risidagi shartnomalar kiradi.

Bu hujjatlar Evroosiyo hamjamiyatiga kiruvchi talablar o'rta-sida o'zaro aloqalarini chuqurlashtirish, Yagona iqtisodiy hududni shakllantirish, buning uchun zarur normativ asosni yaratish.

EI, ASEAN, NAFTA va boshqa xalqaro hamjamiyatlar tajribasi Yagona hududiy bozorni yaratish a'zo mamlakatlar o'rtasidagi savdo iqtisodiy aloqalarni tez va barqaror o'sishini ta'minlashga qodir ekanligini ko'rsatmoqda.

Bojxona ittifoqi va Yagona iqtisodiy hudud to'g'risidagi shart-nomaga bizning mamlakatimiz qo'shilishi avvalo O'zbekistonni ham-jamiat a'zolari bilan savdo iqtisodiy munosabatlarini rivoj-lantirish, qulay investitsiya sharoitini yaratishda umumiy yondashuv-larni shakllantirish milliy huquqiy me'yor va andozalarni muvo-fiqlashtirishni ko'zda tutadi.

## Tayanch so'z va iboralar

1. Iqtisodiy integratsiya-yagona xo'jalik mexanizmini yaratishga qaratilgan ikki va undan ortiq mamlakatlar milliy xo'jaliklari-ning yaqinlashuvi va o'zaro birlashuvidir.

2. Fan-texnika revolyutsiyasi-iqtisodiy integratsiyaga ta'sir etuvchi muhim omil.

3 . Erkin savdo hududlari-iqtisodiy integratsiyani yaratish va rivojlantirishning birinchi bosqichi. Ta'riflar va boshqa chek-lashlar bekor qilinadi.

4 . Bojxona ittifoqi-savdo va mehnat hamda kapital harakatida yagona tariflarni o'rnatish bo'yicha ittifoq.

Iqtisodiy integratsiyaning bosqichi.

5. Iqtisodiy ittifoq-qatnashuvi mamlakatlarning o'z iqtisodiy siyosatlarini kelishilgan holda tuzgan ittifoqi iqtisodiy in-tegratsiyaning 3 bosqichi.

6. To'liq integratsiya-yagona iqtisodiy siyosat, umumiy valyuta va milliy xo'jaliklarni tartibga solish organlari bo'lgan integratsiya-dir.

7. Evropa Ittifoqi-G'arbiy Evropadagi 15 davlatning integ-ratsiyasi guruhi.

8. Erkin savdo Evropa assotsiatsiyasi-G'arbiy Evropadagi qator mamlakatlarning savdo iqtisodiy guruhi (Buyuk Britaniya, Irlan-diya, Lxtenshteyn, Shveytsariya).

9. NAFTA-Shimoliy Amerika mamlakatlari savdo iqtisodiy gu-ruhi. (AQSh, Kanada, Meksika).

10. MERKOSUR-Lotin Amerikasidagi davlatning savdo iqti-sodiy guruhi. (Argentina, Braziliya, Urugvay, Paragvay).

11. ASEAN-Janubiy-Sharqiy osiyo mamlakatlarining savdo iq-tisodiy guruhi.

12. Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) - Osiyo davlatlari-ning integratsion guruhi. (Pokiston, Eron, Afg'oniston, Turkiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Tojikiston, Turkmaniston).

## Nazorat savollari

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya (XII) tushunchasi va uning zaruriyatini nazariya qanday ifodalaydi?
2. Nima uchun XII yuqori darajada rivojlanmoqda?
3. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida XIIning o'rnini qanday?
4. Xalqaro munosabatlarning globallashuvining mohiyati va bu jarayonda XIIning o'rnini?
5. XIIning rivojlanish bosqichlarini aytib bering.
6. MDH davlatlarida integratsiya jarayonlarini asosiy yo'nalishlari va muammolari qanday?

## Iqtisod sohasi bo'yicha Nobel mukofoti laureatlari

Tabiiy fanlar bo'yicha Nobel mukofoti berish XX asr boshidan, aniqrog'i - 1901 yildan beri amalga oshiriladi. Faqat 1969 yildan boshlab, iqtisodiyot fani bo'yicha ham eng muhim tadqiqot mualliflariga shunday mukofot berishga qaror qilindi va hozirgacha bu davom etmoqda. Albatta, bu bejiz amalga oshirilmadi, balki iqtisodiy tadqiqotlar rolini rag'batlantirish hayotiy zaruratga aylangani uchun ham 1969 yildan buyon jahonni etakchi iqtisodchi olimlardan 56 nafardan ziyodi ushbu nufuzli mukofotga musharraf bo'ldi. Dunyodagi iqtisodiyot sohasida mehnat qilayotgan iqtisodchi olimlar bu mukofotga sazovor bo'lishni o'zlari uchun sharaf deb hisoblaydi. Chunki bu ishlar iqtisodiy taraqqiyotga muhim hissa qo'shadi.

**1969 y. Tinbergen Ya.** (Niderland), **Frish R.** (Norvegiya): iqtisodiy jarayonlar tahlilining dinamik modelini yaratganliklari va qo'llash bo'yicha tadqiqotlari uchun.

**1970 y. Samuelson P.** (AQSh): Iqtisod fanlari sohasida tahlilning umumiy darajasini yuksaltirish borasidagi ishlab chiqil-malari uchun.

**1971 y. Kuznets S.** (AQSh): Iqtisodiy o'sish muammolari borasidagi ilmiy tadqiqoti uchun.

**1972 y. Errou K.** (AQSh), **Xiks Dj.** (Buyuk Britaniya): Muvozanat umumiy nazariyasi va farovonlik nazariyasiga qo'shgan his-sasi uchun.

**1973 y. Leontev V.** (AQSh): "Xarajatlar - chiqarish" uslubini rivojlantirish va iqtisodiy masalalar taxlili amaliyotida qo'l-lagani uchun.

**1974 y. Xayek F.** (Buyuk Britaniya), **Myurdal G.** (Shvetsiya): Pullar va kon'yunkturaviy o'zgarishlar nazariyasi hamda iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jarayonlar o'zaro ta'siri-ning tahlili borasidagi ilmiy ishlari uchun.

**1975 y. Kantorovich L.** (SSSR), **Kupmans T.**; (AQSh) Resurs-larni optimal taksimlash nazariyasiga qo'shgan hissasi uchun.

**1976 y. Fridmen M.** (AQSh): Iste'mol tahlili, pul almashuvi tarixi va monetar nazariyasini ishlab chiqqani uchun.

**1977 y. Mid Dj.** (Buyuk Britaniya), **Olin B.** (Shvetsiya): Xalqaro Savdo va kapital xalqaro harakati nazariyasiga qo'shgan hissasi uchun.

**1978 y. Saymon G.** (AQSh); Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar doi-rasida qaror (echimlar) qabul qilish jarayoni borasidagi tadqiqot-lari uchun.

**1979 y. Lyuis A.** (Buyuk Britaniya), **Shults T.** (AQSh); Rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy muammolari borasidagi tadqiqotlari uchun.

**1980 y. Kleyn L.** (AQSh); Iqtisodiy modellarni yaratgani, va ular

asosida iqtisodiy tsikl (davr) va iqtisodiy siyosatning tahlili uchun.

**1981 y. Tobin Dj.** (AQSh); Moliya bozorlari va ularning xara-jatlar, ishsizlik, ishlab chiqarish, baho borasidagi echimlarga ta'-sirining tahlili uchun.

**1982 y. Stigler Dj.** (AQSh): Sanoatlashgan strukturalar va davlat boshqaruvi muammolarining tadqiqoti va bozorlarning tax-lili uchun.

**1983 y. Debre J.** (AQSh): Umumiy iqtisodiy muvozanat nazariya-si muammolarini ishlab chiqqani uchun.

**1984 y. Stoun R.** (Buyuk Britaniya); Milliy hisoblash tizimini ishlab chiqishga qo'shgan hissalar uchun.

**1985 y. Modilyani F.** (AQSh): Moliyaviy siyosat muammolari borasidagi tadqiqotlari, investorlar xatti-harakati va ularning qimmatbaho qog'ozlarga bo'lgan munosabatlarining tahlili uchun.

**1986 y. Byukenen Dj.** (AQSh): Siyosiy qarorlar (echimlar) qabul qilish nazariyasining shartnomaviy va konstitutsion asoslarini o'r-ganib chiqqani uchun.

**1987 y. Solou R.** (AQSh): Iqtisodiy o'sish muammolarini nazariy ishlab chiqqani uchun.

**1988 y. Alle M.** (Frantsiya): Iqtisodiy muvozanat nazariyasini chuqurroq ishlab chiqqani, iqtisodiy o'sish, investitsiyalar va foiz normalarining o'zaro ta'sirining tahlili uchun.

**1989 y. Xaavelmo T.** (Norvegiya): Ekonometrik tahlil nazariya-sining rivojiga qo'shgan hissasi uchun.

**1990 y. Markovich G., Miller M., Sharp U.** (AQSh): Hozirgi zamon moliya bozorlariga qo'shgan hissasi va uni iqtisodda qo'l-lagani uchun.

**1991 y. Kouz R.** (AQSh); Ijtimoiy xarajatlar va mulk huquqi muammolari borasidagi ilmiy tadqiqotlari uchun.

**1992 y. Bekker G.** (AQSh); Iqtisodiyot nuqtai nazaridan inson xatti-harakati va ijtimoiy munosabatlar muammolarining tah-lili uchun.

**1993 y. Nort D, Fogel R.** (AQSh); Iqtisodiyot tarixi sohasida yangi yo'nalish yaratgani (ushbu masalalar tahlilida iqtisodiy sta-tistikadan foydalangani) uchun.

**1994 y. Xarshani Dj., Nesh Dj., (AQSh), Zelten R. (GFR):** O'yinlar nazariyasini ishlab chiqishga qo'shgan hissasi va uni iqti-sodda qo'llagani uchun.

**1995 y. Lukas P.** (AQSh); Iqtisodiy siyosatni chukurrok tushu-nishga sabab bo'lgan ratsional tahlil gipotezasini ishlab chiqqani va amaliyotda qo'llagani uchun.



**1996 y. Vikri U. (AQSh), Mirrlis Dj. (Buyuk Britaniya):** Bir-biriga qarama-qarshi va to'liq bo'lmagan ma'lumotlar mavjudligi holatida stimullar (rag'batlantirish) nazariyasi borasidagi tadqiqotlari uchun.

**1997 y. Merton R., Sholz M. (AQSh):** Chiqarilayotgan qim-matbaho qog'ozlar bahosini belgilashning yangi uslubini ishlab chiqqani uchun.

**1998 y. Amartia Sen (Hindiston);** Rivojlanayotgan va eng kambag'al mamlakatlardagi iqtisodiy falokatlarining, xususan, ochlikning sabablarini o'rganishdagi tadqiqotlari uchun.

**1999 y. Mandell R. (AQSh);** Hozirgi davr, xalqaro makro-ekonomika rivojiga qo'shgan hissasi, pul va fiskal siyosatini, al-mashuv kursi siyosati, xalqaro savdo va kapital oqimlari masalalari bilan o'zaro bog'liq butun bir tizim sifatida qilgan tahlili uchun.

**2000 y. Xekmen Dj., Makfedden D. (AQSh);** Shaxsiy va oilaviy xulq-atvorning statistik tahlili nazariyasi va uslubiya-tini ishlab chiqqani, mikroekonometrika rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun.

**2002 y. Deniel Kaneman (AQSh va Isroil):** Psixologik tadqiqotlar natijasini iqtisodiyotga tatbiq qilgani uchun. **Vernon Smit (AQSh):** Alternativ bozor mexanizmiga taalluqli empirik tadqiqotlari uchun.

**2003 y. Robert F.Engl (AQSh) Nyu-York Universiteti: Klayv U.Dj.Grendjer (AQSh).** Kaliforniya universiteti: Iqtisodiy vaqt qatorlarining tahlil usullarini ishlab chiqqanlari uchun.

**2004 y. Finn Kidleng va Edvard Preskotg (Norvegiya va AQSh);** Makroiqtisodiy dinamika nazariyasiga qo'shgan hissalarini uchun.

**2005 y. Robert Omann, Tomas Shellinga (Isroil va AQSh);** O'yinlar nazariyasining tahlili orqali hamkorlik va kelishmov-chiliklar jarayonini tushunishga qo'shgan hissalarini uchun.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir -T. «O'zbekiston». 2005.
2. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun hammamiz mas'ulmiz. T. «O'zbekiston». 2001
3. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadlarimiz. T. «O'zbekiston». 2000
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. "O'zbe-kiston". 2000
5. Karimov I.A. «Erishilgan yutuqlarni mustaxkamlab, yangi mar-ralar sari izchil harakat qilishimiz lozim». 2005 y. yakunlari va 2006 y. vazifalariga bag'ishlangan Vazirlar mahkamasida so'zlagan nutqi. «Xalq so'zi» gazetasi. 11.02.06 y.
6. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot yo'li. Tom 11. T.: «O'zbekiston», 2003 y.
7. Karimov I.A. "Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islo-hotlar yo'lidan izchil borish - asosiy vazifamiz". Vazirlar Ma'l-kamasining 2004 yil 7-fevral majlisida so'zlagan nutqi. "Xalq so'zi" gazetasi, 10-fevral, 2004.
8. Avdokushin E.F «Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya» M. izd. dom. "Marketing". 2001 yil.
9. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya M. 2004g. Pod red.prof. Ribalkina V.E.
10. Vahobov A., Burxonov U., Jumaev N. Chet mamlakatlar investitsiyasi T., «Yangi asr avlodi». 2003y.
11. Vahobov A., Burxonov U., Jumaev N. Xalqaro moliya munosabatlari T., «Sharq». 2003 y.
12. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. M. ROSSPEN 2001. Pod red. pof. Liventseva N.N.
13. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. M. YuNITI 2000. Pod.red. prof. Jukova E.F.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari. 1995 yil 5-yanvardan 2000 yil 1-yanvarigacha. T.: «Adolat». 2000.
15. O'zbekiston yangi qonunlari. T. «Adolat». 2001.
16. Xamidov I.A. Alimov A.M. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. T. "Adabiyot jamg'armasi". 2001.
17. Xakimova M. Xo'jaev X. Maxmudov B. «Xalqaro iqtisodiy munosabatlar» T. «Mehnat». 1997

18. Sharifxo'jaev M. O'zbekiston: yangi g'oyalar, yangi yutuqlar. T. 2002.
19. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya Integratsiya M.YuNITI 1997 .
20. Koraleva I.S. Mirovaya ekonomika: Globalnie tendentsii za 100 let. M.: «Economist», 2003 g.
21. Abduraxmanov K.X., Dodobaev Yu.T., Axmedov O.M., Abduraxmanov O.K. «Mirovaya ekonomika» T.: «O'qituvchi» 2006g.
22. Krugman R., Obstfeld M. Mejdunarodnaya ekonomika - M.: «Piter», 2004 g.
23. Sharifxo'jaev M., Rahimov F. Davrni belgilab bergan inson T.: «Sharq» 2004g.
24. Antonov V.A. Mirovaya valyutnaya sistema i mejdunarodnie rascheti. –M., TEIS, 2000.
25. Dornbush R. Fisher S. «Makroekonomika» M. MGU.1997
26. Deniels Djon D. Mejdunarodniy biznes: vneshnyaya sreda i delovie operatsii. Per. s angl. 6-e izd. – M.: Delo, 1998.
27. Ershov M.V. Valyutno-finansovie mexanizmi v sovremennom mire (krizisniy opit kontsa 90-x).-M.: OAO NPO izd-vo Ekonomika, 2000.
28. Kostyunina G.M., Liventsev N.N. Mejdunarodnaya praktika regulirovaniya inostrannix investitsiy. Ucheb. posobie. M.: Ankil, 2001.
29. Kurochuina D.N. Evro: novaya valyuta dlya Starogo Sveta. Problemi stanovleniya prespektivi razvitiya Evropeyskogo ekonomicheskogo i valyutnogo soyuza.-Mn.: Evropeyskiy gumanitarniy universitet. 2000.
30. Kapitonenko V.V. Investitsii i xedjirovanie: Uchebno prakticheskie posobie dlya vuzov. –M.: PRIOR, 2001.
31. Lamagin N.A. i dr. Vvedenie v teoriyu Mejdunarodnix otnosheniy i analiz vneshney politiki: Uchebnoe posobie /2-e izd. Pere-rabotkoy dopolneniya. –M.: «Mir» T, 2001.
32. Mixaylov O.V. Osnovi mirovoy konkurentosposobnosti. M.: “Poznovatel'naya kniga plus”, 1999.
33. Mirovaya ekonomika. Ekonomika zarubejnih stran: uchebnik / Pod red. Prof. V.P Kolesova i dr. 2-e izd. –M.: Flinta: Moskovskiy psixologo-sotsialniy in-tut, 2001.
34. Miller L.R, Devid D. Van-Xuz. Sovremennye dengi i bankovskoe delo. Per. s angl.- M.: INFRA- M. 2000.
35. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Seriya uchebnikov. Uchebnoe posobie. /Pod red. Akovopoy E.S., Voronkovoy O.N., Gavrilko N.N-Rostov n/D. Feniks, 2001.
36. Praktikum po mejdunarodnoy ekonomicheskoy statistiki. M. izd. “Delo i servis” 2000.

37. Spravochnik nalogovogo inspektora: Sbornik normativnix dokumentov po kontrolyu za valyutnimi i eksportno-importnimi operatsiyami. Sost. V.Yu Galkin i dr.- T., Mir ekonomiki i pravo, 2000
38. Tuxliev N., Taksanov A. Ekonomika bolshogo turizma.-T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi , 2001.
39. Teor T.R. Mirovaya ekonomika SP–b.: «Piter», 2001
40. Uzbekistan v mirovoy ekonomike. T. “Fan” 2001.
41. Uzbekistan: obshchaya otsenka strani. OON 2001
42. Gerchikova I.N. Mejdunarodnie ekonomicheskie organizatsii. M.: «Konsaltbankir» 2002.
43. World development Indicators 2001 .
44. Overcoming Human poverty. Poverty Report 2000.
45. The world Bank Annual Report 1999.
46. Of the UN Resident Co-ordinator in Uzbekistan.
47. B.A.Islamov. “The Central Asian States Ten Years After: How to Avoid Traps of Development, Transformations and Globalisations?” (Maruzen Co. Ltd. Tokyo., Japan, 2001).
48. Multimedia ilovalari:
- masofaviy o'qitish soatlari: WWW. google.ru.(Budapesht, Evropa Markaziy universiteti dasturlari); WWW Yandex. ru.; WWW rumbler. ru.; WWW worldbank. org. ru. WWW imf. org.
  - kompakt disk: Sales information. International Monetary Fund – Publication Services; Exchange Rate Analysis with a Case Study on Poland.